



Bl.
12 34

Methoden des fremdsprachlichen Deutschunterrichts

Eine Einführung

Gerhard Neuner und Hans Hunfeld



CHET TIL O'QITISH METODLARI

Fernstudienangebot

Germanistik
Deutsch
als
Fremdsprache

Langenscheidt

L

Gerhard Neuner, Hans Hunfeld
CHET TIL O'QITISH METODLARI

Boshlang'ich kurs
(O'quv qo'llanma)

Germanistika va nemis tilini chet til sifatida mustaqil tarzda hamda malaka oshirish niyatida o'rganuvchilar uchun uslubiy qo'llanma

Nemis tilini chet til sifatida o'rganish sahosi

Kassel. Myunxen. Tyubingen:
«Langenshaydt» nashriyoti

Berlin. Myunxen. Vena. Tsyurix. N'yu York
Nemis tilidan tarjima

Tarjimon: Saidumar SAIDALIYEV

Mas'ul muharrirlar: Farid GABDULXAKOV,
O'ktamali NURMATOV.

Taqrizchilar:

Narzullo ULUG`XO`JAYEV- NamDU uslubiy bo'lim boshlig'i,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

O'ktamali NURMATOV- NamDU nemis va fransuz tillari
kafedrası mudiri, filologiya fanlari
nomzodi, dotsent.

**Muxtorxo'ja UMAR-
XO`JAYEV-** A. Cho'lpon nomidagi Andijon
Davlat tillar pedagogika instituti
leksikologiya kafedrası mudiri,
filologiya fanlari doktori, professor.

**Qambarali NAZAROV -
Turobiddin NURMATOV-** A. Cho'lpon nomidagi ADTPI dotsenti.
A. Cho'lpon nomidagi ADTPI nemis tili
fonetikasi kafedrası mudiri, filologiya
fanlari nomzodi, dotsent.

Yulduz ERGASHEVA - Namangan viloyat pedagoglarni
qayta tayyorlash va malakasini oshirish
instituti chet tillar kafedrası katta
o'qituvchisi.

Namangan – 2005



Qo'llanma loyahasini nashrga tayyorlovchilar: Tyubingen Universiteti qoshidagi nemis sirtqi ta'lim instituti, Kassel oliy o'quv yurti va Gyote-instituti.

Nashr ishlari bosh rahbari: Professor, doktor Gerhard Neuner

Ushbu qo'llanmani nashrga tayyorlovchi: Doktor Svonte Elers, Moskva Gyote-instituti.

Fridrix V. Blok, doktor Britta Xufayzen, Kassel oliy o'quv yurti hamkorligida.

«Nemis tili chet til sifatida va Germanistika» qo'llanmalari loyihasi ustida Tyubingen universiteti qoshidagi Nemis sirtqi ta'lim instituti (DIFF), Kassel oliy o'quv yurti (GhK) va Gyote-instituti (GI) hamda Germaniya Akademik Ayirboshlash Xizmati (DAAD) va Chet el maktab tizimi markaziy idorasi (ZfA) hamkorlikda ishladilar.

Loyiha Germaniya Ta'lim va fan vazirligi (BMBW) va Tashqi ishlar idorasi (AA) tomonidan tasdiqlangan.

- ❖ Ushbu belgi qo'yilgan so'zlarning ma'nosi Glossariyda (lug'atda) izohlab berilgan.
- ❖ Nashr yili: 5, 4, 3, 97 – oxirgi raqamlar amal qiladi.
- ❖ @ 1993 Kassel oliy o'quv yurti (GhK).
- ❖ Kitob va uning qismlari qonuniy muhofaza qilinadi. Kitobdan qonun doirasida foydalanish nashriyatning yozma roziligiga muvofiq amalga oshiriladi.
- ❖ Nemischa asl nusxa Berlinda «Langenshayd» nashriyoti tomonidan chop etilgan: ISBN 3-468-49676-1

SO'Z BOSHI

Insoniyat jamiyati paydo bo'lgandan beri minglab yillar o'tgan bo'lsa-da, uning biz uchun oydin bo'lgan tarixi nisbatan juda oz vaqtini tashkil qiladi. Xuddi shuningdek, kishilar uzoq-uzoq vaqtlardan beri til o'rganish bilan shug'ullanib kelgan bo'lsalarda, til o'rganish va o'rgatish jarayonini boshqarishga intila boshlaganlariga hali ko'p vaqt bo'lgani yo'q.

Til o'rgatish metodikasi fani yosh fanlardan biri hisoblanadi. Lekin shu qisqa davr ichida (tahminan 200 yil atrofida) fanda to'rtinchi izlanishlar olib borildi. Uslublar, tamoyillar, o'qitish vositalari kashf etildi, til ta'limining mazmuni shakllandi. Bu izlanishlar til o'rganish va o'rgatish jarayonining naqadar muhim, murakkab hamda mashaqqatli ekanligidan dalolat beradi.

Metodika fani hali o'z oldida turgan muammolarni to'la yechib ulgurmaganligini, kelajakda, albatta, yangi metodlar vujudga kelishi muqarrar ekanligini e'tirof etgan holda, metodikaning shu kungacha bo'lgan rivojlanishini aks ettirgan ilmiy izlanishlarning tanqisligini alohida ta'kidlash lozim.

Hurmatli kitobxon! Qo'lingizdagi ushbu qo'llanma metodika fanining faqat bir mamlakat doirasida emas, balki butun kishilik jamiyatida bosib o'tgan yo'lini tasvirlab beruvchi noyob nashrdir. Shu nuqtai nazardan Gerhard Neuner va Hans Hunfeldlarning ushbu «Chet til o'qitish metodlari» asarini mutaxassislar katta qiziqish bilan qabul qiladilar, degan umiddamiz.

Qo'llanmada turli davrlarda foydalanilgan metodlarning tavsifigina berib borilmasdan, ularning asosiy yutuq va kamchiliklari ham tahlil qilingan, metodlarning kelib chiqish sabablari keltirilgan. Metodlar pirovard natija – til o'rganuvchilar

tomonidan yig'ilgan bilim, kommunikativ ko'nikma va malakalar hajmi va sifati nuqtai nazaridan ham ta'riflanganligi diqqatga sazovordir.

Ushbu qo'llanmaning o'zbek tiliga tarjima qilinishi alohida ahamiyatga ega. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi amalga oshirilayotgan, xorijiy tillarni o'rgatish va o'rganish masalalariga alohida e'tibor qaratilayotgan bir paytda mamlakatimiz uchun shunday qo'llanmalar o'ta zarur.

Til o'rgatish mutaxassislari qo'llanmada berilgan bilimlardan unumli foydalanib, o'z pedagogik mahoratlarini yanada yuqoriroq darajalarga ko'tarish imkoniga egadirlar. Bu esa til o'rganish va o'rgatish jarayonida ijobiy o'zgarishlarga olib kelishi muqarrar.

Fursatdan foydalanib, qo'llanma mualliflari Gerhard Neuner va Hans Hunfeldlarning metodika fani bosib o'tgan yo'lni batafsil yoritishdagi ulkan mehnatlarini e'tirof etishni aytishni hamda ushbu qo'llanmani mahorat bilan o'zbek tiliga o'girgan NamDU dotsenti Saidumar Saidaliyevga chuqur minnatdorchilik izhor etishni lozim topdik.

Mas'ul muharrirlar: NamDU dotsentlari,
fakultetlararo xorijiy tillar kafedrasì mudiri
Farid G'abdulxakov va nemis va fransuz
tillari kafedrasì mudiri **O'ktamali Nurmatov**

- 1. Kirish**
- 1.1. Nemis tilini qanday o'rganganingizni eslaysizmi?
- 1.2. Nima sababdan chet til o'rganishning turli metodlari mavjud va yangi metodlar paydo bo'laveradi?
 - 1.2.1. Dalillar modeli
 - 1.2.2. Ijtimoiy sohada
 - 1.2.3. Umumpedagogik sohada
 - 1.2.4. Kasbiy sohada: Predmetga aloqador fanlar
 - 1.2.5. Amaliyotda
- 1.3. Tushunchalarni aniqlash qiyinchiliklari
Chet til o'qitish metodikasi nima?
- 1.4. Darsliklar ta'lim metodlari asosida yoritiladi.
Darsliklardan muayyan metodlarning xususiyatlarini yaxshi bilib olish mumkin.

3. Grammatika-tarjima metodi (GTM) 22

- 2.1. Kirish (metod haqida ikki og'iz so'z)
- 2.2. GTM asosida yozilgan darslik tahlili
- 2.3. Dars bosqichlari
- 2.4. Grammatikaning taqdimoti
- 2.5. Mashqlar
 - 2.5.1. Grammatikaga oid mashqlar
 - 2.5.2. Nemis tiliga tarjima qilish uchun mo'ljallangan ona tilidagi matnlar (Bevosita tarjima)
 - 2.5.3. Erkin insho
 - 2.5.4. Tarjima (teskari tarjima) va o'qib tushunish mashqlari uchun mo'ljallangan nemis prozasidan olingan parchalar
 - 2.5.5. Mazmuni hikoya qilib berish
 - 2.5.6. «Yozma ravishda davom ettirish» uchun mashqlar
 - 2.5.7. Diktant
- 2.6. O'quv materiali taqsimoti
- 2.7. Darsning borishi
- 2.8. Xulosa: GTM asoslari, maqsad va metodik prinsiplari
 - 2.8.1. Pedagogik asoslari
 - 2.8.2. Lingvistik asoslari
 - 2.8.3. Adabiyot, Mamlakatshunoslik
 - 2.8.4. Ta'limning nazariy asoslari
 - 2.8.5. Tushunchalar izohi va maqsadi
 - 2.8.6. GTM asosidagi dars prinsiplari
- 2.9. Grammatika-tarjima metodini tanqid

3. Bevosita metodlar (BM)

Audiolingval metod (ALM) debochasi	44
3.1. Kirish	
3.2. Isloh harakatining tarixiy rivojlanishi	
3.3. Bevosita metodlarning maqsadi	
3.4. Bevosita metodlar asosidagi dars usullari va mazmuni	
3.4.1. Bevosita metod tavsifi	
3.4.2. Bevosita metodga asoslangan dars tuzilishi	
3.4.3. Darslikdan bir dars	
3.5. Bevosita metod asoslari	
3.5.1. Pedagogik asoslari	
3.5.2. Lingvistik asoslari	
3.5.3. Adabiyot; Mamlakatshunoslik	
3.5.4. Ta'lim nazariyasi	
3.5.5. Bevosita metodga asoslangan dars prinsiplari	
4. Audiolingval (ALM) va audiovizual (AVM) metodlar	60
4.1. Audiolingval metod (ALM)	
4.1.1 Kirish	
4.1.2. ALM metodning darsliklardagi asosiy belgilari	
a) Kirish teksti	
b) Grammatika bayoni	
v) Mashqlar	
g) Dars tuzilishi	
d) O'quv materiali taqsimoti	
4.1.3. ALMning texnologik yordamchi vositalari	
a) til laboratoriyasi	
b) vizual yordamchi vositalar	
4.1.4. ALM asoslari	
a) Lingvistik asoslari: Amerika Strukturalizmi ta'siri	
b) Ta'limiy psixologik nazariyalar ta'siri	
v) Adabiyot; Matn tilshunosligi	
g) Mamlakatshunoslik	
d) ALM asosidagi dars prinsiplari	
4.2. Audiovizual metod (AVM)	81
4.2.1. Kirish	
4.2.2. Metodning tarixiy asosi va tushunchalarini oydinlashtirish	
4.2.3. AVMGa asoslangan dars texnikasi	
4.2.4. Audiovizual metodni tanqid	
4.2.5. AVM va so'nggi konsepsiyalar	
5. Bilvosita metodlar (VM): GTM va ALMlarni bir-biri bilan bog'lashga urinish	89
5.1. Dars jarayonida metodlarni qorishtirish	

5.2. 50-yillardan bir misol: Bilvosita metodlar	
5.2.1. Bilvosita metod qanday rivojlandi?	
5.2.2. Boshlang'ich ma'n	
5.2.3. Grammatik material bayoniga doir	
5.2.4. Mashqlar	
5.2.5. Dars qurilishi	
5.2.6. O'quv materiallari taqsimoti	
6. Kommunikativ didaktikaning (KD) rivojlanishi	105
6.1. 70-yillar boshidagi holat	
6.2. Kommunikativ metodning bosh yo'nalishi	
6.3. Chet til ta'limining pragmatikaga yo'nalganligi	
6.4. Chet til ta'limining pedagogikaga yo'nalganligi	
6.5. Pragmatik-funksional konsepsiya	
6.6. Pragmatik-funksional konsepsiyada integratsiyalash	
6.7. Pragmatik-funksional konsepsiyaning xususiyatlari	
6.8. Pragmatik-funksional didaktikaning ochiq metod konsepsiyasi: Ta'lim prinsiplari	
7. Madaniyatlararo chet til ta'limi	134
80-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab pragmatik-funksional konsepsiyaning loyiha tarzida hududiy o'ziga xos ravishda nemis tilini chet til sifatida o'rgatish metodikasining rivojlanishi	
7.1. Kirish	
7.2. Misol tarzida: Tailand maktabida nemis tili ta'limi	
7.3. Guruhlarga mos mavzu va ta'lim mazmunini tanlash	
7.3.1. O'quvchilarning qiziqishi	
7.3.2. Universal hayotiy tajriba chet til darsidagi madaniyatlararo mavzularni rivojlantirish borasida «ko'prik» sifatida	
7.3.3. Didaktik-metodik konsepsiya uchun xulosalar	
7.3.4. Mavzular taqsimoti	
7.4. Xulosa: Kommunikativ didaktika: pragmatik-funksional va madaniyatlararo chet til ta'limi konsepsiyasi	
8. Yakunlovchi xulosalar	164
9. Reader - Mutoala uchun ilova	167
10. Glossariy	193
11. Topshiriqlar javobi	200
12. Adabiyotlar	228
13. Mualliflar haqida ma'lumot	233
14. Sirtqi ta'lim uchun qo'llanmalar loyihasi: DIFF-ChK- GI	235

KIRISH

Biz «Nemis tilini chet til sifatida o'rgatish metodlari» nomli qo'llanmani quyidagi qismlarga bo'ldik:

1. «Metodlar» mavzui uchun muhim bo'lgan asosiy masalalar
 2. Grammatika-tarjima metodlari (GTM)
 3. Bevosita metodlar (BM)
 4. Audiolingval (ALM) va audiovizual (AVM) metodlar
 5. Bilvosita metodlar (Bil.M)
 6. Kommunikativ didaktika va metodika konsepsiyasi (KD)
 7. Nemis tilini chet til sifatida o'rgatishning madaniyatlararo metodi
- Ilovada quyidagilar berildi:
- ❖ O'qish uchun matnlar
 - ❖ Qo'llanmada ishlatilgan muhim tushunchalarning izohli lug'ati
 - ❖ Qo'llanmada berilgan topshiriqlarning javoblari
 - ❖ Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Metodlarni tanlash

Ushbu qo'llanmada maktab chet til ta'limida muhim ta'siri bo'lgan metodik konsepsiyalar haqida fikr yuritamiz. Keyingi 10-15 yil davomida vujudga kelgan metodlar tahliliga kirishmaymiz. Albatta metod turlari va sonining biz tahlil qilganimizga nisbatan bir muncha ko'pligi o'z-o'zidan tushunarli.

Biz sizni chet til o'qitish didaktikasi va metodikasi sohasida muayyan tayanch bilimga ega deb hisoblagan holda metodlar mavzusidan boshlang'ich ma'lumotlarni berishga harakat qilamiz.

Mo'ljal - kelajak

Ta'lim metodlarini tavsiflash jarayonida darsni rejalashtirish va tashkil etish borasidagi ko'rsatma va takliflar hisobga olindi. Ular kelajakda o'qituvchilar uchun yoki nemis tilini chet til sifatida o'qitish uchun mo'ljallangan darslik yaratishda qanday yo'l tutish kerakligini aniqlashda diqqat markazida turdi. Xullas, biz chet til ta'limi kelajagini mo'ljalga olgan holda ish ko'rdik.

O'quvchilar tilni belgilab qo'yilgan metod asosida o'qib o'rganadilar deb bo'lmaydi. O'quvchilarning chet tillarni qanday o'rganishlari haqida to'liq tasavvurga ega emasmiz, chunki biz ularning miyasida sodir bo'layotgan jarayonlarni aniq ko'ra olmaymiz.

Har bir shaxs - o'zga dunyo

Ammo biz bilamizki, har bir shaxs chet tilni o'ziga xos tarzda o'rganadi. Bu borada quyidagi dalillar muhim rol o'ynaydi, masalan,

- ◆ O'rganuvchining yoshi
- ◆ Predmetga qiziqishi (motivatsiya)
- ◆ O'quv materialining tuzilishi
- ◆ Shart-sharoit
- ◆ Ilmiy poydevor
- ◆ Turli madaniyatlarning ta'limiy an'analari

(Bu haqida «Ikkinchi til va chet tillarni o'rganish nazariyalari» nomli qo'llanmadan ko'proq ma'lumot olish mumkin).

1.1. Eslangchi, o'zingiz nemis tilini qanday qilib o'rgangansiz?

Siz nemis tili o'qituvchisiz yoki o'qituvchi bo'lmoqchisiz. Nemis tilini o'rganishni boshlagan yillaringiz haqida nimalarni eslay olasiz?

1-topshiriq

Quyidagi savollarga tayanch so'zlar asosida javob yozing:

- Siz nemis tilini o'rganishni boshlagan ilk darslikni eslay olasizmi?

Nimalar xotirangizda qolgan?

- ❖ rasmlar
- ❖ grammatikaning bayoni
- ❖ ayrim matnlar
- ❖ so'z boyligi
- ❖ mashqlar

- Albatta, siz nemis tili o'qituvchingizni eslay olasiz. O'sha paytda uning qanday kasbiy xususiyati sizda yaxshi taassurot qoldirgan yoki halaqit bergan?

- ❖ Nemis tilini yaxshi bilar edimi?
- ❖ O'quv materialini yaxshi tushuntirar edimi?
- ❖ Sizni nemis tili va madaniyatiga qiziqtirganini anglab yetganmisiz?

- Nemis tili darsida ayniqsa nimalarga e'tibor qaratilar edi?

- ❖ Gapirish
- ❖ Yazish
- ❖ O'qish
- ❖ Tinglash
- ❖ Tarjima qilish
- ❖ Grammatik bilim berish
- ❖ So'z boyligini orttirish
- ❖ Yaxshi talaffuz qilish

- ❖ Xatosiz husnixat yozish
- ❖ Nemis tilida gaplashiladigan mamlakat haqida bilim berish
- ❖ Badiiy adabiyotdan olingan matnlar ustida ishlash
- Nemis tili sizga qanday tushuntirilar edi?
- ❖ Asosan ona tilida
- ❖ Ko'pincha ona tili bilan qiyoslangan holda
- ❖ Asosan nemis tilida
- Bugungi kunda siz o'sha darslarni qanday baholaysiz?
- Siz dars berganingizda nimani xuddi o'qituvchingizdek va nimani butunlay boshqacha qilaysiz?

1.2.


O'ylang-chi

- Sizning fikringizcha, nimalar chet til o'qitish metodlarining o'zgarishiga olib keladi?
- Umuman, nima sababdan o'qitish metodlari o'zgaradi?

1.2.1. Dalillar modeli

2-topshiriq

Biz quyida o'qitish metodlariga ta'sir qiluvchi bir qator dalillarni keltirdik. Ularning qaysilari, sizning fikringizcha, ayniqsa muhim hisoblanadi?



Izoh:

a) Yuqorida sanab o'tilgan dalillar nemis tilini chet til sifatida o'rganish didaktikasi va metodikasi tarmog'ining asosiy birlashtiruvchi nuqtalari hisoblanadi. Ular bir-biri bilan ma'lum ma'noda uzviy bog'liq va bir-biriga o'zaro ta'sir qiladi.

Agar ayrim olingan dalillar butunlay o'zgarsa, u holda didaktik-metodik tarmoq qaytadan bog'lanishi lozim, natijada yangi metodlar vujudga keladi.

Tarixiy misollar

Chet til o'qitish tarixida ko'plab ayrim olingan bir dalilni bo'rtirib ko'rsatuvchi ta'lim metodlarini shakllantirish haqidagi takliflarning mavjudligini ta'kidlash lozim, jumladan:

- ❖ Ma'lum lingvistik maktab yoki ta'lim nazariyasini bo'rttirib ko'rsatish
- ❖ Ma'lum madaniyat hududi yoki o'quv guruhiga xos bo'lgan ta'lim usuli (masalan, Yevropa qo'shni davlatlari uchun) sifatida shakllangan, umumiy foydalanish mumkin deb tavsiya etilgan va tarqatilgan ta'lim usuli
- ❖ Ta'limning ma'lum maqsadi (masalan, grammatik bilimlarni egallash; kundalik muloqot uchun dialog namunalarini yod olish va boshqalar) doimiy deb hisoblangan

b) Shuni e'tiborga olish lozimki, yuqorida aytib o'tilgan dalillar shunchaki o'zaro bog'liq bo'lmay, balki bir-birini taqozo etadi. Ularning bog'liqligi umumiy aloqadorlik bilan belgilanadi. Biz buni quyidagi chizma asosida oydinlashtirishga harakat qilamiz.

MODEL**Ijtimoiy soha**

Ijtimoiy va madaniy dalillar

MASALAN, ma'lum chet tilni afzal deb bilish: o'z madaniy odatiga asoslangan ta'limiy an'ana

Umum pedagogik soha

Maktab ta'limining ma'muriy dalillari

MAS., Fanning fanlar o'rtasidagi o'rni nem.tili 1-G'2-G'3-chet til) yillik vaqt hajmi: ta'lim-tarbiya uchun umumiy tushunchalar: o'qituvchining roli: ta'lim nazariyalari haqida umumiy ma'lumot

Predmet sohasi

- Nemis tili predmeti;
- Predmet didaktikasi;
- Ta'lim maqsadini belgilash;
- O'quv materialini tanlash va bosqichma-bosqich taqsimlash;
- O'quv materialini tayyorlash

Predmetning ilmiylik holati:

- Tilshunoslik
- Mamlakatshunoslik
- Adabiyot va matnshunoslik

Til, xotira, yosh psixologiyasining chet tillarni o'rganish masalalariga aloqadorligiga doir xulosalar

Nemis tili darsi

Fan metodikasi

Predmetning o'qitish sohasi

Uslubiy taklif va ta'lim prinsiplari:

- Dars bosqichlari
- Dars shakllari
- Dars vositalari (darslik)
- Darsni tashkil qilish

Dalillar:

- O'qituvchi
- O'quv guruhi
- O'quv material
- Ta'lim maqsadi
-

Chizmaning izohi va unga doir misollar:

1.2.2 Ijtimoiy soha

1. Ikkinchi jahon urushidan so'ng Germaniya Federativ Respublikasi maktab tizimida ingliz tili birinchi chet til va fransuz tili ikkinchi chet til bo'lishi, sobiq GDRda esa rus tilining yetakchi o'ringa qo'yilishi tasodifiy hol emas edi. Buning sababi ikki nemis davlatining "G'arbiy" va "Sharqiy" tuzumlar bilan bog'liqligi, shu bilan birga AQSh va sobiq SSSRning bu davlatlarga bevosita ta'siri natijasidir.

2. Germaniya Federativ Respublikasi maktablarida yapon va xitoy tillariga e'tiborning sustligi geografik va madaniy masofaning kattaligi bilan bog'liq.

3. GFRning kam sonli maktablarida o'qitiladigan ispan va italyan tillari katta yoshdagi kishilar tomonidan xalq oliy o'quv yurtlarida astoydil o'rganiladi, bu Germaniya fuqarolarining dam olish uchun shu davlatlarga borish manfaatlari bilan uzviy bog'liq.

4. Ba'zi madaniyat vakillari uchun (masalan, Islom dini vakillari tomonidan Qur'oni Karimni o'zlashtirish) yozma nutq ta'lim tili sifatida alohida o'rin egallaydi. Ayrim boshqa millatlar uchun esa (masalan, Sharqda va Osiyo mamalakatlarida) o'qitishning ma'lum shakllari (o'qituvchi hamma narsani hal qiluvchi va frontal dars beruvchi shaxs) va o'rganishning maxsus usullari (yod olish, ta'limiy matnlarni tuzish) muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Yana bir muhim dalillardan biri til o'rganuvchilarning ona tili va bu tilning nemis tiliga qarindoshligi hamda bu til vakili madaniyatining nemis tilida goplashiladigan mamlakatlar xalqlari madaniyatiga jug'rofiy va madaniy yaqinligidir.

Agar talabalarning tili, madaniy an'analari va urf-odatlari nemislarnikiga yaqin bo'lsa (xuddi Niderlandiya va Daniya kabi), ular nemis tili tizimini (grammatika, so'z boyligi, talaffuz va imlo) o'zlashtirib olishda ortiqcha qiyinchilik ko'rmaydilar, ayniqsa, ularning nemis tilidagi matnни o'qish va tinglab tushunish jarayonida mazmunni tushunib olishlari oson kechadi.

Bu toifa talabalar mamlakatshunoslikka oid mavzularni va ularning mazmunini boshqa millat vakillariga nisbatan osonroq tushunadilar.

Ona tili va millat madaniyatiga xos bo'lgan qadriyatlar tizimi, hayotiy va ta'limiy an'analar o'qish va o'rganish jarayonining murakkab kechishiga sabab bo'lishi ham mumkin.

1.2.3 Umumpedagogik soha

1. Nemis tili o'quv predmeti sifatida umumpedagogik masalalar bilan uzviy bog'liq. Bu masalalar turli mamlakatlarda bir-biridan farq qiladi. Maktab yosh avlodni madaniy an'analarga tayyorlaydi va ular bilan tanishtiradi. Hayotga tayyor bo'lish uchun maktabda nimalarni o'qib o'rganish lozim, fanning mazmunini nima tashkil qilishi kerak?

Tajribadan ma'lumki, agar Germaniyada yaratilgan o'quv materiallari butunlay boshqa madaniy va ma'rifiy an'analarga asoslangan mamlakatda o'rganilsa, turli tushunmovchilik va kelishmovchiliklarni keltirib chiqarishi ham mumkin. Bular mavzular va ularning mazmuniga, matnlar, chizmalar va fotosuratlariga oid bo'lishi, ba'zan esa grammatikaning tavsifi, taqdimoti va mashqlari, qo'llanishi va nazorati bilan ham bog'liq bo'lishi ham mumkin.

"Avtoritar shaxs" sifatida dars berishga odatlangan muallimning birdaniga o'quvchi bilan barobar uning suhbatdoshiga aylanib qolishi ham ma'lum kelishmovchilikni keltirib chiqaradi.

2. Nemis tilining birinchi, ikkinchi, uchinchi chet til sifatida o'rganilishini hisobga olish ham muhim ahamiyatga ega. Ingliz tilini birinchi chet til sifatida o'rganayotgan o'quvchi ingliz tilining til tizimi, mavzular va ularning mazmunini, turli nutq vaziyatlarini ushbu "Yevropa-German" tilini o'rganish jarayonida orttirgan tajribasini nemis tilini o'rganishga beixtiyor tadbiiq etadi.

Eng avvalo, u hech bo'lmaganda, ta'limning boshlang'ich bosqichida birinchi tilni egallash tajribasini nemis tilini o'rganish jarayonida takrorlashga harakat qiladi. Bu ham o'z navbatida turli qiyinchiliklar va kelishmovchiliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi, chunki nemis tili ingliz tiliga qaraganda bir qator boshqacha usul va metodlar asosida o'qitilishi va o'rganilishi lozimligi hech kimga sir emas.

1.2.4 Kasbiy sohada: Predmetga aloqador fanlar

Nemis tili predmeti, albatta, ma'lum fanlarni o'z ichiga oladi. Ularga tilshunoslik, adabiyotshunoslik, mamlakatshunoslik va boshqalar kiradi. Bu fanlar ta'limning maqsadi va mazmunini belgilashga asos bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim maqsadi va metodlari bir-biri bilan uzviy bog'liq. Bu holat grammatika misolida yaqqol ko'rinadi.

1. Ma'lum tilni turli usullar bilan tavsiflash mumkin, masalan, ishoralar tizimi yoki aloqa vositasi tarzida. Bu dars jarayonida turli modellarga asoslanishni taqozo etadi.

2. Uzoq yillar jonli tillarni (ingliz, fransuz, nemis va boshqalar) Yevropada yuz yillar mobaynida ilm va xalqaro aloqa vositasi bo'lib

xizmat qilib kelgan lotin tili qoidalari tizimi yordamida tavsiflashga harakat qilindi. Bu yo'l bilan lotin tillari guruhiga kiruvchi roman tillarini german yoki slavyan tillariga nisbatan aniqroq tavsiflash mumkin. Shuning uchun ikkinchi guruhga kirgan tillarni tavsiflashda qoidadan mustasno holatlarning ko'pligini ta'kidlash va buning sababini shu bilan izohlash mumkin.

Agar lotin tilini o'qitish metodikasi qoidalari asosida xitoy yoki tailand tilini o'rganishga harakat qilinsa, unda juda katta qiyinchiliklarga ro'baro' bo'lish turgan gap. Bu tillarning bir qator xususiyatlari, jumladan ohangning o'zgarishi bilan so'z ma'nolarining o'zgarib ketishi tasavvurga sig'maydigan hodisalar sirasiga kiradi.

Chet til darsini rejalashtirishning asosini tashkil qiluvchi til hodisalarini tavsiflash modeli ta'lim maqsadi va usullarini belgilaydi. Shuning uchun ham og'zaki nutq materiali yozma nutq materialiga nisbatan butunlay boshqacha tarzda taqdim etiladi.

Turli metodlar haqida batafsil so'z yuritganimizda tilshunoslik maktablari ham alohida to'xtalamiz.

Tilshunoslikning turli maktablari bo'lgani kabi chet tillarni o'rganishning eng yaxshi usullari haqida ham turli nazariyalar mavjud.

3. Chet tilni egallash deganda til qurilishi qonuniyatlarini **ongli ravishda o'zlashtirib olish** nazarda tutiladi. Til o'rgatish orqali o'quvchi tartibli va sistemali fikrlashga o'rgatilishi lozim. Bu jarayon **aqliy bilish nazariyasiga** asosan tashkil qilinadi. Buni bilimlarni ongli o'zlashtirib olish nazariyasi deb yuritiladi.

4. Chet tillarni egallashni **til xulqini va til xulqiga oid harakatlarni o'zlashtirib olish** deb tushunish ham mumkin. Buni bexavioristik ta'lim nazariyasi deb ham yuritiladi. Bu masalaga metodlar haqida so'z yuritganda batafsilroq to'xtalamiz.

Biz metodlarni tavsiflash jarayonida tilshunoslik maktablari chet til ta'limining ma'lum didaktik-metodik konsepsiyasi bilan bog'liq ekanligini ko'rsatib berishga harakat qilamiz.

1.2.5 Amaliy mashg'ulot sohasida

1. Darslik va ta'lim metodlari, albatta, o'qituvchi va uning dars o'tish uslubiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bu o'rinda ayrim olingan metodlar muallimning darsdagi vazifalari va hatti-harakatlarini belgilashda turlicha yo'l tutishini ta'kidlash lozim. Bu sohada ham, ya'ni dars metodi taqozo qiladigan o'qituvchi vazifalari va hatti-harakatlari bilan uning pedagogik faoliyati, jumladan shaxsiy qiziqishi va tashabbusi o'rtasida ziddiyatlar vujudga kelishi mumkin.

2. Har qanday darslik ham o'quv guruhi va alohida olingan talabaning barcha xohish va istaklarini qondira olmaydi. O'quv guruhi yoki talabaga xos bo'lgan dalillar, masalan, idrok qilish va fikrni bi nuqtaga to'plash qobiliyati, o'qish-o'rganish tezligi, o'rganishga tayyorlik va motivatsiya, guruhga oid dinamik jarayonlar (guruhning ma'lum muddatdagi kayfiyati), guruhning xonadagi joylashuvi (yigitlar va qizlar), guruhdagi turli tabaqa vakillarining mavjudligi va boshqalar) darsni rejalashtirish va tashkillashga jiddiy ta'sir qiladi.

Mamlakatingizda nemis tili chet til sifatida o'qitilishining asoslar haqida dastlabki ma'lumot

3-topshiriq

Avvalgi sahifadagi "Model"ni yana bir bor diqqat bilan ko'zdan kechiring va mamlakatingizda nemis tilini chet til sifatida o'qitishga oid bo'lgan dalillarni tayanch so'zlar yordamida qog'ozga tushiring:

Ijtimoiy-madaniy dalillar:

Maktab ta'limining ma'muriy dalillari:

Predmetga oid dalillar (predmet didaktikasi)

Predmetni o'qitish xususiyatlari (predmet metodikasi):

1.3 Tushunchalarni aniqlash qiyinchiliklari

Chet til o'qitish metodikasi nima?

Biz nemis tili darsining kechishiga ta'sir qiladigan va o'qitish metodlarining o'zgarishiga olib keladigan dalillar bilan tanishib chiqdik. Ular quyidagilar:

- ❖ Ijtimoiy dalillar
- ❖ Umumpedagogik dalillar
- ❖ Maktab- jamiyat tashkiloti
- ❖ Nemis tili ta'lim predmeti sifatidagi dalillar
- ❖ O'quv guruhi yoki sinfga xos bo'lgan dalillar

4-topshiriq

Yuqoridagi dalillarga asoslanib "Metodika" tushunchasiga ta'rif berishga harakat qiling.

Sizning fikringizcha, qaysi dalillar eng muhim hisoblanadi?

Metod-metodika

Metod-metodika tushunchasi grek-lotin so'zi "metodos - metodus" dan olingan bo'lib, ma'lum maqsadga eltuvchi yo'llar, usul ma'nosini anglatadi. (Heuer, 1979, 11).

Adabiyotlarda atamaning tor va keng ma'nodagi talqinlarini uchratish mumkin (Eppert, 1973, 217).

Tor ma'noda

"Metodika" atamasi tor ma'noda ta'limning konkret dars jarayoni bilan bog'liq tushunchani anglatadi. Mashg'ulotlarni rejalashtirish va o'quv materialini tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatmalarni qamrab oluvchi boshqariladigan dars jarayoni sifatida tavsiflanadi (Krumm, 1981, 217; Freudenstein, 1970, 176).

Keng ma'noda

"Metod" atamasi keng ma'noda o'quv materialini tanlash, tabaqalash va taqsimlashni nazarda tutadi (Mackey, 1965).

Sobiq sotsialistik davlatlar adabiyotida, jumladan sobiq GDR adabiyotida metod atamasi ko'pincha keng ma'noda qo'llanib kelingan (Desselmann; Hellmich, 1986, 18).

Didaktika / metodika

Germaniya Federativ Respublikasida 60-yillardan boshlab didaktika (nemis tilini chet til sifatida o'qitishdan ko'zlangan maqsad, mazmun, o'quv materialini tanlash va taqsimlash) va metodika tor ma'noda (dars nazariyasi) qo'llanib kelinmoqda.

Shunga ko'ra didaktika ta'lim mazmuni (nima o'rgatiladi?), metodika esa ta'lim usullari (qanday o'rgatiladi?) bilan shug'ullanadi.

Metod nazariyasi

O'quv materiali va o'qitish usullari sohalarini metod nazariyasi tushunchasi tarkibida birlashtirish ijtimoiy-ma'muriy jihatlar, ya'ni ta'lim-tarbiya sohasidagi maqsadlar bilan bir-biriga mos tushgan taqdirdagina mamlakat filologlari tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Agar ta'limni tashkil qilishga oid asosiy masalalar (O'quv materialini tanlash va ta'lim maqsadlari) ijobiy hal qilingan bo'lsa, metod tushunchasini nazariy jihatdan asoslashga o'rin qolmaydi. Mamlakatning maorif idoralari va nemis tili o'qituvchilarining fikrlari bir joydan chiqqan taqdirda, masalan, nemis tilini birinchi emas, balki keyingi chet til deb hisoblashlari ham mumkin. Bu tilni yuqori sinf o'quvchilari safidan tanlangan va iqtidorli deb tan olingan, qobiliyatli va tilni o'zlari o'rganishni istagan o'quvchilarga o'rgatish mumkin. Bu tadbir sistemali ravishda aqliy tarbiya va nemis adabiyotini mutoala qilish yo'li bilan amalga oshirilishi lozim. Bunday tajriba albatta dars nazariyasiga asoslanishi kerak.

GFR hayotidan misol

50-60 yillarda Gemaniya Federativ Respublikasi

50-yillarga qadar Germaniyada chet tillarni o'qitish nazariyasi va amaliyotiga oid bir qator kitoblar "Metodika" sifatida chop qilindi. (Bohlen, 1952; Schubel, 1958).

Bu yillarda chet til ta'limi gimnaziyalarda keng tarqala boshladi. O'rta maktab o'quvchilarining esa juda kam qismi ingliz tilini chet til sifatida o'rgandilar. O'quvchilarning atigi 10 foizi (nisbatan iqtidorli, elita hisoblanuvchilar) gimnaziyalarda o'qidilar. Ularga ko'proq chet tilning adabiyotshunoslik sohasidan mutaxassis bo'lgan filologlar dars berdilar.

Shunga muvofiq chet til ta'limi orqali "Chet til darslarida ma'naviyatni tarbiyalash", "Chet til orqali tafakkurni rivojlantirish" kabi ta'limiy maqsadlar va predmet maqsadi sifatida "Tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyati va adabiyoti haqida tushuncha berish" kabi maqsadlar qo'yildi.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirish niyatida dars jarayonida grammatika ustida sistemali ish olib borildi, madaniy faoliyat haqida axborot berildi va badiiy adabiyot namunalari mutoala qilindi.

Chet til ta'limini bunday yagona shart-sharoit asosida tashkil qilish ingliz va fransuz tilini o'qitish borasida ma'lum darsliklar (Learning English va Etudes Françaises) hukmronligiga olib keldi.

Darslik va o'qitish usullari amalda bir xil edi. Predmet didaktikasi sohasidagi tadqiqotlar va munozaralar ta'lim maqsadi va mazmuni (nimani o'rgatish kerak?) haqida emas, balki o'qitish usullari (qanday o'qitish kerak?) haqida olib borildi.

GFRda dastlabki o'zgarish Madaniyat Vazirligi tomonidan o'rta maktablarda «Ingliz tilini hamma uchun o'rganish» joriy qilingach (1964

yil), tarbiya huquqidagi fanlar an'anaviy ta'lim fanlariga alternativ sifatida qo'yilganidan so'ng boshlandi.

Predmetlarni o'qitish sohasidagi bir qator o'zgarishlar-adabiyotshunoslikni o'qitishning yangi metodlari, Germanistika ta'limi sohasida tilshunoslik fanining ta'lim predmeti deb belgilanishi; ijtimoiy-ijtimoiy sohada chet tillarni bilgan kishilarga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi, chet til ta'limi masalalari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarining chet til ta'limi shart-sharoitlari va maqsadlariga oid masalalarga bo'lgan qiziqishlarini oshirdi.

Ushbu faning asosiy masalalari va predmetini o'qitish amaliyoti bilan shug'ullanish, an'anaviy metodikani subyektiv va asoslanmagan deb baholash va tanqid qilishga va uni «bilim olishdagi retseptologiya» deb hisoblashga (Achtenhagen, 1969) asos bo'ldi (Heuer, 1979, 115).

Sobiq GDR hayotidan misol

Sobiq Germaniya Demokratik Respublikasidagi chet til ta'limini quyidagicha tavsiflash mumkin.

Ta'lim-tarbiya maqsadlari jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar asosida belgilandi. O'quvchilar "Sotsializm g'oyalari sadiq shaxslar" qilib tarbiyalanishi lozim edi. Bundan xulosa shuki, tili o'rganilayotgan mamlakat hayotiga oid material ma'lum mezon asosida tanlanishi va o'z mamlakatidagi ijtimoiy munosabatlar asosida tasvirlanishi talab qilinadi, va shu bilan birga, ta'lim maqsadi va o'qitish usullari yagona o'quv rejasi va darslik asosida amalga oshiriladi.

5-topshiriq

Mamlakatingizda chop etilgan maxsus adabiyotlardan "Metod" tushunchasiga berilgan izohlarni topishga va tahlil qilishga harakat qiling.

1.4. Darsliklar ma'lum ta'lim metodlari asosida yaratiladi. Darsliklardan konkret ta'lim metodlariga oid xususiyatlarni yaxshi bilib olish mumkin.

Darslik va metod

Nemis tili darsliklari ko'p. Hammasi ham nemis tilini o'rgatishni maqsad qilib qo'yadi. Biroq bu darsliklarni solishtirib ko'rilsa, ularda ta'lim maqsadlarini turlicha tasavvur qilinishining guvohi bo'lish mumkin. Darsliklarda ta'lim maqsadi sifatida quyidagilar ko'rsatilgan:

- * nemis tilini egallash uchun nimalarni o'rganish kerakligi (masalan, til materiali, grammatika, so'z boyligi, talaffuz, imlo, nutq faoliyati turlari: o'qish, eshitish, gapirish, yozish, tarjima, mamlakatshunoslik,

adabiyot), har bir darslikda o'quv materialining turlariga turlicha ahamiyat berilgan;

- ❖ O'quv materialining joylashish tartibi va ularning bir-biri bilan bog'lanishi;
- ❖ agar "Chet til o'qitish metodlari" haqida gap ketsa, nemis tilini bilib olish uchun qancha o'qish kerakligi asosiy masala bo'lib qoladi;
- ❖ eng yaxshi darsni qanday tashkil qilish kerakligi (o'qitish istiqboli) va eng yaxshisi tilni qanday o'rganish kerakligi (o'qish istiqboli).

Dasrlıklarda o'qitish metodlari, ularning xususiyatlari va prinsiplari ro'yobga chiqadi va konkretlashadi, natijada ma'lum dars konsepsiyasi vujudga keladi.

Ayrim dasrlıklar o'quv materiallari yig'indisidangina iborat bo'lishi ham mumkin. Boshqalarida esa darsning borishini "programmallashtirish"ga, dars bosqichlari va qadamlarini huddi film senariysi kabi aniq belgilashga uriniladi. Shuning uchun ham ayrim mamlakat va tillarda "darslik" va "metod" tushunchalarining sinonim sifatida qo'llanilishi bejiz emas. Masalan, fransuz tilida «methode» deganda darslik va dars berish usuli tushuniladi.

Dasrlikning qaysi metod asosida yozilganligini qanday aniqlash mumkin?

Darslikdagi metodik konsepsiya

Agar quyidagilarga e'tibor berilsa, darslikning qaysi metodik prinsiplar asosida yozilganligini osongina bilib olish mumkin:

1. Mavzuga oid matnlar:

Matnlar tili o'rganilayotgan mamlakat kundalik turmushiga oid (asliy matnlar, masalan, ro'znomalardagi xabarlar, e'lonlar, izohlar, reklama va boshqalar) yoki darslik muallifi tomonidan tuzilgan, ma'lum til hodisasiga oid (masalan, yangi grammatik hodisani yoki so'z boyligini qamrab oluvchi) grammatikalashtirilgan yoki sintetik (tuzma) matnlarmi?

2. Grammatik materialni tasvirlash:

Grammatik qoidalar ona yoki chet tilda yozilganmi?
Grammatik hodisa misol orqali berilganmi?

Avval qoida, so'ngra misol berilganmi? Yoki aksincha?

Kirish tayanchi berilganmi? (masalan, yozuvlarni bo'rttirish, turli ranglarni qo'llash, turli rasm, chizma orqali ifodalash va hokazo).

Ayrim dasrlıklarda grammatika umuman berilmaydi, bu ham darslikning qaysi metodga tegishli ekanligini ko'rsatuvchi belgi hisoblanadi.

3. Mashqlar va mashqlar ketma-ketligi:

Darslikning qaysi metod asosida yozilganligini uning mashqlar qisimiga qarab «bir nigoh bilan» bilib olish mumkin, chunki har bir metodda maqsadga erishish uchun ma'lum mashqlar va ularning ketma-ketligi afzal ko'riladi.

4. Dars paragrafi qurilishi:

Har bir metodga oid dars bosqichlari va qadamlarining aniq ketma-ketligi tanlab olinadi.

Bundan har bir darsning aniq tuzilish chizmasi shakllantiriladi. Agar darslik paragrafi grammatikani tasvirlash bilan boshlansa, bunday holda darsdagi texnologiya va darsning borishi, matnni o'qish va baholash yoki kassetadan dialogni eshitish hamda unga oid nutq vaziyatini ifodalovchi rasmni ko'rsatish bilan boshlanadigan darsga nisbatan butunlay boshqacha bo'ladi.

Ko'pincha darslikning metodik konsepsiyasini uning mundarijasiga qarab turib ham aniqlash mumkin, chunki har bir metodda ma'lum o'quv maqsadlari va materiallariga alohida e'tibor qaratiladi va ular muvofiqlashtiriladi, (masalan, grammatika, matnlar, mavzular, ko'nikma va malakalar, so'z boyligi va boshqalar) yoki tilning ma'lum aspektini (masalan, grammatika) til materiali taqdimoti jarayonida asosiy o'ringa qo'yiladi.

Quyidagi chizma darslik va o'qitish metodi tushunchalarining bir-biri bilan bog'liqligini yanada aydinlashtiradi:

O'qitish metodlarida qayd qilingan	Darsliklardan uning qaysi metodga oidligini bilib olish mumkin
- Ta'lim maqsadi Nimani o'rgatish kerak? (O'quv materiali) Bu o'rinda quyidagilar nazarda tutiladi:	- Matnlar ❖ Matn tanlash ❖ Matn tuzish
- Ijtimoiy va pedagogik buyurtma	- Grammatika ❖ Tanlash va ketma-ketlik ❖ Tasvirlash
- Predmetga oid ilmiy yangiliklar (tilshunoslik, adabiyot va matn tilshunosligiga oid tadqiqot natijalari)	- Mashqlar ❖ Mashq tiplari ❖ Mashq bosqichlari ❖ Mashqlar ketma-ketligi

<p>O'qitish usullari va dars prinsiplari</p> <p>Qanday o'qitish kerak? (dars prinsiplari)</p> <p>Ta'lim nazariyasi sohasidagi tadqiqot xulosalarini hisobga olgan holda quyidagilarga e'tibor qaratiladi:</p> <p>Darsda vaqtni taqsimlash</p> <ul style="list-style-type: none"> ❖ Dars shakllari ❖ Dars vositalari ❖ Darsni tashkillash 	<p>Dars</p> <p>Paragraf qurilishi</p> <ul style="list-style-type: none"> ❖ Kirish ❖ Mashq, mustahkamlash ❖ Tizimlash (sistemaga solish) ❖ Qo'llash, amalga oshirish <hr/> <p>O'qitish jarayonini tashkillash</p> <ul style="list-style-type: none"> ❖ O'quv materialini taqsimlash ❖ Ta'lim maqsadlarini kengaytirish, kombinatsiyalash
---	--

Nemis tilini chet til sifatida o'qitishning turli metodlarini tasvirlash jarayonida har bir metodga oid yaratilgan darsliklardan birini quyidagi tartibda tahlil qilindi:

- **Matnlar**
- **Grammatika**
- **Dars paragraf qurilishi**
- **O'qitishni tashkil qilish**

Misollarga asoslanib, darslik qaysi metod asosida yaratilgan degan savolga javob berishga harakat qilindi. Til ta'limining boshlang'ich bosqichi uchun mo'ljallangan darsliklarda metodlarga oid prinsiplar o'z ifodasini aniq topganligi sababli tahlil uchun shu darsliklar asos qilib olindi.

2. Grammatika-tarjima metodi (GTM)

6-topshiriq

O'ylab ko'ring: "Grammatika-tarjima metodi" nomida ushbu metod uchun xarakterli bo'lgan ikki tushuncha ifodalangan.

Ular qaysilar va nimani ifodalaydi?

Grammatikaga katta e'tibor beriladi. Grammatika o'quv materiali majmuasining asosini va uni o'zlashtirib olish ta'lim maqsadining asosini tashkil qiladi. Kim grammatikani egallab olsa, chet tilini egallagan hisoblanadi. Tarjimaga alohida o'rin beriladi. U chet tilni amalda qo'llashning maqsadi sanaladi. Kim to'g'ri tarjima qila olsa, demak u chet tilni bilgan hisoblanadi.

2.1. Kirish haqida ikki og'iz so'z

Masala tarixiga dolr

Grammatika-tarjima metodi Yevropada 19-asrda fransuz va ingliz tillarini gimnaziyalarda o'qitish uchun qo'llanildi. Narnuna sifatida gimnaziyalarda o'qitiladigan qadimgi grek va latin tillari xizmat qildi.

Zamonaviy «tik» chet tillarni «o'lik» tillar (aloqa vositasi sifatida foydalanilmaydigan va faqat yozma ravishda mavjud bo'lgan) bo'lmish latin va grek tillarini o'qitiladigan metod asosida o'rgatilishining bir qator sabablari bor edi:

Sabablar

A. O'sha davrdagi gimnaziya ta'limining maqsadi o'quvchilarning umumiy aqliy saviyasini tarbiyalashga qaratilgan edi.

Davri mutaxassislarining fikriga ko'ra aqliy-formal ta'lim-tarbiya matematika va tillar bilan shug'ullanish orqali amalga oshirilishi mumkin. O'quvchilar aqllarini til mantiqi va tizimi orqali, masalan, latin tilini o'rganish orqali, peshlamlari lozim edi. Adabiy til namunalari («Mumtoz adabiyot») bu borada maqsadga eltuvchi vosita deb hisoblandi.

B. Maktablardagi til o'rgatish mashg'ulotlari, ayrim istisnolarni hisobga olmaganda, gimnaziya qatnaydigan o'quvchilar uchun imtiyoz hisoblanar edi. Bu imtiyozga ozchilikni tashkil qiladigan «ta'limiy elita» («ta'limiy burjuaziya») ega edi.

C. Agar davrning zamonaviy tillari bo'lmish, birinchi navbatda, fransuz va ingliz tillari gimnaziyalarda o'quv predmeti sifatida tan olinadigan va o'quvchilarni aqliy tarbiyalashning asosiy vositasi deb hisoblanadigan bo'lsa, u holda bu tillar latin va grek tillari bilan raqobatga kirishishlariga to'g'ri kelar edi. Ularni o'qitishdan ko'zlangan maqsad va o'qitish metodikasi ham raqobatga kirgan predmetlarga yaqin bo'lishidan boshqa chara yo'q edi.

19-asrning oxiriga kelib Germaniya yangi filologlari o'rtasida zamonaviy tillarni o'qitish qadimiy tillarni o'qitishga qaraganda o'zgacha maqsadlarni ko'zlashi va boshqa metodlar asosida o'qitilishi kerak emasmi, degan masala jiddiy ko'tarildi.

GTMning «klassik» konsepsiyasiga ko'ra o'quv guruhi bir til vakillaridan iborat bo'lishi, O'quvchilarning yoshi, bilim darajasi, bilim olishga intilishlari ham bir xil bo'lishi kerak edi. Gimnaziya davri chet til ta'limiga xuddi shunday talab qo'yilar edi.

Dars va darslik tahlili

Kelgusi bobda GTM asosida yaratilgan darslikning tahlili bilan mashg'ul bo'lamiz. Bu masalada asosiy e'tiborni quyidagilarga qaratamiz:

- darslik mundarijasi (O'quv materialini taqsimoti)
- grammatikani tasvirlash
- mashqlar va mashq matnlari
- O'quv materialini metodik tashkil qilish

2.2. GTM asosidagi darslik muhokamasi

Biz tahlil uchun ingliz tili ona tili hisoblangan o'quvchilarga mo'ljallangan darslikni tanladik. Darslikdagi o'quv materialini 4 yil davomida o'qitiladi va nihoyasida O-Level imtihoni (nemis maktablaridagi «o'rtacha qiynlikdagi imtihon») darajasida topshiriladi.

A.Russon, L.J.Russon (1955): *Simpler German Course for First Examinations.*

Mundarija:

Tarjimasi:

I-Bob: Grammatika

- ❖ So'z tartibi
- ❖ Bog'lovchilar
- ❖ Artikl
- ❖ Otlar
- ❖ Kelishiklar
- ❖ Sifatlar
- ❖ Ravishlar
- ❖ Sonlar, sanalar va boshqalar
- ❖ Olmoshlar
- ❖ Predloglar
- ❖ Fe'llar

II-Bob: Grammatik hodisalarga oid jumla va frazalar, 1-35 mashqlar

III-Bob: Tarjima uchun ingliz prozasidan parchalar

IV-Bob: Erkin insho

V-Bob: Nemis prozasidan parchalar. Tushunganlikni nazorat qilishga oid savol va ko'rsatmalar

(A) Tarjima yoki o'qib tushunish uchun parchalar

(B) Tarjima, o'qib tushunish yoki mazmuni hikoya qilib berish uchun parchalar.

VI-Bob: Tarjima yoki o'qib tushunish uchun nemis lirikasi

So'zlar ro'yxati.

Nemischa-inglizcha

Inglizcha-nemischa

Yuqoridagi mundarijadan quyidagilarni bilib olish mumkin:

O'quv materiallari tartibi

1. Darslik paragraflarga bo'linmagan, balki mavzuiy bo'limlarga - boblarga ajratilgan, jumladan, birinchi bobda grammatik material, ikkinchi-oltinchi boblarda mashqlar berilgan: Grammatik mashqlar (II-bob), tarjima, o'qib tushunish va yozish uchun mashqlar (III-VI boblar).

Grammatika: so'z tartibi

2. Birinchi bob grammatikani tasvirlashga bag'ishlangan. Grammatik material yonma-yon, ketma-ket joylashtirilgan boblar tarzida berilgan. Grammatik material "osondan qiyinga", "soddadan murakkabga" prinsipi asosida joylashtirilgan.

Mashq tartibi

3. Mashqlarning bajarilish tartibi quyidagicha:
- Grammatik hodisalar ishtirokida gaplar tuzish (II bob)
 - Ona tilidan chet tilga tarjima qilish mashqlari (III bob)
 - Chet tildan ona tiliga tarjima qilish mashqlari (V va VI boblar)
 - O'qib tushunishga oid mashqlar (V va VI boblar)
 - Fikrni yozma ravishda bayon qilishga oid mashqlar (IV va V boblar)


Mashqlarda asosiy e'tibor grammatikaga, tarjimaga, O'qish va yozishga qaratilgan.

Xulosa

O'qituvchi ushbu darslikdan "sahifama sahifa", "boshdan oxiriga qarab" emas, balki o'zi zarur deb hisoblagan tartibda foydalanishi mumkin. Bunga kitobda "Grammatikadan mashqlarga" sarlavhasi ostida qisqacha izohlar berilgan.

Ushbu darslikka ko'ra dars bosqichlari quyidagi tartibda o'tadi.

2.3. Dars bosqichlari



Dars jarayonining amalda qo'llash bosqichida asosiy e'tiborni qaysi faoliyatga qaratishni o'qituvchi hal qiladi.

2.4. Grammatikani tasvirlash

Birinci bobdan bir misolni ko'rib chiqamiz:

Predloglar

Yordamchi tarjima:

82. Tushum (Akkuzativ) yoki o'rin-payt (Dativ) kelishigini talab qiluvchi predloglar.

a) Quyidagi to'qqizta predlogdan so'ng harakatning bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga ko'chishini ifodalash uchun predlogdan keyingi ot tushum kelishigida qo'llaniladi, harakatning bir joyda sodir bo'lishini ifodalash uchun predlogdan keyingi ot o'rin-payt kelishigida qo'llaniladi.

Russon (1955, 53)

82. Prepositions governing the Accusative or Dative

(a) After the following nine prepositions the accusative is used to show movement to a place, the dative to show rest or movement at a place.

an, on, at, to, by
auf, on (horizontal surface only)
hinter, behind
in, in, into
neben, near, next to, beside

ueber, over, across
unter, under, among
vor, in front of, before
zwischen, between

Note. Ans-an das; am-an dem; aufs-auf das; ins-in das; im-in dem; uebers-ueber das; ueberm-ueber dem; vors-vor das; vorm-vor dem.

Er setzte sich an **den** Tisch.

Er sass an **dem** Tisch.

He sat down at the table.

He was sitting at the table.

Er setzt sich auf **den** Stuhl.

Er sass auf **dem** Stuhl.

He sits down on the chair.

He was sitting on the chair.

Er stellte sich hinter **mir**.

Er stand hinter **mir**.

He came and stood behind me.

He was standing behind me.

Russon (1955), 53

Bob qurilishi

"Predloglar" mavzuiga bag'ishlangan bob quyidagicha qurilgan:

- ❖ Tushum kelishigini (Akkuzativ) talab qiluvchi predloglar (79)
- ❖ Qaratqich kelishigini (Genitiv) talab qiluvchi predloglar (80)
- ❖ O'rin-payt (Dativ) kelishigini talab qiluvchi predloglar (81)
- ❖ Tushum (Akkuzativ) yoki o'rin-payt (Dativ) kelishigini talab qiluvchi predloglar (82)

Grammatika tasvirini sharhlashga urinib ko'ramiz:

Xulosa

1. Har bir bobda bajariladigan grammatik topshiriq ona tilida bayon qilingan va qoida berilgan. Qoidadan mustasno holatlar kichik harflar bilan izohlangan.
2. Har bir grammatik qoidaga nemis tilida namuna gaplar misol tarzida berilgan. Har bir misol ona tiliga tarjima qilingan.

2.5. Mashqlar

2.5.1. Grammatikaga oid mashqlar

Birinchi bobdagi har bir grammatik hodisaga ikkinchi bobda maxsus mashqlar berilgan. Bu mashqlar quyidagi namuna asosida qurilgan:

20. Prepositions (79-81)

1. He came home about seven o'clock after he had gone right round the town.
2. They all sat round the long table till nine o'clock.
3. In spite of the great difficulties since the last war the Germans haven't lost (the) courage.
4. He lives at his uncle's opposite the white house.
5. On our

arrival we went immediately to bed. 6. In my opinion he did it against his will. 7. We have lunch every day at home. 8. They were walking in the direction of London. 9. In this weather it is quite impossible to work in the garden. 10. He is not entirely without means, for he has been working now (already) for two years. 11. For what reason did you come along this street? 12. He went to school at the age of six. 13. Because of the cold weather they stayed at home. 14. They came by boat towards the end of the month. 15. During the last war many people lived outside the bigger towns. 16. As he hadn't any money on him he couldn't go by train. 17. He said in a quiet voice: "Yes, it is a picture by Durer." 18. Although I live in the midst of all these people, except for you I hardly see anybody (I see almost nobody). 19. The judge was a man of sixty. 20. What are you doing at Christmas? We are going to Paris.

Yordamchi tarjima:

20. Predloglar

1. U butun shahar bo'ylab kezib chiqqandan so'ng, taxminan soat yettilarda uyiga keldi.
2. Ular uzun stol atrofida soat to'qqizga qadar o'tirdilar.
3. Oxirgi urushdan keyingi qiyinchiliklarga qaramasdan nemislar jasadlarini yo'qotmadilar.
4. U oq uy qarshisidagi tog'asinikida yashaydi.
5. Kelishimiz bilanoq biz darhol uyquga ketdik.
6. Menimcha u bu ishni o'z e'tiqodiga qarshi qildi.
7. Biz har doim uyimizda tushlik qilamiz.
8. Ular London tomon ketdilar.
9. Bunday ob-havoda bog'da ishlashning butunlay imkoni yo'q.
10. U ikki yildan beri ishlayotganligi tufayli butunlay chorasiz emas.
11. Sen nima sababdan bu ko'cha bo'ylab kelding?
12. U olti yoshidan maktabga bordi.
13. Havo sovuqligi tufayli ular uyda qoldilar.
14. Ular oying oxirida kemada keldilar.
15. Oxirgi urush paytida ko'pchilik kishilar katta shaharlar chetida yashadilar.
16. U puli yo'qligi uchun poezdda bora olmadi.
17. U sokin ovoz bilan dedi: «Ha, bu Dyurer chizgan surat».
18. Men bu kishilar bilan birgalikda yashasam ham, sendan boshqa deyarli hech kimni uchratmayman.
19. Sud'ya 60 yoshlardagi kishi edi.

20. **Vaynanda** (diniy bayram) nima qilasan? Biz Parijga boramiz.
Russon (1955,110)

Ushbu mashqlarda ikki narsa ko'zga yaqqol tashlanadi:

1. Grammatik material (chet tilga) tarjima shaklida mashq qilinadi.
2. Mashqlar bir-biri bilan mazmunan bog'lanmagan jumalardan iborat. Jumkalar grammatik hodisalarning turli qirralarini qamrab olgan.

2.5.2. Ona tilidan nemis tiliga tarjima uchun mo'ljallangan o'rtacha hajmdagi matnlar

10. At the seaside

We sometimes spend our holidays in the country, but I prefer spending them by the sea. This year the weather was magnificent. We had sunshine every day except on the first Sunday morning; but it didn't matter, for we went to church. The sea was very warm and we often bathed three times a day; and I learnt at last to swim. Father taught me. I was very proud of it. After bathing we usually played all sorts of games on the sand or we simply lay in the sun. We all got very brown except mother who is afraid of games on the sun. Sometimes we made excursions along the sea-shore and found strange fishes and plants everywhere. Once we were cut off by the sea and had to climb up on to the rocks and wait at least two or three hours. Fortunately mother was not with us and knew nothing of the danger till we were back. It could easily have been very dangerous if we had lost our heads.

Yordamchi tarjima:

10. Sohilda

Biz ta'limimizni ba'zan qishloqda o'tkazamiz, ammo men uni ko'l bo'yida o'tkazishni yaxshi ko'raman. Bu yil ob-havo ajoyib bo'ldi. Birinchi yakshanba tongidan tashqari barcha kunlar quyoshli bo'ldi. Biz cherkovga borganligimiz sababli buning zarari tegmadi. Ko'l suvi juda iliq bo'ldi va biz har kuni uch martadan cho'mildik. Va nihoyat, men suzishni ham o'rganib oldim. Uni menga dadam o'rgatdi. Men bundan juda mamnun bo'ldim. Cho'milishdan so'ng biz iloji boricha barcha o'yin turlarini qum ustida o'ynadik yoki quyoshda toblanib yotdik. Quyoshda toblanishni istamagan onamdan tashqari hammamiz rosa qoraydik. Ba'zan biz sohil bo'ylab sayr qildik va kam uchraydigan noyob baliq va o'simliklarni ko'rdik.

Bir kuni biz ko'l o'rtasida qolib ketdik, qoyalarga tirmashishimizga to'g'ri keldi va biz ikki-uch soat kutishga majbur bo'ldik. Baxtimizga onam biz bilan birga emas edi, shuning uchun biz qaytib kelgunimizga qadar xavf-xatar haqida hech narsa bilmay qoldi.

Agar biz o'zimizni yo'qotib qo'yganimizda, bu biz uchun juda xatarli bo'lgan bo'lar edi.

Russon (1955), 129

Tarjimaga mo'ljallangan matnlarning xususiyatlari:

1. Sodda mazmunli kundalik sarguzashtlar (ko'pincha anekdotlar) ona tilida hikoya qilinadi.
2. O'quvchilarga tarjima jarayonida qaysi grammatik hodisaga ko'proq ahamiyat berishlari kerakligi haqidagi ko'rsatmalar matn ostida beriladi.
3. Agar gap umumiy grammatik o'quv materiali ustida ketadigan bo'lsa, avval uni tarjima qilib olish zarur bo'ladi.

2.5.3. Erkin insho

Misol

10. Sie haben von Ihrem Onkel einen Zwanzigmarkschein zum Geburtstag bekommen. Bedanken Sie sich in einem Brief dafür.

Brief mit Zwanzigmarkschein auf Geburtstagstisch – was damit getan werden soll – moechte Floete spielen – will Geld sparen – zwanzig Mark haben noch gefehlt – Summe ist jetzt vollzaehlig – gehe morgen Floete kaufen.

das Geburtstagsgeschenk,
birthday present.

die Sparbuechse, *money box*

sich schrecklich freuen,
be terribly pleased.

das Sparkassenbuch, *savings-book*

wissen wollen, *want to know* .

Taschengeld, *pocket-money*

erzaehlen, *tell*

nichts aus-geben, *spend nothing.*

seit langer Zeit, *for a long time*

sparen, *save*

in Erfuellung gehen, *be fulfilled.*

die Belohnung, *reward*

es ist mir ernst damit,

es moeglich machen, *make (it) possible*

I really mean it.

das Schaufenster, *shop-window*

10.

Siz tug'ilgan kuningizda tog'angizdan sovg'a sifatida 20 evro oldingiz. Buning uchun siz tog'angizga maktub orqali minnatdorchilik bildiring.

Stol ustidagi 20 yevro solingan maktub -bu bilan nima qilinishi lozim -nay chalish orzusi – pul tejash – yana 20 yevro yetmayapti – endi pul yetarli bo'ldi -ertaga nay sotib olgani boraman

tug'ilgan kunga sovg'a-

haddan tashqari quvonmoq-

bilishni istamoq-

hikoya qilmoq-

uzoq vaqtdan beri
shu bilan men uchun
jamg'arma kassa kitobchasi-
hech narsaga sarf qilmaslik-
mukofot-
vetrina-

amalga oshmoq-
jamg'arma-
choy puli-
tejamoq-
imkoniyat yaratmoq-

Russon (1955, 163)

Insho mavzusi uchun ikki xil ko'mak beriladi:

1. Mavzuni yoritish uchun zarur bo'lgan tayanch so'zlar beriladi.
2. Mavzu uchun muhim bo'lgan so'zlar har ikki tilda beriladi.

Darslikning ushbu qismidagi so'z boshida o'quvchilar inshoni qanday yozishlari kerakligi va bu o'rinda nimalarga alohida e'tibor berishlari lozimligi haqida ko'rsatma oladilar. Jumladan, "Sizlar sodda va xatosiz yozishga harakat qiling... Nemis tilida erkin insho yozish uchun nemis tiliga tarjima qilish jarayonida kerak bo'ladigan bilimlarni egallashingiz kerak...".

2.5.4. (Teskari) tarjima va o'qib tushunish mashqlari uchun nemis prozasidan parchalar

Tarjima va o'qib tushunish mashqlari uchun nemis prozasidan parchalar.

Matn parchalarini chet tiliga tarjima qilish va erkin mavzuda insho yozish uchun o'quvchilar o'qib tushunishiga va chet tilidan ona tiliga tarjimaga avval boshdan boshlab chet tildagi «yaxshi» matnlarni, ya'ni GTM talabiga ko'ra tavsiya etilgan mualliflarning badiiy matnlari bilan ishlashni o'rganishlari lozim. Bu mashg'ulot nafaqat chet tilidagi (va ona tilida fikrni ifodalash imkoniyatlarini) tilga oid fikrlash qobiliyatini o'stiradi, shu bilan birga chet el madaniyati haqida bir qadar adabiy saboq beradi.

Misol:

27 A deal

Er steckte die Hand in die Tasche und zog einen ziemlich grossen Beutel, aus starkem Leder, an zwei kraeftigem ledernen Schnueren heraus und haendigte ihn mir ein. Ich gried hinein und zog zehn Goldstuecke heraus und wieder zehn und wieder zehn und wieder zehn; ich hielt ihm schnell die Hand hin: "Abgemacht! Fuer den Beutel haben Sie meinen Schatten". Er nahm meine Hand, kniete dann so

gleich vor mir nieder, und mit einer bewundernswuerdigen Geschicklichkeit sah ich ihn meinen Schatten, vom Kopf bis zu meinen Fuessen, leise von dem Grase loesen, aufheben, zusammenrollen und falten und zuletzt in die Tasche stecken. Er stand auf, verbeugte sich vor mir und zog sich nach dem Rosengebuesche zurueck. Mir war, als hoerte ich ihn da leise fuer sich lachen. Ich aber hielt den Beutel bei den Schnueren fest, runt um mich her war die Erde sonnenhell, und ich wuesste noch nicht, was ich getan hatte.

Nach Adalbert von Chamisso (1781-1838): Peter Schlemihl

1. Warum hatte ich der Beutel Schnuere?
2. Was befand sich in dem Beutel?
3. Was wollte der Mann mit dem Beutel kaufen?
4. Woher wissen Sie, dass der Erzaehler zu verkaufen bereit war?
5. Warum kniete der Mann vor ihm nieder?
6. Was machte der Mann mit dem Schatten, nachdem er ihn vom Gras geloest hatte?
7. Wo verschwand der Schatten?
8. Woraus schliessen Sie, dass der Mann hoeflich war?
9. War der Mann mit seinem Einkauf zufrieden?
10. Wann kann man seinen Schatten sehen?

U qo'lini cho`ntagiga soldi va ancha katta bo`lgan xaltani oldi, xalta qo`pol teridan yasalgan bo`lib, undan 2 ta teri ip osilib turardi. U xaltani menga berdi. Men xaltani oldim va undan o`n tangali oltinni oldim, yana o`n, yana o`n, yana o`n tanga. Men uning qo`lini chaqqonlik bilan ushladim. «Kelishdik! Xalta uchun siz mening soyamni olasiz» deb, u mening qo`limdan tutdi, mening qarshimga turib tiz cho`kdi va hayron qoladigan darajadagi epchillik bilan men unda o`z soyamni ko`rdim, soyam- boshimdan to oyog`imgacha asta-sekin o`t-o`lanlardan ajraldi, yuqori ko`tarildi. U mening soyamni o`rab tahladi va kissasiga soldi.

U o`rnidan turdi, menga ta`zim qildi va atirgullar butasi ortiga o`tdi. U menga asta kulayotgandek tuyuldi. Men xaltani iplaridan mahkam ushlab turardim. Atrofdagi tuproq quyoshda yarqirar edi. Men esa nima sodir bo`layotganini anglashga o`jiz edim.

(Adalbert von Chamisso (1781-1838): Peter Schlemihl)

1. Nima uchun xaltaning iplari bor?
2. Xaltada nima bor edi?

3. Xalta bilan u kishi nima sotib olmoqchi bo'ldi?
4. Hikoyachi sotishga tayyor ekanligini qayerdan bilib oldingiz?
5. Nima uchun u kishi uning qarshisida cho'kkaladi?
6. U kishi uni o'tloqdan yig'ib olgandan so'ng soyani nima qildi?
7. Soya qayerga yo'qoldi?
8. U kishining xushmuomala ekanligini qayerdan anglaysiz?
9. O'zining qilgan harididan u kishi mamnun bo'ldimi?
10. Qachon uning soyasini ko'rish mumkin?

Russon (1955,204)

Matnni o'qib tushunganlikni tekshirishga oid savollarga, mualliflar kirish so'zida aytganlaridek, javob yozish unchalik oson emas, chunki ular ataylab shunday murakkab tuzilgan. Sodda savollarni o'qituvchining o'zi berishi mumkin.

Tilga oid qiyinchilik darajasining ortib borishi va badiiy asarni o'qib tushunishni o'rgatishga yakun yasash (xulosalash) kitob oxirida tanlangan she'rlarning berilishida o'z ifodasini topgan. Bu matnlar ham tarjima va o'qib tushunishni o'rgatish uchun xizmat qiladi.

Misol, 23 The light falls

Russon (1955,258) (Xayrix Xayne she'ri)

Shunday matnlar qatoridan quyidagicha mashqlar tuzilgan:

Der Vorhang faellt, das Stueck ist aus,
 Und Herr und Damen gehn nach Haus.
 Ob ihnen auch das Stueck gefallen?
 Ich glaub, ich hoerte Beifall schallen.
 Ein hochverehrtes Publikum
 Beklatschte dankbar seinen Dichter.
 Jetzt aber ist das Haus so stumm,
 Und sind verschwunden Lust und Lichter.

Doch horch! Ein schollernd schnoeder Klang
 Ertoent unfern der oeden Buehne; -
 Vielleicht dass eine Saite sprang

An einer alten Violine.
 Verdiesslich rascheln im Parterr
 Etwelche Ratten hin und herr,
 Und alles riecht nach ranzger Oele.
 Die letzte Lampe aechzt und zischt
 Verzweiflungsvoll, und sie erlischt.
 Das arme Licht war meine Seele.

1. Wo faellt der Vorhang und wann?
2. Wie zeigt man, dass ein Stueck gefallen hat?
3. Woher wissen Sie, dass der Dichter nicht sicher ist, ob das Stueck gefiel?
4. Warum war das Haus so stumm?
5. Wodurch wurde die Stille unterbrochen?
6. Warum nennt der Dichter die Buehne oede?
7. Was machte die Ratten verdiesslich?
8. Was zeigt, dass dies kein modernes Theater war?
9. Wann aechzt und zischt eine Lampe?
10. Warum vergleicht der Dichter seine Seele mit der letzten Lampe?

1. Gefallen: gefallen hat
2. Schollernd: *vibrating*
3. Schnoeder: *hateful*
4. Das Parterr: das Parterre
5. Etwelche: irgendwelche
6. Ranzgem: ranzigem

1. Parda qayerda va qachon tushirildi?
2. Pyesaning yoqqanini qanday yo'l bilan ko'rsatiladi?
3. Pyesa yoqqan yoki yoqmaganligiga shoir ishonish-ishonmasligini qayerdan bilasiz?
4. Nima uchun butun uy jim edi?
5. Jimlik nima bilan buzildi?
6. Nima uchun shóir sahnani bo'shliq deb ataydi?
7. Kalamushlar nima qildilar?
8. Bu zamonaviy teatr emasligini nima ko'rsatadi?
9. Chiroq qachon o'chirildi?
10. Nima uchun shoir o'z qalbini oxirgi chiroq bilan qiyoslaydi?

1. Gefallen: gefallen hat-yoqdi
2. Schollernd: vibrating-titratuvchi
3. Schnoeder: hateful-taxqirlovchi, g'amgin

4. Das Parterr: das Parterre-parter
5. Erwelche: irgendwelche-qandaydir
6. Ranzgem: ranzigem-achchiq

2.5.5. Mazmunni hikoya qilib berish Hikoyadan avval tayanch soʻzlar berilgan:

27. (S. 204) A deal

Beutel Goldstuecke - abgemacht-Schatten- kniet nieder-loest Schatten - steckt in die Tasche - verbeugt sich - zieht sich zurueck - lacht fuer sich - Ich halte Beutel fest - Sonnenschein - stehe wie versteinert da.

27. 204-sahifa A deal

kalta - oltin tangalar-kelishdik-soya-choʻkkalamoq-soyani yoʻqotmoq-choʻntapiga soldi-taʼzim qildi-oraqaga chekindi-oʻzicha kuldi-men xaltani mahkam ushladim-quyosh nuri-men oʻrnimda toshdek qotib qoldim

Russon (1955, 234)

2.5.6. Yozishni davom ettirish uchun mashqlar:

Bunday mashqlardan avval ham tayanch soʻzlar berilgan:

24. Setzen Sie "A deal" fort (Nr. 27, S. 204)

Schlemihl kommt wieder zu Sinnen - fuellt Taschen mit Gold - verbringt Beutel - eilt nach der Stadt fort - alte Frau ruft: "Sie haben Ihren Schatten verloren" - andere Leute bemerken es auch - vermeidet es, in die Sonne zu treten - muss ueber die Strasse gehen - Jungen lachen ueber ihn - springt in eine Droschke - faehrt zum Hotel - laest Sachen holen - faehrt zum besten Hotel - wirft einige Goldstuecke hin - bekommt bestes Zimmer - verschliesst sich darin - weint - so viel Geld aber keinen Schatten - was wird aus ihm werden?

24.

"A deal"ni davom ettiring (№ 27. 204-sahifa)

Schlemihl yana oʻziga keldi-choʻntaklarini oltinga toʻldirdi-xaltani yashirdi-shahar tomon shoshildi-keksa ayol qichqirdi: «Siz oʻz soyangizni unutingiz»-buni boshqa kishilar ham payqadilar-rad etildi, quyoshga chiqmoq-koʻchaga chiqish kerak-yigitlar uning ustidan kuldilar-sakrab aravaga chiqdi-mexmonxona tomon joʻnab ketdi-narsalarini olib keltirdi-yaxshiroq mexmonxonaga ketdi-bir necha oltin tangalarni tashladi-eng yaxshi xonani oldi-xonaga kirib ichkaridan qullfadi-yigʻladi-shuncha koʻp pul, ammo soyadan darak yoʻq-endi u nima qiladi?

Russon (1955,169)

2.5.7. Diktant

Darslikning kirish qismidagi o'qish uchun mo'ljallangan badiiy matnlardan diktant o'tkazish uchun ham foydalanish mumkinligi qayd qilingan. Ilovadagi nemischa-inglizcha ikki tilli lug'at alifbo tartibida joylashtirilgan va xuddi grammatikaga oid ma'lumotnoma singari, o'qish, yozish va tarjima qilish jarayonida qo'l keladi.

Xulosa

GTMga xos bo'lgan mashq shakllari:

1. Grammatik o'quv materialini qamrab olgan yakka jummalarni ona tilidan chet tilga tarjima qilish.
2. Ma'lum grammatik hodisalar majmuini qamrab olgan uzunroq va mazmun jihatdan bog'langan matn parchalarini ona tilidan chet tilga tarjima qilish.
3. Nemis tilidagi badiiy matn parchalarini ona tiliga tarjima qilish.
4. Nemis tilidagi badiiy matnlarni o'qish.
5. Yozma ravishda xulosa qilish va matn mazmunini hikoya qilib berish.
6. Tayanch so'zlar yordamida insho yozish va matnni davom ettirish.
7. Diktant yozish.

Mashqlarni bajarishga ko'mak beruvchi (grammatik ko'rsatmalar, so'zlarni qiyoslash, savollar, tayanch so'zlar va boshqalar) vositalar asosiy maqsad bo'lmish-lisoniy ifodaning to'g'riligi va matn mazmunini to'g'ri tushunishni ta'minlashga qaratilgan.

Agar darslik mashqlari asosan grammatikaga, tarjimaga, o'qib tushunishga, yozma topshiriqlarni bajarishga (hikoya qilib berish, diktant, boshqariluvchi va erkin insho) qaratilgan bo'lsa, hech ikkilanmay, ishonch bilan aytish mumkinki, so'z GTM asosida yaratilgan darslik ustida ketmoqda.

2.6. O'quv materialini metodik tashkil qilish

Mashqlar tizimi va matnlarni batafsil tahlil qilish o'quv materiali taqsimoti va uni metodik jihatdan tashkil qilish borasida bir qator xulosalar chiqarish imkoni mavjud.

Boshlang'ich bosqich

GTM konsepsiyasi butun grammatik materialni va shu bilan birga mavzularga oid so'z boyligini qamrab olish va mashq qilishni ko'zda tutadi. Til o'rgatish kursining «boshlang'ich bosqichi» butunlay grammatik materialni o'rganishga bag'ishlanadi.


Kengaytirilgan bosqich

So'ngra kengaytirilgan bosqichda chet tildagi bilimlar tarjima va qayta (teskari) tarjima, matnni o'qib tushunish va fikrni yozma ravishda bayon qilish jarayonlarida amaliyotga tadbiiq qilinadi. Chet tilga tarjima qilish uchun mo'ljallangan matnlar grammatik material va so'z boyligiga oid qiyinchilik darajasining ortib borish prinsipiga asosan tuzilgan.

Badiiy prozaga taalluqli matnlar yo tilining soddaligi, yo mazmunining tushunarililigiga qarab tanlab olingan yoki til jihatdan soddalashtirilgan. Faqat she'rlargina o'zgartirilmasdan asl shaklida qoldirilgan.

Xullas, badiiy adabiyotga oid matnlar lisoniy didaktik nuqtai nazardan metodik tashkil qilish qiyinlik darajasini hisobga olingan holda tanlab olingan yoki qayta ishlangan.

Umumiy kurs quyidagi metodik chizmaga asoslanib tashkil qilingan.



2.7. Darsning borishi

Grammatika

A. Odatda dars bir yoki bir necha grammatik qoidalar taqdimotidan boshlanadi. Grammatik qoidalar ona tilida tushuntiriladi. Ona tili-(chet til emas) GTMning mashg'ulot tili hisoblanadi.

Misollar

B. Grammatik qoidalar misollar yordamida oydinlashtiriladi. Muho-kama qilinayotgan yangi grammatik material darsning asosini tashkil qiladi.

Mashq jarayonida yuzaga kelgan masalalar haqida soʻz yuritilmaydi. Misollar ona tiliga tarjima qilingan holda tushuntiriladi.

Oʻqituvchi ogʻzaki izoh berish uchun ona tilidagi atamalardan foydalanadi. Oʻquvchilar shu tarzda qoidalarni tushunib oladilar va ularni yodlaydilar.

Soʻz boyligi

C. Ona tili va chet tilda yonma-yon qoʻyilgan yangi soʻzlar roʻyhati beriladi. Chet tildagi soʻzni ona tilidagi muqobil soʻzning qarshisiga joylashtiriladi.

Mashqlar

D. Yangi soʻzlar mashqlarda qoʻllaniladi. Mashqlar ayrim olingan soʻzlardan, gap boʻlaklaridan yoki jumalardan tashkil topishi mumkin. Ular bir-biri bilan mazmun jihatdan bogʻlanmagan, balki grammatik mazmunga qarab tuzilgan, masalan, «sein» feʼlining hozirgi zamon shakli mashq qilinadi.

Bu uy katta. U xafa boʻldi. Quyon ahmoq va boshqalar.

Bunday misollar ona tilidan chet tilga yoki aksincha tarjima uchun berilishi ham mumkin.

Tarjima

E. Taʼlimning navbatdagi maqsadi mazmunan bogʻliq boʻlgan matnlarni tarjima qilishdir. Bu maqsadga bilimlar asosini yetarli darajada egallagandan soʻng erishish mumkin. GTMning asosiy vakillaridan biri boʻlmish Gustav Tanger har qanday matn oʻquvchilarga gʻoya jihatdan tushunarli boʻlgandagina foydali boʻladi deb hisoblaydi. Uning fikricha bunga taʼlimning boshlangʻich bosqichida faqat ona tili orqaligina erishish mumkin.

U GTM vakili sifatida iloji boricha tezroq mazmunan bogʻlangan oʻquv materiallari ustida ishlashga oʻtishga harakat qilish kerakligini taʼkidlaydi. Biroq islohchilar koʻrsatgan yoʻldan borishga bizni koʻp narsa toʻxtatib qoʻyadi,- deydi G.Tanger. Chet til taʼlimining boshlangʻich bosqichida oʻquvchilar mehnatlarining rahatini darhol koʻravermaydilar, chunki har qanday taʼlim kabi chet til taʼlimida ham mehnat natijasi asta-sekin yuzaga chiqadi.

Biz boshlangʻich taʼlimni qurmoqchi boʻlgan binoimizning poydevori deb hisoblaymiz va bu poydevordan bino bitmasdan turib foydalanishga harakat qilishni, garchi buni bemaʼnilik deb hisoblasalar ham, taklif qilamiz va buni dars maxsuli pishib yetishmasdan turib uni yigʻib-terib olishga oʻxshatamiz hamda buning uchun tayinli usullar mavjudligini taʼkidlashni istaymiz.

(Tanger, 1888, Hullen, 1979, 50 kitobidan olindi)

7-topshiriq

Siz 2,2 dan 2,5 gacha bo'lgan qismlarda darslik tahlili orqali GTMning bir qator muhim xususiyatlari bilan tanishib chiqdingiz.

1. Siz GTM haqida nimalarni bilib olganingizni yana bir marta eslab oling:

-grammatikaning o'rnini va taqdimoti

-mashqlar tizimi

-dars paragraflarining tuzilishi va dars bosqichlari

-o'quv materialini metodik tashkil qilish

2 O'zingiz GTM asosida dars o'tganmisiz?

-Sizningcha bu metodning qanday afzalliklari bor?

-Qanday kamchiliklar bu metodga xos?

2.8. Xulosa:

GTM asoslari, maqsadi va metodik prinsiplari

Biz yuqorida alohida darslik misolida GTMning muhim xususiyatlarini belgilab oldik.

Quyidagi bo'limda avvalgi sahifadagi chizmaga asoslanib metodik konsepsiyaga xos bo'lgan ayrim soha va dalillarni keltiramiz:

- pedagogik dalillar (xal qiluvchi soha)
- tilshunoslik, matn va adabiyotshunoslik, mamlakatshunoslik sohasiga oid dalillar (predmet sohasi)
- ta'lim nazariyasiga oid (ta'lim maqsadi va mazmunini belgilovchi) dalillar

2.8.1. Pedagogik asoslar

Chet tillarni o'rganish faqat aqliy tarbiya vositasi emas, balki o'zga madaniyat ta'limiy boyliklari va qadriyatlarini bilan tanishish va ularni o'z madaniy hayotiga tatbiq qilish orqali kishi shaxsining shakllanish jarayoni hisoblanadi.

Yevropada chet tillarni o'rganish uzoq vaqt yuqori darajadagi ta'lim olishda imtiyoz sanaldi va jamoat maktablarida imtiyozga ega bo'lgan kishilarni tarbiyalash deb qaraldi. GTMning bunday baholanishi chet til o'qitish metodi sifatida ko'pgina mamlakatlarda chet til ta'limi jarayonida o'z o'rniga ega.

2.8.2. Tilshunoslik asoslari

O'rganiladigan chet til grammatikasi lotin tili grammatik kategoriyalariga oid tushunchalar orqali tasvirlanadi va qoidalari asosida tadqiq qilinadi. Har bir tilga xos bo'lgan tuzilmalar bir-biridan farq qilganligi sababli har bir qoidaga xos mustasnlolar berilgan va ular maxsus o'rganilgan.

Tilni tasvirlashning asosini shakliy mezonlarga asoslangan yozma adabiy nutq namunalari tashkil qiladi. Til «tilga oid qurilish materiallari»ning mantiqiy qoidalar asosida sistemali joylashuvidan iborat bo'lgan «bino» deb hisoblandi. Tilni egallash tilga oid bilimlarni o'zlashtirib olish deb tushunildi.

2.8.3. Adabiyot va mamlakatshunoslik

Adabiyot (shaklga tushirilgan til sifatida) til jamoasining ma'naviy faoliyati haqidagi hujjat hisoblanadi. Unda madaniy qadriyatlarga oid unsurlar o'z aksini topadi. Ularni idrok qilish va tushunish lozim.

2.8.4. Ta'lim nazariyasi asoslari

Ta'lim asosida tuzilma va qoidalarni tushunish va qo'llash kabi aqliy faoliyat konsepsiyasi yotadi. Tillarni egallash bu aqliy mashg'ulot bo'lib, tartibli fikrlashni o'rgatish, tarbiyalash hisoblanadi.

2.8.5. Tushunchalar izohi va maqsad

GTM sintetik deduktiv metod hisoblanadi. Bu degani, chet til turli va ayrim olingan qoidalarning (deduktiv usullarning) bog'lanishi orqali o'rganiladi. GTMning chet til darsidagi bosh mazmuni, metodning nomi anglatib turganidek, grammatik qoidalar taqdimoti va ularning matnlar tarjimasidagi qo'llanishidir. Chet tildan tarjima qilish darsning asosiy usulini tashkil qiladi.

Zamonaviy tillarni o'rgatishdan ko'zlangan asosiy maqsad, GTMning asosiy tarafdori Gustav Tanger fikricha, "umumiy aqliy tarbiya" berish va "ongni, aqlni yoki qalbni (yurakni) tarbiyalash"dan iborat. (Tanger, 1888, Hullen, 1989,14 dan keltirildi).

Bu maqsadlarga erishish uchun albatta chet tilga oid amalda qo'llaniladigan malakalar ham egallanishi lozim. Bu malakalar maqsadga, ya'ni umumiy aqliy tarbiyaga erishish uchun vosita rolini bajaradi.

Aqliy tarbiya, birinchi navbatda, tildan yozma ravishda foydalanishni nazarda tutadi. O'quvchi matnning mazmuni va shaklini tushuna oladigan bo'lishi lozim. Buning uchun o'rganilayotgan til madaniyatiga oid ijod qilgan taniqli mualliflarning asarlari matn sifatida tanlab olinadi.

O'quvchi o'rgangan so'zlar va grammatik qoidalar yordamida matnlarni tushuna oladigan va ularni ona tiliga tarjima qila oladigan bo'lishi lozim.

Agar grammatik qoidalar o'quvchi tomonidan yod olinsa, ular ona tilidan chet tilga va aksincha chet tildan ona tiliga tarjima qilish jarayonida qo'llay bilinsa hamda ma'lum hajmdagi so'zlar yod olingan bo'lsa, maqsadga erishilgan deb hisoblash mumkin.

2.8.6. GTM asosidagi dars prinsiplari

- ❖ Chet til tuzilish qonuniyatlarini ona tili bilan qiyoslagan holda e'tiborga olish
- ❖ Qoidalarni qo'llagan holda to'g'ri jummalalar tuzish va chet tilni rekonstruksiyalash
- ❖ Keng tarqalgan mashq shakllari: qoidalarni amalda qo'llagan holda to'g'ri jummalalar tuzish; shaklga oid bo'lgan grammatik qoidalar asosida jummalarni o'zgartirish; ona tilidan chet tilga tarjima qilish (Hinuebersetzung) va chet tildan ona tiliga tarjima qilish (Rueckuebersetzung).

2.9. Grammatika-tarjima metodi tanqidi

GTM, birinchi navbatda, chet til ta'limini isloh qilish harakati tarkibida «bevosita metod» deb nom olgan metod tarafdorlari tomonidan tanqid ostiga olindi. Ulardan biri Wilhelm Vietor edi.

U GTMni zamonaviy, muomaladagi tilni o'lik til vositalari va qoidalari yordamida o'qitiladi deb tanqid qildi.

Bu qoidalar hech qachon muomaladagi tilni o'qitishga to'g'ri kelmaydi deb hisobladi.

Til grammatikasini hech qachon bir vaqtlar grammatiklar yaratgan va g'azal va she'r qonuniyatlari kabi o'zgartirib bo'lmaydigan, qotib qolgan qoidalarga bo'ysindirish mumkin emas, aksincha, grammatika ham jamiyatda bo'lgani kabi, ya'ni nima kecha dolzarb bo'lsa, bugun unutiladi, nima bugun to'g'ri bo'lsa, ertaga noto'g'ri bo'lishi ham mumkin degan qoidaga amal qiladi. (Vietor, 1882; Hullen, 1979,12 dan keltirildi).

Vietor tanqidni davom ettirib, GTM tilni ma'nosiz bo'laklarga bo'lib yuboradi, - deb hisoblaydi. Har qanday til bir-biriga ma'no jihatdan bog'lanmagan alohida so'zlardan emas, balki jumladan tashkil topadi.

Qoidalarni o'zgartirmasdan amalda qo'llash, so'zlarni yoki gap bo'laklarini o'zgartirmasdan bir-biri bilan bog'lashga o'xshab ketadi. Bunday bog'lanish hech qachon haqiqatni ifodalay olmaydi. Bundan tashqari, yakka so'zlar va bog'lanmagan jumlar o'quvchilarda qiziqish uyg'otmaydi. GTMga ko'ra dars ko'pincha so'z va qoidalarni yod olishdan iborat. Bu yod olish mexanik tarzda sodir bo'ladi. O'quvchi mustaqil ravishda biron bir masalani hal qilish imkoniyatiga ega emas. Uning aqliy fikrlashi talab etilmaydi. Hatto uy vazifasini bajarish ham mexanik faoliyat hisoblanib, mashq tarkibidagi jumalarni ko'chirib yozishdan iborat.

Gustav Tanger yuqoridagi tanqidga nisbatan quyidagicha qarshi fikr bildiradi: grammatik qoidalarni mustaqil ishlab chiqish bola ongi uchun ortiqcha yuk hisoblanadi. O'quvchilar doim o'qituvchidan yordam olgan holda unga suyanib ish ko'rishi kerak, aks holda o'qituvchining boshlovchilik roli qayerda qoladi? O'quvchilar ta'lim olishning bunday turida faqat shoshma-shosharlik bilan va asoslanmagan xulosa chiqarishga o'rganib qoladilar.

Chet til ta'limining asosiy maqsadi shakliy va mantiqiy asoslashni talab qilgan holda bolaning ma'naviyatini tarbiyalashdan iboratdir (qarang «ta'limning shakliy prinsipi», «umumiy ma'naviy ta'lim»).

GTM amalda qo'llaydigan mavhum grammatik qoidalarni o'quvchilar tomonidan yod olish birmuncha osondek tuyuladi. Qoidalar aniq bo'lib, ular o'quvchilarga tildan amalda foydalana olish uchun asos yaratadi.

O'quvchilar, GTM ko'pincha qo'llaydigan usul bo'lmish qoidalarni, o'zlarining xohishlariga qarshi borgan holda aytib bera oladigan bo'libgina qolmasdan, balki ular qoidalarni amalda qo'llay oladigan va ular asosida tayyorlangan mashqlarni bajara oladigan bo'lishlari kerak.

Har doim bizning usulimizga ko'ra o'rtacha o'qiydigan o'quvchi yoqimli hissiyotni boshdan kechirar edi, agar u nimaga ega bo'lgan bo'lsa (men bu ko'p ma'noli so'zni ataylab qo'llayapman) u bunga qodir va unga nimani o'rgatilgan bo'lsa, bu materialning unga tushuntirilishi qanchalik qiyin bo'lmasin, uni amalda qo'llay oladi.

Bir so'z bilan aytganda, o'quvchi uchun o'rganayotgan sohasidagi u ega bo'lgan avvalgi tushunarliklik va o'ziga ishonch hissiyoti analitik metod bilan o'qitilganda, hech bo'lmaganda ta'limning

boshlang'ich bosqichida, mavjud bo'lmaydi. (Tanger, 1888, Hullen, 1979,53 dan keltirildi).

8-topshiriq

Tasavvur qiling: Siz darslik muallifisiz. Siz ta'limning boshlang'ich bosqichi uchun GTM asosida darslik yozayapsiz.

Siz 15-bobga yetib keldingiz va bu bobda grammatik material sifatida "Qaratqich kelishigini talab qiladigan predloglar"ni yoritmoqchisiz.

- 1. Grammatika kitobini olib qaysi predloglar qaratqich kelishigini talab qilishini aniqlab oling.*
 - 2. Ona tilingizda ushbu mavzuga oid sodda va tushunarli qoidalarni ifodalang.*
 - 3. Har bir predlog ishtirokida sodda gap tuzing.*
 - 4. Siz yoritmoqchi bo'lgan barcha predloglar ishtirok etgan yozma matn tayyorlang.*
 - 5. Yangi grammatik material asosida uchta mashq tayyorlang:*
 - Elementlari tushirib qoldirilgan matn*
 - Savol-javob mashqi*
 - Nemis tiliga tarjima uchun ona tilidagi matn*
- O'zingiz tuzgan dars paragrafini mamlakatingizda chop etilgan darslik paragrafi bilan solishtiring.*
- GTMning mamlakatingiz chet til darslariga qanday ta'siri borligini aniqlang.*

3. Bevosita metodlar (BM) Audiolingval metod (ALM) debochasi

9-topshiriq

O'ylab ko'ring:

"Bevosita" so'zi o'qitish metodi uchun qanday ma'noga ega bo'lishi mumkin?

"Bevosita" - chet tilni "bevosita ona tili kabi o'rganish"

- chet tilni "bevosita o'qituvchidan o'rganish"

- chet tilni "bevosita grammatik qoidalarsiz o'rganish"

3.1. Kirish

GTMni tavsiflash jarayonida bir necha bor chet til ta'limida 19-asrning 80-yillarida yuzaga kelgan isloh harakati haqida aytib o'tildi.

Bu harakat bevosita metodni yaratdi va o'z navbatida chet til ta'limi olamida yaxshi tanish bo'lgan tilni eshitib o'rganish (Audiolingval) metodini tayyorlab berdi.

Bevosita metodning (BM) asosiy xususiyatlari ushbu bo'limda tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida BM isloh harakati jarayonidagi turli metodik harakatlarning asosiy yo'nalishi sifatida baholanadi.

Bevosita metod turli nazariyalardan biri sifatida asr almashinishi chog'ida chet til ta'limi uchun yangi usul va maqsadlarni belgilab berdi.

Bu metodning bosh yo'nalishi hozirgacha hukm surgan grammatika metodidan voz kechish va butunlay og'zaki nutqqa asoslangan chet til ta'limining faol ko'rinishiga o'tish edi.

Metodning «bevosita metod» deb nomlanishiga sabab, chet tilni bevosita, vositachi bo'lib chet tilni o'rganishga halaqit berayotgan ona tilidan voz kechgan holda (ona tilining ishtirokisiz) o'rgatish edi.

Ona tili chet til ta'limidan butunlay chiqarib tashlanishi kerak edi. Shu yo'l bilan o'quvchi faqat o'rganayotgan yangi tili haqida o'ylashi kerak edi. U chet tilni ona tili bilan qiyoslamasligi, balki ongida yangi, mustaqil til tizimini shakllantirishi lozim edi.

Bevosita metod birinchi navbatda taniqli nemis metodisti Berlits nomi bilan bog'liq (Berlits, 1887).

Bu metod adabiyotlarda turli boshqa nomlar bilan ham ataladi, masalan, «anti-grammatika metodi», «isloh metodi», «ratsional metod»,

«tabiiy metod», «konkret metod», «intuitiv metod», «analitik metod»
(Marta, 1966, 10)

3.2. Isloh harakatining tarixiy rivoji

Bevosita metodning bunyodga kelishi «Til ta'limini qayta qurish kerak» yoki «qachongacha???» sarlavhasi bilan 1882 yilda e'lon qilingan kitobchadan boshlangan (Raith, 1967, 37).

Kitobcha muallifi Marburg universiteti professori **W.Vietor** bo'lib, uning fikrlari siz mutoala qilayotgan kitobning GTM tahlili qismida bir necha bor keltirildi.

W.Vietor an'anaviy grammatikalashtirilgan chet til ta'limining kashin tanqidchisi va unga butunlay qarama-qarshi bo'lgan yangi metodning tarafdori bo'lgan.

W.Vietor birinchi navbatda yangi tillarni o'qitish jarayonida yozma nutq va grammatikaga qarshi turdi. Uning fikricha GTMning qotib qolgan, o'zgaras qoidalari hech qachon doimiy rivojlanishda bo'lgan tillarni o'rgatish uchun yaramaydi.

O'quvchi eng yaxshi grammatikani va juda katta hajmdagi so'z boyligini miyasiga joylab olgan taqdirda ham tilni o'rganib olgan hisoblanmaydi!

«Til harflardan emas, balki tovushlardan iborat», men buni mashhur tilshunos **Sayci** so'zlari bilan aytaman... «Va ularni (tovushlarni) o'quvchining ongiga to'la singdirmasdan turib hech qachon til bilan mashg'ul bo'lishga hojat yo'q».

(Vietor, 1882, Hullen, 1979, 12 dan keltirildi).

Dars jarayonida asosiy e'tibor og'zaki nutqni zo'r berib egallashga qaratilishi lozim. Shuning uchun talaffuzni o'rgatishga alohida diqqat qilinishi kerak. Fonetik bilim va fonetik yozuv (transkripsiya) dars jarayonida bir-biri bilan bog'lanishi kerak.

So'ngra Vietor bir-biri bilan ma'no jihatdan bog'lanmagan so'zlarni so'zlar ro'yxatidan yod olishni tanqid ostiga oldi va ularning jumlar tarkibida taqdim qilinishini talab qildi.

Lug'at tuzish maqsadlarini hisobga olmaganda har qanday til so'zlardan emas, balki jumladan tashkil topadi. Hech qachon biron bir chet tilda gapirishni shu tildagi so'zlar ro'yxatini tuzib, ularni yod olish yo'li bilan o'rganib bo'lmaydi. Hamma grammatik qoidalarni bilgan taqdirda, yonma-yon turgan so'zlarni va berilgan javobni tushunish bilan cheklaniladi.

(Vietor, 1882, Hullen, 1979, 12 dan keltirildi).

GTMDa grammatika grammatika uchun o'rganiladi. Qoidalarni o'rganish, o'quvchilar ko'plab misollardan qoidani keltirib chiqara

oladigan bo'lsalargina, ahamiyat kasb etadi. Vietor grammatika o'rganishning induktiv (misoldan qoidaga) yo'lini ma'qullaydi. Bunga qarama-qarshi o'laroq GTMning deduktiv (qoidadan misolga) usulir yoqlamaydi.

Vietor va uning tarafdorlari an'anaviy grammatika metodini ra qilish bilan "yangi tillarni o'rgatish borasidagi isloh harakatining boshlanishiga turtki berdilar va bu harakat tezda ko'plab ilmiy chiqishla orqali butun Germaniyaga yoyilib ketdi" (Kahl, 1962, 34-35).

19-asrning 90-yillarida nihoyat islohchilarning zamonaviy chet t ta'limi haqidagi g'oyalari amaldagi o'quv rejalarida o'z ifodasini topdi.

Unda shunday deyiladi: Yangi tillarni o'qitishdan maqsad barcha yuqori sinflarda o'zgartirildi, jumladan, asosiy e'tibor chet tilni og'zaki va yozma ravishda amalda qo'llashga qaratiladi, grammatika esa faqqa maqsadga erishish vositasi hisoblanadi.

(Bender, 1979, 16)

Islah harakati sabablari

Islah harakatining bir qator sabablari bor edi. Birinchi sabab, mavjud bo'lgan an'anaviy metodlarning yaxshi samara bermaganidadir.

Fanning turli tarmoqlari chet til ta'limidagi ko'plab xatoliklarni ochib tashladi. Masalan, tilshunoslik tillarni qiyoslash orqali har bir til o'ziga xos tuzilishga ega ekanligini va shuning uchun lotin tiliga xos bo'lgan qoidalar tizimi zamonaviy tillarga mos kelmasligini uqtirdi.

Fonetika og'zaki va yozma nutq bir-biridan tubdan farq qilishini isbotladi. Psixologiya rasmiy ta'lim prinsiplariga qarshi chiqdi.

Ta'lim maqsadlari o'zgarishining asosiy sababi asr almashinishi davrida Germaniyada zamonaviy tillardan amaliy foydalanish zaruriyatining siyosiy va xo'jalik ehtiyojlariga aylanishidir. Endi chet tilda grammatik qoidalarni bilish va badiiy asarlarni o'qiy olish davr talabini qondira olmay qoldi. Ta'limning rasmiy maqsadlari o'rnini amaliy maqsadlar egallay boshladi.

10-topshiriq

Qisqacha xulosa yasang:

1. Bevosita metodlarning qaysi xususiyatlarini bilib oldingiz?
2. Islahchilar GTMga qo'ygan kamchiliklarning asosiylari qaysilar?
3. 19-asrning 90-yillari oxirida chet til ta'limi sohasida "isloh metodlari"ning vujudga kelish sabablarini ko'rsating.

3.3. Bevosita metodlarning (BM) maqsadi

Tilni his qilish qobiliyatini tarbiyalash

O'quvchilarga grammatik qoidalarni yod oldirish, jumalarni tarjima qilishda bu qoidalarni qo'llay olishni o'rgatish, chet til qoidalarni o'quvchi o'zi intuitiv tarzda keltirib chiqara oladigan darajaga yetkazish

uchun unda tilni his qilish qobiliyatini tarbiyalash lozim.

Ayniqsa o'quvchi o'qituvchiga taqlid qilgan holda chet til sistemasini his qilishni o'rganishi kerak. Tildan amalda foydalanish u yoki bu darajada avtomatizm darajasiga ko'tarilishi kerak. Tilni his qilish qobiliyatini rivojlantirish til ta'limining maqsadi bo'lishi lozim.

Bu usulga ko'ra chet tillarni egallash xuddi ona tilini o'rganish kabi amalga oshirilishi kerak. Bola ona tilini qanday yo'l bilan o'rgangan bo'lsa, chet tilni ham shunday o'rganishi lozim.

Biz ikkinchi tilni ona tili kabi o'rgana olmasligimiz tayin, birinchi navbatda maktabdan tashqaridagi imkoniyatlar bir-biridan farq qiladi. Ammo ona tili va chet tilni o'rganish tarzi bir-biridan butunlay farq qilmaydi. Chet tilni egallash jarayonida ham yozishni o'rganishdan avval gapirish o'rganiladi.

(Raith, 1967, 43)

Tabiiy o'rganish

Shu munosabat bilan tilni "tabiiy o'rganish" tushunchasi vujudga keladi, bu o'quvchilarga tilni tabiiy sharoitda o'rgatishni ko'zda tutadi. Shunday qilib dars jarayonida kundalik muomala tili o'rgatila boshlandi.

Endi o'quvchilarga katta badiiy asarlarni o'qish va tarjima qilishni o'rgatish o'rniga kundalik muomala jarayonida fikr almasha olishni o'rgatila boshlandi. Kichik yoshdagi bola gapirishni qanday o'rgangan bo'lsa, chet tildagi birinchi so'z va gaplar ham shunday o'rganilishi, ya'ni bevosita o'quvchining hayotiy muhitidan, masalan, oila yoki maktab sharoitidan olinishi lozim edi.

Assotsiatsiya metodi

Chet til tizimi o'quvchini tili o'rganilayotgan xalq fikriy va hissiy dunyosiga hamda hayotiy muhitiga olib kirishi lozim edi.

Chet tilni o'rganish ona tili tizimidan mutlaqo ajralgan holda assotsiativ metod asosida amalga oshirildi. Ma'lum tushuncha va tovushlar ifodalari ma'lum mazmun bilan mustahkam bog'landi (assotsiatsiyaga kiritildi).

Assotsiatsiya metodi psixologiya fanidan o'zlashtirib olindi. Bevosita metod tarafdori va ijodkori Sweet assotsiatsiya tushunchasining ahamiyatini quyidagicha ta'riflaydi: tilni amaliy o'rganishning psixologik asosini assotsiatsiya qonuniyati (the great law of association)... tashkil qiladi. Butun til o'rganish jarayoni assotsiatsion bog'lanishlardan iborat. Biz ona tilini o'rganish jarayonida so'zlar va gaplarni fikrlar, g'oyalar, faoliyatlar, voqealar bilan bog'laymiz (qarang: Stern, 1984, 317).

Birtillilik

Assotsiatsiya jarayoni ona tilini chetlab o'tgan holda chet tilda fikrlashdan iborat bo'lishi kerak.

Fikriy tasavvur, juz'iy tushunchalar bir yo'nalishga qaratilishi lozim. Xullas, ona tili chet til darsidan iloji boricha chiqarib tashlanishi kerak.

Bevosita metodning maqsad va usullari an'anaviy grammatika-tarjima metodining maqsad va usullaridan butunlay farq qilishi tayin edi. Asosiy farqlar quyidagi chizmada qisqacha o'z ifodasini topgan.

Qiyos

Metod	Ta'lim maqsadi	Ona tili
1) Kognitiv (GTM) tushunish, fahmiga yetish Tanqidiy (BM)	Yozma nutqni o'rgatish, til haqida bilim berish Og'zaki nutqni o'rgatish, tilga oid malakalarni egallash	Ona tili materialni tushuntirish tili, chet tilni o'rgatish vositasi (GTM) Ona tili dars jarayonidan chiqarib tashlandi (BM).
2) Deduktiv (GTM) qoidadan misolga Induktiv (BM) misoldan qoidaga	Ongli harakat, fahmiga yetish "Ko'p o'ylanmasdan" amalda qo'llash	Har qanday tadbir ona tili orqali (GTM) Ona tili xalaqit beruvchi unsur deb qaraldi (BM)
3) Ikki tilli (GTM)	Chet til ona tilida tushuntiriladigan formal tizim (sistema), shu tizim haqida ma'lumot berish	Ona tili taqdimot vositasi

Bir tili (BM)	Chet til muomala vositasi, uni ona tilisiz muomala vositasi sifatida o'rgatish	Ona tili rad etiladi
---------------	--	----------------------

(Gnutzmann Stark 1982,21)

Tavsiya

Ilovada 19-asrning 80-yillarida Xalqaro Fonetik Assotsiatsiyaning zamonaviy chet til ta'limi haqidagi isloh harakatiga oid BMni xulosalovchi 6 banddan iborat asosiy yo'nalishlari misol tarzida berilgan.

11-topshiriq

1. BMning asosiy xususiyatlarini ifodalovchi xulosa yasang
2. Isloh metodlarining shakllanish sabablari nima deb o'ylaysiz?
3. BMning asosiy maqsadlarini bayon qiling.

3.4. Bevosita metod asosidagi ta'lim usullari va mazmuni

3.4.1. Bevosita metod ta'limi

Birtillilik

Bevosita metod asosidagi darsning bosh prinsipi birtillilik hisoblanadi. Ona tili bu metod tarafdorlari tomonidan chet til tushunchalarini bevosita taqdimotiga asoslangan dars jarayoniga halaqit beruvchi unsur sifatida qaraldi. «O'quvchi chet til tushunchalarini ongida shakllantira olishi uchun ona tilini butun dars davomida miyasidan chiqarib turishi kerak deb hisoblandi».

(Kahl,1962,38)

Assotsiatsiya

Chet tilning tovush ifodalari assotsiatsiya orqali ma'lum fikriy tasavvur yoki taassurotlar bilan bog'lanishi kerak.

Dars davomida ona tilidagidan butunlay farq qiladigan chet tildagi soʻzlar, gaplar va tuzilmalar shakli bilan mazmuni oʻrtasida bogʻlanishlar tizimini shakllantirish lozim.

Taʼlimning boshlangʻich bosqichida soʻzning mazmuni haqidagi fikriy tasavvurlar ona tilida erkin kechadi. Tinimsiz mashqlar orqali ona tili asta-sekin chetlashtirilishi va oʻquvchi chet tildagi shakl va mazmun bogʻlanishlariga erishishi kerak.

Suhbat

Bu maqsadga erishish uchun darsning asosiy shakli oʻrganilayotgan tildagi suhbat hisoblanadi.

Chet tilni egallash (huddi ona tilini oʻrganish kabi) asosan tinglash orqali (auditiv) amalga oshiriladi. Oʻqituvchi oʻquvchi taqlid qiladigan til modeli vazifasini bajaradi. Tinglash va taqlid qilish til oʻrganishning muhim yoʻllaridan biri hisoblanadi.

Albatta bunday darsda GTMga qaraganda oʻqituvchiga oʻzgacha yuqori talab qoʻyiladi.

Oʻqituvchi namuna rolida chet tilda erkin va birinchi navbatda, aksentsiz gapira oladigan boʻlishi kerak.

Talaffuzni oʻrgatish

Bevosita metodga koʻra til oʻrgatish jarayonida asosiy eʼtibor tilning tovush tizimini egallashga qaratiladi. Bu paytga qadar chet til darolarida til talaffuzini oʻrgatishga eʼtibor bunchalik katta emas edi. Talaffuzni oʻrgatishga ortiqcha eʼtibor berish darkor emas,- deb hisoblangan va bu borada faqat taʼlimning boshlangʻich bosqichida ish olib borilar edi. Darsning bu maqsadiga grammatik bilimlarni egallash, tarjimoni, oʻqish va yozishni oʻrgatishga qaraganda unchalik ahamiyat berilmas edi.

Taqlid qilish

Talaffuzga oʻrgatishning eng sodda va qadimiy metodi taqlid qilish hisoblanadi. Masalan, R.Ascham 1570 - yilda shunday yozgan edi: Barcha tillar, yangi oʻrganilgan va hatto, ona tili ham, taqlid yoʻli bilan oʻrganiladi. Sen qanday eshitgan boʻlsang, shunday gapirasan, agar sen boshqalarning gapirishlarini eshitmagan boʻlsang, oʻzing gapira olmayсан. Va sen kimni eshitasang, undan gapirishni oʻrganasan. (Kelly, 1976, 65)

Fonetika

O'quvchining qiyin tovushlarga taqlid qila olishini osonlashtirish uchun fonetik bilimlardan foydalanish kerak. Masalan, o'qituvchi o'quvchiga [y] tovushining talaffuzini o'rgatishda lablarning yumaloq bo'lishi va cho'chchayishini alohida tushuntiradi. (Kelly, 1976,66)

Talaffuzni o'rgatishda o'quvchiga beriladigan yordam borasidagi yana bir boshqa imkoniyat uning o'z ona tili ta'sirida vujudga keladigan xatoga e'tibor qaratishdir. Masalan, fransuz millatiga mansub o'quvchiga nemis millati vakili sifatida fransuzcha gapirishga urinib ko'rish tavsiya etilsa, o'quvchiga nemis tili talaffuzining bir qator hususiyatlari aydinlashadi.

Ko'rgazmalilik

Bevosita metodning asosiy prinsiplaridan yana biri bu ko'rgazmalilik sanaladi.

Friedrich Glauning o'zining 1910 - yilda e'lon qilgan «Yuqori sinflarda tarbiya va dars nazariyasidan ma'lumotnoma» kitobida quyidagilarni yozadi:

Ko'rgazmalilik metodining maqtovga loyiq bosh prinsipi o'quvchining til haqidagi tasavvurlari rasmni ko'rish jarayonidagi predmet haqidagi tasavvurlari bilan bevosita bog'lanishidir. Bu bog'lanish yaqin va tezkor bo'lishi, ona tilidagi tasavvurlar na zamon va na makon nuqata nazaridan chet tildagi tasavvurlarni siqib chiqarmasligi lozim.

Chet til darsi uchun ko'rgazmalilik va ko'rgazma vositalari zarurligi haqiqat. Ulardan chet tilda so'z yasash, grammatik material taqdimoti va uning mustahkamlanishi hamda so'z boyligini o'zlashtirib olish jarayonida qo'shimcha va yaqqollashtiruvchi vosita sifatida foydalaniladi. Bu vosita o'quvchilarning dastlab tilga, keyinchalik predmetga oid tasavvurlarini uyg'otadi.

(Glauning 1919, Hullen, 1979,70 dan keltirildi)

Ko'rgazmalilik talabiga ko'ra ta'lim mazmunini taqdim qilish uchun bir qator metodlar vujudga keladi. Ular quyidagilar:

So'z boyligi taqdimoti quyidagi ikki talabga javob berishi lozim.

1. Ko'rgazmalilik
2. Bir tillilik

Ko'rsatish: Nomlash

Ta'limning boshlang'ich bosqichida o'quvchining bevosita atrof-muhiti e'tiborga olinishi lozim. O'qituvchi buning uchun sinf xonasidagi predmetlardan foydalanadi va ularning nomini ataydi. Shu yo'l bilan u konkret ob'ektlarni ko'rsatib, nomini chet tilda atab tanishtiradi. Masalan, *bu nima? - Bu stol* tarzida.

So'ngra u predmetlarning sifati yoki xususiyatlarini atashi mumkin. Masalan, *qalam uzunmi yoki qisqa?* Faoliyatni ifodalashi mumkin, masalan, *men eshikni ochaman*. O'qituvchi narsaning sonini aniqlashi mumkin, masalan, *bitta kitob, ikkita kitob*. U so'zning kelishigini ko'rsatishi mumkin. Masalan, *bu Petraning kitobi (Misollar, Raith 1976,30 dan olindi)*.

So'z boyligi taqdimotida bevosita ko'rgazmalilikning muhim ahamiyati 17-asrdayoq J.A.Comenius (YAn Amos Komenskiy) tomonidan "res et verba" (narsa va so'z) birligi haqidagi ta'limotida alohida ko'rsatib berilgan.

Ta'rif

So'zlar taqdimoti borasidagi ikkinchi imkoniyat bu so'zni ta'riflashdir. Bu yo'l so'zni o'qituvchi bevosita ko'rgazmalilik asosida taqdim qilish imkoniyati bo'lmagan taqdirda qo'l keladi.

Ta'rif bu bir tushunchani o'zgacha tavsiflashdir. Bu jarayonda ikkinchi yoki navbatdagi tushunchalarga ham ta'rif berishda tavakkal qilish xavfi mavjud. Lekin bundan amalda voz kechish kerak.

Ta'rif berishning ishonchli usuli sinonimlardan (ma'nodosh so'zlar) va yoki antonimlardan (zid ma'noli so'zlar) unumli foydalanishdir. Bu borada so'zlar o'rtasidagi nozik farqlarni ham hisobga olish zarur, masalan, *gehen-piyoda bormoq* va *fahren-transport vositasi bilan bormoq*.

Tushuntirish

So'z taqdimotining uchinchi turi: tushunchani uning konteksti asosida tushuntirish. Shu kontekstdan tushunchaning ma'nosi o'z-o'zidan kelib chiqishi lozim.

Kontekst birgina jumladan ham iborat bo'lishi mumkin. Masalan, *Rad - g'ildirak* so'zi tushuntirilganda misol-jumla quyidagicha bo'lishi mumkin: *Velosipedning ikkita, avtomobilning to'rtta g'ildiragi bor*. Yoki *entdecken - kashf qilmoq* so'zi uchun quyidagicha misol keltirish mumkin: *Kolumb Amerikani kashf qilgan*.

Chet tilidagi tushunchani vaziyatni tasvirlash orqali ham tushuntirish mumkin, masalan, *weil-chunki* so'zini tushuntirish uchun *Tom qayerda? U yo'q, uyda qoldi. U bemor bo'lganligi sababli kela olmaydi (U kela olmaydi, chunki u kasal)*.

Noch-yana (haligacha) so'zini quyidagicha tushuntirish mumkin: *Dars soat 12 da tugadi. Soat 12 dan chorak o'tganda men sinf xonasiga keldim va Dorisning partasida o'tirganini ko'rdim. Men: Doris, soat 12 dan 15 minut o'tdi; Nima uchun sen uyga ketmading? Nima*

uchun sen haligacha bu yerdasan?-dedim (misollar Raith 1967,40 dan olindi)

Ko'rgazmalilikning bunday turidan foydalanilganda o'quvchining o'zi chet tildagi so'zni tushuntira olish uchun ona tilidagi tushunchaga murojaat qilishi kerakmi yoki yo'qmi degan savol javobsiz qolmoqda.

Ko'rish tayanchi

Dars jarayonida tushunchani verbal taqdim qilish bilan birga turli yordamchi vositalar qo'llaniladi, masalan, suratlar va devordagi rasmlar.

Xilma-xil oddiy faoliyatlar orqali turli tasavvurlar hosil qilish mumkin. O'quvchi ayrim olingan harakatlarni ko'rsatishi va ularni atashi mumkin. Tushunchaning fahmiga yetish va bilib olish turli hissiy idroklar orqali osonlashtiriladi.

Bevosita metod vakili Max Walter quyidagilarni yozadi: «Nutq harakatini idrok qilish jarayonida akustik-motor xotiradan birinchi navbaida tilga oid taassurot o'tadi. Bu taassurot qanchalik jonli va quvonarli bo'lsa, u shunchalik mustahkam esda qoladi. Shuning uchun biz asosiy e'tiborni harakatga qaratamiz. (Walter; Kahl 1962,38)

Og'zaki nutq

Ko'rgazmalilikka hamda tildan amalda erkin foydalanishga bo'lgan talab bevosita metod asosidagi darsning maqsadini yozma nutq sohasidan kundalik hayotdagi og'zaki nutq sohasiga ko'chirdi.

Natijada o'quvchilar tildan o'zlarining kundalik hayot sharoitida foydalanishga o'rgandilar. U endi chet ellik kishini tushuna olishi va unga o'z fikrini tushuntira olishi kerak edi.

Grammatika

Grammatika darsida qanday usullardan foydalanildi? An'anaviy grammatika darsining asosiy prinsiplarini yana bir bor eslab ko'raylik:

Material deduktiv yo'l bilan, ya'ni grammatik qoidadan misolga tomon borish yo'li bilan tushuntirildi. Qoida ona tilida tushuntirildi, misollar berildi, so'ngra tarjima mashqlari bajarildi. Darsda asosiy e'tibor mantiqiy topshiriqlarni bajarishga, til birliklari bilan tilga oid qoidalar asosida aqliy operatsiyalarni bajarishga qaratildi.

Taqlid

Bevosita metodga ko'ra tilni egallash ixtiyorsiz diqqat asosida ro'yobga chiqarilishi kerak. Taqlid qilish va o'rganish o'quvchida tildan erkin foydalana olish hissini tarbiyalashga yordam berishi lozim.

O'quvchi o'z hissiyoti bilan chet tildagi jumla yoki fikrning grammatik ifodasi to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlay oladigan bo'lishi kerak. Buning uchun u qoidaga birinchi navbatda murojaat qilmasligi kerak.

Grammatik qoidalar bevosita metod asosida tashkil qilingan darsdan butunlay chiqarib tashlanmadi. Darsning yakuniy qismida yangi o'rganilgan material uning amaliy dalili va xulosasi sifatida esga olindi. Bu holatni Raith quyidagicha asoslaydi: Sizning bu fikrga qo'shilish yoki qo'shilmaligingizni bilmayman, biz qoidalar bilan bolalarimizning hali gard yuqmagani tasavvurlarini chil-chil qilamiz. Har qalay qoidalarni dars boshida beramizu ona tiliga qarab ham qo'ymaymiz, uni e'tiborga olmaymiz.

Agar qoida dars yakunida berilsa, bolalar uni kelajakda amal qiladigan ko'rsatma deb emas, balki avval bilgan, darsda o'rgangan bilimlarining isboti, xulosasi deb qaraydilar, ular har doim shunday deydilar. (Raith 1967,43)

Tarjima shartli ravishda va eng qiyin holatlarda qo'llaniladi. Vietor tarjima haqida shunday deydi: «Chet tilga tarjima qilish bu bir san'at, buning maktabga aloqasi yo'q». (Vietor; Kahl 1962,40 dan keltirildi)

Bevosita tarjima metodiga oid mashq shakllarini bir tilli mashqlar, badiiy asar mazmunini hikoya qilib berish va u haqdagi suhbatlar tashkil qiladi.

3.4.2. Bevosita metod asosidagi dars tuzilishi

Dars usuli va dars mazmuni haqida darsning borishidan xulosa yasash mumkin (Stern 1984,459).

Dars odatda chet tildagi matn, ko'pincha ma'lum vaziyatga oid dialog atrofida tashkil qilinadi. Matn ko'pincha ma'lum grammatik mavzuga qaratilgan va maxsus tuzilgan hikoya hisoblanadi. Matndagi qiyin tushunchalar rasmlar, izohlar, sinonimlar yoki tushuntirishlar orqali osonlashtiriladi.

Matnning mazmunini yanada tushunarli qilish uchun o'qituvchi savollar beradi. O'quvchilar tilni amaliy o'rganish uchun matnni ovoz chiqarib o'qiydilar. Grammatik qoidalar ustidagi ishlar, o'qituvchi qoidani ahamiyatli deb hisoblagan taqdirda, matn o'qilgandan so'ng o'quvchilar tomonidan olib boriladi. Bir talay vaqt tekst yuzasidan savol-javob mashqiga sarflanadi yoki ko'rgazmalar (rasmlar, rasmlar qatori) asosidagi suhbatga bag'ishlanadi. Mashqlar gaplarni toldirish, gaplarni o'zgartirish, diktant, hikoya, erkin inshodan iborat bo'lishi mumkin. Eng muhimi barcha mashqlar davomida talaffuz ustida jiddiy ish olib borishdir.

3.4.3. Darslikdan bir dars

Misol

Quyida 8-10 yoshli o'quvchilar uchun mo'ljallangan darslikning «Topshiriq» deb nomlanuvchi paragrafini ko'rib chiqamiz.



12-topshiriq

Illovadagi 168 – sahifadan boshlab o'quv materiallarini va 55 – sahifadagi sitatani ko'rib chiqing va hoshiyaga tayanch so'zlar bilan bevosita metod uchun qanday xususiyatlar xosligini yozing.

O'qituvchi uchun

Darslik muqaddimasida o'qituvchi uchun quyidagi tavsiyalarni o'qiydiz:

Bu kitobda foydalanilgan ta'lim metodi gapirishni o'rgatishning yangi metodi deb nomlanadi. Bu metodda malakalarni rivojlantirishga e'tibor quyidagicha: Tinglash va gapirish, o'qish va sahnalashtirish va nihoyat yozish. Bola barcha manzarani ko'rib turadi. O'qituvchi manzara haqida nemis tilida gapiradi. Bola o'zi uchun doimiy takrorlanib turgan

Bu nima? Bu nima deb nomlanadi? U qayerda? U qanday? U nima qilyapti? kabi savollar va ularning javobidan yangi soʻzlarni bilib oladi va shu yoʻl bilan jonli muloqot sodir boʻladi.

Bola soʻzni oʻrganib olgandan soʻng, bu soʻz savol-javob, dialog, ogʻzaki mashq asosida mustahkamlanadi va oʻzlashtirib olinadi. Shunga eʼtibor berish kerakki, bola soʻzni avval oʻqishi, keyinroq yozishi, xullas topshiriqqa oid yangi soʻzlarni yaxshi oʻzlashtirib olishi lozim. Dars jarayonida faqat nemis tilidan foydalaniladi. Ayrim soʻzlarning maʼnosi misollar yordamida tushuntiriladi. Baʼzan ona tilidagi soʻz ham qoʻllanishi mumkin, biroq bu juda kam hollarda yuz beradi.

Oʻqituvchi sinfda har doim tabiiy sharoit yaratishga harakat qilishi kerak.

Qoʻllanmada sistemaga solib berilgan fonetika va grammatika katta yoshdagi bolalar uchun moʻljallangan.

Oʻqituvchi baʼzan dialog matnlarida hali bolalarga tushuntirilmagan grammatik materialga roʻbaroʻ boʻladi. Bola bunga taqlid qiladi va keyinchalik grammatik qoida tushuntirilganda bu unga yordam beradi.

Kichik yoshdagi bolalar grammatik qoidani oʻrganmasdan turib grammatik mashqlarni bajarishlari mumkin. Grammatik material taqdimoti oʻqituvchi ixtiyoriga beriladi. Eng muhimi bolada tilni his qilish qobiliyatini tarbiyalash hisoblandi.

(Schlimbach. 1964,4)

3.5. Bevosita metod asoslari

3.5.1. Pedagogik asoslar

Bevosita metod isloh pedagogikasida ilk debocha boʻlib, darsni harakatdagi oʻquvchining bosh miya «qopqogʻini ochib, bilimlar bilan toʻldirish» kerak degan yoʻldan emas, balki oʻquvchi shaxs sifatida shakllantirilishi va rivojlanirilishi lozim, deb hisoblab, taʼlimning yangi yoʻllarini topishga harakat qildi. Jumladan,

- Oʻquvchini mustaqil fikrlash va ishlashga undash yoʻli bilan «ishchi dars»ni tashkillash,
- Taʼlimning koʻrgazmalilik va konkretlik qonuniyatiga urgʻu berish,
- Taʼlimning kompleksligini taʼminlash (nafaqat aqliy, balki maʼnaviy va jismoniy taʼlim berish),
- Oʻqituvchining darsdagi roli va oʻrniga boʻlgan yangicha munosabat (u endi hamma narsani biluvchi va oʻrgatuvchi shaxs emas, balki oʻquv jarayonida teng huquqli qatnashchi),

- Yangi dars shakllari: darsdagi masalalarni hal qilishda juft bo'lib, guruh bo'lib ishlash,
- Xatolarni tuzatish jarayonida jazolash o'rniga maqtash, kamsitish o'rniga ruhlantirish,
- Dars jarayonida o'yin elementlarini qo'llash, o'rganganini o'zi sinab ko'rish,
- Dars tajalari asosida o'quv jarayonini xulosalash, yakunlash.

Isloh pedagogikasining yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlaridan ko'plarini bevosita metod tarafdorlari chet til ta'limining didaktik-metodik yo'nalishi uchun o'zlashtirib oldilar. Bevosita metodga isloh pedagogikasining ta'siri katta bo'ldi.

3.5.2. Tilshunoslik asoslari

Bevosita metod uchun lotin tilining so'z turkumlari haqidagi an'anaviy grammatikasi o'rnini bosadigan «yangi» lingvistik maktab vujudga kelmadi (Yangi lingvistik maktab faqat audiolingval metodning shakllanishi davrida paydo bo'ldi). Shunga qaramasdan chet til ta'limi uchun lingvistika sohasida bir qator yangiliklar yuzaga keldi.

Ular quyidagilar:

1. Kundalik turmushga oid og'zaki nutq materiallarini o'rganishga e'tiborning kuchayishi (adabiy badiiy yozma nutq emas). Shu nuqta nazardan asr boshida fonetika mustaqil fan sifatida muhim ahamiyat kasb etdi.
2. Grammatikaga qoida grammatikasi deb emas, balki misollar grammatikasi deb qaraldi. Dars jarayonida grammatik qoidalar o'quv materialining nazariyasi va xulosasi sifatida taqdim qilindi, ba'zan butunlay berilmadi.

Grammatika ataylab o'quv jarayonidan siqib chiqarildi, lekin o'quv materiali uchun ilova tarzida qoldirildi. O'quv materiali taqdimotida «soddadan murakkabga» prinsipiga amal qilindi.

Kundalik turmushga oid til materiali taqdim qilinishi munosabati bilan tildan amalda foydalanishga alohida e'tibor berildi. Masalan, qanday so'z va iboralar ko'p va xohish bilan qo'llansa, qoida foydali va qo'llanish uchun qulay bo'lsa, bu ham inobatga olindi.

3.5.3. Adabiyot va mamlakatshunoslik

Kundalik turmush sharoiti

Asosiy e'tibor tili o'rganilayotgan mamlakat kishilarining hayot sharoitlariga qaratildi. Bunga o'quvchi yoshlarning bevosita hayotiy tajribalari asos qilib olindi. Ko'pincha darsliklardagi matnlar va darsliklar uchun bolalar guruhi tanlab olindi va ularning

hayoti haqida hikoya qilindi. Matnlar mazmuni kundalik turmush mavzularini qamrab oldi, bu o'quv materialli taqsimotida muhim ro'lni o'ynadi.

So'zlar mazmun va sharoitga qarab tanlandi va ularning og'zaki nutqda qo'llanishiga alohida ahamiyat berildi.

Qo'shiqlar, she'rlar, hikoyalar, ertaklar va boshqa matn turlari darsga qo'shimcha material sifatida olindi. Badiiy adabiyot namunalari butunlay olinmadi.

3.5.4. Ta'lim nazariyasi

Taqlid qilish

Chet tilni o'rganish to'raligicha ona tilini o'rganishga qiyos qilindi (garchi ularni o'rganish boshqacha sharoitlarda o'tsa ham). Chet tilni o'rganish ongli ravishda (grammatikani) qoidani o'rganish, bu qoidani amalda qo'llash (tarjima) emas, balki til namunasi (o'qituvchilga taqlid qilish (tinglash-takrorlash) yo'li bilan o'rganildi.

Bevosita metodlar uchun chet tilda namuna jumlar, dialoglar va suhbatlar tuzish (rasmlar va darslik dialoglari asosida), ularni amalda sahnalashtirish va erkin rol o'ynash xarakterli xususiyat hisoblandi. So'z boyligi asosan assotsiativ usullar orqali o'rganiladi. Bevosita metodlar uchun tilni taqlid qilish - assotsiativ va induktiv yo'l bilan egallash xarakterlidir.

3.5.5. Bevosita metod asosidagi dars prinsiplari

- Yozma nutqdan avval og'zaki nutq, ya'ni dars jarayonida avval tinglash va gapirish, so'ngra o'qish va yozishni o'rgatish.
- Til o'rganish deganda namunaga taqlid qilish, til xodisalar (grammatika) tahlili va ona tiliga murojaat qilmaslikni tushunish.
- Iloji boricha mashg'ulotni bir tilda olib borish.
- Situativlik, o'quv materialini dialog shaklida kundalik hayot sharoitiga oid materiallar asosida taqdim qilish.
- Yoshga moslik, tili o'rganilayotgan mamlakat yoshlarining hayot tajribasiga asoslanish.
- Mashq shartlari:

- savol-javob mashqlari
- takrorlash va talaffuz mashqlari
- bo'sh o'rinlarni to'ldirish mashqlari
- dialoglarni ijro etish mashqlari

- she'r, qo'shiq, qo'liya va boshqalarni yod olish mashqlari
- e'ltirni yozish va hikoya qilib berish mashqlari.

13-topshiriq

«Kinder lernen Deutsch» kitobidagi darsni «Simpler German Course» ikkinchi bo'lim (2.2) bilan qiyoslang. Qanday umumiylik va farqlarni aniqladingiz? Ularni tayanch so'zlar yordamida yozing.

Metodik tadbir	Simpler German Course	Kinder lernen Deutsch
Yangi material taqdimoti		
Grammatika tasviri		
Mashqlar		
So'z boyligi		
Ona tilining ishtiroki		
Rasmlardan foydalanish		
Talaffuz ustida ishlash		

14-topshiriq

Xohishingiz bo'lsa, quyidagi topshiriqni bajaring.

Oxirgi bo'lim yakunida GTM asosida «qaratqich kelishigini talab qiladigan predloglar» mavzuida dars rejasini tuzgan edingiz.

30 yildan so'ng, darslik muallifi sifatida ko'plab tajriba orttirdingiz va islohchilar ta'sirida tasavvuringiz ham o'zgardi. Endi Siz yangi darslik yozmoqdasiz. Bu safargi darslingingiz **bevosita metod** asosida yoziladi.

Endigi Sizning vazifangiz: «Dativ kelishigini talab qiladigan fe'llar» mavzui taqdimotini bayon qiling.

- Grammatika kitobidan qaysi fe'llar dativ kelishigini talab qilishini aniqlang.
- Dativ kelishigini talab qiladigan fe'llar ishtirok etgan matn yoki suhbat tayyorlang.
- Har bir fe'l ishtirokida gap tuzing.
- Rasmga yoki matnga oid savol-javob mashqi tayyorlang. Elementlari tushirib qoldirilgan matnlar, to'ldirish mashqlari, talaffuz mashqlari, kichik dialog ham bo'lsin.
- Ko'rgazmali qurol tayyorlashni ham unutmang.

4. Audiolingval (ALM) va audiovizual (AVM) metodlar

Oxirgi bobda **bevosita metod** bilan tanishib chiqdik. U audiolingval metodning debochasi sifatida ta'riflandi. Audiolingval metod esa audiovizual metodni keltirib chiqardi. Ushbu bobda bu ikki metod haqida so'z yuritiladi.

4.1. Audiolingval metod (ALM)

4.1.1. Kirish

Ma'lumot

Audiolingval tushunchasi lotin so'zlaridan tashkil topgan, birinchisi, audiere-tinglash, ikkinchisi-lingua-til, nutq tushunchalarini anglatadi. Agar «Audiolingval metod» atamasi so'zma-so'z tarjima qilinsa «tinglash-gapirish metodi», ya'ni tilni tinglash-gapirish yo'li bilan o'rganish ma'nosini anglatadi.

15-topshiriq

Tinglash-gapirish metodi chet til ta'limida ma'lum yo'nalishni tashkil qiladi. Bu yo'nalish haqida nima deyish mumkin?

Audiolingval metodning shakllanishi

19-asrning oxirida isloh harakati tarkibida ALMdan avval bevosita metod vujudga keldi. Mazkur metod asosida katta yoshdagi kishilar o'qitildi va amaliyotda Berlits metodi deb nomlanuvchi metoddan foydalanildi. Bu metod Birinchi jahon urushidan so'ng yuqori sinflarda zamonaviy tillarni o'qitish maqsadida o'quv rejalariga kiritildi. Bu bilan ham amaliy, ham pedagogik maqsadga erishildi.

Zamonaviy tillar xalqaro aloqa vositasiga aylana boshladi. O'quvchi dars jarayonida chet tilni doimo qo'llashi tufayli va o'qituvchiga taqlid qilish yo'li bilan o'zida **tilni his qilish** qobiliyatini tarbiyalab bordi va chet til qonuniyatlarini asta-sekin induktiv yo'l bilan kashf qildi.

Shu asnoda Amerika Qo'shma Shtatlarida audiolingval metod vujudga keldi. Buning quyidagi hayotiy asoslari mavjud edi: Ikkinchi jahon urushi tugagandan so'ng chet tillarni, ayniqsa, ekzotik tillar hisoblanmish yapon, xitoy va boshqa tillarni biladigan mutaxassislarining yetishmasligi yaqqol sezilib qoldi. Shuning uchun harbiylarning 1941-43 yillardagi buyurtmalari asosida ko'plab til o'qitish dasturlari ishlab chiqildi va bu yangi til o'qitish metodlarining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Bu vazifa birinchi navbatda tilshunos olimlar zimmasiga tushdi.

Intensiv kurslar va tinglash asosida tashkil qilingan chet til kurslari orqali harbiy tarjimonlarni tayyorlash amaliyoti chet tillarni turli **toifadagi** o'quvchilar guruhida hozirgacha belgilangan vaqtdan ko'ra **qisqaroq** vaqt davomida jadal o'rganish mumkinligini ko'rsatdi.

Urushdan keyingi yillarda chet tillarni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj yanada kuchaydi. BMT va UNESCO faoliyatida ingliz tili bilan bir qatorda yana boshqa tillar ham rasmiy til deb e'lon qilindi. Boshqa tillar milliy yoki hududiy til mavqaeini oldi.

Xalqaro savdo-sotiq aloqalarining kengayishi, sayyohlarning ko'payishi, ilmiy va madaniy hamkorlikning kuchayishi chet tillarni o'rganishga bo'lgan talab va ehtiyojning oshishiga olib keldi, chet tillarni o'rganish imtiyoz degan fikr yo'qoldi.

1957 yildagi «Sputnikshok» voqeasi tufayli chet tillarni o'rganish va o'rgatish sohasidagi tadqiqotlarga keng yo'l ochildi (National Defence Education Act NDEA 1957). Ta'limning yangi texnologiyalari (nutqni gramplastinkalarga yozib olish, til laboratoriyalari va boshqalar) vujudga keldi.

30-yillardan boshlab tillarni, ayniqsa, og'zaki nutqni ilmiy tadqiq qilish va o'rgatishga bo'lgan qiziqish kuchaydi. Tilshunoslik mustaqil fan sifatida taraqqiy etdi. Psixologiya va sotsiologiya til masalalari bilan shug'ullanishga kirishdi.

Yuqoridagi barcha harakatlar AQSHda chet til ta'limi sohasida yangi metodning vujudga kelishiga olib keldi. Bu audiolingval metod edi.

4.1.2. ALMning bir darslik misolidagi asosiy xususiyatlari

Endi misol tariqasida bir darslikni ko'rib chiqaylik. Bunda quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

- *Darsda o'rganiladigan matn*
- *Grammatik material bayoni*
- *Mashqlar*
- *Dars qurilishi*
- *Mundarija (o'quv materiali taqsimoti)*

A. Darsda o'rganiladigan matn

Darslikka kiritilgan har bir matn uchun quyidagi uch omil muhim hisoblanadi:

1. Materialni qog'ozga tushirish (Layout):

Matn qanday bosilgan (sarlavha, bo'rttirishlar, bo'linishlar)? Rasmlar mavjudmi? So'z va rasm qanday munosabatga kiritilgan? (Bu masalalar, ayniqsa, asliy (original) matnlar darslikka kiritilgan bo'lsa, muhim ahamiyatga ega).

2. Materialning xususiyati (til-uslub):

Har bir matn turi alohida til xususiyatiga ega. Masalan, taom tayorlash retseptida ko'pincha buyruq mayli yoki otlashish shakli qo'llaniladi; Reklamada esa ko'pincha juda «shirin» tildan (solishtirish, metafora, bo'rttirish) va yangi so'z yasash usullaridan foydalaniladi.

3. Matn funksiyasi:

Har bir matn ma'lum maqsad uchun tuziladi, masalan, poyezd harakati haqidagi axborotni aks ettirish (qatnov jadvali), mahsulotning foydaliligini ko'rsatish (reklama), axborot berish (gazeta xabari), ma'lum ishni bajarish uchun ko'rsatma berish (foydalanish uchun tavsiya) yoki biron voqeani bayon qilish (ertak, hikoya).

Darsliklarda ta'limiy fuksiyani bajarish uchun mo'ljallangan matnlar mavjud. Ular grammatikaning ma'lum mavzuini yoki til hodisasiga oid ma'lum misolni aks ettirish uchun xizmat qiladi.

16-topshiriq

Quyidagi matnni ko'rib chiqing va uning
1. Qog'ozga tushirilishi (Layout);

2. Til xususiyati;

3. Funksiyasini tasvirlashga harakat qiling.

9 Der Geburtstag

Frau Hartmann: Wie gefaellt dir die Kamera?

Herr Hartmann: Mir?- Gut! Wem gehoert sie denn?

Frau Hartmann: Stefan. - Du weisst doch, er hat heute Geburtstag.
Ich moechte sie ihm schenken.

Herr Hartmann: Ja natuerlich. Ich vergesse die Geburtstage immer.

Frau Hartmann: Gibst du ihm die Kamera, wenn du ihm gratulierst?
Das freut ihn bestimmt. - Da kommt er ja.



Herr Hartmann: Stefan, wie geht es dir?

Stefan: Mir? – Prima! Aber warum fragst du mich?

Herr Hartmann: Du hast doch heute Geburtstag. Mutti und ich gratuliere dir und schenke dir den Fotoapparat. Gefaellt er dir?

Stefan: Ja, vielen Dank, Mutti! – Vielen Dank, Vati!
Wie funktioniert denn der Apparat?

Herr Hartmann: Moment! Ich zeige es dir, und dann machst du eine Aufnahme von uns allen.

1. Matning qog`ozga tushirilishi (Layout):

Dasilab katta fotosurat (situatsiya surati) ko`zga tashlanadi.

Rasmda oila tasvirlangan, stol bayramona yasatilgan. Barcha nigohlar o`ng tomonda fotokamerani diqqat bilan o`rganayotgan yigitchaga qaratilgan. Surat suhbat vaziyati va mavzuidan dalolat beradi. U shuning uchun tayyorlangan va ta'limiy funksiyani bajaradi. Matnga "Tug`ilgan kun" deb sarlavha qo`yilgan. Matning ko`rinishidan uning "suhbat" ekanligi yaqqol sezilib turadi.

2. Matnning til xususiyati:

Chiroyli yasatilgan stol atrofida tug'ilgan kuni nishonlanayotgan farzandini kutayotgan ota-ona bilan suhbat qanday o'tadi? Agar o'g'il anchadan beri orzu qilib yurgan fotokamerani sovg'a sifatida olsa, qanday suhbat bo'ladi? Haqiqiyimi? Hayajonlimi? Tayyorlanmaganmi? Bularning barchasi suhbat vaziyatida rollarni bo'lib olgan kishilarga bog'liq.

17-topshiriq

Onaning, otaning, ayniqsa o'g'ilning o'zini tutishi, «rolini» tasvirlashga harakat qiling. Ularning nutqiy luqmalari (nimani va qanday ifodalayotganlari)

bilan yaxshiroq tanishib chiqing.

Suhbatni «tabiiy» yoki «sun'iy» deb hisoblaysizmi? Shunday vaziyatda ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabat qanday bo'lishi kerak, deb o'ylaysiz?

3. Matn funksiyasi:

Dialog «tug'ilgan kun» voqeasini tasvirlaydi. (Kim? Qayerda? Nima sovg'a qilindi? va boshqalar haqida o'quvchiga axborot beradi). Lekin bu hali hammasi emas. Dialog tug'ilgan kun haqida axborot berishdan tashqari boshqa muhim vazifani ham bajaradi. Bu ALM asosida tayyorlangan darsliklarga xos bo'lgan lisoniy-talimiy funksiyadir.

18-topshiriq

O'ylab ko'ring:

Darslikda berilgan dialogni hayotda ham uchratish mumkinmi? (agar sahna ko'rinishi yashirin kamera bilan suratga tushirilsa).

Dialogni yana bir marta sinchiklab o'qib chiqing.

Ma'lum konkret grammatik hodisani taqdim etish niyatida darslik muallifi tomonidan matn tayyorlangan. Shuni Siz payqadingizmi?

Agar siz asosiy matnga qo'shimcha tarzda kichik ko'rinishlarga bo'lib tasvirlangan quyidagi matn bilan tanishib chiqsangiz, yuqoridagi savolga javob topasiz.

1-Rasm: yoqmoq- qarashli bo'lmoq- sovg'a qilmoq.

2-Rasm: hol-ahvol so'ramoq- javob bermoq.

3-Rasm: tabriklamoq- bermoq- rahmat aytmoq.

4-Rasm: rahmat aytmaq- ko'rsatmaq.

Wie gefaellt dir die Kamera?
Mir? - Gut! Wem gehoert sie denn?
Stefan hat heute Geburtstag,
Ich moechte sie ihm schenken.

*Kamera senga yoqdimi?
Mengami?- Yaxshi! Bu kimga?
Bugun Stefanning tug'ilgan kuni,
buni unga hadya qilmoqchiman.*

Der Vater fragt ihn:
Wie geht es dir, Stefan?
Stefan antwortet ihm:
Mir? Mir geht es prima.

*Ota undan so'radi:
- Stefan, ishlaring qalay?
Stefan javob beradi:
- Ishlarim-mi? Juda zo'r.*

Dann gratuliert ihm der Vater
und gibt ihm den Apparat.
Stefan dankt Mutti und Vati;
er dankt ihr und ihm.

*Ota uni tabriklab, unga
fotoapparatni beradi.
Stefan onasi va otasiga
minnatdorchilik bildiradi.*

Stefan dankt dem Vater
und der Mutter.
Er dankt seinen Eltern;
dann zeigt er Klaus und Evi
die Kamera; er zeigt sie ihnen.

*Stefan otasi va onasiga min-
natdorchilik bildiradi.
U ota-onasiga rahmat aytib,
kamerani Klaus va Eviga
ko'rsatadi: u uni ularga ko'rsa-
tadi.*



19-topshiriq

Dars matnida va yuqaridagi rasmlarga berilgan izohda qanday grammatika «yashirilgan»?

B. Grammatikani tasvirlash

Darslikda grammatik material bevosita dars paragraflari tarkibida berilmasdan, balki alohida ilovada berilgan. Bu holat grammatika dars jarayonidan chiqarib tashlanishi ham mumkin, uni dars jarayonida o'rgatish shart emas, degan ma'noni anglatadi.

24 wem?

Wie gefaellt **dir** die Kamera? **Mir?** – Gut!

Wem gehoert sie denn? Sie gehoert **Stefan**. Ich schenke sie **ihm**.

Stefan dankt **dem** Vater und **der** Mutter. Er dankt **ihm** und **ihr**.

Er dankt **den** Eltern. Er dankt **ihnen**.

25 Nominativ – Akkusativ – Dativ

maskulin neutral feminin Plural

Nominativ (wer? was?) der = er das = es die = sie die = sie

Akkusativ (wen? was?) den = ihn das = es die = sie die = sie

Dativ (wem?) dem = ihm dem = ihm der = ihr den = ihnen

26 Pronomen

Akkusativ		reflexiv		Dativ
Er fragt mich.		Ich freue mich.		Es gefaellt mir.
Er fragt dich		Du freust dich		Es gefaellt dir.
Er fragt ihn.		Er freut sich .		Es gefaellt ihm.
Er fragt sie		Sie freut sich .		Es gefaellt ihr.
Er fragt es.		Es freut sich .		Es gefaellt ihm
Er fragt uns.		Wir freuen uns.		Es gefaellt uns
Er fragt euch.		Ihr freut euch.		Es gefaellt euch.
Er fragt sie.		Sie freuen sich .		Es gefaellt ihnen.

27. Wortstellung (Stellenplan)

Nominativ	Verb	Dativ	Akkusativ
Er	antwortet	dem Vater.	-
Die Kamera	gehört	ihm.	-
Er	gibt	ihm	die Kamera.
Er	gibt	sie	ihm

20-topshiriq

Bunday grammatik tasvirlashni 2.4 bo'limdagi GTMga oid grammatik tasvir bilan qiyoslang.

GTM va ALM uchun xarakterli xususiyatlarni belgilang:

Grammatik tasviri	GTM	ALM
Sarlavha o'rnida grammatik material ko'rsatiladi		
Sarlavha o'rnida grammatik material misol tariqasida beriladi.		
Qoida keyinchalik ifodalanadi.	X	
Grammatik qoida butunlay berilmaydi, vizual «tayanch beriladi» (masalan, bo'rttirib yozish)		
Muhokama qilinishga mo'ljallangan misol gaplar jadval shaklida beriladi.		
Ona tili tushuntirish tili bo'lib xizmat qiladi (ikki tilli tasvirlash).		
Chet tilda bir tilli grammatik tasvirlash.		
Grammatik hodisa tushuntirishsiz beriladi		
Grammatik hodisa dars mavzuiga bog'liq holda beriladi.		
Qoidadan mustasno holda beriladi.		

Xulosa**ALM uchun xos bo'lgan grammatik tasvirlash**

1. Misollarni to'plash grammatika bilan ishlash uchun boshlang'ich nuqta hisoblanadi.
2. Kirish tengligiga (matn qismlarini bo'rttirish, ko'rsatuv belgilari va boshqalar) grammatik hodisani bo'rttirish va grammatik qonuniyatlarni o'quvchining o'zi bilib oladigan qilib induktiv yo'l bilan taqdim qilish muhim hisoblanadi.
3. Grammatik hodisalarni dars mavzuiga bog'langan holda taqdim qilishga alohida e'tibor beriladi.

C. Mashqlar

Darslikdagi mashqlar hammasi bo'lib uch sahifani tashkil qiladi. Ular quyidagicha ko'rinishga ega:

Bitte ergaenzen Sie:

Er fragt mich. Er hilft mir. Das gehoert mir. Er gibt es mir.

..... dich. dir. dir. dir.

..... ihn. ihm. ihm. ihm.

..... sie. ihr. ihr. ihr.

..... uns. uns. uns. uns.

..... euch. euch. euch. euch.

..... sie. ihnen. ihnen. ihnen.

Bunda mashq turlari atigi 4 ta

Bitte antworten Sie mit "nein"

Gehoert Ihnen das? Nein, das gehoert mir nicht.

Gefaellt Ihnen das?

Hilft Ihnen das?

Ist Ihnen das gleich?

Dauert Ihnen das zu lange?

Buriday mashqlar 2 ta

Bitte ergaenzen Sie:

a) mir-dir-ihm-uns

1. Wie gefaellt ... die Kamera? 2. ... ? Gut! Wem gehoert sie denn 3. Du weisst doch, Stefan hat heute Geburtstag. Ich will sie ... schenken. 4. Ja, natuerlich! Ich vergesse die Geburtstage immer 5. Gibst du ... die Kamera, wenn du ... gratulierst? 6. Stefan, wie geht es ...? 7. ... geht es prima! 8. Mutti und ich gratulieren ... und schenken ... den Fotoapparat. 9. Vati, erklaerst du ... bitte den Apparat? 10. Ja gut, ich zeige es ... , und du machst eine Aufnahme von ... allen.

Bunday Mashqlar 3 ta

Dialoge:

Herzlichen Glueckwunsch!

A: Sie haben ja Geburtstag!

B: Woher wissen Sie das?

A: Ich weiss es von ... herzlichen Glueckwunsch!

B: Danke! Das ist sehr aufmerksam von Ihnen.

Was wuenschen Sie?

A: Ich moechte einen Fotoapparat.

B: In welcher Preislage ?

A: Wieviel kostet denn eine Kamera?

B: Die hier ... DM und die ... DM.

A: Ich nehme die da.

B: Gut. Hier ist ihr Kassenzettel.

(Braun, Nieder, Schmoee 1967,54)

21-topshiriq

Yuqoridagi mashqlarni qanday xarakterlash mumkin. Belgi qo`ying:

Xususiyatlar	To`g`ri	Noto`g`ri
Mashqlar raqamlar orqali tartibga solingan alohida jumalardan iborat.	x	
Har bir jumla orqali ma`lum grammatik hodisa mashq qilinadi.	.	

<p>Ayrim mashqlar ma'lum nutqiy yoki o'yin sharoitini tayyorlaydi.</p> <p>O'quvchilar mashqlarni o'zlari erkin tuza oladilar.</p> <p>Ko'pchilik mashqlarning boshlanishida model bo'lib xizmat qiladigan namuna jumlar beriladi.</p> <p>Bu mashqlar o'qib tushunishni o'rgatuvchi mashqlar hisoblanadi.</p> <p>Ko'pchilik mashq bajarishga oid ko'rsatmalar o'quvchining darsda nima qilishi kerakligi haqida ma'lumot beradi.</p>		
--	--	--

Xulosa

ALMga xos bo'lgan mashq shakllari:

1. Elementlari tushirib qoldirilgan matnni to'ldirish.
2. Berilgan namuna asosida gap tuzish.
3. Savol- javob mashqi (shaklini o'zgartirish mashqi).
4. Dialog mashqlari (dialogni to'ldirish, rol o'ynash).

D. Dars qurilishi


Darslikning ko'pchilik paragraflari (takrorlash darsidan tashqari) bir xil dars chizmasi asosida qurilgan:

Kirish	Mashq	Mamlakat-shunoslik	Ilova
Rasmi dialog, situatsiya qismlari va rasmlar qatori, bunga qo'shimcha tarzda grammatik materialni qamrab olgan misol gaplardan iborat qisqa matnlar.	Gap tuzish, to'ldirish, elementlari tushirib qoldirilgan, shakli o'zgartiriladigan, dialog mashqlar.	Axborotli matni bo'lgan foto (mashqlarsiz va dars mavzuiga bog'liq bo'lgan materialsiz)	Grammatika (dars tartibida), bir tilli va alifbo tartibidagi so'zlar ro'yxati (darslardagi joylashuviga ko'ra)

Grammatika dars mavzuidan ajratib qo'yilgan, lekin u dars tuzilishiga ta'sir qiladi. Dars dialoglari tarkibida yangi grammatik

material beriladi, mashqlar jumla materiallaridan tashkil topgan. **Darining** mamlakatshunoslikka oid tomoni (qisqa axborotga ega matn va foto) uning boshqa sohalar bilan bog'liq emas.

Paragrafning ichki bog'lanishini quyidagicha tasavvur qilish mumkin.



E. O`quv materialini taqsimoti

Agar mundarija diqqat bilan ko`rib chiqilsa, quyidagi manzarani aniqlash mumkin.

- O`quv materialining zichligi;
- Ta`lim mazmuni qismlarining bir-biriga bog'liqligi;
- O`quv materialini taqsimotidagi ketma-ketlik.

Birinchi bob uchun mundarija

1. Texte: Guten Tag! Unterricht

Information: Weltstaedte

Struktur: sie, Sie-ich; wir

Phonetik: a, e, i, o, u, a-a, e-e, i-i, o-o, o, y, e

2 Texte: Telefongespraech Mein Auto

Information: Hochschulen in Deutschland

Struktur: er, sie-ist; bin-sind; wer? was? das

ist, es ist;

sein + Adjektive

Phonetik: i-i, h-a,

3 Texte: Am Kiosk Uhrzeiten

Information: Markt und Preise

Struktur: Die Zahlen; ein-eine; wann? wie

spaeet? um wieviel Uhr?

Phonetik: ts, tsv, z, a, f, v

**4 Texte: Im Hotel
Zeit ist Geld**

Information: der Volkswagen, Werk und Produktion

Struktur: haben; kein-keine; mein-meine; usw.
doch; war, hatte

Phonetik: h-a, e, i, usw.

**5 Texte: Zwei Postkarten
Kinderreim
Sprichwoerter
Das ABC (Lied)**

**6 Texte : Im Buero
Ein Gespraech**

Information: Industrie und Verwaltung

Struktur: der, das, die; den-ihn; einen, eins, eine; wen?
den, die, (Pronomen); wissen-kennen

Braun, Nieder, Schmoee (1967), 3

Ushbu mundarijada matnlar va ularga qarashli mavzu va situatsiyalar bo'rttirib yozilgan. So'ngra mamlakatshunoslikka oid qismda taqdim qilinadigan axborot berilgan. Tilshunoslik sohasi bo'yicha ikkita tavsiya berilgan.

1. Grammatika «struktura» tarzida berilgan, grammatik kategoriyalar emas, balki grammatik mazmun, ya'ni misollar berilgan.
2. 1-4 boblarda asosiy e'tibor fonetikaga (talaffuzni o'rgatishga) qaratilgan.

Har beshinchi dars grammatik material taqsimoti qatoridan, «**Takrorlash darsi**» sifatida tuzilgan. Bu dars o'qish uchun matnlar, qo'shiqlar, she'rlar va maqollardan tashkil topgan.

Ilovdagi grammatik materiallar taqsimotiga oid misollar

Misol Zamon kategoriyasi

- 1-bob Hozirgi zamon (prezens)
- 2-bob Hozirgi zamon (prezens, fe'l qo'shimchalari sxemasini komplektlashi va kengaytirish) sein fe'lining prezensi
- 4-bob haben fe'lining prezensi
haben va sein fe'llarining preteritum shakli
- 7-bob Modal fe'llarining prezensi (komplekt chizma)
- 12-bob: haben va sein fe'llarining o'tgan zamon (preteritum) shakli
- 16-bob. Kuchsiz va kuchli fe'llarning o'tgan zamon (preteritum) shakli (kompleks chizma)
- 18-bob. Preteritum va perfekt passiv.

Misol. Ot kategoriyasi

- 1-bob. Artiklsiz otlar (masalan, ismlar).
- 3-bob. Noaniq artikl va otlarning «ein» bilan qo'llanilishi.
- 6-bob. Aniq artikl, aniq artiklning nominativ, akkuzativ va dativ shakllari. (Genetiv kelishigi va ko'plik shakli darslikning ikkinchi kitobida berilgan).

Zamon kategoriyasiga oid material taqsimotida komplekslikning rivojlanib borish prinsipi xarakterli:

Perezens (sodda shakllar)-preteritum (sodda shakllar)-perfekt (sodda shakllar)-preteritum (kompleks shakllar)-preteritum va perfekt (kompleks shakllar).


“Ot” mavzuiga oid grammatik material ketma-ketligi va taqsimoti quyidagicha: avval noaniq artikl (faqat birlikdagi ikki shakli), so'ngra aniq artikl (uch birlik shakli), so'ngra birlik – ko'plik va nominativ – akkuzativ – dativ - genitiv shakllari.

“Yashirilgan” grammatika taqsimoti

Agar grammatika, GTMda ko'rsatilgani kabi, dars paragraflarida alohida ko'rsatilmasa, mashqlarda grammatik kategoriyalar aytilmasa, grammatika mundarijada ko'rsatilmasa, unday holda, darslikning ilovasida beriladi va o'quv materiali taqsimotida qo'shimcha sifatida qoladi.

Ammo bunday taqsimotda GTMga qarama-qarshi o'laroq qiyinchilikning ortib borishi, strukturalarning kompleks tarzda taqsimlanish prinsipiga amal qilinadi. Matnlar (asosan dialoglar) mavzular va nutq vaziyatlari grammatik material taqsimotiga asosan tuziladi. Ula grammatik materialning darsda berilishi va mashq qilinishiga qaratiladi va joylashtiriladi.

ALM asosida yaratilgan darsliklarda hamma o'quv materiali shu grammatik "tana" atrofida aylanadi. Bu fikrni quyidagi chizma yordamida yaqqollashtirish mumkin.



Darslikning an'anaviy qurilishiga ko'ra barcha o'quv materiali **"Grammatik tana atrofida aylanadi"**, ya'ni grammatik material ma'lum tizim asosida taqsimlanadi.

4.1.3 Audiolingval metodning ta'lim texnologiyasiga oid yordamchi vositalari

A. Til laboratoriyasi

Audiolingval metodda ta'lim texnologiyasiga oid yordamchi vositalar muhim o'rin egallaydi. Bu borada birinchi o'rinda til laboratoriyasi turadi. Bunday laboratoriya eng avvalo talaffuz va tinglab tushunishni o'rgatish uchun xizmat qiladi. O'quvchilarga asosiy til modellari chet tilda taqdim qilinadi. O'quvchi ularga taqlid qilishi, takrorlashi mumkin, o'z ish tezligini o'zi belgilashi, magnit tasmasini oldinga yoki orqaga o'tkazishi yoki mashqlarni o'zi qancha xohlasa shuncha takrorlashi mumkin.

Til laboratoriyasi, ayniqsa, o'qituvchi chet til sohibi bo'lmagan taqdirda va turli so'zlovchilarning nutqini eshittirish zaruriyati tug'ilganda foydali hisoblanadi.

Bundan tashqari o'qituvchi o'quvchining faoliyatini haqqoniy va qismlarga bo'lgan holda baholay oladi hamda har bir o'quvchi bilan alohida ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Mashqlar

Til laboratoriyasida umuman darsda qo'llaniladigan barcha mashq shakllari ishlanishi mumkin, masalan, talaffuzni o'rgatuvchi, jumla namunalari, so'z boyligi ustida ishlash, yozish va o'qish mashqlari. Bu mashqlarga qo'shimcha tarzda quyidagi topshiriqlar berilishi ham mumkin, masalan, tinglash va o'qish, taqlid qilish, yod olish, jumlalarni kengaytirish, bog'lash, erkin so'zlash, diktant, o'qish mashqlari va boshqalar.

22-topshiriq

60-yillarda ALMning keng tarqalishi munosabati bilan til laboratoriyalarini tashkil qilish ham qoida tusini oldi, biroq bu holat tezda keskin tanqid ostiga ham olindi.

O'ylab ko'ringchi: - Til laboratoriyasining foydasi uchun qanday dalillarni keltirish mumkin?

- Til laboratoriyasida nimalar qilishni imkoni yo'q?
- Til laboratoriyasida nima qilish mumkin? Nima qilish mumkin emas?


B. Ko'rish vositalari

Rasmlar: Rasmlarni dars jarayonida qo'llash muammolaridan biri ularni hech qachon bir ma'noda qo'llab bo'lmasligidir.

Shaklni idrok qilish va uni mazmun bilan bog'lash hamisha sub'ektiv xarakterga ega. Shunga qaramasdan rasm va uning mazmuni o'rtasidagi fikriy bog'lanish ma'lum maqsudga ko'ra amalga oshiriladi va mustahkamlanadi.

Rasmlar xomaki shaklda bo'lishi ham mumkin.

Masalan: Uycha, deraza, olma rasmi.



Tilga oid tuzilmalarni mashq qilish uchun ma'lum gapning tuzilish namunasi tanlab olinadi va jumla modeli orqali yaqqollashtiriladi. Rasmlar jumla modelidagi o'zgartiriladigan elementlarni ifodalaydi. Masalan: Birinchi odim: Jumla modeli beriladi. *Siehst du den Zug?* Ikkinchi odim: Ushbu jumlaning o'zgartiriladigan elementi o'rnida rasmlar beriladi va shu asosda gap tuziladi: *Siehst du das Schiff? Siehst du das Flugzeug?*...

O'qituvchi rasmlarni ko'rsatgan holda sinf bo'ylab yuradi: *Zug, Schiff, Flugzeug, Bus* va h.k va o'zi bir necha misol gaplar tuzadi: *Siehst du das Flugzeug?* So'ngra rasmlarni ko'rsatib, o'quvchidan shu tezlik barobarida gaplar tuzishni talab qiladi.

Sinf: *Siehst du den Bus?*

Siehst du den Vogel?

Siehst du den Fisch?

(Misollar Lado 1973,149 dan olindi).

Boshqa ko'rish vositasi sifatida doska, ikki tomonlama kichik qog'ozchalar (old tomonida rasm, orqasida so'z), devorga osiladigan rasmlar, diafilmlar va diaproehtlar, film lavhalari, episkop, kodoskop, filmlar, televizor xizmat qilishi mumkin (Lado 1973,264).

4.1.4. Audiolingval metod asoslari

Audiolingval metod, bir tomondan, struktural lingvistika va ikkinchi tomondan, bixeviorizm psixologiyasining jiddiy ta'siri ostida bunyodga keldi. Bu ikki yo'nalishning til ta'limiga bo'lgan ta'sirini qisqacha izohlaymiz.

A. Lingvistik asos: strukturalizmning ta'siri

Amerika strukturalizmining taniqli vakillaridan biri Leonard Blumfilddir. Uning "Chet til ta'limining mazmuni" - "Introduction to the study of Language" (1914) va "Til" - "Language" (1933) nomli kitoblari zamonaviy tilshunoslikning nodir asarlari qatoridan joy oldi.

U ikki nazariy xulosa yasadi:

1. Lingvistika tilning tuzilishi, ayniqsa, og'zaki nutq bilan mashg'ul bo'lishi lozim.

2. Lingvistika amaliy va tasviriy fan bo'lishi kerak.

Blumfild va boshqa tilshunoslar tomonidan rivojlantirilgan strukturalizm tilshunoslik maktabi til tahlili va uni tasvirlash borasida lotin tiliga xos bo'lgan qoidalar tizimini qo'llamasdan, balki har bir tilning o'ziga xos konkret qurilish imkoniyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirish kerakligini ko'rsatdilar va amalda buni isbotladilar.

Blumfildning lisoniy tahlilga oid tadqiqot uslublari, uning tilshunoslik sohasidagi eng katta xizmati deb e'tirof etildi. Ular yordamida har bir jumladan tortib alohida olingan til tovushigacha qismlarga ajratish mumkin. Tadqiqotning bu usuli bilan tilning turli qatlamlarida bir xil tarzda tahlil olib borish imkoniyati mavjud.

Fonologiyada talaffuzni, so'z urg'usini, gap intonatsiyasini va boshqa hodisalarni, morfologiyada so'z yasash strukturasi, qo'shimchalarni, oldingi va keyingi bo'g'inlarni, tuzilmalarni va boshqalarni, sintaksisda esa gap bo'laklari o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish mumkin.

Strukturalizm xususiyatlari:

- Har bir til o'zining shakliy tizimi asosida tasvirlanadi.
- Tadqiqotlar tasviriy (deskriptiv usul bilan, ya'ni til formal jihatlarini asosida tasvirlanadi) va sinxron (til hodisalarining tarixiy rivojlanishi hisobga olinmasdan, ularning hozirgi holati tasvirlanadi) usullar bilan olib boriladi.
- Tadqiqotning induktiv usullari (til materiali yig'iladi, tartibga solinadi, baholanadi) qo'llanadi.
- Yozma nutq emas, balki og'zaki nutq materiallari tadqiq qilinadi.
- Tadqiqot birligi gap hisoblanadi. Gap bo'laklari shakliy prinsipga ko'ra tasnif qilinadi va sintagmatik mezonlar- gap bo'laklarining o'zaro munosabatlari ham hisobga olinadi hamda paradigmatic mezonlar ham (qaysi til hodisasi bir-biriga mansubligi, masalan, fe'l qo'shimchalari) chetda qolmaydi.

Til hodisalari sintagmatik sohada segmentlash (gap bo'laklariga ajratish), paradigmatic sohada o'rnini almashtirish (substitutsiya) usuli bilan tadqiq qilinadi. Qaysi til hodisalari gapda nechanchi o'rinda kela oladi va namuna gapda nimaning o'rnida qo'llanishi mumkinligi aniqlanadi. Masalan, fe'l o'rniga ot, olmosh va boshqalar qo'yilishi mumkin.

Struktural til tahlili usullarining bir qatori ALMning mashq shakllari sifatida xizmat qiladi, masalan, namuna gap asosida jumla tuzish mashqlari, o'rniga qo'yish mashqlari va boshqalar.

Blumfild, chet tilni aniq biladigan va taqlid qilishga loyiq bo'lgan til sohibi o'rgata olishi mumkin, deb hisoblaydi. Uning fikricha, o'rganish-ongli ravishda idrok qilish, taqlid qilish, sabr bilan mashq qilish va yod olish ishlari bilan birga o'qituvchi nima desa va qilsa shuni takrorlashdir.

Taniqli tilshunos va shu bilan birga audiolingval metodning navbatdagi vakili Robert Ladodir. U chet tillarni egallash jarayonidagi qiyinchiliklarni tadqiq qilib, bu qiyinchiliklarning asosiy sabablari o'rganilayotgan chet til strukturasi bilan uzviy bog'liq degan xulosaga

keldi. Bu sohada u til hodisalarini qiyoslash (kontrastiv lingvistika) metodlaridan foydalandi.

Kontrastiv lingvistika, deb yozadi u, ikki til strukturasi o'ld shakllarni bir-biridan farqini aniqlash maqsadida qiyoslaydi. Bu farqlarni aniqlash orqali ikkinchi tilni o'rganish jarayonidagi asosiy qiyinchiliklar oydinlashadi. Shuning uchun ham qiyosiy tilshunoslik til o'qituvchisi uchun muhim va qiziqarli hisoblanadi. (Lado 1973, 40).

Chet til ta'limi uchun xulosalar

Tilshunoslikning bu xulosalari chet til ta'limi uchun quyidagi tavsiyalarni beradi:

1. Til strukturasi tahlili bosqichma-bosqich tuziladigan o'quv materialini uchun asos bo'ladi (o'rgatiladigan til tizimidagi lisoniy hodisalar majmuasi taqsimoti).
2. Bu strukturalarning o'qimishli tilshunos tomonidan taqdimoti.
3. Ularni ona tili sohibi yordamida kichik hajmdagi sinflarda kundalik ko'p soatlik mashqlar orqali mustahkamlash.
4. Asosiy maqsad- tilni amalda og'zaki qo'llashni o'rgatish. (Stern, 1984, 157)

23-topshiriq

ALM va GTMlarning lingvistik asoslarini qiyoslang. 2-bobdagi GTM haqida yozilgan ma'lumotlarni yana bir bora o'qib chiqing.

Farqlar	Grammatika-tarjima metodi	Audiolingval metod
Nima tadqiq qilinadi, masalan, yozma nutqmi yoki og'zaki nutq		
Chet til qanday tadqiq qilinadi va tasvirlanadi: Boshqa til vositasidami yoki shu til vositalari orqalimi?		
Bundan chet til ta'limi uchun qanday xulosalar chiqariladi?		

B. Ta'lim psixologiyasi nazariyalari ta'siri

Audiolingval metodga bixeviorizm nazariyalari mutlaqo boshqacha tarzda ta'sir etdi. Bu o'rinda ham Skinningning «Til xulqi» (Verbal Behavior 1957) kitobining bunyodga kelishini metodning tamal toshi deb hisoblash mumkin. Skinner tilni kishi xulqining shakli sifatida

tasvirlaydi va uning negizida ma'lum qonuniyatlar yotishini ta'kidlaydi. Bu qonuniyat, eng avvalo, qo'zg'ovchi va javob (stimul va reaksiya) hamda xulqni programmashtirishdan iboratdir.

Skinner, kishilarning ovozli signallarni o'zlashtirishlari o'z ehtiyojlarini qondirish uchun qafasdagi kalamush mukofot sifatida bir muncha azuqani olish uchun dastakni bosishni o'rganishi jarayonidan turtqi yo'q, deb hisoblaydi (Stern 1984, 299).

24-topshiriq

ALM va GTMlarning psixologik asoslarini qiyoslang. Buning uchun 2-bobdagi GTMga oid ma'lumotlarni yana bir marta o'qib chiqing.

Farqlar	Grammatik-tarjima metodi	Audiolingval metod
Til o'rganish qanday tasvirlanadi?		
Bu chet til ta'limi uchun qanday xulosa chiqarish imkonini beradi?		

Chet til ta'limi uchun xulosalar

Ta'lim psixologiyasi nazariyalaridan audiolingval metod uchun quyidagi xulosalarni olish mumkin:

Chet tillarni o'rganish birinchi navbatda ma'lum mexanik odatlarni hosil qilish jarayonidir.

1. Odatlar mustahkamlash orqali qat'iy lashadi.
2. Chet til ta'limi sharoitida odatlarning qat'iy lashuvi xato tuzatish yo'li bilan emas, balki, eng avvalo, to'g'ri javoblarning takrorlanishi orqali amalga oshiriladi.
3. Til ham shaxsning xulqi hisoblanib, bu xulq o'quvchilarning mashq qilishlari jarayonida shakllanadi va rivoj topadi. (Stern, 1984, 325)

Ta'limning maqsadi, GTMdagi kabi bilimlarni egallash deb emas, balki tilga oid malakalarni rivojlantirish deb hisoblanadi. Birinchi navbatda, tinglab tushunish va gapirish, so'ngra esa o'qish va yozish malakalarini egallash ko'zda tutiladi.

C. Adabiyot va matn tili

Keng tarqalgan matn turi dialog bo'lib, u «kundalik muomala modeli» asosida tuziladi. Mamlakatshunoslikka oid (tasviriy) rasmiy matnlar darслиk mundarijasini boyitadi. Badiiy matnlar ta'lim jarayonidan chiqarib tashlanadi.

D. Mamlakatshunoslik

Ta'lim mazmuni va mavzular sohasida ham GTMga qararni qarshi o'laroq ish ko'riladi. Endi tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyatining dalili hisoblangan badiiy matnlar ustida ish olib borilmasdan, balki amaliy ahamiyati bo'lgan kundalik bilimlar va kundalik muomala vaziyatiga oid vositalarni egallash kun tartibiga qo'yiladi.

E. ALMning ta'lim prinsiplari

- Asosiy e'tibor yozma nutqqa emas, balki og'zaki nutqqa qaratiladi. (Avval tinglab tushunish va gapirish, so'ngra o'qish va yozish) Bu nutq faoliyatining turlariga oid quyidagi didaktik ketma-ketlikni belgilaydi: avval tinglash, so'ngra takrorlash, avval o'qish va nihoyat yozish.

- Darsning nutq vaziyatiga bog'liqligi (situativligi) Grammatikaga oid til namunasi kundalik hayot vaziyatiga oid materiallarda dialog shaklida taqdim qilinadi.

- Til materialining asl nusxadaligi (originalligi, til sohibi odatlariga, birinchi navbatda, uning talaffuziga taqlid qilish).

- Til namunalarini taqlid qilish va tez-tez takrorlash yo'li bilan mashq qilish (tilga oid odatlarni shakllantirish).

- Darsning bir tilligi, ona tilini dars jarayonidan chiqarib tashlash.

- Grammatik materialning sistemali ravishda chet til namunalarining kompleksligini o'stirib borishga asoslangan o'quv dasturi taqsimoti (grammatik material taqsimotida ona tili bilan taqqoslash umuman rol o'ynamaydi).

- ALMga oid mashq shakllari:

- Ko'p variantli namuna gap mashqlari (pattern drill).

- O'rniga qo'yish tablitlari va o'rnini almashtirish mashqlari.

- Elementlarining o'rnini bo'sh qoldirilgan matnlar va o'rnini to'ldirish mashqlari.

- Yod olish va dialoglarni sahnalashtirish.

Tavsiya

Ilovada ALMning bosh vakili Robert Lado tomonidan belgilangan 15 asosiy prinsiplarning mukammal bayoni berilgan.

25-topshiriq

Darslikdan olingan misollaringiz va berilgan prinsiplar asosida «Dativ kelishigini talab qiladigan predloglar» mavzuiga ALMga oid dars rejasini tayyorlang (rejada mavzuga oid dialog, mashqlar, grammatik misollar bo'lsin).

4.2. Audiovizual metod (AVM)

4.2.1. Kirish

Audiovizual metod audiolingval metodning rivojlantirilishidir. «Audio-vizual» tushunchasi ikki lotin soʻzining qoʻshilishidan hosil boʻlgan. Oltincha *audire* – *tinglamoq*, *videre* – *koʻrmoq*. Ularni oʻzbek tiliga tarjima qilinsa «tinglash-koʻrish metodi» maʼnosini anglatadi. Audiolingval va audiovizual metodlarning oʻzaklari bir boʻlishiga qaramasdan, ular oʻrtasidagi ayrim tafovutlarni ham aniqlash mumkin.

26-topshiriq

Qiziqtiruvchi mashq: Audiovizual metod asosida yozilgan darslikdagi rasmlar niini qanday tushunasiz?

Audiovizual metodda rasmlar va rasmlar turkumi koʻp qoʻllaniladi.

- suhbatdoshlar tushgan muloqot vaziyati (situatsiyasi).
- ularning nima haqda soʻzlashishlari va boshqalar.

Buning uchun koʻpincha «ishoralar tili» yaratiladi:

Masalan, «X» belgisi inkorni anglatadi, «!» belgisi biror narsaga eʼtiborni kuchaytiradi, «?» belgisi biror narsani tushunmaslikni yoki muammoni ifodalaydi.

Quyidagi «rasm-hikoya» Shults, Grisbox, Lundlarning «**Nemischa gapiring, marhamat!**» nomli darsligidan olingan. Uchinchi rasmdan keyingi matn tushirib qoldirilgan.

Rasmlarga qarab tushirib qoldirilgan matnlarni tiklashga harakat qiling.



1- qator

Payshanba oqshomi. Janob Zayts va frau Zayts stol atrofida oʻtirishibdi.

“Bolalar qayerda qolishdi?” Biz soat 7 da kechki ovqat qilamiz, ular esa hali kelishmadi.

“Hayns Frits bilan kinoga ketgan.”



4.2.2. Masala tarixi va tushunchalarini oydinlashtirish

Amerika Qo'shma Shtatlarida audiolingval metodning rivojlanishi bilan bir davrda Fransiyada audiovizual metod shakllandi. Bu metodga AQShda rivojlangan metod ta'sir o'tkazmadi.

Audiovizual kurs deganda chet til ta'limining boshlang'ich bosqichida qo'llaniladigan Peter Guberina tomonidan asos solingan

usullar nazarda tutiladi va bu 1954-56 yillarda CREDIF (Centre de recherche et d'étude pour la diffusion du français) tomonidan birinchi marta fransuz tili kursi shaklida *Voix et Images de France* bo'lib amalda tatbiq qilindi. Guberinaning o'zi ushbu kursni «audio-vizual, global-struktural metod» deb nomlagan (Strack, 1937, 9).

Tilni imkoni boricha ko'proq optik ko'rgazmalilik bilan bog'lash audiovizual metodning bosh prinsipi hisoblanadi. Bu shundan iboratki, o'quvchiga avval nutq vaziyati haqida vizual vositalar orqali ma'lumot beriladi va undan keyin shu vaziyatga oid ifoda shakllari beriladi.

Demak, taqdimot tartibi audiolingval metodga qaraganda boshqacha tarzda o'tadi. U metodda avval til hodisalarining shakli (tinglash-takrorlash) va undan keyin uning mazmuni tushuntiriladi (Reol, 1984, 33,34).

Rasmlar va rasmlar qatoridan til materiali taqdimoti jarayonida faqat ma'noni ochish uchungina emas, balki til materialini mashq qilish va amalda qo'llash jarayonida ham unumli foydalaniladi.

Bunga misol "Vorwaerts 1" darisligidagi rasmlarning mashqni tashkil qilish jarayoniga «boshchilik qilishi» dir.

Misol

Du fragst A: Wie fliegt ein Flugzeug?
 A antwortet: Es fliegt schnell.
 A fragt B: Und wie fliegt ein Hubschrauber?
 B antwortet: ... langsam.
 B fragt C: Und wie fährt ... ?

(Arnold, Kayser 1974, 63).

Rasmlar darsning amalda qo'llash qismini ham rejaga soladi.

Misol

WAS SAGEN SIE?

Schreibe eine Unterhaltung



Hier sind Wörter:

1. gut — lustig — hungrig — Multi — sehr — wir sind —
Lumpi — prima! — immer — Klaus — ihr seid —
Lieselotte — auch

2. am besten — zum — links — Kino — komme —
danke schön — Lieselotte — geradeaus — du —
komme — ich — gehst — Frau — wie — Grüß Gott —
bitte schön

(Arnold, Kayser 1974, 43).

4.2.3. Audiovizual metodning dars texnologiyalari

Dars bosqichlari

1. Dars rasm yoki rasmlar qatori (film strip) va magnit tasmasidagi dialog taqdimoti bilan boshlanadi. Ko'rish va eshinish qo'zg'ovchilari (vizual va akustik stimull) birgalikda ma'no (semantik) birligini tashkil qiladi.
2. Darsning ikkinchi bosqichida suhbat birliklari, ma'noni aniqlash, qayta eshittirish, savol-javoblar orqali tushuntiriladi.
3. Uchinchi bosqichda rasm va matnlarning ko'p marta takrorlash yo'li bilan dialoglar yod olinadi.
4. Mazkur bosqichda o'quvchilar asta-sekin vizual-akustik tayanchlardan uzoqlashtiriladi. Ulardan rasmga o'z dialoglarini tuzish yoki sahna ko'rinishiga oid rollarni ijro etish talab qilinadi.
5. Har bir darsda dialogda berilgan grammatik xodisalarga oid namuna gap mashqlari (pattern drills) bajariladi.
6. Yozish va o'qish malakalariga e'tibor kurs yakuniga borib kuchaytiriladi.

Darsning bu asosda tashkil qilinishi bixevioristik ta'lim qonuniyatlariga xos hisobalandi. Ta'lim jarayoni stimul (rasm) va reaksiya (tilga oid ifoda) qonuniyati asosida tashkil qilinadi.

Dasrning texnik vositalarini qo'llash jarayonida ham bu qonuniyat hisobga olinadi.

Texnik vositalar

Audiovizual metoddagi rasm va ovoz birgalikda, ko'pincha rasm va rasmlar qatori (diaproyektor) va magnitofondagi (til laboratoriyasidagi) og'zaki matn qo'shib qo'llaniladi.

Audiolingval va audiovizual metodlarga xos bo'lgan usullarni qiyoslash ularni yaqqolroq tasavvur qilish imkonini beradi.

Qiyos

Jumladan, ALMda og'zaki nutqqa ko'proq e'tibor qaratiladi, unda gap strukturalarini mashq qilish uchun soddaga modellar jumlar qo'llaniladi (pattern drills), turli qoliplar (patterns) yod olinadi. Til o'rganish odatlari shakllantirish deb qaraladi va darsda texnik vositalar qo'llaniladi.

Umumiylik

Farq

AVMning ALMdan farqlanuvchi asosiy xususiyati akustik va vizual materialning barobar qo'llanishidir. Bu dialog ustida ishlash jarayoniga ham katta ta'sir o'tkazadi.

Asliy nutq vaziyatlari (original situatsiya), ma'noni ochish, xotiraning vizual tayanchi, nutq vaziyatiga xos mashqlar, tildan amalda foydalanishda mamlakatshunoslikka oid ko'rgazmalarni qo'llash taniqli metodist Vol'ter (1963, 63) tomonidan AVMning o'ziga xos xususiyati deb topildi.

4.2.4. Audiovizual metod tanqidi

Audiovizual metodning ko'pgina prinsiplari chet til o'qitish jarayonida o'zgartirib yuborildi. Audiovizual yoki global-struktural metodning «sofligi» faqat Fransiyadagina saqlanib qolindi.

Tanqidchilar quyidagilarni bu metodga xos bo'lgan kamchiliklardan deb hisoblaydilar. (Firges 1975; Vielau 1976) :

- O'quvchilarning istiqbolli aqliy va amaliy faoliyati retseptiv va reproduktiv nutqiy ta'limiy harakatlarni talab qilish tufayli o'qituvchi tomonidan bo'g'ib qo'yildi.

- Chet til ta'limi jarayoni bixeviorizm yo'nalishiga (xulq psixologiyasi orqali tilga xos bo'lgan odatlarni shakllantirish va tarbiyalashga) qaratildi (moslashtirildi).

- Dars va uning bosqichlarini bir qolipga solib qo'yilgan o'zgarmas sxemada tashkil qilindi.
- O'qituvchiga texnika vositalari mutaxassisi roli berildi, natijada uning pedagoglik imkoniyatlari cheklab qo'yildi.
- Ta'lim jarayonida, bir tomondan, asosiy e'tibor og'zaki nutqqa qaratildi, nutqning situativligi va orginalligiga bo'lgan talab kuchaytirildi, ikkinchi tomondan, tilning shakl va xususiyatlari hamda tuzilish me'yorlariga qat'iy amal qilish, grammatik material taqsimotidagi tartibni saqlab qolishga bo'lgan talablar qo'yildi. Bu holat ma'lum qarama-qarshiliklarni keltirib chiqardi.
- O'quv materiali taqsimotida, darsni rejalashtirish va tashkil qilishda ona tili butunlay hisobga olinmadi.
- Darslikdagi dialog va mashqlarda mazmunga e'tibor bermagan xolda, asosan, grammatik shakllarni takrorlash va qo'g'irchoq figuralar o'rtasidagi dialog va mashqlarning mazmunan sayoz va o'ta sodda bo'lib qolishiga sabab bo'lgan.

27-topshiriq

Audiovizual metod chet til ta'limida hozirgi kunga qadar o'z ta'siri va ko'plab tarafdorlariga ega.

Biroq, o'z-o'zidan tushunarliki, asosiy yo'nalish va ayrim olingan prinsiplarga hamda dars jarayonining tashkil qilinishiga bo'lgan tanqidiy mulohazalar mavjud.

Sizning fikringizcha, bu metodning yutuqlari nimalardan iborat? Nimalar mazkur metodning kamchilik va bo'sh tomonlari sanaladi?

Yutuqlar	Kamchiliklar

4.2.5. AVM va navbatdagi konsepsiyalar

28-topshiriq

Audiovizual metod, chet til ta'limidagi kommunikativ «to'ntarish» (chet tilni muomala vositasi sifatida o'rganish) paydo bo'lgandan so'ng ham bir qator darsliklarning yaratilishiga o'z ta'sirini o'tkazdi.

Quyidagi material Seegerning 80-yillarda yaratilgan «Vorwaerts International» nomli darsligidan olingan.

Siz ularda audiovizual metodning qaysi xususiyatlarini ko'ryapsiz?

Ularni tayanch so'zlar yordamida qog'ozga tushiring:

1. Yangi o'quv material taqdimoti:

Lektion 3

Was machst du?

Sag mal, wie heißt ... auf deutsch? ☺☺



Hier Tanja.

Tag, Paul!
Was machst du?

Ich auch.
Ich mache auch
Deutsch.



Hallo, Tanja!
Hier ist Paul!

Ich mache
Deutsch-Hausaufgaben.
Und du?

2



☺? Haus.

Haus.

Heft.

Auf Wiedersehen,
Paul

Sag mal, wie heißt
auf deutsch? ☺

Noch einmal, bitte!

Danke, Tanja.
Und ?

Danke, Tanja.
Auf Wiedersehen!

- Hier Tanja.
- Hello, Tanja. Hier ist Paul.
- Tag, Paul.

- Was machst du?
- Ich mache Hausaufgaben.
- Ich mache Deutsch.

- Sag mal, wie heißt ☺ auf deutsch?
- Haus.
- Noch einmal, bitte!
- Haus.
- Danke.

Seeger (o.J.), 32

Sizing fikringiz: _____



4 Singular - Plural



Eine Kerze	fehl	t.
Drei Kerzen	fehl	en.
Hans	mal	t.
Hans und Ina	mal	en.

Hier ist Rot
 Hier sind Rot, Gelb und Blau.

5 wir ... (e)n

Wir schwimm

en.

 turn

en.

 bastel

n.

 (l)

6 Das hörst du in der Schule

Komm, wir schreiben. *Nein, ich habe keine Lust.*

Wie heißt das auf deutsch? *Ich weiß es nicht.* *Ich weiß es.*

Komm, wir rechnen. *Ich will rechnen. Das ist doch langweilig.*

Ich habe eine Idee. wir basteln. *Prima! Das macht Spaß.*

Seeger (o.), 32

Sizing fikringiz: _____

5. Bilvosita metodlar (VM)

80-yillardagi GTMni ALM bilan birlashtirishga urinish

5.1. Chet til ta'limidagi metodlar qarishuvi

Ushbu qo'llanmaning kirish qismida ta'lim metodlarining paydo bo'lishi bir qator dalillar bilan bog'liq ekanligi aytib o'tildi.

«Yangi tillar»ni o'qitish amaliyoti aniq bir davr bilan chegaralanmagan, shunday bo'lsa ham taxminan 1960-1975 yillarda chet til ta'limida audiovizual metod jahon bo'ylab keng tarqalgan deyish mumkin.

Turli guruhlar va xududlardagi chet til amaliyoti uchun bir qator metodlarning yonma-yon turishi va qo'llanishi xarakterlidir.

Metodlarning qarishuvi va yonma-yon qo'yilishining ko'plab sabablari bor.

Amaliyotda shunday holatni kuzatish mumkinki, unda o'qituvchi «yangi metod»ni yaxshi ishlata olmaydi, chet til ta'limi jarayonida bu metod usullaridan foydalanib, samara va muvaffaqiyatga erisha olmaydi, natijada u yangi metodning ayrim prinsiplarinigina qo'llash bilan cheklanib qoladi. Shunday bo'lishi ham mumkinki, yangi metod ayrim olingan bir guruh ehtiyojlari va imkoniyatlari uchun yaratiladi (masalan, ALMning ikkinchi jahon urushi paytida tarjimonlar tayyorlash ehtiyojidan kelib chiqib yaratilganligini eslab ko'raylik) va shu guruhlarda muvaffaqiyat bilan qo'llaniladi.

Agar bu metod boshqa ehtiyoj va mo'ljal bilan tashkil qilingan guruhlarda qo'llanilsa, yaxshi natija bermaydi. Bunday holatda uni o'zgartirish va jarayonga moslashtirishga to'g'ri keladi.

Uzoq vaqt mobaynida, agar chet tillarni o'rganish jarayoni intensiv va ilmiy jihatdan yetarli darajada tadqiq qilinsa hamma kishilar uchun foydalanish qulay bo'lgan «yangi metod»ning yaratilganligi haqida so'z yuritish mumkin, deb ishonib kelingan edi.

Ilmiy asoslangan va universal xarakterga ega bo'lgan ta'lim metodi nihoyat audiovizual metod bo'lib dunyoga keldi. (Lado 1964).

Kommunativ va madaniyatlararo chet til ta'limi metodlari haqida bahs yuritilganda yana yuqoridagi masalaga qaytiladi, chunki chet til o'qitish didaktikasi va metodikasida audiovizual metodning hal qiluvchi rol o'ynaganligi ma'lum. Munozaradan shu narsa ayon bo'ldiki, o'rgatish va o'rganish tushunchalarini bir biridan farqlash muhim ahamiyatga ega.

Inson xotirasi shunday tuzilganki, hamma kishilarda ilm olish jarayoni bir xil tarzda kechadi (ya'ni, idrok qilish, esda saqlash, o'quv

materialini o'zlashtirish), garchi biz bu haqda ko'p narsa bilmasakda, chet tillarni barcha kishilar yaxshi o'rganib olishlari mumkin bo'lgan ta'lim metodlarini yaratish, umuman olganda, mumkin va arziqli ekanligiga shubhalanmasa ham bo'ladi.

Bu fikrning tasdig'i uchun yaxshigina asoslar bor:

1. Chet tillarni o'rganishdan turli maqsadlar ko'zda tutiladi.

Til o'rganish maqsadi

O'z sohasi bo'yicha matnlarni o'qib ma'lumot olish niyatida nemis tilini o'rganadigan olim yoki savdo-sotiq qilish uchun nemis tilida maktub yozishmoqchi bo'lgan kotiba nemis tilini Germaniyadagi kishilar bilan fikr almashish niyatida o'rganmoqchi bo'lgan sayyohga qaraganda mutlaqo boshqa maqsad qo'yadi.

Olim birinchi navbatda o'qishni, kotiba yozishni, sayyoh esa tinglash va gapirishni o'rganadi. Chet tilda o'qish va yozish, tinglash va gapirishga nisbatan mutlaqo boshqa usullar bilan o'rgatiladi va o'rganiladi.

Dars metodlari uning maqsadlariga bog'liq. Shuning uchun ham maqsadi tinglash va gapirishni o'rgatish bo'lgan audiolingval metod o'qib tushunishni o'rgatish uchun unchalik mos kelmaydi.

2. Turli hudud kishilari va ayrim yakka kishilarni til o'rganish imkoniyatlari ham bir-biridan tubdan farq qiladi.

Til o'rganish imkoniyati

Masalan kishining yoshi ham til o'rganishda muhim rol o'ynaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchisi katta yoshdagi kishiga nisbatan chet tilni boshqacha o'rganadi. Shu bilan birga kishilarning madaniy an'analari (madaniy qadriyat va mezon, xulq, ta'lim an'analari), o'quvchining ona tili, uning chet tilga uzoq yoki yaqinligi, bilim darajasi va hayotiy tajribasi, boshqa chet tillarni bilishi, individual xususiyatlari, ya'ni ziyolilik darajasi, qiziquvchan va intiluvchanligi, o'qish va o'rganishga o'zini tayyorlashi va boshqalar chet til ta'limining muhim omillaridan hisoblanadi.

3. Ta'lim sharoiti ham ta'lim metodlarining shakllanishiga jiddiy ta'sir o'tkazadi.

Nemis tilini tabiiy til muhitida o'rgatish Germaniyadan uzoqda joylashgan mamlakatlarda nemis tilini o'rgatishdan mutlaqo farq qiladi.

Darsni tashkil qilishga darslik va boshqa o'qitish vositalarining mavjudligi, o'qitish uchun ajratilgan vaqt, o'qituvchi va uning kasbiy

malaka darajasi, guruhning katta yoki kichikligi, tuzilishi, xullas «tashkiliy shart-sharoit» deb nomlanuvchi xususiyatlari ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

5.2. 50-yillardan bir misol (VM)

Quyida biz 50-yillar misolida «o'quvchilar guruhi» va «o'quv sharoiti»ga oid dalillar o'sha davr uchun dolzarb hisoblangan **Grammatika-tarjima metodi va Audiolingval metodlarning elementlari** va prinsiplari birlashib, chet til ta'lim tarixiga **Bilvosita metod** bo'lib kirgan metod misolida oydinlik kiritmoqchimiz.

1955 yilda D. Schulz va N. Griesbachlarning nemis tilini chet til sifatida o'qitish borasida tezda bosh rolni egallab olgan va bugungi kunga qadar o'z qadrini yo'qotmay, amaliyotda keng tarqalgan **«Nemis tili chet elliklar uchun»** nomli darsligi paydo bo'ldi.

«Nemis tili chet elliklar uchun» kitobi mutaxassislikka oid adabiyotlarda Grammatika-tarjima metodi asosida yaratilgan darslik sifatida keltiriladi (Funk va Koenig, 1991).

Buning uchun yaxshigina sabablar mavjud:

- Darslikda Grammatika-tarjima metodining muhim elementlari oldingi qatordan o'rin olganligi yaqqol ko'rinib turibdi. Bunga grammatikaga alohida o'rin berilganligi yaqqol misol bo'la oladi. Grammatika (grammatik tana) o'quv materiali taqsimoti va darslar tuzilishini belgilaydi.

- Nemis tilini tabiiy sharoitda o'rgatish bo'yicha GTM sohasida bunday keng tarqalgan darslik hali mavjud emas.

GTM asosida yozilgan «haqiqiy» darslikni topish uchun chet el, masalan, Angliya va Fransiya mamlakatlari nashryotlarining nashr rejalarini o'rganib chiqish lozim.

5.2.1. Bilvosita metod qanday paydo bo'ldi?

Ikkinchi jahon urushi tugagandan so'ng 50-yillar boshida ko'plab kishilar nemis tilini o'rganish uchun nemis tilida gaplashiladigan mamlakatlarga kela boshladilar. Chet elliklar Germaniya Federativ Respublikasida Gyote-instituti tashkil qilgan nemis tili kurslariga qatnadilar. Kurs qatnashchilarining kelib chiqishi va ona tillari turli-tuman bo'lib, ular bir guruhda aralashib tahsil olar edilar.

Ularning barchasi katta yoshdagilar bo'lib, ko'pchiligi boshqa chet (ingliz, fransuz, ispan) tillarni an'anaviy yo'l bilan, ya'ni GTM asosida o'rgangan bo'lib, nemis tilini o'rganish jarayonida faqat grammatik bilimlarni egallash bilan cheklanib qolmasdan, o'qish va tarjima qilishni hamda boshqa kishilar bilan kundalik turmush mavzuida muloqat qilishni

istar edilard. Biroq o'sha davrda amalda qo'llanilayotgan nemis tilini kattalarga chet til sifatida o'rgatishga mo'ljallangan darsliklar GTM asosida yaratilgan edi.

Didaktik konsepsiya

Shuning uchun D. Schulz va H. Griesbach yangi darslik yaratishga qaror qildilar. Unda chet til ta'limidan ko'zlangan maqsad (og'zaki nutqni o'rgatish), o'quv guruhlarining xususiyatlari (ma'lum bilimga ega bo'lgan katta yoshdagi kishilar, guruhlar tarkibining turli-tumanligi) va o'quv sharoiti (nemis tili tabiiy sharoiti) hisobga olindi.

Mualliflar GTMning ta'lim uchun qimmatli prinsiplari bo'lmish grammatika va so'z boyligini sistemaga solib o'rganish, shu bilan birga ALMning o'sha davrda qizg'in bahslarga sabab bo'lgan tomonlari, ayniqsa, dars tuzilishi va mashqni tashkil qilish borasidagi yutuqlarini ham saqlab qolishga va darslikka kiritishga qaror qildilar.

Guruhlarining til jihatidan turli-tumanligi o'quv materialini taqdimoti va dars usullarini bir tilda bayon qilishni taqozo qildi. Bu GTMning grammatik material taqsimotida ona tilini hisobga olish va materialni ona tilida tushuntirish kabi prinsiplariga mutlaqo zid edi. Biroq bu holat ALMning ona tilini dars jarayonidan iloji boricha chiqarib tashlash va darsni o'rganilayotgan chet tilda olib borish kerak degan talabiga to'la mos kelar edi.

O'qish joyi nemis tilida gaplashadigan mamlakat bo'lganligi va kurs ishtirokchilari darsdan tashqari vaqtlarda ham ixtiyorsiz nemis tilidagi bilim, ko'nikma va malakalarini kundalik turmush sharoitida amalda qo'llashlari lozimligi va darslardagi mavzular va shart-sharoitlar kundalik hayotga yaqin bo'lganligi sababli, masalan, xona izlash, kinoga borish maqsadida kelishib olish, pochtda, sayohatlar byurosida mavzulari yoritilganligi va ayrim matnlar suhbat shaklida, ya'ni dialog tarzida tuzilganligi ALM prinsiplaridan hisoblanadi. Shu jihati bilan darslik ALMning tildan og'zaki tarzda foydalanish va o'quv materialini kundalik hayot sharoitida taqdim etish prinsipiga mos tushadi.

Endi bir dars tarkibini aniqroq ko'rib chiqamiz.

Bir dars tahlili

Ularga quyidagilar kiradi:

- Yangi o'quv materialini qamrab olgan mavzuga olib kiruvchi matn
- Grammatik material
- Mashqlar

Shu bilan birga dars paragrafining tuzilishi va o'quv materialini taqsimotiga oid ilova ham tahlil qilinadi.

Bu o'rinda biz GTM va ALMlarning birlashishi orqali chet til ta'limi konsepsiyasida qanday o'zgarishlar sodir bo'lishini ko'rsatamo'z.

5.2.2. Dars mavzuiga olib kiruvchi matn

Chet til darsligidagi matnni tavsiflash uchun uch asosiy sohani o'qib olish muhim:

1. Matnning qog'ozga tushirilishi (Layout):

- Matn qanday ko'rinishda (sarlavhasi, abzatslar)?
- Matn mazmuniga oid rasmlar bormi (vizuallashtirish)?


2. Matnning til xususiyatlari va matn turi:

- Qaysi uslublardan foydalanilgan?
- Qanday matn turi berilgan (Bayon, tasvir, suhbat, maktub va boshqalar)?

3. Matn funksiyasi:

- Mamlakatshunoslikka oid ma'lumot bormi?
- Yangi til materiali mavjudmi (masalan, grammatika)?

Darslikdan misol



ABSCHNITT SECHS




Zwei Studenten in München

Robert studiert in München. Er ist seit einem Monat dort. Er wohnt zusammen mit seinem Freund Hans beim Kaufmann Krüger, Elisabethplatz 30, Ecke Agnesstraße. Frau Krüger ist die Hausfrau von Robert. Seine Wohnung ist nicht weit von der Universität. Die Wohnung liegt der Post gegenüber.

Robert geht morgens aus dem Haus und fährt mit seinem Fahrrad zur Universität. Hans hat kein Fahrrad und geht immer zu Fuß. Aber sein Weg ist nicht weit; vom Elisabethplatz zur Universität braucht er nur zehn Minuten.

Mittags nach den Vorlesungen geht Robert mit seinem Freund zum Essen. Sie gehen die Ludwigstraße entlang und bei einem Zeitungsstand links um die Ecke zu einem Gasthaus. Dort ist man sehr gut. Gewöhnlich bestellen sie ein Menü; das ist nicht so teuer. Nach dem Essen lesen sie die Zeitungen und die Illustrierten und trinken manchmal ein Glas Bier oder eine Tasse Kaffee.

Nachmittags geht Robert wieder zu einer Vorlesung. Jetzt geht er allein ohne seinen Freund, dann Hans arbeitet zu Hause für seine Prüfung. Nach der Vorlesung ist er frei und fährt nach Hause. Manchmal geht Hans seinem Freund entgegen. Dann machen sie einen Spaziergang durch den Park. Nach dem Abendessen arbeiten sie oder gehen wider spazieren. Oft besuchen sie mit ihren Freunden ein Kino oder ein Theater. Meistens gehen sie aber früh zu Bett, denn sie sind abends immer sehr müde.



(Griesbach va Schulz 1955, 28)

Keltirilgan misol izohi:

Matnning qog`ozga tushirilishi:

Matn mavzuini ifodalovchi sarlavha mavjud: Sarlavhadan matnda Myunxendagi ikki talaba xaqida gap ketayotganligini bilib olish mumkin. Sarlavha qora rangda bo`rttirib yozilgan.

Matnga qo`shimcha tarzda ikkita rasm (vin`etka) berilgan. Birinchisi ayollar cherkovi, («Myunxen» shahri uchun signal) va ikkinchisi shahar rejasining bir qismi («shaharda yo`l topib yurish») mavzuiga doir. Shahar plani juda kichik xajmda, Shuning uchun unda ma`lumot ham ko`p emas.

Matn uslubi va matn turi:

Matnni «axborot» deb baholash mumkin.

Rasmiy-axborot uslubida yozilgan, tili tushunarli (asosan bir ipga chizilgan sodda gaplar).

Vazifasi:

Matn Myunxen shahridagi ikki talabaning hayoti haqida axborot beradi. Birinchi navbatda ularning kun tartibi haqida ma`lumot beriladi. Matn axborot berish bilan birga ta`limiy vazifani ham bajaradi. Unda yangi grammatik material ham berilgan. Bunday «grammatikalashtirilgan» matnlar GTMga xosdir.

29- topshiriq

O`ylab ko`ring:

Xuddi shunday matnni darslikdan tashqarida, hayotda, masalan, gazetada yoki «Myunxen tarixiga oid to`plam»lardan ham topish mumkinmi?

Matnni yana bir marta diqqat bilan o`qib chiqing. Undagi har bir gapda ma`lum grammatik hodisa mavjud. Ushbu matn, eng avvalo, shu grammatik materialni taqdim qilish niyatida darslik mualliflari tomonidan tuzilgan.

Endi fahmladingizmi? Buning aniq javobini ushbu kitobning navbatdagi «Grammatik material tavsifi» bo`limini o`qisangiz olasiz.

5.2.3. Grammatik material tavsifi

Darslikning grammatikaga oid «B» bo`limi bevosita kirish matniga yaqin joylashtirilgan va quyidagicha ko`rinishga ega:

1. Praepositionen mit dem Dativ

Robert geht um 9 Uhr aus dem Haus. Er wohnt mit seinem Freund bei seiner Tante. Nach dem Essen trinkt er eine Tasse Kaffee. Er ist seit einem Monat in Deutschland. Er bekommt das Geld von seinem Vater. Er geht zu seinem Freund. Hans geht seinem Vater entgegen. Die Wohnung liegt der Post gegenueber.

**Aus, bei, mit, nach, seit, von,
zu, entgegen, gegenueber
Immer mit Dativ**

Merken Sie !: entgegen und gegenueber stehen oft nach dem Substantiv

bei dem	→	beim
von dem	→	vom
zu dem	→	zum
zu der	→	zur

2. Praepositionen mit dem Akkusativ

Hans geht durch den Park. Robert bestellt fuer seinen Freund ein Glas Bier. Das Taxi faehrt gegen das Haus. Robert geht ohne seine Schwester spazieren. Die Freunde gehen um das Haus. Wir fahren die Strasse entlang.

**durch, fuer, gegen,
ohne, um, entlang
Immer mit Akkusativ**

Merken Sie!: Entlang steht immer nach dem Substantiv.

3. Das Zeitadverb

Der Unterricht beginnt morgens. Ich lerne immer vormittags. Mittags gehe ich zum Essen. Nachmittags gehe ich spazieren. Abends besuche ich ein Kino. Nachts bin ich zu Hause. Ich habe montags immer Vorlesungen. Sonntags arbeite ich nicht.

Substantiv

der Morgen
 der Vormittag
 der Mittag
 der Nachmittag
 der Abend
 die Nacht
 der Montag
 der Dienstag
 usw.)

Adverb

morgens
 vormittags
 mittags
 nachmittags
 abends
 nachts
 montags
 dienstags

4. Wortstellung

		I	II	III
Robert geht zur Universitaet, Wir gehen zu Bett, Robert liest, Sie lesen Zeitungen, Er arbeitet nicht,	aber denn und oder sondern	Hans wir Hans sie er	bleibt sind schreibt arbeiten geht	zu Hause sehr muede einen Brief zusammen spazieren

Merken Sie die Wortstellung:

aber, denn, und, oder, sondern zaehlen nicht!

Agar darslikning grammatika qismiga diqqat qilinsa, nima uchun mualliflarning «**Myunxenlik ikki talaba**» nomli matni tuzganliklari yaqqal ayon bo'ladi. Matn quyidagi yangi grammatik materialni «joylashtirish» uchun xizmat qiladi.

- **Dativ kelishigini talab qiluvchi predloglar**
- **Akkuzativ kelishigini talab qiluvchi predloglar**
- **Payt ravishlari**
- **So'z tartibi**

Bu o'rinda **til o'rgatish matni** deb ataluvchi matn yaratilganini aytish lozim. Bunday matnlar amaliyotda faqat chet til darslarida va chet til o'rgatishga mo'ljallangan darsliklarda uchraydi.

Ularni «**sintetik**» matnlar deb ham yuritiladi (grekcha *synthatein-tuzmoq*, original – asliy matnga zid ma'nosida).

Agar bunday matnlar darslikda ko'p uchrasa, u holda darslikda grammatika taqsimoti rasmiy til materiali asosida berilgan va grammatikani sistemali ravishda taqdim etish didaktik konsepsiyada muhim o'rin egallaydi, bu GTMga xos xususiyat hisoblanadi.

Darslikning grammatika qismi qat'iy sxema asosida tuzilgan. Bu sxema quyidagicha:

1. Yangi grammatik hodisani o'z ichiga oluvchi misol gaplar berilgan. Gaplardagi grammatik hodisalar boshqa yozuv bilan (kursivda) ifodalangan.
2. So'ngra yangi grammatik hodisaga qoida berilgan. Qoida alohida qavsga olish, kvadratga olish, bo'rttirish, katta harflar bilan yozish orqali ajratib ko'rsatilgan (bu juda muhim!).
3. Nihoyat, qoidadan mustasno bo'lgan holatlar izoh tarzda berilgan.

Izohning harflari boshqa matnga nisbatan kichikroq, ammo yarim qoraytirilgan. Izohni e'tibordan chetda qoldirish tavsiya etilmaydi.

Misol-qoida-mustasno, (agar ehtiyoj bo'lsa). Bunday yo'lni induktiv usul (ALMga xos) deb yuritiladi va bu deduktiv usul (avval qoida so'ngra misol)ga zid tarzda baholanadi.

Deduktiv usul GTMga xos xususiyat hisoblanadi.

30- topshiriq

O'ylab ko'ring:

Agar darslik mualliflari induktiv usulni tanlagan bo'lganlarida qanday yo'l tutgan bo'lar edilar?

Darslikning grammatika qismi ko'zga tashlanadigan tarzda tuzilgan, o'quv materiali kichik bo'laklarga bo'lingan. Grammatika qismi darsning «markaz»ini tashkil qiladi. Grammatika matn tuzilishiga, mashq tanlash, dars qurilishi va darslikdagi o'quv materiali taqsimotiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.

5. 2. 4 Mashqlar

Bu darslikda mashqlar alohida bilim sifatida **(D)** mavzuga olib kiruvchi matn va grammatik material bayonidan so'ng berilgan.

Uebung 26. Praepositionen mit dem Dativ:

1. Robert geht um 9 Uhr aus d- Haus. 2. Er wohnte zusammen mit sein- Freund Hans. 3. Ich gehe zu mein- Schwester. 4. Ihr fahrt heute mit eure- Fahrraeder- zu d- Universo'taet. 5. Der Brief kommt von d- Grossmutter. 6. Ich bin schon seit ein- Woche hier. 7. Sie geht ihr- Vater entgegen. 8. Nach d- Essen besuchen wir meinen Onkel. 9. Meine Wohnung liegt d- Bahnhof gegenueber. 10. Ich habe das Geld von mein- Vater. 11. Ich mache einen Besuch bei mein- Tante. 12. Euer Haus steht unser- Haus gegenueber. 13. Die Schueler kommen aus d- Schulzimmer. 14. Ich zahle mit ein- Geldschein. 15. Das Auto gehoert meinem Freund seit ein- Monat. 16. Mein Vater kommt mit mein- Mutter aus Koeln. 17. Ich fahre mein- Eltern entgegen. 18. Mein Bruder wohnt bei d- Kaufmann Krueger. 19. Bier trinken wir aus ein- Glas, Kaffee aus ein- Tasse. 20. Wir kommen von d- Unterricht und gehen zusammen zu d- Bahnhof. 21. Haben Sie einen Brief von Ihre- Eltern?- Nein, ich habe keinen Brief von meine- Eltern, sondern von mein- Bruder. 22. Ist der Weg von d- Elisabethplatz zu d- Universo'taet weit? 23. Ich trinke ein Glas Bier zu d- Essen. 24. Nach d- Essen trinke ich eine Tasse Kaffee.

Uebung 27. Praepositionen:

1. Wir fahren mit unsere- Fahrraeder- um d- Stadt. 2. Das Auto faehrt gegen d- Haus. 3. Heute gehe ich ohne mein- Freund zu d- Universo'taet, denn er arbeitet fuer seine- Pruefung. 4. Meine Tante faehrt mit d- D-Zug durch d- Land. 8. Ich mache keine Uebungen fuer mein- Freund. 6. Nach d- Schule arbeiten wir immer ohne unser- Lehrer. 7. Herr Breuer faehrt mit sein- Auto d- Strasse entlang. 8. Die Familie sitzt um d- Tisch. 9. Der Brieftraeger bringt einen Btief fuer mein- Vater. 10. Nach d- Essen kocht die Mutter Kaffee fuer ihr- Gast. 11. Der Kaufmann arbeitet fuer seine- Frau und sein- Sohn. 12. Wo ist die Post?
- Gehen Sie die Strasse entlang, dann rechts um d- Ecke.

Uebung 28. Antworten Sie mit einem Satz!

1. Wo wohnen Sie? (bei, mein Vater, meine Tante, meine Freunde)
2. Wohin gehst du? (zu, die Post, der Bahnhof, das Theater, mein Onkel)
3. Mit wem gehst du spazieren? (mit, der Vater, die

Lehrerin, meine Freunde, die Eltern) 4. Wann geht Robert nach Haus? (nach, das Essen, der Unterricht, die Vorlesungen) 5. Fuer wen arbeitet mein Vater? (fuer, der Sohn, die Familie, die Kinder) 6. Seit wann sind Sie in Deutschland? (seit, ein Jahr, eine Woche, ein Monat, vier Tage) 8. Von wem hat der Schueler das Geld? (von, der Vater, der Onkel, die Schwester, die Eltern) 9. Wem geht Robert entgegen? (der Vater, der Gast, die Mutter, seine Geschwister) 10. Zu wem gehen wir heute nachmittag? (zu, die Hausfrau, der Lehrer, meine Tante, meine Geschwister)

Uebung 29. Zeitadverbien:

1. Wir haben ... (Morgen) und ... (Nachmittag) Unterricht. 2. Ich esse ... (Mittag) immer um 1 Uhr. 3. In Deutschland arbeiten wir ... (Sonntag) nicht. 4. Er hat ... (Sonnabend Nachmittag) keine Schule. 5. Die Lehrer besuchen ... (Mittwoch) immer das Theater. 6. Wir schreiben ... (Abend) unseren Eltern und unseren Freunden. 7. Ihr besucht ... (Freitag) immer eure Freunde. 8. Ich bin ... (Dienstag Vormittag) immer zu Haus. 9. ... (Donnerstag) beginnen die Vorlesungen um 9 Uhr. 10. Der Brieftraeger kommt ... (Morgen) um 8 Uhr und ... (Nachmittag) um 3 Uhr.

Uebung 30. Verbinden Sie zwei Saeetze!

Beispiele:

Wir gehen zu Bett. Wir sind muede. (denn)

Wir gehen zu Bett, denn wir sind muede.

Robert faehrt mit dem Fahrrad. Hans geht zu Fuss.
(aber)

Robert faehrt mit dem Fahrrad, aber Hans geht zu Fuss.

1. Ich trinke ein Glas Bier. Mein Freund trinkt eine Tasse Kaffee.
(aber) 2. Mein Bruder geht in die Schule. Ich besuche die Universitaet. (aber) 3. Hans geht zu Fuss. Er hat kein Fahrrad.
(denn) 4. Hans geht nicht zur Universitaet. Er arbeitet zu Haus.
(denn) 5. Wir gehen um 9 Uhr aus dem Haus. Die Vorlesungen beginnen um 9.15 Uhr. (denn) 6. Herr Braun bietet Walter Zigaretten an. Walter lehnt ab. (aber) 7. Er raucht nicht. Das Rauchen schadet seiner Gesundheit. (denn) 8. Herr Meier macht eine Geschaeftsreise. Seine Frau ist zu Hause. (aber) 9. Er faehrt mit dem Taxi. Er hat keine Zeit. (denn) 10. Der Eilzug faehrt um 8.58 Uhr von Koeln ab. Er faehrt nicht nach Frankfurt, sondern nur nach Mainz. (aber)

31- topshiriq*Bu mashqlarni qanday baholash mumkin?**Belgi go'ying:*

<i>Mashqni bajarish</i>	X	<i>Raqqamlar yordamida tartib berilgan alohida jumlar</i>
		<i>Birgalikda matnni tashkil qiluvchi mazmunan bog'langan jumlar</i>
<i>Mashqning bajarilishi haqida ko'rsatma</i>		<i>Mashqning bajarilishi haqidagi ko'rsatma faoliyatni ifodalaydi. Masalan, to'ldirish, o'ynash, bajarish va h.k.</i>
		<i>Mashqning bajarilishi haqidagi ko'rsatma grammatik materialga oid hisoblanadi.</i>
<i>Mashqlarning tuzilishi</i>		<i>Mashqlarni til jihatdan shaklga solish borasida o'quvchilar uchun katta o'yin maydoni ochiladi.</i>
		<i>Mashqlar o'quvchilarning tilga oid xulqlarini aniq belgilaydi (matnlardagi bo'sh qoldirilgan o'rinlarni to'ldirish va shaklini o'zgartirish mashqlari).</i>

Darslikdagi mashq shakllari:

- elementlarning o'rnini bo'sh qoldirilgan matn (29- mashq)
- o'rniga qo'yish mashqlari (26-va 27- mashqlar)
- shaklini o'zgartirish mashqlari (28- va 30- mashqlar)
- mashq murakkab bo'lgan holda misol beriladi (30- mashq)

Yuqoridagi barcha mashqlar ALMga xosdir.

Mashqlarni bajarishga oid ko'rsatmalar:

Mashqlarni bajarishga oid ko'rsatmalarga xos xususiyatlar quyidagilar:

Gap tuzing... (majhul nisbatda). Savol qo'ying To'ldiring ... (gapni). Qo'ying ... (qo'shimchalarni). Savollarga javob bering O'rganilishi kerak bo'lgan yangi grammatik hodisani nomlang (predloglar, «vaqt ravishlari»).

Mashqlarni bajarishga oid bunday ko'rsatmalar tilga oid shakllarning benuqson bo'lishi kerakligini talab qiladi. Bunday mashqlarning maqsadi grammatik qoidalarni hatosiz qo'llashga o'rgatishdir.

Bu darslikdagi mashqlarga oid xususiyatlar GTM va ALMlarning aralashib ketganligidan aniq dalolat beradi. Darslikda ALM uchun xarakterli bo'lgan mashq shakllaridan bir qatori qo'llanilgan, shu bilan birga GTMga oid mashqlar ham berilgan.

5.2.5. Dars qurilishi

«Deutsche Sprachlehre fuer Auslaender» darsligining 36-bobi quyidagi sxema asosida rejalashtirilgan:

A qism: O'qish uchun matn

B qism: Grammatika

C qism: So'z boyligi

D qism: Mashqlar

E qism: (so'z boyligini kengaytirish uchun va mamlakatshunoslikka oid ma'lumotlar beruvchi) matnlar

Grammatika darslik tuzilishini belgilaganligi sababli, darslikning «B» qismi har bir bobning markazini tashkil qiladi.

Har bir darsning ichki qurilishini quyidagicha tasavvur qilish mumkin.

A B C D E

Darslikning so'z boyligi qismi (C) darsdagi matn (A) va mamlakatshunoslikka oid matnni (E) qamrab oladi. Ko'pincha so'z boyligi taqdimoti so'z boyligining rasmiy til masalalarini yechishga qaratiladi, masalan, so'z yasash, so'z oilasi, gap tuzish, fe'l shakllari va boshqalar.

5.2.6. O'quv materiali progressiyasi

Progressiya tushunchasi o'quv materiali zichligi, taqsimoti va ketma-ketligi tushunchalarini qamrab oladi. Darslikdagi o'quv materiali progressiyasini tasavvur qilish uchun uning mundarijasini sinchiklab o'rganib chiqish lozim.

Schulz va Griesbach darsligining mundarijasi quyidagi ko'rinishga ega:

Abschnitt 628

- A. Zwei Studenten in Muenchen
- B. 1. Praepositionen mit dem Dativ- 2. Praepositionen mit dem Akkusativ- 3. Zeitadverb- 4. Wortstellung
- C. Zum Wortschatz: Wortbildung
- D. Uebung 26-30
- E. Die Mahlzeiten

Abschnitt 7	34
A. Ein Geschpraech	
B. 1. Modalverben: wollen, muessen, koennen (Praesens) – Personalpronomen: Deklination; Personalpron. als Objekt	
C. Zum Wortschatz: Uhrzeiten	
D. Uebung 31-35	
E. Ein Telefongespraech	
Abschnitt 8	40
A. Mein Haus	
B. 1. Demonstrativpronomen "dies-" – 2. woher?, wo?, wohin? –	
C. 3. Praepositionen mit dem Akkusativ und dem Dativ	
D. Zum Wortschatz: Wortbildung	
E. Uebung 36-42	
F. Zimmer zu vermieren	
Abschnitt 9	48
A. Der Taschendieb	
B. 1. Substantiv: Genetiv-2. Fragepronomen "wessen?" - 3. Imperfekt (schwache und starke Verben)	
C. Zum Wortschatz:	
D. Uebung 43-47	
E. Morgengymnastik am Rundfunk	
Abschnitt 10	55
A. Freundinnen	
B. 1. Reflexivpronomen – 2. duerfen – 3. wissen – 4. Perfekt (schwache und starke Verben)	
C. Zum Wortschatz: Verbformen	
D. Uebung 48-52	
E. Am Morgen und am Abend	
Abschnitt 11	62
A. Ein Missverstaendnis - Sprichwoerter	
B. 1. Personalpronomen "es" -2. Imperativ – 3. Wiederholung und Ergaenzung der Deklination	
C. Zum Wortschatz,	
D. Uebung 53-54	
E. Auf dem Postamt	

Darsdagi matn uchun **(A)** va o'qish uchun **(E)** mavzular berilgan (masalan 8-bo'limda «**Mening uyim**» va «**Ijara uchun xona**» mavzulari mavjud).

Mavzular har bir darsda olinadigan soʻzlar hajmini belgilaydi. **Soʻzlarga** oid izohlar darslikning **C** qismida beriladi.

Darslik mundarijasida grammatika (**B** qism) batafsil va aniq maʼlumot tarzida berilgan. Bu ham grammatikaning oʻquv materialini taqsimotida asosiy rolni oʻynashini koʻrsatuvchi belgi sifatida koʻzga tashlanib turadi.

Grammatik material taqsimoti nemis tili til hodisalari shakliy qiyinchiliklarining oʻsib borishi (komplekslik) prinsipiga asoslangan. Bu prinsipga koʻra til hodisasining avval sodda, soʻngra murakkab shakllari berib boriladi.

Shu holatga oid ikkita misol keltiramiz:

Birinchi misol: **Feʼl zamonlari**

Sodda

- 1-boʻlim sein feʼlining prezensi
- 2-boʻlim haben va heissen feʼllarining prezensi
- 4-boʻlim kuchli feʼllar prezensi
- 7-boʻlim modal feʼllar prezensi
- 9-boʻlim kuchsiz va kuchli feʼllar imperfekti
- 10-boʻlim kuchli va kuchsiz feʼllar perfekti
- 12-boʻlim legen, liegen, stellen, stehen feʼllarining imperfekti va perfekti
- 13-boʻlim plyuskvamperfekt

Murakkab 14-boʻlim futurum

Ikkinchi misol: **Otlarning turlanishi**

Sodda

- 2- boʻlim Otning birlik va koʻpligi; Nominativ va Akkusativ

- 5- boʻlim Ot. Dativ; Dativ va Akkusativ

- 9- boʻlim Ot. Genitiv

Murakkab 11-boʻlim Otlarning turlanishi (takrorlash va toʻldirish)

Oʻquv materialini taqsimotidagi GTM va ALMlarga xos boʻlgan bunday qarishliq shakl (Mischform) «osondan qiyinga» prinsipiga asoslanadi. GTMga koʻra oʻquvchilarning ona tiliga xos boʻlgan tuzilmalar hisobga olinishi, yaʼni grammatik material taqsimotida qiyosiy soha muhim ahamiyat kasb etishini hisobga olish zarur, chunki kimning ona tili ingliz tili boʻlsa, u ona tili fransuz tili boʻlgan oʻquvchilarga qaraganda boshqacha qiyinchiliklarga roʻbaroʻ boʻladi.

Darslikdagi ALMga asoslangan oʻquv materialini taqsimotida ona tili butunlay hisobga olinmaydi, taqsimot va taqdimot oʻrganilayotgan tilda amalga oshiriladi, bir tillilik prinsipiga asoslaniladi.

Biz tahlil qilayotgan darslik, bir tomondan, til materialining shakliy kompleksligining ortib borishi taqsimotiga asoslansa, ikkinchi tomondan faqat oʻrganilayotgan chet til (nemis tili)ni hisobga olib,

o'quvchilar ona tilini e'tiborga olmaydi va bu holat ALMga xos xususiyat hisoblanadi.

32-topshiriq

Griesbach va Schulzning 1955 yilda chop etilgan «*Deutsche Sprachlehre fuer Auslaender*» nomli darsligidagi didaktik-metodik konsepsiyaning qaysi element va prinsiplarini GTMga va ALMga tegishli deb hisoblash mumkin? Qaysilari ikkala metodga ham xos? Qaysi xususiyat va prinsiplar butunlay yangi?

Xususiyatlar	GTM	ALM	Ikkala metod	Butunlay yangi
Dars iloji boricha chet tilda olib boriladi (bir tillilik)		X		
Grammatikaga alohida e'tibor beriladi				
Kundalik hayotga oid mavzular va dialoglar ustida ish olib boriladi				
Grammatik material taqdimotida induktiv usuldan foydalaniladi (misoldan qoidaga)				
Grammatik qoidalar o'rganilayotgan tilda beriladi				
O'quv materiali taqsimoti til hodisalarining shakliy xususiyatlariga qarab amalga oshiriladi				
O'quvchilarning tilga oid xulqlariga ta'sir qiladigan mashq shakllari bajariladi				
Guruh xususiyati va ta'lim vaziyati hisobga olinadi				

6. Kommunikativ didaktikaning rivojlanishi (KD)

6.1. 70-yillar boshidagi holat

Qo'llanmaning birinchi bobida chet til ta'limida yangi **konsepsiyaning** vujudga kelishiga ta'sir qiladigan ijtimoiy-siyosiy, rasmiy-**idoravly**, ilmiy, ta'limiy dalillarni ko'rsatib berishga harakat qilindi.

70-yillarning birinchi yarmida chet til ta'limida xuddi shunday holat vujudga keldi. Biz bu holatni Yevropadagi, aniqrog'i, Germaniya Federativ Respublikasidagi vaziyat misolida qisqacha bayon qilishga urinib ko'ramiz.

Ijtimoiy-siyosiy soha

Ikkinchi jahon urushidan so'ng Yevropa mamlakatlarining harbiy, madaniy va iqtisodiy ittifoq tuzishi chet tillarni bilishga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirdi. Bundan tashqari, kishilarning kasbiy intilishlari va bo'sh vaqtni boshqa mamlakatlarda o'tkazish istaklarining kuchayishi (turizm), hamda aloqa vositalarining jadal rivojlanishi (masalan, telefon, radio, televidenie) chet tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishni orttirdi.

Germaniya Federativ Respublikasida 50-60-yillardagi konservativ ta'lim siyosati sotsial-liberal xarakterga ega bo'lgan «isloh vaziyati» (1969) bilan almashdi. Bu vaziyat ta'limning yangi modellari va yangi pedagogik qarashlar, ya'ni ilg'or pedagogika va didaktika (emenzipatorische Paedagogik und Didaktik) tushunchalari bilan ifodalandi.

Chet tillarni o'rganuvchi yangi guruhlar

50-yillarda chet tillarni o'rganish imtiyoz sanalar edi. Chet tillarni faqat gimnaziya o'quvchilari o'rganish imkoniyatiga ega edilar. Bular ham barcha o'quvchilarning 5-10%ini tashkil qilar edi.

Bu holat 60-yillarga kelib butunlay o'zgardi. GFRda 60-yillarning o'rtalariga kelib ingliz tili barcha o'quvchilar uchun o'quv predmeti sifatida kiritildi, ya'ni, endi faqat gimnaziya va real maktab o'quvchilarigina emas, balki o'rta maktablarning past o'zlashtiradigan o'quvchilari ham ingliz tilini o'rganish imkoniga ega bo'ldilar.

Bir vaqtning o'zida chet tillarni o'rgatishga e'tibor maktabdan tashqari o'quv muassasalarida, jumladan, asosan katta yoshdagi kishilar ta'lim oladigan xalq oliy o'quv yurtlarida ham haddan tashqari kuchaydi.

Bu yangi guruhlar, ya'ni o'рта maktab o'quvchilari, katta yoshdagi kasbiy ta'lim tinglovchilari, gimnaziyada qo'llanilayotgan metodlar asosida o'qiy olmas edilar. Chunki ularning chet til o'rganishdan ko'zlangan maqsad va imkoniyatlari gimnaziya o'quvchilarinikidan tubdan farq qilar edi. Shuning uchun bu guruhlariga mos keladigan dars berish metodlarini yaratish lozim bo'lib qoldi. Bunday metod o'рта maktab o'quvchilari va xalq oliy maktablarining katta yoshdagi tinglovchilariga mos tushishi kerak edi.

Bunday yangi guruhlardagi chet til ta'limidan ko'zlangan maqsad va o'qitish usullarining o'zgartirilishiga bo'lgan ehtiyojning kuchayishi GFRdagi chet til didaktikasi va metodikasining o'zgarishiga jiddiy ta'sir qildi.

Aloqador fanlar

Chet til ta'limiga aloqador fanlarning yangi xulosalari: Lingvistika va ta'lim nazariyasi

Chet til ta'limidan ko'zlangan maqsadning yangicha talqinida, asosan, pragmatik tilshunoslik tadqiqotlari natijalariga tayanildi. Tilshunoslikning bu sohasi tilni tilga oid shakl tizimi emas, balki inson faoliyati sohasi (muomala-til orqali biror faoliyatni bajarish) deb talqin qiladi.

Bu davrga kelib ALM/AVM uchun muhim nazariy asos bo'lgan bixevioristik ta'lim nazariyasi ham tanqidga uchradi. Chet tillarni o'rganish bu «xulqni programmashtirish» emas, balki bu ongli (kognitiv) va amaliy (kreativ) jarayon hisoblanadi. (Firges 1975; Vielau 1976).

Chet til ta'limi sohasida 70-yillarning boshidan beri to'plana boshlagan yangi xulosalar «majmui» ta'lim maqsadini belgilash sohasida qizg'in munozaralarga olib keldi. Chet til ta'limining asosiy yo'nalishlarini belgilovchi maqsadi o'quvchilarga «muomala qilishni o'rgatish» «Befaeigung zur Kommunikation» (kommunikative Kompetenz) bo'lgan yangi o'quv rejalari qabul qilindi.

70-yillarda «kommunikativ metod» bir qator urinishlardan so'ng bir necha bosqichda o'z isbotini topdi. Bu haqida kelgusi bo'limlarda so'z yuritiladi.

6.2. Kommunikativ metodning asosiy yo'nalishlari

Chet til o'qitish didaktikasi va metodikasi 70-yillarning boshida ikki yangi yo'nalishda rivojlantirildi. Ular quyidagilar:

a) pragmatik yo`nalish,

b) pedagogik yo`nalish.

Kun tartibida bu ikki yo`nalishni bir-biri bilan bog`lash masalasi munozara qilindi.

Quyidagi bilimlarda bu ikki yo`nalish tavsifi beriladi.

6.2.1 Chet til ta`limining pragmatik yo`nalishi

Chet til ta`limida pragmatik maqsadni amalga oshirish zarurati ilmiy-siyosiy soha xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Zamonaviy chet tillar, asosan, kitobiy tilni o`rgatishga qaratilgan «qadimiy til»lar bo`lmish – lotincha va grekchani o`rgatishga qarama-qarshi o`laroq, pragmatik yo`nalishda, ya`ni boshqalarga o`z fikrini tushuntira olish, tili o`rganilayotgan mamlakatda sayyoh yoki ishbilarmon sifatida yo`lini topib yuradigan bo`lish, kishilar bilan muloqot qila oladigan bo`lish, teleko`rsatuvlarni, radioeshittirishlarni, gazeta va kitoblarni o`qib tushunadigan bo`lish uchun o`rganila boshlandi.

Pragmatik yo`nalishning maqsadiga ko`ra «yangi tillar», birinchi navbatda, kundalik muloqot uchun o`rganildi. Bunday maqsadlar faqat 70-yillardan boshlab, chet til ta`limi uchun dolzarb bo`lgani yo`q, balki audiolingval metod asosida tarjimon tayyorlash jarayoni boshlanganda chet til ta`limi oldiga qo`yilgan edi.

Kommunikativ didaktika pragmatik yo`nalishda ALM/AVMdan bir qator prinsiplarni o`zlashtirib oldi. Xususan, situativlik, til materialining «asliyligi» (originalligi), yangi o`quv materialini kundalik muloqot dialogida taqdim etish, materialni kontekstda mashq qilish va boshqa prinsiplar qabul qilindi va amalda rivojlanirildi.

Chet til ta`limidagi pragmatik yo`nalish, eng avvalo, kattalarga chet tilni o`rgatish jarayonida va yangi maqsad qo`yilishida, ta`lim usullarini qo`llash hamda imtihon o`tkazish jarayonida tadbiiq qilina boshlandi. Masalan, nemis tilini chet til sifatida o`rganib sertifikat olish nizomi 1972 yilda Gyote-instituti va katta yoshdagilarga nemis tilini o`rgatish Xalq Oliy O`quv yurtlari Kengashi hamkorligida ishlab chiqildi.

**O`rta
maktab**

Pragmatik yo`nalish bo`yicha o`rta maktabda chet til ta`limi sohasida kengaytirilgan maqsad qo`yildi, jumladan, chet til grammatikasi yoki mamlakatshunoslik, madaniyatshunoslik borasidagi bilimlarni egallash chet til ta`limining asosiy maqsadi bo`lmay qoldi.

Chet til o`rganishdan ko`zlangan asosiy maqsad o`quvchilarning chet til sohasidagi bilimlarini kundalik muloqot jarayonida qo`llay olishi

va o'z fikrini bayon qila olish vositasi sifatida o'rganishi, chet el axborot vositalarini tushuna olish darajasida egallashi hisoblandi.

Chet tilni pragmatik yo'nalish asosida o'rganishdan asosiy maqsad tilga va mamlakatshunoslikka oid bilimlarni taqdim etish emas (bu maqsad GTM tomonidan qo'yilgan edi), balki chet tilda nutq faoliyatining tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish turlarida malakalar hosil qilishdan iborat deb belgilandi.

Tavsiya

Chet til ta'limidan ko'zlagan maqsadning o'zgarishi mavzu va matnlar tanlash jarayonida, til tizimiga (grammatika) oid mashqlar tuzish va o'quv materiali taqsimoti sohasida ham o'zgarishlar yasashga olib keldi. Bu haqda 6-bobda, pragmatik-funksional yo'nalish tavsifi jarayonida batafsilroq so'z yuritiladi.

6.2.2. Chet til ta'limining pedagogik yo'nalishi

O'rta maktabning chet til ta'limidagi pragmatik yo'nalishi haqidagi munozara tezda jiddiy e'tirozlarga olib keldi.

E'tirozlar

Bu yo'nalishga qarshi quyidagi asosiy e'tirozlar bildirildi:

1. O'quvchilar chet til sohasidagi bilimlarini hayotda qachon, qayerda va qanday qilib qo'llay oladilar? degan savol javobsiz qoldi. Darhaqiqat, ayrim o'quvchilar o'z bilimlarini faqat chet til darslarida, chet elga borganlarida yoki o'qishni tugatganlaridan so'ng kasbiy hayotlari taqozosi bilan qo'llash imkoniyatiga ega bo'lishlari mumkin, ko'pchilik o'quvchilar chet tildan foydalanish imkoniyatiga butunlay ega bo'lmaydilar.

2. «Kundalik muloqotni o'rgatish» haqiqatdan ham chet til darsida o'quvchilarga o'rgatilgan muomala tartib-qoidalarining hammasimi? Bir necha o'quv yilini qamrab oladigan darslarni tashkil qilish buning uchun yetarli? Chet tilni o'rganish yangi dunyoni o'rganish bilan barobarmi? O'quvchi shaxsini aqliy tarbiyalash uning hayotiy tajribasini orttirish deganimi? Boshqa xalqlar, madaniyatlar, hayot sharoitlari va boshqa bir qator masalalarni birgalikda hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishga chet til darslarida alohida e'tibor berilishi kerakmi?

Nemis tili predmeti

O'rta maktabdagi nemis tili predmeti asosan ta'lim-tarbiya maqsadlari bilan chambarchas bog'liqligi o'z-o'zidan tushunarli.

Shuning uchun bu predmet oldiga qo'yiladigan maqsadni boshqa predmetlar qo'ygan maqsadlardan ajratgan holda belgilash mumkin emas.

Chet til ta'limining pedagogik va pragmatik yo'nalishlarini bir-biri bilan uzviy bog'lagan xolda ta'limning yangi konsepsiyasini ishlab chiqishda sinovdan o'tgan talablar qo'yilishi lozim. Shuning uchun ham **keng** miqyosdagi konsepsiya ishlab chiqishdan avval bir qator jiddiy masalalarning hal qilinishi talab etiladi.

Ular quyidagilar:

Asosiy savollar

- Maktab o'quvchilarni tarbiyalay olishi uchun xulq mezonlari, baholash tizimi, turmush tarzi va muomala masalalarida tezkor o'zgarishlarni qaysi yo'nalishda amalga oshirishi lozim?

- Agar dunyo shunchalik tez o'zgarayotgan bo'lsa, maktab o'quvchilarni nimalarga tayyorlashi kerak?

- O'quvchilar bunday tezkor rivojlanishda voyaga yetib, o'z o'rinlarini topa olishlari uchun qanday mutaxassisliklarni egallashlari zarur?

Yuqoridagi savollarga ayrim olingan bir fan yoki maktab pedagogikasi nuqtai nazaridan qoniqarli javob berish mumkin emas. Bu savollar ko'proq ijtimoiy-siyosiy sohaga tegishli hisoblanadi.

70-yillarda chet til ta'limini ijtimoiy (Habermas 1971), sotsialpsixologik (Krappmann 1971), va pedagogik («emanzipatorische Didaktik») (Neuner 1987) nuqtai nazardan hozirjavoblik va munozara yo'li bilan nazariy asoslashga jiddiy harakat boshlandi.

Tavsiya

Ilovada «**Emanzipatorische Didaktik**» va «**Sozialpsychologie**» tushunchalarining izohini topish mumkin.

60-yillarda GFRda konservativ davlat boshqaruvi o'rnini ijtimoiy-liberal yo'nalishdagi «isloh vaziyati» egalladi.

Bu holat 70-yillarda chet til ta'limida yangi yo'nalishning vujudga kelishida, ijtimoiy-siyosiy sohadagi asosiy masalalarning kun tartibiga qo'yilishida asosiy rol o'ynadi. Bu davrda ayrim boshqa davlatlarda, masalan, Buyuk Britaniyadagi chet til ta'limida pragmatik yo'nalish allaqachon eng dolzarb masala darajasiga ko'tarilgan edi (Wilkins 1972; Widdowson 1972; Littlewood 1975).

Misol

Chet til ta'limi pedagogik maqsadlar bilan uzviy bog'liq ekanligi yangilik emas. **Nemis Umumta'lim Yangi Filologlar Kengashi** o'quv rejasi loyihasida 1951-yilda gimnazialarda ingliz tili predmeti uchun, GTM prinsiplariga asoslangan holda, ta'limning «Tarbiyaviy maqsadi»ni quyidagicha belgilagan:

Tarbiyaviy maqsad

Ingliz-amerika madaniyat vakillari insoniyatga ko'plab yuksak insoniylik namunalari taqdim qilganlar va ularning yozma yodgorliklarida ingliz tili darsi uchun juda qimmatli bo'lgan qadriyatlar, jumladan haqiqatni qadrlash, huquqni bilish, bog'rikenglik, erkinlikni qadrlash, inson shaxsiga va chet mamlakat xalqlariga izzat-hurmat xislatlari haqida noyob misollar mavjud. Bunday ijobiy xislatlar nemis yoshlarida tarbiyalanishi lozim. Shu yo'l bilan ularda ongliq va o'zaro murosa qilish hissi tarbiyalanadi.

Ingliz tilidagi yozma manbalar turmush masalalariga doir asarlarga boy bo'lganligi tufayli ham ingliz tili darsi ko'p qirrali dunyoqarashni tarbiyalashga xizmat qiladi. (Nemis Umumta'lim Yangi Filologlar Kengashi, Axborotnoma 1951, 3).

Shuni ta'kidlash kerakki, gimnazialarda faqat iqtidorli va bilimga chanqoq o'quvchilarga chet tillarni GTM asosida o'rgatilar edi. Asosiy maqsad til va madaniy hayotga oid bilim berishdan iborat bo'lib, bu «tarbiyaviy», «til o'rgatish», «ma'naviy» va «madaniy» maqsadlari bilan bog'langan edi.

Aqliy-formal

Ingliz tili darsi yoshlarda rejali fikrlash va e'tiborni ma'lum nuqtaga qarata olishni o'rgatishi, ko'p qirrali til shakllarini o'zlashtirib olishni ta'minlashi lozim. Buning uchun o'quvchi ma'lum grammatik va stilistik tushunchalarni qoidalar asosida joylashtira olishni mashq qilishi kerak.

(Yuqoridagi xujjat, Axborotnoma 1951, 2)

Madaniy maqsad

O'quvchilar yozma manbalar orqali ingliz va amerika xalqlarining ma'naviy va madaniy hayotlariga olib kirilishi va bugungi Angliya va Amerika erishgan daraja bilan tanishtirilishi va ulardan amalda foydalanishni o'rgatilishi lozim.


Shu bilan birga ayniqsa shakllanib bo'lgan va shakllanayotgan an'analar nemis madaniy hayotiga ta'sir o'tkazishi va anglo-amerika dunyosi insoniyat madaniy hayotiga qo'shgan hissalar ham o'quvchilar ongiga singdirilishi lozim. (Yuqoridagi xujjat, Axborotnoma 1951,3).

Ushbu maqsadlar o'quvchilarni chet tildagi o'quv materialini orqali xorijiy madaniyat bilan tanishtirishi va ular bu madaniyat belgilarini o'zlashtirib olishlari lozimligidan dalolat beradi.

Chet til ta'limidagi kommunikativ didaktikaning pragmatik va pedagogik yo'nalishda rivojlanishi va ularning o'zaro bog'liqligi ta'lim konsepsiyasini faqat o'quv materialini nuqtai nazaridan rivojlantirish mumkin bo'libgina qolmasdan, balki ta'lim maqsadlari va istiqbollari belgilash o'quv guruhlari nuqtai nazaridan ham zarurligini ko'rsatdi. Bu holat didaktik-metodik konsepsiyani ishlab chiqishda o'quv guruhining xususiyatlarini ham hisobga olishni taqozo qiladi.

Pragmatik maqsadlarning kun tartibiga qat'iy qo'yilishi va 80-yillarda boshlangan chet til ta'limidagi didaktik va metodik konsepsiyaning regionlashtirish borasidagi munozaraning markaziy mavzuga aylanib qolishi tasodifiy xol emas.

O'quvchilar manfaatiga moslangan ta'lim konsepsiyasi asoslari quyidagilar:



O'quvchilar manfaatini yuqori o'ringa qo'yuvchi kommunikativ didaktika yo'nalishining ikki bosqichini farqlash kerak.

Ular quyidagilar:

1. 70-yillar va 80-yillarning boshidagi pragmatik-funksional konsepsiya.
2. 80-yillarning o'rtalaridan boshlab qizg'in munozara qilinayotgan va rivojlantirilayotgan madaniyatlararo chet til ta'limi konsepsiyasi.

Navbatdagi boblarda ushbu konsepsiyalar haqida ma'lumot beriladi.

6.3. Pragmatik-funksional konsepsiya

6.3.1. Pragmatik lingvistikaning ta'lim yo'nalishiga ta'siri

Aytib o'tilganidek, audiolingval va audiovizual metodlarning rivojlanishida pragmatik yo'nalish haqidagi mulohazalar, ya'ni chet tillar «kundalik turmush sharoitida» qo'llash, «o'quvchilarni yozma nutqqa emas, balki og'zaki nutqqa o'rgatishni yuqori o'ringa qo'yish» haqidagi fikrlar **muomalani o'rgatish metodi** (KD)ning vujudga kelishiga muhim turtki bo'ldi.

ALM o'z ta'lim nazariyasida hal qila olmagan qiyinchilik tildan amalda foydalanishni o'rgatishga oid maqsad bilan til hodisalari shaklining tahlili va tasviridan kelib chiqadigan tilshunoslik nazariyas (strukturalizm) o'rtasidagi ziddiyatdir.

Bu holat ko'pincha ALM va AVM metodlarga oid darsliklarda ti. jihatdan notabiiy va «yo'nilmagan» dialoglarning paydo bo'lishiga olib keldi. Bunday darsliklarda formal grammatik hodisalarni «tabiiy suhbat vaziyatiga» majburan «tiqishtirishga» harakat qilindi va mashqlarda til hodisalarining amalda uchramaydigan aniqligiga rioya qilish talab etildi.

Bunday ziddiyat 60-yillarda tilshunoslik sohasida **«Nutq faoliyati nazariyasi» - «Sprechakttheorie»** deb nomlanuvchi nazariyaning vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Pragmalingvistika tilni shakllar tizimi emas, balki inson faoliyati sohasi deb hisoblaydi. U kishilar bir-birlari bilan muomala qilganlarida tildan qay yo'sinda foydalanadilar degan savolga javob izlaydi (Austin 1962). Bu o'rinda birinchi navbatda nutq faoliyati (lotincha agere-faoliyat ko'rsatish) va uning tarkibiy qismlari tahlil qilinadi (Searle 1969).

Nutq faoliyati masalalari asosan quyidagilar:

- So'zlovchining niyatini qanday tizim asosida tavsiflash va tasniflash mumkin? (Nutqiy niyat).
- Niyat qaysi yo'l bilan tilga «ko'chiriladi»? Ma'lum niyatni til orqali ifodalashning qanday imkoniyatlari mavjud?
- Ma'lum suhbat sharoitiga mos keladigan nutq namunalari tanlashga nimalar ta'sir qiladi?
- Suhbat ishtirokchilari uchun qanday turtkilar bo'lishi mumkin?

Pragmalingvistika yordamida tildan aloqa vositasi sifatida foydalanishni o'rgatish rejasini yaratish imkoni tug'ildi. Bu rejaning maqsadi darsda o'rganilganlarni kundalik muomala vaziyatida imkoni boricha tez va unumli foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. Ayniqsa

pragmalingvistika tomonidan nutqiy niyat tizimi chet til ta'limida katta e'tiborga sazovor bo'ldi, shu bilan birga ta'lim maqsodi va o'quv materialini tashkil qilishga jiddiy ta'sir o'tkazdi.

«Nutqiy niyatlar» ro'yxati ilovada berilgan.

Misol:

So'zlovchining «unga nimadir yoqish yoki yoqmasligini ifodalashga oid nutqiy niyati» shu boradagi mavzularning «baholash va munosabat bildirish», «baholash va izohlash» qismiga kiradi.

Agar kimdir «men rasmni xunuk deb hisoblayman» desa, u «yoqmaganlikni» ifodalaydi. Agar u yuqoridagi jumlaning aytish bilan birga, unga izoh bersa, u xolda nutq faoliyatini «baholash va izohlash» qismi talabini qondirgan bo'ladi.

Yoqmaslikka oid nutqiy niyatni nemis tilida turli til vositalari orqali ifodalash mumkin:

Das (Bild) finde ich scheusslich! - *Men buni (rasmni) xunuk deb hisoblayman!*

Furchtbar! - *Daxshatli!* (va rasmga ishora qilish)

Das (Bild) gefeallt mir ueberhaupt nicht? - *Bu (rasm) menga butunlay yoqmayapti!*

Das (Bild) ist eine Zumutung! - *Bu rasm umuman talabga javob bermaydi!*

Gefeallt dir das (Bild) etwa? - *Senga shu (rasm) yoqadimi?*

-Va hokazo.

Yuqorida keltirilgan vositalardan qay biri qaysi suhbat vaziyatida qo'llanishi mumkinligi, uning shu vaziyatda ko'p-uchrashigic, kimga aytilishiga (yaxshi taniydigan kishigami yoki begonagami), bevosita rasm oldidami (uni ko'rsatish mumkinmi) yoki boshqa yerdagi rasm haqida gapirilayaptimi, shularga bog'liq.

Chet tilni o'rganish uchun fikrni ifodalash vositasining qisqagina shaklini (*daxshatli*) qo'llash, yoki boshqa holatda batafsil to'la shakldan (*Senga shu rasm yoqadimi?*) foydalanishni bilib olish ham muhim hisoblanadi.

Bundan fikrni ifoda qilishda ma'lum nutqiy niyatga oid vositalarning bir-biriga bog'liq taqsimotini shakllantirish va rivojlantirish mumkin.

Yoqmaganlikni ifodalash

Birinchi bosqich:

Furchtbar! - *Dahshatli!* Sifat orqali; Nicht schoen! - *Chiroyli emas!* (nemis tilida) inkor so'z va sifat orqali.

Ikkinchi bosqich:

Ich finde das Bild nicht schön! *Men rasmni chiroyli emas deb hisoblayman.*

Akkuzativ kelishigidagi to'ldiruvchisi bo'lgan darak gap orqali.

Uchinchi bosqich:

Das Bild gefeallt mir ueberhaupt nicht!-*Bu (rasm) menga butunlay yoqmayapil*

Dativ kelishigidagi to'ldiruvchi va kuchaytiruvchi inkor so'zli darak gap orqali.

To'rtinchi bosqich:

Gefeallt dir das Bild etwa?! -*Senga shu (rasm) yoqadimi?*


Dativ kelishigidagi to'ldiruvchisi bo'lgan ritorik so'roq gap orqali.

33-topshiriq

«Deutsch aktiv» darsligidan misol.

O'ylab ko'ring:

1. Shu sahifa audiovizual darslikdan olingan bo'lishi ham mumkinmi?
2. Undan audiovizual metodning qaysi xususiyatlarini topasiz?



Har bir suhbat vaziyati nutqiy niyatni ifodalovchi nutqiy vositalar majmuidan iborat bo'lganligi sababli, pragmatik-funksional orqali chet til ta'limi jarayonida til hodisalarini ma'lum vaziyatga moslashtirishni rejalash mumkindok tuyuladi.

Pragmatik-funksional konsepsiya Yevropada chet tilni katta yoshdagi kishilarga o'rgatish sohasida tatbiq qilingani yuqorida aytib o'tildi.

Yevropadagi katta yoshdagi kishilar chet tilni maktabdan tashqarida o'rganganliklari uchun, ularning konkret kasbiy va shaxsiy imkoniyatlari birlashtiriladi. Masalan, ular suhbatdosh bilan tadbirkorlik haqida muloqotga kirishni yoki sayyoh sifatida ta'til davrida xorijiy mamlakatda yo'l topib yurishni o'rganadilar.

Funksional konsepsiya asosida nisbatan juda tez vaqt ichida chet tilda kundalik mavzularda muloqot qila oladigan darajaga erishish mumkin.

Keyingi yigirma yil davomida Yevropa Ittifoqida chet tillarni o'rganish siyosati sohasida shunday mulohazalarga tayangan holda ish olib borilmoqda.

Bu o'rinda, birinchi navbatda, chet tildagi muloqotning «elementar daraja»si (Kontaktschwellen-Niveau) tushunchasini oydinlashtirish borasidagi harakatlarni ta'kidlash lozim.

Bunday elementar daraja barcha Yevropa tillari uchun belgilangan va Baldegger/Mueller/Schneiderlar tomonidan 1981 yilda ishlab chiqilgan.

6.3.2. Pragmatik-funksional konsepsiya xususiyatlari

A. Grammatik material taqsimotidagi o'zgarishlar

6.3.1. bo'limida nutqiy niyatni turli vositalar yordamida har xil usullar bilan amalga oshirish imkoniyatlari mavjud ekanligi ko'rib chiqildi. Xuddi shunday holatga yana misol keltiramiz.

«Istak bildirish»ga oid nutqiy niyatni oddiy yoki murakkab vositalar orqali ifodalash mumkin, masalan, kiyim sotib olish paytida:

- Ich moechte bitte (einen Anzug). - *Men kostyum sotib olmoqchiman.*
- Zeigen Sie mir bitte (Anzuege). - *Menga kostyum ko'rsatsangiz.*
- Wo finde ich (Anzuege)? - *Men kostyumni qayerdan olsam bo'ladi?*
- Haben Sie (Anzuege)? - *Kostyum bormi?*
- Koennten Sie mir bitte (Anzuege) zeigen? - *Menga kostyum ko'rsata olasizmi?*
- Einen Anzug bittel - *Marhamat qilib kostyum bering!*

- Kann ich (den Anzug) mal probieren? - *Men kostyumni kiyib ko`rsam bo`ladimi?*
 - Ich heatte gern (einen Anzug). - *Men kostyum sotib olmoqchi edim.*
 - (Bringen Sie mir) den dortl (Wenn man auf den Anzug zeigen kann). - *Anavini ko`rsatingl (agar kostyumni ishora bilan ko`rsatish mumkin bo`lsa).*
 - Wuerden Sie mir bitte (Anzuege) zeigen? - *Menga kostyum ko`rsata olasizmi?*
 - **Wearen Sie bitte so freundlich und wuerden mir (Anzuege) zeigen? - *Salomat bo`lgur, marhamat qilib, menga kostyumni ko`rsatsangiz yaxshi bo`lardil***
- (Oxirgi murojaat shakli bilan sotuvchiga ortiqcha mulozamat yoki sabrsizlik yoki piching ifoda qilinadi).

Ko`rinib turibdiki, yuqoridagi ifoda vositalarining soni juda ko`p va murakkabligi jihatdan bir-biridan farq qiladi. .

Ulardan soddasi va ko`p qo`llaniladigani, masalan, Ich moechte bitte (einen Anzug) va til jihatdan kompleks struktura Ich heatte gern (einen Anzug), eng ko`p qo`llaniladigan (va qo`llanilishi cheklangan) shakl bu: Wuerden Sie bitte so freundlich sein und

Pragmatik funksional konsepsiyaga ko`ra grammatik material taqsimotida bir kurs davomida «istakni izhor qilish»ga oid nutqiy niyatga ikki yoki uch marta qaytiladi va avval **Ich moechte ...**, so`ngra **Ich heatte gern ...** (yuqori kurslarda **Wuerden Sie bitte so freundlich sein und ...**) shakllari taqdim qilinadi, keyinchalik boshqa ifoda vositalari bilan ham tanishtiriladi.

Shu yo`l bilan iloji boricha ko`proq ifoda vositalari «o`yinga tushiriladi». Natijada o`quv materialining tizimli taqsimoti vujudga keladi.

34- topshiriq

Misolda berilgan ifoda vositalarini qiyinlikning ortib borishiga qarab joylashtirishga harakat qiling.

Har bir shaklning grammatik tuzilmasini belgilang. Bu bilan Siz grammatik hodisalarni funksional mezonlarga ko`ra joylashtirish bo`yicha tavsiyaga ega bo`lasiz.

Pragmatik-funksional konsepsiyaga asosan faqat grammatik material taqsimoti o`zgaribgina qolmasdan, balki ayrim olingan mavzuga oid grammatikaga bo`lgan ehtiyoj ham o`zgaradi.

Kundalik turmush sharoitiga oid mavzuda faol muloqot qilish uchun, ya`ni shu mavzuda so`zlash uchun nemis tilining barcha grammatikasini bilish shart emas. Masalan, suhbat chog`ida majhul nisbatni boshqa soddashakllar orqali ham ifodalash mumkin, masalan, **man** olmoshi orqali.

Dialoq nutqning til xususiyati gaplarning sodda qurilishi va ularning ketma-ket joylashuvi bilan ajralib turadi. Shuning uchun qaysi grammatik material «elementar axborot berish grammatika»siga qarashli ekanligini aniqlash va bu grammatik hodisalarning asosiy qilib olgan holda ish olib borish lozim bo'ladi, shunday guruh imkoni boricha tez vaqt ichida «suhbatga tayyor» bo'ladi.

Ikkinchi tomondan, «kundalik turmush sharoiti mavzuida muloqot qila olish» deganda chet til vositasida suhbatdoshni, radio eshittirishlar va teleko'rsatuvlarni tushuna olish va gazetalarni mutoala qila olish nazarda tutiladi.

Biroq tinglab tushunish va o'qish jarayonida so'zlashga nisbatan o'zgacha grammatik material talab etiladi va tushunish jarayonida bu grammatik material o'zgacha (og'zaki yoki yozma axborotning ma'no va mazmunini identifikatsiya (birkirish, moslashtirish) qilishga oid aqliy vazifani bajarish uchun xizmat qiladi.

Shuning uchun ham tinglab tushunish va o'qishni o'rgatish uchun maxsus didaktika va metodika zarur hisoblanadi.

Bu haqda ushbu bobning «C» bo'limida «asliy matnlar ustida ishlash» sarlavhasi ostida batafsilroq ma'lumot beriladi.

B. Mavzular va so'z boyligining o'zgarishi

35-topshiriq

Kundalik turmushda kishilar nimalar haqida suhbatlashadilar? Sizning fikringizcha, qaysi mavzular kundalik muloqot uchun muhim? Ularning ro'yxatini tuzing.

Masalan:

Savdo-sotiq

«**Kontaktschwelle**»da kundalik muloqotga tegishli mavzular (maxsus tushunchalar) ro'yxati berilgan bo'lib, ular elementar til materiali qurilishi va bosqichlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Misol:

1. Shaxslar: shaxslar haqida ma'lumotlar
2. Xonadon
3. Atrof-muhit
4. Sayohat va naqliyot
5. O'zni parvarish qilish, pardozi-andoz
6. Savdo-sotiq va mahsulotlar
7. Ijtimoiy va xususiy xizmat ko'rsatish
8. Sihat-salomatlik va gigiena
9. Idrok va harakat
10. Ish va kasb

11. Ta'lim va maktab
12. Chet tillar
13. Bo'sh vaqt va muloqot
14. Shaxsiy munosabatlar va muomala
15. Dolzarblik: Jamoatchilik manfaatlariga oid mavzular
(Baldegger va boshqalar 1980, 236)

Har bir mavzuni yana kichikroq va aniqroq mavzularga bo'lish mumkin.

1- misol: **Shaxslar, shaxslar haqida ma'lumotlar.**

- 1.1. Ism
- 1.2. Manzil
- 1.3. Telefon
- 1.4. Tug'ilgan sana, tug'ilgan joy
- 1.5. Yosh
- 1.6. Jins
- 1.7. Oilaviy ahvol
- 1.8. Fuqarolik
- 1.9. Ijtimoiy kelib chiqish
- 1.10. Kasbiy faoliyat
- 1.11. Din
- 1.12. Oila
- 1.13. Qiziqish, orzu-havas
- 1.14. Xarakter, temperament
- 1.15. Tashqi ko'rinish

(Baldegger va boshqalar. 1980,236)

Mavzularning keyingi bo'linishida elementar so'z boyligiga qo'shimcha so'zlar ro'yxati va tavsiyalar berilgan:

Misol 1.7. **Oilaviy ahvol**

Tayanch tushuncha	Tilda ifodalanishi
Familienstand <i>Oilaviy ahvol</i>	Familienstand (z. B. Formular) <i>Oilaviy ahvol: (masalan, varaqa)</i> - verheiratet/nicht verheiratet <i>uylangan/uylanmagan</i>
Heiraten - <i>uylanmoq</i>	- ledig - <i>bo'ydoq, beva</i> - geschieden - <i>ajrashgan</i> - heiraten - <i>uylanmoq</i>
Ehepaar- <i>er-xotin</i>	Wir haben 1971 geheiratet. - <i>Biz 1971 yilda turmush qurganmiz.</i>

Ehemann - er	Ehepaar/Eheleute : er-xotin - Mann - er Mein Mann ist nicht zu Hause. - <i>Mening erim uyda emas.</i>
Ehefrau-xotin	- Ehefrau (varaqada) - er Ehefrau (varaqada) - Frau - Xotin, rafiqa
Familie-oila	
Kinder-bolalar	- Familie - oila Haben Sie Familie? - Oilangiz bormi? - Kind - bola Haben Sie Kinder? Bolalaringiz bormi? - Tochter-qiz (farzand) - Meadchen-qiz (umuman) - Sohn-o'g'il (farzand) - Junge-o'g'il bola

(Baldegger va boshqalar. 1980,242)

36-topshiriq

«Oila» mavzui quyidagi tarkibiy qismlarga bo'linishi mumkin:

- Ota-ona
- Bolalar
- Aka-singillar
- Katta ota-onalar, buva va buvilar
- Qarindoshlar
- Qarindoshlik

Tayanch tushunchalarga tegishli bo'lgan so'zlarni toping! Siz qaysi so'zlarni ko'p qo'llaniladigan so'zlar deb hisoblagan va elementar so'z boyligi tarkibiga kiritgan bo'lar edingiz? Ularning qarshisiga «!» belgisini qo'ying.

Misol: **ota-ona:** lota

lona

Bolalar:

.....

.....

C. Pragmatik rol va nutq vaziyatiga asoslanish

Pragmatik-funksional konsepsiyaning muhim tadbirlaridan biri chet tili o'rganishda ijro etiladigan rollar tahlilidir. Bunday tahlil ayniqsa chet tili o'sha mamlakatga borish maqsadida o'rganilayotgan bo'lsa yoki ta'lim tili o'rganilayotgan mamlakatda amalga oshayotgan bo'lsa foydali hisoblanadi.

Мисол

Rollar tahlili: Katta yoshdagilar (Yevropa mamlakati),

<>- Faol fikr izhor qila oladigan darajada o'rganilishi kerak bo'lgan rol

()- fikrni tushunish kifoya bo'lgan rol

- <Haridor>/ (sotuvchi)

- <Mijoz>/ (xizmat ko'rsatuvchi xodim, masalan, pochta xodimi, bank xodimi, benzin quyuvchi)

- <Mijoz, mehmon>/ (xizmat ko'rsatuvchi xodim, masalan, ofitsiant)

- <Fuqoro>/ (ma'muriyat xodimi, masalan, bojxona xodimi, politsiyachi)

- <Mijoz>/ (vrach, shifoxona xodimi)

- <Yo'lovchi>/ (xizmatchi, masalan, konduktor, taksi haydovchisi)

- <Yo'lovchi/yo'lovchi>/ (jamaat transportida)

- <Yo'l xarakati ishtirokchisi/yo'l xarakati ishtirokchisi>, (masalan, piyoda, haydovchi)

- <Haydovchi/yo'lovchi>, (masalan, qo'l ko'targan yo'lovchi)

- <Mehmon/mezbon>

- <Qo'shni/qo'shni>, (masalan, hamxona, yon qo'shni)

- <Axborot izlovchi/axborot beruvchi>, (masalan, ma'lumot beruvchi)

- <Axborot izlovchi>/ (ma'lumot byurosi xodimi, masalan, vokzalda yoki transport xizmati idorasida)

- <Tomoshabin/tinglovchi>/ (jamoatchi axborotchi, masalan, ekskursovod, notiq, suxandon)

- <Suhbatdosh/suhbatdosh>, (masalan, fikr almashish)

(Baldegger va boshqalar 1980,19)

37-topshiriq

Quyidagi jadvalni to'ldiring:

Kim? (Rol)	Qayerda? (Vaziyat)	Nima xaqda (Mavzu)
<i>Masalan, mijoz</i>	<i>Masalan, do'konda</i>	<i>Masalan, kiyim sotib olish</i>
<i>Mehmon</i>		
<i>Fuqaro</i>		
<i>Mijoz</i>		
<i>Yo'lovchi</i>		
<i>Yo'l harakati ishtirokchisi</i>		
<i>Haydovchi</i>		
<i>Mehmon</i>		
<i>Axborot izlovchi</i>		
<i>Tomoshabin</i>		
<i>Suhbatdosh</i>		

Berilgan rol, vaziyat va suhbat mavzuidan birini tanlang va unga dialog tuzing.

Misol

Quyida tipik bog'lanishning eng yaxshi misolini ko'rishingiz mumkin.

- Maksimal tushuncha (mavzu) bilan bog'lanishi:
Xodimlar: ko'rinishi, xarakteri, temperamenti: axborotning shaxslarga bog'lanishi;
- Rol bilan bog'lanish: *suhbatdoshlar, gazeta o'quvchisi*
- Nutqiy niyat bilan bog'lanish:
Xususiyat va belgilarni so'rash va bu haqda ma'lumot berish
- Grammatik material bilan bog'lanish:
Sifat qo'shimchalari (Akkuzativ birlik)



☐ Hier, hör mal: "Eine gutaussehende Dame, 34 Jahre alt, 1 Meter 66 groß, blond, langhaariger Typ, wünscht intelligenten, liebevollen Partner." Ist das nichts für dich?

○ Ein blonder, langhaariger.

○ Einen intelligenten, liebevollen.

○ Ja, hier: "Nettes Mädchen, gutaussehend, sucht lieben Mann."

○ Du? Du bist doch erst 48!

● Nochmal, was für ein Typ?

● Und was für einen Mann sucht die?

● Nein, nein, die paßt zu dir! Sind da noch andere?

● Ach, ich bin doch schon zu alt.

● Ich finde Heiratsanzeigen blöd! Und du?

Einige interessante Beispiele	Name	Wünscht	einen intelligenten liebevollen Partner
Ein nettes gutaussehendes Mädchen	Müllerchen	Sucht	einen netten intelligenten Herrn kennenlernen
Ein nettes Mädchen	...	wünscht	einen freundlichen...

D. Pragmatik-funktional konsepsiyada o`quv materiali progressiyasi (taqsimoti, zichligi, ketma-ketligi)

Muomalani o`rgatish (kommunikativ didaktika) metodidan avvalgi metodlarda (GTM, ALM/AVM) o`quv materiali progressiyasida grammatika asosiy rolni o`ynab, ta`limning mazmuni, nutq vaziyati va boshqalar grammatik materialga moslashtirililar edi.

Darslik ilovasida grammatik o`quv materiali progressiyasi komplekslilikni ta`minlash prinsipi asosida amalga oshirililar edi.

Pragmatik-funktional konsepsiyada grammatika o`zining yetakchilik rolini yo`qotdi.

Grammatik bilimlar chet tilni amaliy o`rganishning maqsadi bo`lmay qoldi. O`quv materiali progressiyasida grammatika bilan birga ta`limning boshqa elementlari ham barobar ahamiyat kasb eta boshladi.

Ular quyidagilar:

- Nutqiy niyat, mo`ljal (grammatika shunga qarab belgilanadi).
- Rollar va nutq vaziyati.
- Mazzular, ta`lim mazmuni (so`zlar shunga qarab tanlab olinadi).
- Matnlar.

O'quv materiali progressiyasida har bir bo'limning vazifasi turlicha bo'lishi mumkin, masalan, grammatik materialni taqdim etish, nutq vaziyatini yaratish, rolni til jihatdan shakllantirish, ma'lum mavzu haqida fikr bayon qilish, yangi so'z boyligini taqdim etish, tinglab tushunish yoki o'qish uchun mo'ljallangan matn ustida ishlash va boshqalar.

6.3.1 va **6.3.2** bo'limlarda pragmatik-funksional konsepsiyada grammatika nutqiy niyatdan kelib chiqib belgilanishi va kundalik turmush mavzularidagi materialda uchrashiga qarab o'rganilishi lozimligini ko'rsatishga harakat qilindi.

Misol

Zamon kategoriyasi tizimi ustida ishlash:

An'anaviy progressiya:
(til xodisalari shakllarining
to'lib boruvchi kompleksligi)

Pragmatik-funksional nuqtai
nazardan progressiyalash

Prezens
Imperfekt
Perfekt
Plyuskvamperfekt
Futur 1
Futur 2
(barcha o'quv materiali
bab-barobar
zichlashtirilgan)

Prezens
Perfekt (o'tgan zamondagi
nutq)
Imperfekt (asosan gazeta
matnlarini o'qish uchun)
Plyuskvamperfekt (kam
uchraydi)
Futur 1 (kam uchraydi, nemis
tilida fe'lining kelasi zamon
shaklidan ko'ra zamoni
ifodalovchi ravishlar ko'p
qo'llaniladi)
Futur 2 (kam uchraydi, faqat
tushunish kifoyi)

Pragmatik-funksional konsepsiya asosida yaratilgan dastlabki darslik namunalari, masalan «**Deutsch aktiv**», birinchi tom (1979), grammatik material progressiyasi tepa-teng (dilemma) tarzda amalga oshirildi. Bu darsliklar ham xuddi GTM va ALM/AVMlar asosida yaratilgan darsliklar singari o'quv guruhlarining xususiyatlarini hisobga olmagan holda yaratilgan edi. («Deutsch aktiv» darsligi sanoatlashgan mamlakatlarning katta yoshdagi kishilariga mo'ljallanganligi ta'kidlangan).

Grammatik progressiyani belgilovchi nutqiy niyat ketma-ketligi va zichligi har bir o'quv guruhidagi o'quvchilarning muomala qilishga bo'lgan zaruriyati bilan bog'langan. Shuning uchun bu darsliklardagi nutqiy niyat progressiyasini belgilash nisbatan erkin hal qilingan. Natijada an'anaviy grammatik progressiya bilan solishtirganda bu progressiya juda «sakrovchan» va «bo'shliqlarga boy» bo'lib ketdi. Shu bilan birga nutqiy niyat- rollar/nutq vaziyatlari- tematika- grammatikaning tiplanishi (qo'shilishi, yig'ilishi, yonma-yonligi) ham qat'iy emasligi sezilib qoldi. Biroq ishonchli, kundalik nutq vaziyatida tez-tez uchraydigan va «tabiiy» shakllar tuzildi.

Misollar

36-topshiriqdagi misolda «xususiyatlarni so'rash va shu haqda axborot berishga oid quyidagi ishonchli kombinatsiya (nutqiy niyat)-shaxslarni tasvirlash (mavzu)-sifat (grammatika) berilgan.

Bunga qo'shimcha tarzda kundalik muloqatda tez-tez uchrab turadigan quyidagi kombinatsiyalar haqida ham o'ylash mumkin:

- «Xususiyatlarni so'rash va bu haqda ma'lumot berish (nutqiy niyat)- Kiyim sotib olish (mavzu)- Xaridor (rol)- Sifat (grammatika) yoki
- «Xususiyatlarni so'rash va bu haqda ma'lumot berish (nutqiy niyat)- kvartira izlash (mavzu)- ijarachi (rol)- sifat (grammatika).

38-topshiriq

«Tabiiy», ya'ni tez-tez uchraydigan grammatika-nutqiy niyat-rol-tematikani topishga harakat qiling.

Quyidagi kombinatsiyalar qanday holatda tez-tez uchraydi?

<i>Grammatika</i>	<i>Nutqiy niyat</i>	<i>Rol</i>	<i>Mavzu</i>
<i>Modal fe'llar</i>	<i>Ruxsat/ta'qiq</i>	<i>Yo'l harakati ishtirokchisi</i>	<i>To'xtash ta'qiqlanadi (yo'l harakati belgisi)</i>
<i>Passiv Perfekt Futur I</i>			

Funksional konsepsiyaning birinchi rivojlanish bosqichida darslik mualliflari iloji boricha «tabiiy» bog'lanishlarni, ya'ni grammatik, nutqiy niyat, mavzu va nutq vaziyatini dialoglarda tasvirlashga harakat qilganlar. Ular tasvirlash jarayonida audiolingval metodlar ta'sirida (masalan, og'zaki nutqni yozma nutqdan avval qo'yish) bo'lganlar.

Usullar

Shu bilan birga bu usulning cheklanganligini ham ko'rish mumkin:

1. Hamma grammatik material ham nutqiy niyat va tematika sohasida «tabiiy hamroh»ga ega emasligi ma'lum.
2. Grammatik materialning ko'pchilik qismi dialog nutqda qo'llanilmaydi, ular eng avvalo dialog bo'lmagan og'zaki matn turlarida «tabiiy» qo'llaniladi. Ularning dialoglarga «tiqishtirish», yana audiolingual metodga xos bo'lgan sun'iy tuzilgan dialoglarning paydo bo'lishiga olib kelgan bo'lar edi.
3. Kundalik turmush vaziyatiga mos tushadigan va ularda uchraydigan asliy dialoglarni tuzish uchun biror grammatik hodisaga xos bo'lgan model dialoglarni tuzishning izi etarli emas, balki zaruriy kundalik sharoitga oid bo'lgan o'qish, tinglash va yozish uchun mo'ljallangan (oid bo'lgan) holatlarni e'tiborga olish lozim.

Misollar

Nutq vaziyati: O'qish va tinglashga oid matnlar:

Vokzalda: Harakatlanish jadvali, radio e'lonlari, poyezd chiptalari va boshqalar

Kvartira izlash: *Kvartira haqida e'lonlar, ijara shartnomalari, kvartiraning joylashish chizmasi, telefon orqali suhbat va boshqalar*

Maktabda: *Dars jadvali, xujjatlar, e'lonlar va boshqalar*

E. Matn ustida pragmatik ish olib borish

Yuqoridagi mulohazalar kundalik muloqotning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan o'qib tushunishga oid yangi ta'lim maqsadlarini belgilash va til materiali zichligini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Funktsional konsepsiyaga ko'ra, o'qish deganda GTMidagi kabi mumtoz adabiyot namunalari mutoala qilish emas, balki kundalik turmushga oid matnlarni o'qib tushunish nazarda tutiladi.

Bunday matn turlariga quyidagilar kiradi:

a) Kundalik turmushni aks ettiruvchi matnlar

- Og'zaki e'lonlar
- Yozma e'lonlar
- Xizmat ko'rsatish haqida ma'lumot
- Tadbir haqida bildirish
- Qatnov jadvali
- Turli varaqalar
- Xaritalar
- Chiptalar
- Narxlar haqida ma'lumot
- Dasturlar
- Retseptlar
- Ko'rsatmalar
- Ko'rsatuvchi belgilar
- Taomnomalar
- Telefon kitoblari
- Qatnov belgilari
- Yo'l harakati belgilari
- Ob-havo ma'lumoti va boshqalar

b) Axborot beruvchi rasmiy matnlar:

- E'lonlar
- Axborotlar
- Rasm ostidagi yozuv
- Maktublar
- Chizmaga izohlar
- Varaqalar
- Sayohatnomalar
- Izoh va sharhlar
- Kitobxon, gazetxon maktubi
- So'zlar izohi
- Habarlar
- Plakatlar
- Dasturlar
- Loyihalar
- Sarlavhalar
- Jadvallar
- Reklama matnlari va boshqalar

39-topshiriq

Quyida kundalik nutq vaziyatlarining ro'yxati berildi. Ular asosida o'qish uchun mo'ljallangan qaysi matn xususiyatlarini aniqlash mumkin?

Quyidagi chizmani to'ldiring:

Nutq vaziyati	Matn turi
Mehmonxonada	Savolnoma, baholar varag'i, mehmonlar uchun eslatma va boshqalar
Restoranda	
Yoshlar majmuida	
Yoshlar sayohat bazasida	
Kempingda	

Sayohatchilar idorasida	
Pochtada	
Topilmalar idorasida	
Shiloxonada	
Vrach huzurida	
Sartarashxonada	
Benzin quyish shahobchasida	
Avtoustaxonada	
Bojxonada	
Do'konda	
Supermarketda	
Magazinda	
Novvoyxonada	
Kioskda	
Bozorda	
Samolyotda	
Avtobusda	
Vokzalda	
Taksi to'xtaydigan joyda	
Avtobus to'xtash joyida	
Muzeyda	
Ko'rgazma zalida	
Kinoda	
Teatrda	

Misollar

Quyidagi ikki matnni o'qib chiqing.
Ular matnlarning qaysi turiga kiradi?

a) matn:



(Neuner va boshqalar 1987,79)

b) matn:

Bundesrepublik an zweiter Stelle der Einbruchstatistik

Die Bundesrepublik liegt an zweiter Stelle der internationalen Einbruchstatistik. Wie das französische Informations- und Dokumentationszentrum der Versicherungen mitteilte, werden in der Bundesrepublik jährlich im Durchschnitt 16 Einbrüche pro 100 000 Einwohner begangen. Nur Grossbritannien liegt nach der Uebersicht mit 18 Einbrüchen pro 100 000 Einwohner noch darüber. Frankreich lag mit einer Quote von acht Einbrüchen noch hinter den USA (13), aber vor Japan (3). Bei der Berechnung wurden sämtliche Einbrüche und Diebstahle in Wohnungen, Häuser, Geschäfte oder Ämter berücksichtigt.

100 Tote durch Hochwasser in peruanischen Dschungel

Neuner va boshqalar (1987), 95

40-topshiriq

Yuqaridagi matn turini aniqlang va «X» belgisini qo'ying:

a) matn:

Xabar
Dastur
Taom retsepti

b) matn:

Gazeta e'loni
Tadbir e'loni
Gazeta xabari

Ikkala matn ham o'zgartirishsiz darslikka kiritilgan. Ular asliy matnlar hisoblanadi. Ularning har biri o'ziga hos qog'ozga tushirilish (Layout) xususiyatiga ega va har bir matn shunday matnlar turiga xos lisoniy xususiyatlarini hisobga olgan holda tuzilgan.

Matnlarning har biri maxsus vazifalarni bajaradi. Ularda qanday bajarish, tayyorlash haqida tavsiyalar yoki ma'lum voqea haqida axborot, ma'lumot beriladi.

a) taom retsepti

b) gazeta xabari

Matning qog`ozga tushirilishi (layout):

4 ta fotosurat taom pishirish jarayonidagi bosqichlarni yaqqollashtiradi. Taom pishirish jarayonining bosqichlari 1., 2., 3., 4.- abzaslar orqali tushunarli va aniq bayon qilingan

Yo`g`on bosilgan sarlavha va matnning ustunlarda, ba`zan rasmlar bilan joylashtirilishi gazeta matniga xos xususiyatlardan biridir. Axborot keladigan joy nomlarini (Parij) atash va matbuot agentliklarini (dpa: Nemis matbuot agentligi) ko`rsatish ham gazeta uslubiga hos hisoblanadi.

a) Taom retsepti

Til uslubi yoki qayd qilish "Noaniq shakl uslubi"ga xoslik: Biror narsani qanday qilish kerakligi haqida ko`rsatma berish, to`liq bilmagan jumlalar bilan ifodalash (Siz avval 0,5 l. suvni 0,5 choy qoshiq tuz bilan birgalikda qaynatishingiz kerak). Bu erda fikr qisqa va bevosita ifodalanadi, batafsil bayon qilishga o`rin bo`lmaydi. Retsept o`quvchiga nima qilishi kerakligini to`g`ridan-to`g`ri aytadi. (Retseptlar kitobidagi ayrim matnlar ba`zan buyruq maylida ifodalanadi: masalan, 0,5 l suvni 0,5 choy qoshiq tuz bilan qaynating!)

b) Gazeta xabari

Gazeta xabari biror voqeani aniq va bir ma`noda ifodalashga harakat qiladigan rasmiy matn hisoblanadi. Bosh gaplar ko`p ishlatiladi. Har bir jumla muhim axborot beradi. Axborot qisqa va lo`nda ifodalanishi lozimligi uchun (joy tanqisligi tufayli) matnda ko`plab qo`shma so`zlar (masalan, statistik ma`lumot) topish mumkin.

Funksiya yoki mazmun

Agar o`quvchi taomni tayyorlash paytida xatoga yo`l qo`ymasa, ko`rsatmaga amal qilsa va nihoyat hammasini to`g`ri bajarsa, matn o`z vazifasini bajargan hisoblanadi. Bu matn harakat yo`riqnomasi hisoblanadi.

Agar o`quvchi axborotni to`g`ri idrok qila olsa, sarlavhadan berilgan mavzuni aniq anglay bilsa, gazeta xabari o`z vazifasini bajargan hisoblanadi.

Bunday matnlar bilan ishlash darslarining maqsadlari quyidagicha:

1. Chet tilni tili o'rganilayotgan mamlakatda amalda qo'llaniladigan darajada tushunishni o'rganish.
2. Asliy matnlardan axborotlarni qabul qilishni o'rganish (va shu asosda faoliyat ko'rsatish).

Kundalik turmush mavzuiga oid matnlarni o'qishni majburiy joriy qilish pragmatik-funksional didaktikada quyidagi oqibatlarga olib keldi:

O'qib tushunishning an'anaviy tarzi bosqichma-bosqich, lisoniy qiyinchiliklari qadam-baqadam ortib boradigan matnlarni o'qishga asoslanar edi. O'qib tushunishni o'rgatish matnni so'zma-so'z tushunish asosida qurilib, chet tildan foydalanish so'zma-so'z tarjima qilish bilan barobar deb qaralar edi.

Keyingi paytda chet tilda o'qish jarayonini jadal tadqiq qilish avj oldi (Karcher 1985, Zimmer 1988) va bu retseptiv grammatikaning loyihalarini vujudga keltirdi (Bernstein 1986, Neuner 1984, Heringer 1987, Westhoff 1987, Fabricius-Hansen, Heringer 1988).

Kundalik turmush mavzuiga oid asliy matnlarni chet til o'rganish jarayonida o'qib tushunish uchun ulardagi barcha til hodisalarini birmabir tushunish shart emas. (Edelhoff 1985).

Matn turining funksiyasi va uni o'qishdan ko'zlagan maqsadga qarab quyidagilar bilan kifoyalanish mumkin:

a) Matnning mazmunidan kerakligini tanlab tushunish, ya'ni faqat ma'lum zaruriy ma'lumotlarni idrok qilish (masalan, qatnov jadvalidan: poyezdning jo'nab ketish vaqti; ob-havo ma'lumotidan: ma'lum xudud uchun muhim bo'lgan ma'lumot va h.k.).

b) Matnning umumiy mazmunini tushunish (masalan, gazeta maqolasi, maktub yoki loyiha). Bunday maqsad qo'yish ta'limning yangi usullarini ishlab chiqishni talab qiladi, masalan, o'qish usullarini o'rgatuvchi yangi mashqlarni ishlab chiqishni taqozo etadi. (Neuner 1984, Westhoff 1987).

Tavsiya

O'qish turlarini o'rgatuvchi usullarni ilovadan topish mumkin.

F. Yangi mashq shakllari va usullari

Agar chet til darslarida «muomalaga o'rgatish»ga erishish kerak bo'lsa, u holda o'rniga qo'yish va shaklini o'zgartirish, bo'sh qolgan

loylarni ta'ldirish kabi mashq shakllari qo'yilgan maqsadga erishish uchun kifoya emas. Dars jarayonidagi mashqlarni bajarish paytida ham tildan amalda foydalanish vaziyatlaridagi kabi «o'yinlar» tashkil etilishi lozim.

Shuning uchun mos mashq shakllarini belgilash maqsadida kundalik turmush vaziyatidagi nutqiy faoliyatlar tahlil qilinishi va muomala vaziyatiga mos tushadigan topshiriqlar berilishi lozim.

Misollar

Kundalik turmush vaziyatiga oid nutqiy faoliyat



Muomalaga mos tushadigan topshiriqlar

Gazeta matnini o'qish



Nimani o'qiganni o'zgalarga og'zaki tushuntirish yoki maktub orqali bayon qilish

Radio eshittirishni tinglash



Eshittirish mavzuiga oid qo'shimcha ma'lumotlarni (masalan, ensiklopediyadan) o'qib olish yoki boshqa kishilar bilan eshittirish mazmuni haqida

41-Topshiriq

Siz yuqorida «nutq vaziyatlari» va «matn turlari» bilan tanishib chiqdingiz.

Yana bir marta shu jadvalni ko'zdan kechirib chiqing va yuqorida keltirilgan misoldan foydalanib, «muomalani o'rgatishga oid bo'lgan topshiriqlar» tuzing.

Nutq vaziyatlari:

Mehmonxonada

Restoranda

Matn turlari:

So'rovnoma

Taomnoma

Topshiriq:

So'rovnomani tildirish

Taomnoma bilan tanishish va ovqat tanlash

Yoshlar majmuida

Yuklarga yopishtiriladigan belgilar

...

Chet tildagi «gazeta matnini o'qish va boshqalarga tushuntirish» kabi kompleks vazifani bajara olish uchun, birinchidan, matn mazmunini

tushuna olish va ikkinchidan, yozma axborotni og'zaki tarzda bayon qilishga tayyorgarlik ko'rish lozim.

Bu bosqichma-bosqich mashq qilish jarayonida amalga oshiriladi. Mashq usullari shunday tashkil qilinadiki, bosqichma-bosqich o'qib tushunishdan fikrni bayon qilishga o'tiladi.

Kommunikativ didaktika metodiga ko'ra mashqlar o'quv jarayonidagi vazifasiga qarab quyidagi guruhlarga bo'linadi:

A. Tushunishni o'rgatishga qaratilgan mashqlar.

B. Til hodisalarining shakliy tomonlarini mustahkam o'zlashtirib olishni ta'minlashga va fikrni bayon qilishga qaratilgan ta'limiy xususiyatga ega bo'lgan mashqlar.

C. Berilgan rollar, nutq vaziyatlari, tushunchalar asosida o'quvchilarning fikrni bayon qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan reproduktiv-produktiv mashqlar.

D. Erkin muloqotga o'rgatuvchi mashqlar.

M - matn boshlang'ich nuqta sifatida; **A-B-C** - mashqlar; **D** - muloqot topshirig'i.

Matn → **Mashq - Mashq - Mashq** → **Mashq**

Tavsiya

«Muomalani o'rgatuvchi nemis tili darsi uchun mashqlar tipologiyasi»ning batafsil bayoni ilovada berilgan.

6.3.3 Tildan amalda foydalanishni o'rgatish (Pragmatik-funksional didaktika)ning nazariy jihatdan to'la asoslanmagan metodik konsepsiyasi

Dars prinsiplari

Hozircha kommunikativ ta'limning to'la ilmiy asoslangan, turli o'quv guruhlari ta'limi jarayonida foydalaniladigan va moslashuvchan, o'quv guruhiga xos sharoitlar va ta'limning madaniy an'analari bilan bog'liq bo'lgan «metodikasi» yaratilgani yo'q.

Shunga qaramasdan ma'lum o'quv guruhiga moslashtirilishi, unda qo'llanilishi va almashinishi mumkin bo'lgan bir qator umumdidaktik va metodik prinsiplarni ko'rsatish mumkin:

1. O'quvchilarga **ta'lim mazmunini oydinlashtirishda** hal qiluvchi yo'llanma berish, ya'ni o'quvchiga o'zga dunyo haqida tushuncha berish bilan uning dunyoqarashini kengaytirish uchun imkon yaratish. (Bu haqda 7.3. bo'limda fikr yuritiladi).
2. **O'quvchilarning faolligini oshirish:** O'quvchiga bilim bilan «to'ldirib qo'yiladigan» «bo'sh idish» emas, balki ta'lim jarayonining

fool ishtirokchisi deb qaraladi. Bu ishtirokchi bilimlarni ongli va mustaqil egallashi va chet tilni amalda qo'llay oladigan bo'lishi lozim.

Chet tildagi matnlarni idrok qilib tushunishni va fikrni erkin bayon qilishni o'rgatish usullarini rivojlantirish tabiiy nutq vaziyatida muloqot qilishni o'rgatibgina qolmasdan, balki ta'limiy muomala qilishni ham o'rgatadi.

Shunday qilib ta'lim jarayoni ta'lim predmetiga aylanadi. Bu holat notanish matndan muhim ma'lumotlar qanday olinadi? Yangi so'zlarni eslab qolishning qanday samarali yo'llari mavjud? kabi savollarning muhokama qilinishi jarayonida ko'zga tashlanadi.

Dars jarayonida doimo ta'lim, ta'lim olish yo'llari va usullari haqida so'z yuritiladi.

3. Darsning **ijtimoiy shaklida** ham o'zgarish yuz beradi. An'anaviy frontal dars (o'qituvchi gapiradi, o'quvchilar esa faqat tinglaydilar, ayrim hollarda, talab qilinsa, nimadir deyishlari mumkin) shakli yakka ishlash shakllari bilan boyitiladi. Qaysi shaklni tanlash o'quv guruhi va darsning maqsadiga bog'liq.
4. **O'qituvchining darsdagi roliga** ham boshqacha munosabatda bo'linadi. O'qituvchi «bilim beruvchi» yoki texnik vositalarni boshqaruvchi emas, balki **«ta'lim jarayonining yordamchisi»** hisoblanadi.
5. **O'quv materialiga munosabat** ham o'zgaradi. Oldindan belgilab qo'yilgan o'quv tizimi bilan emas, balki har jihatdan o'quv guruhining maqsad va ehtiyojlariga moslashtirilishi, o'zgartirilishi, almashtirilishi va kengaytirilishi mumkin bo'lgan **«ochiq» o'quv materiali** asosida ish olib boriladi.

42-Topshiriq

ALM/AVMlarning prinsiplarini muomalani o'rgatish (kommunikativ didaktika)

yo'nalishining metodik prinsiplari bilan qiyoslang.

Qayerda umumiylikni aniqladingiz?

Qanday farqlar bor?

Tildan amalda foydalanishni o'rgatish (pragmatik-funksional) yo'nalishi Yevropada va boshqa rivojlangan mamlakatlarda katta yoshdagilar uchun chet til ta'limiga o'zining jiddiy ta'sirini o'tkazdi.

80-yillarning o'rtalariga kelib nemis tilini chet til sifatida o'rgatish jarayonida foydalaniladigan yangi darsliklar: **«Deutsch aktiv», «Themen», «Deutsch konkret», «Sprachkurs Deutsch»** va boshqalar paydo bo'ldi. Bu darsliklar muomalani o'rgatish yo'nalishining u yoki bu prinsiplari asosida tuzildi.

7. Madaniyatlararo chet til ta'limi

80-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab chet tildan amalda foydalanishni o'rgatish yo'nalishiga muvofiq ayrim hududiy guruhlarda nemis tili ta'limi va metodikasi loyiha tarzida rivojlantirildi.

7.1. Kirish

Chet tildan amalda foydalanishni o'rgatish (pragmatik-funksional yo'nalish tanqidi)

Butun jahonga tarqalgan pragmatik - funksional konsepsiya asosida nemis tilini chet til sifatida o'rganuvchilar uchun tuzilgan darsliklar ushbu tilni chet til sifatida muomala vositasi qilib o'rganish dunyoning

hamma joyida barcha kishilar uchun ham bir xil ma'no kasb eta olmasligini, shu bilan birga ta'lim usullarini shunchaki oson yo'l bilan "eksport" qilish mushkul ekanligini ko'rsatdi.

Ayniqsa tili o'rganilayotgan mamlakatdan uzoqda joylashgan va madaniy jihatdan farq qiladigan mamlakatlarda bir qator muammolar vujudga keladi. Quyidagi muammolar shular jumlasidandir:

- Garchi chet ellik bilan muloqot qilishga ehtiyoj va imkoniyat mavjud bo'lmasada, nutqiy niyatni ifodalashni o'rgatish uchun tildan og'zaki foydalanishni o'qish va yozishga qaraganda ustun qo'yish;
- Tili o'rganilayotgan mamlakatga bevosita chiqish imkoniyati bo'lmasa ham ta'lim jarayonida bir yoqlama ish tutish, ya'ni faqat "kundalik nutq vaziyati" va "kundalik turmush mavzuyi" ustida ish olib borish;
- O'qib tushunishni faqat kundalik turmush mavzuyiga oid matnlar asosida olib borish, badiiy adabiyot namunalarini chetga surib qo'yish;
- O'quv dasturidan va o'quv materialini taqdimoti jarayonidan ona tilini chiqarib tashlash;
- Mamlakatdagi ta'lim-tarbiya shart-sharoitlarini, ya'ni tillardagi farqdan tortib, hatto tashqi muhitlargacha bo'lgan jihatlarni (maktab tizimi, ob-havo va boshqalar) hisobga olish;
- Madaniy ta'lim - tarbiya an'analari va millatga xos bo'lgan barcha xususiyatlarni hisobga olmaslik, hatto ruxsat etilmagan (tabu) mavzularni ham ta'lim jarayoniga "olib kirish".

7.2. Tayland o'рта maktablaridagi nemis tili ta'limi shart-sharoitlari

(Krampikowski 1989; Saeng-Aramaruang 1987)

1. Taylandda taxminan 2000 hafar o'quvchi nemis tilini o'rganadi.
2. Nemis tili, asosan Bankkokda kuni uzaytirilgan maktablarda 10-12 sinflarda tanlov predmeti sifatida o'rgatiladi.
3. Nemis tili ingliz tilidan keyingi ikkinchi chet til hisoblanadi. Tanlov **fanlaridan fransuz, yapon, xitoy va hind tillari raqobatchi predmetlarni tashkil qiladi.**
4. Ingliz tilidan tashqari barcha chet tillar unchalik yuqori mavqega ega emas shuning uchun ham nemis tilini o'rganishga bo'lgan intilish past.
5. Tabiiy fanlar tanlov fanlari sifatida yuqori o'rin egallaydi, lekin nemis tilini tanlagan o'quvchilarga xurmat bilan qaralmaydi. Nemis tilini tanlashga undovchi eng muhim sabab Germaniya Federativ Respublikasida o'qish imkoniyatini qo'lga kiritish hisoblanadi.

Mamlakatda nemis tilini bilganlarning (turizm, nemis firmalari) qadrlanishi ham bir qadar imkoniyat hisoblanadi, ingliz tilini yaxshi bilish nemis firmasi tomonidan nemis tilini shunchaki bilgan kishilarga nisbatan muhimroq sanaladi.

6. Darsda nutqiy vaziyatni yaratish juda mushkul, chunki:

- Sinfda o'quvchilar soni ko'p;
- Ob-havo sharoiti og'ir (issiq, nam havo va boshqalar);
- Shovqinning balandligi (sinf xonalari, derazalari oynalanmagan!);
- Texnika vositalari yetarli emas (Darsda qo'llanish uchun moslashtirilmagan kassetali magnitafon, kadaskop, nusxa ko'chiruvchi apparatlar va boshqalar har doim ham mavjud emas);
- Til bilish va kasbga tayyorlash masalasida o'qituvchilar tayyorlash muammolarining jiddiyligi. O'qituvchilar maoshining kamligi tufayli germanistika fakultetlarini bitirgan mutaxassislar o'qituvchilik kasbiga emas, balki savdo-sotiq yoki turizm sohasida yaxshiroq haq to'lanadigan ish o'rinlariga ketib qoladilar;
- Sinalgan va keng tarqalgan o'qish va o'rgatish an'analari faqat quyidagilardan iborat: frontal ishlash, o'qituvchining hukmronligi, matnlarni yod olish, o'quv materialini o'zlashtirish va mustahkamlash maqsadida jo'r bo'lib takrorlash, o'quvchilarga talab qilinmaydigan tarzda ovoz chiqarib qattiq gapirishga ruxsat berish va boshqalar;
- Tili o'rganilayotgan mamlakatda boshqacha baholanadigan mavzular (seks va diniy tabular) chiqarib tashlanadi. Ijtimoiy kelishuvga intilish jamoatchilik o'rtasida yuz-xotir qilish boshqalardan keng foydalaniladi.

Agar o'quv guruhining maxsus tashkiliy, madaniy, subjektiv shart-sharoitlari e'tiborga olinsa va Tayland maktablarning yuqori sinflaridagi nemis tilini o'rganishga oid aniq o'quv vaziyati (yoshi; yashash sharoiti; dars sharoitlari; dunyoqarashi va hayotiy tajribasi; ingliz tili bo'yicha dastlabki bilimlar; ta'limiy an'analar; nemis tilida gaplashiladigan mamlakatlarga nisbatan masofaviy va madaniy yaqinlik) hamda o'quvchilarning uch yil davomida nemis tilida nimani o'rganishlari ularni amaliy baholay olishlari so'rsalsa, shunda pragmatik-funksional konsepsiya nemis tili ta'limining maqsadini belgilash ushuncha yetarli emasligini bilib olsa bo'ladi.

1. Nemis tiliga oid bilimlarning amaliy qiymati o'qish jarayonida yoki o'quvchi maktabni tugatgandan so'ng uning bo'sh vaqtiga va kasb-koriga nisbatan sezilarli cheklangandir. Shuni ham ta'kidlash joizki, o'quvchilarning juda kam qismi nemis tili sohasidagi bilimlaridan turist yoki talaba sifatida nemis tilida gaplashadigan mamlakatlarda foydalanish imkoniyatiga egadirlar.

2. Mamlakatda nemis tili sohasidagi bilimlar faqat sayyohlar idorasida yoki nemis firmalarida qadrlanadi.

Agar o'quv rejasida nemis tili sohasidagi bilimlar mamlakatda shunday usul bilan rejalashtirilaversa, ushbu qo'llanmaning 6.3.2 bo'limida qayd qilingan rollarni o'zgacha usul bilan egallash zarurati tug'iladi. "Mijoz" rolini emas, balki "Sotuvchi" rolini faol egallash kerak bo'ladi, "Mehmon" rolini emas, balki "Ofitsiant" rolini va h.k. Bu o'z navbatida mavzularni, nutqiy mo'ljal va niyatlarni ham tanlashga ta'sir o'tkazadi.

43-Topshiriq

6.3.2 bo'limda berilgan "rollar", "nutq vaziyatlari", "matn turlari" va "mavzular" ro'yhati yordamida "Nemis tili Taylandda" mavzuyi uchun muhim bo'lgan og'zaki nutq materialini tuzing.

44-Topshiriq

Quyidagi tayanch tushunchalar yordamida mamlakatingizda nemis tili o'qitilishini tavsiflab bering.

1. Qancha o'quvchi nemis tilini o'rganadi?
2. Qaysi o'quv yurtlarida nemis tili o'rgatiladi?
3. Nemis tili chet til sifatida nechanchi o'rinda turadi? Agar nemis tili birinchi chet til bo'lmasa, qaysi tillarni o'quvchilar nemis tilidan avval o'rganadilar?
4. O'quvchilar qaysi fanlarni yuqori qo'yadilar: ingliz yoki nemis tilinimi? Yoki fizika, kimyo, biologiya singari tabiiy fanlarnimi?
5. Nemis tilini o'rganuvchilarni nimalar qiziqtiradi? Nemislar bilan uchrashish imkoniyatimi? Nemis tilida gaplashiladigan mamlakatlar haqida ma'lumotmi? Kasb-korini yaxshilash maqsadimi? Germaniyada o'qish istagimi???
6. Mamlakatingizda ta'lim vaziyati qanday? Sinfdagi o'quvchilar soni; ob-havo sharoiti; shovqin-suron ta'siri; texnika vositalaridan foydalanish imkoniyati; til laboratoriyasi, kodoskop, nusxa ko'chiruvch apparatlarning mavjudligi; nemis tili predmetiga ajratilgan haftalik soat hajmi va boshqalar?
7. Mamlakatingizda nemis tili o'qituvchilarini tayyorlash sifati qanday? Ularning tilga oid bilimi qay darajada? Til o'qitish didaktikasi va metodikasiga oid bilimdonligi-chi?
8. Mamlakatingizda nemis tili o'qitish jarayonida qo'llanishi mumkin bo'lgan ta'lim an'analari mavjudmi? Qaysilari nemis tili o'rgatishni yengillashtiradi va qaysilari qiyinlashtiradi?
9. Qaysi mavzular Sizning urf-odatlarinigiz uchun zid yoki "tabu" hisoblanadi? Jamoatchilik o'rtasida nimalar haqida gapirilmaydi va nimalar qilinmaydi?

Misolimizdagi Tayland o'quvchilarining chet til darsi davomidagi faol ishtiroki juda muhim amaliy maqsad hisoblanadi, biroq nemis zamon mamlakatlardan uzoqda va madaniy jihatdan farq katta bo'lgan mintaqada rejalashtiriladigan va tashkil qilinadigan nemis tili darsining amaliy maqsadi umumpedagogik konsepsiya yo'nalishidan chiqib ketmasligini ta'kidlash lozim. Xalqaro aloqa tili (liguafranca) bo'lmagan chet tilni o'rganish davomida, bunga shubhasiz nemis tilida gaplashiladigan mamlakatlardan uzoqda bo'lgan davlatlar ham kiradi, o'quvchilar darsda uchratayotgan o'zga dunyoni yaxshiroq tushunishni va o'z dunyolarini o'zga dunyo xususiyatlarida yaqqolroq farqlashni o'rganadilar.

Bu o'rinda pragmatik-funksional yo'nalish asosida yozilgan darsliklar orqali o'quvchilarni tili o'rganilayotga mamlakatga borishga tayyorlash, tili o'rganilayotgan mamlakatga xos mavzularni izlash va nutq

vaziyatlarini yaratish hamda uni butun dunyoga manzur qilish qanchalik murakkab ekanligini ta'kidlash lozim.

"Deutsch aktiv" yoki "Themen" kabi darsliklarni nemis tilida gaplashiladigan mamlakatlardan uzoqda joylashgan davlatlarda nemis tilini o'rganayotgan va nemis millati yashaydigan xududga qaraganda o'zgacha madaniyat tizimlari va ahloq mezonlariga amal qilinadigan mamlakat o'quvchilari nuqtai nazaridan baholansa, bu darsliklardagi didaktik-metodik konsepsiya bu toifa o'quvchilar uchun mo'ljallanmaganligi ayon bo'ladi. Bu quyidagilardan dalolat beradi:

1. Ta'lim maqsadlari yangidan belgilanishi kerak.
2. Mavzular boshqacha tanlanishi lozim.
3. Mavzularning taqdimot tarzi o'zgartirilishi zarur. Ish usullari, mashq shakllari va uni bajarish yo'llari, vazifa qo'yish masalalari o'zgartirilishi kerak.
4. Bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish ham o'sha mamlakat shart-sharoitlariga moslanishi darkor.

O'quvchini kimdir nemis zabon mamlakatlarga oid mavzular ko'lami va nutq vaziyatlari bilan yaqindan tanishtirish kerakligi aniq. Bu, albatta, to'g'ri. Biroq tili o'rganilayotgan mamlakatdagi dunyon o'zgacha idrok qilish tarzini o'quvchiga darhol singdirib bo'lmazligi, uni asta sekinlik bilan rivojlantirish lozimligi e'tibordan chetda qoldiriladi.

Tili o'rganilayotgan mamlakat xalqlari uchun odat bo'lib qolgan mavzular ko'lami til o'rganayotgan o'quvchilar mamlakatidagi ta'qiqlanganligi (ko'pincha, spirtli ichimlik, seks, din sohasida bahs yuritish) real hayotni o'zgacha tasavvur qilishga, unga (piching yok masxaralash bilan) noto'g'ri munosabatda bo'lishga, "madaniy vahimaga" va ta'limdagi to'siqlarga sabab bo'ladi. Huddi shunday hola mashq shakllarini belgilash va vazifa qo'yish borasida har o'quvchilarning ta'lim-tarbiya an'analariga zid kelishi mumkin, masalar baland ovozda munozara qilish, o'z fikrini tortinmasdan bayon qilish va boshqalar.

Ikkinchi tomondan, o'zga dunyo bilan tanishtirayotgan har qanday darslik o'zining rasmlari, ranglari, materialning joylashtirilishi ta'qiq etilgan mavzulari, darsda faqat jiddiy o'tirishga odatlantirilgan o'quvchilarni faollashtirishga undashi bilan o'zga dunyoni "hayror qolishiga" sabab bo'lishi tabiiy holdir.

Madaniyatlararo chet til ta'limiga yo'naltirilgan ta'lim uchur yuqorida aytib o'tilgan o'z va o'zga dunyoni qiyoslashdan kelik chiqadigan xavflarning oldini olishni va nimalarni o'zga dunyo yoqlashi ma'qullashi, qiziqarli hisoblashi va shu bilan birga noto'g'ri tushunilishi tushunarsiz bo'lishi yoki havf solishi ham mumkinligini mulohaza qilish lozim.

Bunday ta'lim asta-sekin, qadam-ba qadam o'qituvchining nazorati va oqilona maslahati asosida amalga oshirilishi lozim. Aks holda o'quvchining intilishi nafaqat yangi til va imkoniyatlarni ochib berishi, balki o'z til va madaniy tajribasini shubha ostiga qo'yishi va hatto unga havf solishi ham mumkin.

O'zlashtirish jarayoni ishonch va hadik bilan kechishini hisobga olish lozim. O'zga dunyoga bo'lgan ishonish va hadiksirash hislari bir vaqtning o'zida begona madaniyat bilan tanishish va uni o'zlashtirib olish uchun kuchli undovchi vosita hisoblanadi. (Krusche 1983, 251).

Nemis tili darsidagi mavzu va nutqiy niyat o'rtasidagi farqlarni quyidagi rasm vositasida oydinlashtirish mumkin.

Ein deutsches Nein heißt Nein

Im vorigen Winter bin ich nach Deutschland gefahren, um meine deutschen Sprachkenntnisse zu verbessern und die Deutschen kennenzulernen. Ich versuchte, mit den Deutschen Kontakt aufzunehmen. Deshalb habe ich wiederholt Deutsche eingeladen. Und jedes Mal, den ich eingeladen hatte, es gerne ägyptisches Essen.

Doch einmal, als ich einen Taxifahrer und seine Frau zu mir eingeladen hatte, geschah etwas Schames: Ich hatte mich einen halben Tag auf diese Einladung vorbereitet. Als sie um 18 Uhr kamen, war der Tisch schon gedeckt. Ich sagte: „Warum gucken Sie so? Das ist nicht zum Gucken, sondern zum Essen.“

Die Frau und ich setzten uns zum Essen hin, aber der Mann wollte nicht und sagte: „Nein, danke.“ Ich sagte: „Aber kommen Sie zum Essen, es wird Ihnen gut schmecken.“ – „Nein“, wiederholte er. Dann habe ich noch einmal gebeten: „Aber probieren Sie mal!“ Da sagte er ärgerlich: „Ich kann nichts essen.“ – „Das geht doch nicht!“ sagte ich. „Sie müssen etwas essen.“ Da erwiderte er: „Was sind Sie für ein Mensch!“ Ich dachte: Was hast du getan, daß er so ärgerlich ist? Während des Essens fragte ich die Frau, die mich einluderte, als er sich vertückte: „Warum will er nichts essen?“ – „Ehrlich, wenn er könnte, dann hätte er gern gegessen. Wir hatten keine Ahnung, daß Sie uns zum Essen einladen würden.“ – „Ach Entschuldigung“, sagte ich. „Defunkan Ägypten ist bei einer Einladung das Essen eine ganz selbstverständliche Sache. Der Gast sagt zwar aus Höflichkeit: „Nein danke“, aber damit ist nicht gemeint, daß er wirklich nicht essen will. Man soll den Gast mehrmals zum Essen auffordern, und der Gast wird immer etwas nehmen, auch dann, wenn er keinen Hunger hat, damit die anderen nicht böse auf ihn werden.“ So habe ich erfahren, daß „Nein“ in Deutsch ehrlich „Nein“ heißt.

F. M. Mohamed Elmaghrabi



Nemischa "yo'q" bu "yo'q" degani

O'tgan qish paytida men nemis tilidan bilimlarimni kengaytirish va nemislar bilan yaqindan tanishish uchun Germaniyaga safar qildim. Ular bilan ko'proq muloqotda bo'lishga harakat qildim. Shuning uchun tez-tez nemis tanishlarimni mehmonga taklif qildim. Ular har doim misr taomini ishtaha bilan yedilar.

Bir kuni men yo'llagan taksi haydovchilaridan birini rafiqasi bilan xonamga taklif qildim, shunda ajoyib voqea sodir bo'ldi.

Men mehmonlarni kutib olish uchun yarim kun tayyorgarlik ko'rdim. Ular soat 18 da tashrif buyurishganda, dasturxon tuzab qo'yilgan edi. Buni ko'rgan mehmonlar taajjublاندilar. Men, - "Nega hayron bo'lasiz? Dasturxon tomosha qilib turish uchun emas, undagi taomlar yeyish uchun", - deya ularni dasturxoniga taklif qildim.

Haydovchining rafiqasi va men stol atrofiga o'tirdik, biroq taksist o'tirishni istamadi va dedi :- "Yo'q, raxmat!"

Men - "Keling, biz bilan ovqatlaning, ovqat sizga ham yoqadi", - dedim.

- "Yo'q", takrorladi u.

Men uni yana bir bor taklif qildim: - "Keling, ta'tib ko'ring!" Shunda u jahll bilan dedi:-"Men hech narsa yeya olmayman". Yana qo'shib qo'ydi: - "Qanaqa odamsiz o'zi!"

- "Men uning jahllni chiqaradigan nima ish qildim?" - menga tikilib turgan xotinidan ensab qotib so'radim: - "Nima uchun u hech narsa yeyishni istamaydi?"

- "Agar u yeya olganda ovqatlanagan bo'lar edi. Bizni ovqatlanish uchun taklif qilganingizdan mutloqo xabarimiz yoq edi", - deya erining javobini izohladi ayol.

- "E, kechirasiz", - dedim men. - "Bizning yurtimizda mehmon taklif qilingandan keyin albatta taom tortilishi oddiy udum hisoblanadi. Mehmon xushmuomalalik nuqtai nazaridan "yo'q raxmat" ham deydi, lekin bu haqiqatdan ham uning ovqatlanishini istamayotganligini bildirmaydi. Mehmonni bir necha marta taomga taklif qilish lozim va mehmon har doim, garchi u och bo'lmasa ham, boshqalarni hafa qilmaslik uchun biror narsadan iste'mol qiladi"- deb tushunturishga harakat qildim.

- Shu kuni men nemischa "yo'q" haqiqatda ham "yo'q" ekanligini bilib oldim.

Fotima Muhammad Ismoil

Mevus va boshqalar (1989), 149

7.3. O'quv guruhiga mos mashg'ulot mavzulni va mazmunini tanlash

Grammatik material taqdimoti va kundalik nutq vaziyati nemis tili darsini rejalashtirish uchun mezon bo'lganligi sababli darslikka kiritilgan matnlarning mazmuni ko'pincha ikkinchi darajali bo'lib qoldi. Mavzu va nutq vaziyati ta'limning boshlang'ich bosqichida deyarli faqat grammatika va so'z boyligini "joylashtirish" uchun xizmat qiladi. Yangi mavzular qoidaga ko'ra "dialog shaklida" taqdim qilinadi va o'quvchi bu namuna dialogni yod olish va yoddan aytib berishi lozim bo'ladi.

16 yoshli Tailandlik o'quvchining chet tillarni o'rganish jarayonida barcha mavzularini o'yin tarzida qaytarib chiqishi unda darsga qiziqish uyg'otadi deb bo'lmaydi, balki uning uchun bolaligida ona tilini o'rganish jarayonida tana a'zolarini atash, kiyim nomlarini aytish va "sotib olish" va boshqalar qiziq tuyilgan bo'lishi mumkin.

O'quvchilarni nemis tili darsiga qiziqtiradigan omil butunlay boshqa. Bu o'zga dunyoga nazar sola olish imkoniyatini qo'lga kiritish va o'zga dunyoni o'z dunyosi bilan solishtirish bilan bog'liqdir.

Nemis tili darslaridagi ta'lim - tarbiya nuqtai nazaridan ahamiyatli bo'lgan mavzular o'quvchilarning hayot tajribalarini kengaytirishga, ulardagi voqealarni o'z hayot tajribalari bilan taqqoslash imkoniyatlarini qo'lga kiritishga va o'quvchilarning o'zga va o'z dunyosi masalalari bilan qiziqishiga olib keladi.

45- Topshiriq

O'n olti yoshli o'quvchi, agar uning dunyoni bilish tajribasi va nemis tilida gaplashiladigan mamlakatlar haqidagi bilimi hisobga olinsa, u "Yozilmagan varaq" emas.

Sizning o'quvchilaringiz Yevropa va nemis tilida gaplashadigan mamlakatlar haqidagi ma'lumotlarni birinchi navbatda qayerdan oladilar? (televediniyedan; matbuotdan; ingliz tili darsidan; boshqa fanlar orqali; ota-onalaridan; sayyohlardan; nemis firmalaridan).

Ularning nemis tilidagi bilimlari qay darajada? Bu bilimlar qaysi sohalar bilan bog'liq? (siyosat; sport; fan; madaniyat; musiqa; adabiyot; tarix; kundalik turmush tarzi; pop madaniyat).

Xorijiy mamlakatlar haqidagi ma'lumotlar har doim ham to'la emas.

Germaniya, Avstriya, Shvetsariya haqida Sizning mamlakatingizda qanday tasavvurlar mavjud? Ular asosan nimalar bilan bog'liq?

O'zga dunyo bilan tanishuv, o'zga dunyo haqidagi bilimlarni egallash har bir shaxsning avvalgi ta'lim-tarbiya jarayonida orttirgan hayotiy tajribalari asosida sodir bo'ladi. Avvalgi tajribalarning ta'siri o'zga dunyodan ajablanish va o'z dunyosiga baho berishdan tortib, o'zga dunyoni butunlay rad etishgacha ham borib yetishi mumkin, bu holat "madaniy talvasa", "vahima" (Kulturschok) deyiladi. Shuning uchun mavzularni tanlab olishda juda ehtiyot bo'lish lozim.

Mavzularni tanlab olish va joylashtirishda o'quvchi o'z hayotiy tajribasi bilan ularni mantiqiy bog'lay olish imkoniyatlari hisobga olinishi muhimdir. O'quvchi "o'zga dunyoga sayohat qilganda" o'z hayotiy tajribasiga tayanish, shu bilan birga bu notanish dunyo uning qiziqishini kuchaytirishi kerak, lekin bu oddiygina "hayratlanish"dan iborat bo'lmasligi lozim. Shuning uchun darsdagi tushunish va o'rganish jarayonlari doimo munozara tarzida o'tishi va u, kerak bo'lsa, ona tilida olib borilishi ham mumkin.

Nemis tili darsi uchun mamlakatshunoslikka oid mavzularni tanlashda faqat nemis tilida gaplashiladigan mamlakatlarga oid bilimlarning bir tizimga solib taqdim etilishi, shu bilan birga mamlakatshunoslikka oid urf-odatlarini o'quvchi madaniy hayot tajribasi asosida tanlab olishdan iborat bo'lmasligi haqida qayg'urish kerak.

Ularini tanlab olishda nemis tilida gaplashadigan dunyoni o'quvchi ko'zi bilan ko'rishni o'rganishga harakat qilishi zarur, aks holda biz o'quvchiga bilimlar dengizidan shunday tomchi bergan bo'lamizki, bu "tomchi" uning uchun ma'nosiz bo'lishi yoki ma'lumot berish o'rniga yo'ldan adashtirishi ham mumkin. Ikkinchi tomondan, tanlovda o'quvchi tartib berishga qiynaladigan va umumlashtirilishi murakkab bo'lgan mayda aspeklardan ehtiyot bo'lish lozim.

7.3.1. O'quvchilar qiziqishi (manfaati)

46-Topshiriq

Qanday qilib tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan va shu bilan birga tili o'rganilayotgan mamlakatlarga hos bo'lgan xususiyatlarni buzmasdan ko'rsatadigan mavzularni topish mumkin? Shunday mavzulardan bir nechtasini keltirishga harakat qiling.

Imkoniyatlardan biri o'quvchilarning o'zidan nimaga qiziqishlari va nemis tili darsida qaysi mavzuni muhokama qilishni istashlarini so'rashdir. Bunday savolarga mavzu tanlashda cheklangan o'rin berilishi lozim.

O'quvchilarning qiziqishlari ularning yoshlari va dunyoqarashlariga bog'liq. Hatto bir madaniy doiraning o'zida ham ijtimoiy-madaniy yo'nalish turlicha bo'lishi mumkin.

Boshqa imkoniyat sifatida nemis tilida gaplashiladigan mamalakat tengqur yoshlari mashg'ul bo'lgan mavzu va masalalarni tanlab olishdir. Ammo bu mavzular ham ijtimoiy munosabatlar tili o'rganilayotgan mamlakatlarda o'zagtishi bilan tezda o'zgarib ketadi, bunga sobiq GDR dagi yoshlar shug'ullangan masalalar kirmaydi, chunki ular GFR, Avstriya va Shvetsariyadagi tengdoshlari shug'ullangan masalasidan mutlaqo boshqa muammolar bilan mashg'ul bo'lganlar. Masalan, GFR yoshlari uchun 80-yillarning boshida "ishsizlik" mavzui eng dolzarb mavzulardan biri bo'lgan. Ular tilni bilan aytganda "Nol-qaysar-Avlod" ("Null-Bock-Generation"-biror narsa qilishga istakning yo'qligi) tushunchasi keng tarqalgan. 80-yillarning oxiridsagi bu holat tug'ulish ko'rsatkichining pasayib ketishi bilan izohlanadi. O'tkazilgan yangi so'rovlar 90-yillarning boshida 132-15 yoshli avlod 80-yilarning boshidagi tengdoshlariga qaraganda ko'proq "hayotiy jasorag" ga qodir ekanliklari haqida ma'lumot beradi.

Shunday qilib, nemis tilida gaplashidigan mamalakatlardagi yoshlar uchun dolzarb bo'lgan mavzular neimis til chet tili sifatida o'rganilayotgan mamlakat yoshlari uchun ahamiyatli bo'lmasligi ham mumkin. Bunday mavzular ularda noto'g'ri tushunchalarni uyg'otishi, qiziqarli bo'lmasligi yoki ularni noto'g'ri yo'lga boshlashi ham ehtimoldan holi emas.

7.3.2. Umumbashariy hayot tajribasi

Chet til darslarida umumbashariy hayot tajribalari madaniyatlaromavzularni rejalashtirishda "ko'prik" vazifasini bajarishi ham mumkin. O'quvchilarning qiziqishi turli sabablarga ko'ra o'zgarib turishi tufayli o'quv rejasiga oid o'z jamiyati va madaniyatiga hos elementar tajribalar bilan bog'liq bo'lgan mavzularni tanlab olish lozim. Bu tajribalar barcha insonlarda ularga qarashli bo'lgan madaniyat sohasi bilan bog'liq va shu sababli ular elementar umuminsoniy tajribalar jumlasiga kiradi.

Agar dars shunday mavzular asosida rejalashtirilsa, shaxsning hayotiy tajribasi boshqa millatga xos bo'lgan madaniyat bilan solishtirishga asos bo'ladi.

47-Topshiriq

O'ylab ko'ring:

Kishilar qaysi mamalakatda, qanday jamiyatda o'sgan va yashagahliklaridan, qanday madaniyatga tegishli bo'lganliklaridan qat'iy nazar qanday hayotiy tajribalarga ega bo'ladilar?

Quyidagi ro'yxatni davom ettiring: Misol

- Har bir inson yeyishi va ichishi kerak.
- Har qanday inson kasal bo'ladi.

Nemis bo'lmagan o'quvchilar bunday mavzularni o'z imkoniyatlari darajasida juda umumiy holda idrok qiladilar. Shu bilan birga ular o'z hayotiy tajribalari va nemis tilida gaplashiladigan mamlakat vakillari o'rtasidagi farqni ham bilib oladilar. Shunday qilib, ular o'z tajribalaridan o'zga dunyoga olib boradigan "ko'priklarni" ka egiz bo'ladilar.

Shu bilan birga o'quvchi uchun o'zga dunyo voqealari haqida bir qator tushunib bo'lmaydigan mavhumliklar qoladiki, ular o'quvchuni o'zga dunyoni bilib olishga undashi ham mumkin. Shu yo'l bilan o'quvchiga o'zga dunyo elementlari, birliklari va tizimlarini o'z dunyosining elementlari, birliklari va tizimlari munosabatga kiritish, bog'lash, aniqlash va mantiqiy bo'lish jarayoniga olib kirish imkoniyati beriladi.

Bu amaldagidan ko'ra murakkabroq tuyuladi. Ta'lim psixologiyasi ma'lumotlariga ko'ra yangi bilim va tajriba elementlari shaxs egallagan avvalgi bilim va tajriba tizimiga bog'langan holda taqdim qilingan taqdirdagina samaradorlik yuqori bo'ladi va shaxsning rivojlanish uqurlari kengayadi. Tizimli va qiyosiy antropologiya qadimdan insoniyatga hos bo'lgan universal tajribalar qanday tasvirlanishi va tabaqalanishi mumkinligi masalasini tadqiq qiladi. (Muldrock 1945; Rudolph Tschohl 1977; Kohlberg 1963).

Universal hayotiy tajribalar quyidagilar bilan bilan bog'liq:

1. Asosiy mavjudlik tajribalari (tug'ilish, yashash, o'lish).
2. Shaxsning individual qiyofasi (shaxsning "men"ligi individual xususiyatlari).
3. Shaxsning xususiy sohadagi ijtimoiy qiyofasi (xususiy uyushma, masalan, oila: uning "biz" tajribasi).
4. Shaxsning jamoat sohasidagi ijtimoiy qiyofasi (Masalan, qo'shniçilik, mahalla, davlat va boshqalar, shaxsning "u" ligi).
5. O'zaro munosabat (do'stlik, sevgi-muhabbat, shaxsning "sen" ligi).
6. Istiqomat joyi (uy, kvartira, xonadon).
7. Atrof-muhit, tabiat, jamiyat, sivilizatsiya va boshqalar.
8. Ish (muloqot).
9. Tarbiya (Jamoada komillikka intilish).
10. Ta'minot (oziq-ovqat, kiyim-keçak va boshqalar).
11. Qatnov (yo'l yurish, transport qatnovi va boshqalar).

12. Bo'sh vaqt va sana't (maqsadli dam olish).
13. Kommunikatsiya (aloqa vositalaridan foydalanish).
14. Sihat-salomatlik haqida qayg'urish (salomatlik, kasallik, gigiyena).
15. Ahloq mezonlari va qadriyatlar (ahloq prinsiplari, diniy yo'nalishlar va boshqalar).
16. Zamon va tarix tajribalari (o'tmish, zamona, kelajak).
17. Ruhiy va ma'naviy o'lchovlar (o'zni o'zi idora qilish, tasavvur kuchi va fantasiya, xotira, his-hayajon va boshqalar).
18. ...

Yuqoridari ro'yxat to'la emas, bundan tashqari juda mavhum. Ular asosiy mavzularni tanlab olishda izlanayotgan tushunchalarni topib olish uchun dastlabki taassurot beradi xolos. Bu ro'yxat madaniy va yosh darajasiga ko'ra chet til ta'limi uchun tanlanadigan mavzular tarkibida konkretlashtirib olinishi lozim, chunki "dam olishni tashkillash" mavzui 10 va 16 yoshli o'quvchilar uchun mo'ljallanganda butunlay boshqa-boshqa tajriba qiziqish va manfaatni ko'zlashni hisobga olishi zarur, shu bilan birga bu mavzu Gollandiyalik o'quvchilar uchun Tailandlik o'quvchilarga nisbatan o'zgacha tajriba, qiziqish va manfaat aspektlarida tayyorlanishi va ishlab chiqilishi kerak.



1 Dieter Gunderke

Amir: 16 Jahre
 Größe: 1,72 m.
 Haare: Braun
 Augen: Blau
 Geschwister: 1 Bruder, 1 Schwester
 Hobbys: Musik, Lesen
 Lieblingsfächer: Sport, Englisch



2 Petra Beckloh

Amir: 14 Jahre
 Größe: 1,65 m.
 Haare: Hellbraun
 Augen: Hellblau
 Geschwister: 1 Bruder
 Hobbys: Helden, Gitarre spielen
 Lieblingsfächer: Deutsch, Musik, Sport



3 Erik Kassen

Amir: 15 Jahre
 Größe: 1,88 m.
 Haare: Schwarz
 Augen: Braun
 Geschwister: 2 Brüder, 1 Schwester
 Hobbys: Fußball spielen
 Lieblingsfächer: Sport, Technik



Malen

Bücher lesen

Er/Sie heißt
 Er/Sie ist (Jahre alt).
 Er/Sie ist (Meter) groß. Er/Sie ist (Kilogramm) schwer.
 Seine/Ihre Haare sind Er/Sie hat (Farbe) Haare.
 Seine/Ihre Augen sind Er/Sie hat (Farbe) Augen.
 Er/Sie hat (Brüder/Geschwister/Brüder/Schwester/Schwester).
 Seine/Ihre Hobbys sind Seine/Ihre Hobbys sind
 Seine/Ihre Lieblingsfächer sind Seine/Ihre Lieblingsfächer sind

U1 Bitte beschreiben:

Personen ① - ③

① das ist Dieter Gunderke. Er ist ...

U2 Und er/sie?

Name, Alter, Größe, Haare, Augen, Geschwister, Hobbys, Lieblingsfächer:

U3 Bitte beschreiben:

deinen Freund, deine Freundin, deinen Lehrer, deine Lehrerin, deinen Bruder, deine Schwester oder deinen Vater, deine Mutter.



(A) Bettina Tscholl
 Alter: 14 Jahre
 Größe: 1,14 m
 Haare: dunkelbraun
 Augen: blau-grün
 Geschwister: 1 Bruder,
 1 Schwester
 Mütter: Lesen
 Lieblingsfächer: Deutsch, Englisch



(B) Merd Lala
 Alter: 14 Jahre
 Größe: 1,55 m
 Haare: braun
 Augen: grau-blau
 Geschwister: 1 Schwester
 Hobbys: Basketballen, sammeln
 Platten hören, Fußball spielen
 Lieblingsfächer: Kunst, Mathematik



(C) Claudia Mohrke
 Alter: 16 Jahre
 Größe: 1,70 m
 Haare: blond
 Augen: grün
 Geschwister: 1 Schwester
 Hobbys: Malen, Fotograferen
 Lieblingsfächer: Kunst, Erdkunde,
 Sozialkunde



Düster	hat hat mag mag brüht trüdet	Sport Mathematik Kunst Mathematik Sport Mathematik	gern, nicht gern eine besondere Überzeugung nicht Klasse Spitze stark nicht sehr langweilig
Düster	interessiert sich sehr für interessiert sich nicht für	Musik Sozialkunde	

Üe Und Pers? Merd? Claudia? Erdelk? Bettina?

Seite 114 (1983) 51

48-Topshiriq

Misolni aniqroq ko`rib chiqing.
 "Bo`sh vaqt"

Nemis o`quvchisi qaysi
 faoliyat turlarini ko`rsatadi?
 Musik hoeren- musiqa tinglash

Mamlakatingiz o`quvchilari
 bo`sh vaqtlarida nima bilan
 shug`ullanadilar?
 (O`quvchilardan so`rash ham
 mumkin).

Javoblarni qiyoslash, tahlil qilish va hulosalash uchun savollar:

1. Nemis va mamlakatingiz o'quvchilarining bo'sh vaqtlarini tashkillashda qanday faoliyatlar xos ekanligini aniqladingiz?
2. Ularning qaysi faoliyatlarida farqlar mavjud?
3. Sizing fikringizcha, nemis o'quvchilarining bo'sh vaqtlarida o'tkazadigan mashg'ulaolarining qaysilariga mamlakatingiz o'quvchilari ham qiziqar ekan?
4. Mamlakatingiz o'quvchilariga nimalar butunlay begona? Buni qanday izohlasa bo'ladi?
5. Nima nemis o'quvchilari uchun butunlay begona? Buni maktub yozishadigan do'stga qanday tushuntirish mumkin?
"Maktab" mavzuining qaysi tomonlari, Sizing fikringizcha, mamlakatingiz o'quvchilari uchun ayniqsa katta ahamiyatga ega?

Tavsiya

GFRdagi chet ellik o'quvchilar uchun nemis tili darsi-guruhiga oid tajribalar haqida ilovadan ma'lumot olamiz.

49-Topshiriq

Xuddi shunday tablitsani o'z o'quvchilaringiz guruhi uchun tuzing.

7.3.3. Ta'limiy-uslubiy konsepsiya uchun hulosa va tavsiyalar

Yuqoridagi munozaradan kelib chiqib nemis tilida so'zlashuvchi mamlaktdan uzoqda taxsil olayotgan guruhlar uchun didaktika va metodika sohasida ayrim hulosalarni bayon qilish mumkin:

1. Madaniyatlararo chet til ta'limi uchun mavzular ko'lemi o'quvchilar guruhining dastlabki elementar hayotiy tajribalari bilan bog'lanishi va tili organilayotgan mamlakatning shu yoshdagi o'quvchilar guruhiga oid hayot tajribalari bilan qiyoslanishi lozim.
2. O'zga dunyo na sinfda, na atrof-muhitda mavjud bo'lmaganligi sababli dars jarayonida texnika vositalari orqali bu haqda ma'lumot beriladi. Shuning uchun ko'rish, tinglash va o'qish uchun maxsus matnlar tayyorlanishi lozim (Film, televideniye, video, plastinka, kasseta, o'qishga oid barcha matn turlari). Idrokni o'rgatuvchi ko'rish, tinglash va o'qishga oid materiallar o'z va o'zga madaniyat o'rtasidagi farqni yaqqol ko'rsatishi lozim.
3. Firkni ifodalash malakari faqat dialog shaklida axborot almashishdangina iborat bo'lmasdan, balki mavzu yuzasidan muhokama va munozara tarzida ham o'tishi lozim.

4. Chet tilda fikrni ifodalash malakalarini rivojlantirish faqat dialog namunalalarini takrorlash va unga taqlid qilish bo'libgina qolmay, balki tushunish jarayoniga aylanishi zarur. Ta'lim "Chet tildagi nutqni tushunishdan fikrni ifodalashga o'tish" qoidasiga aslanishi lozim.
5. Tushunishni o'rgatish deganda, birinchi navbatda, o'qib tushunishni o'rgatish nazarda tutiladi, chunki o'qib tushunishga oid matnlar har doim, bundan keyin ham, chet til ta'limining asosini tashkil qilib keladi.
6. Madaniyatlara chet til ta'limi tili o'rganilayotgan mamlakatdan uzoqda bo'lgan yurtlarda o'qish uchun faqat kundalik mavzularga oid matn turlari tanlab olinmasdan, balki funktsional matnlarni ham mutoala qilish lozim. Bu konsepsiya uchun adabiyot alohida ahamiyat kasb etadi.
7. Madaniyatlara chet til ta'limining asosini ikki madaniyat elementlari, birliklari va strukturalarini qiyoslash tashkil qiladi. Bunga til materialini qiyoslash ham kiradi.
8. O'quvchilar ongida sodir bo'ladigan bunday "soqov" qiyosiy jarayon dars paytida tilga kiritilishi lozim. O'zga dunyoni tasvirllovchi har bir matn yoki rasm o'quvchi tomonidan qanday ma'noda idrok va tahlil qilinishini hisobga olish pedagogik nuqtai nazardan muhim ahamiyatga ega. Uning o'quvchi tomonidan qanday tushunilishi sabablarini aniqlash va shunga muvofiq axborot berish, ma'qullash, rad etish va boshqalar ta'limning samaradorligini belgilaydi.

Misol

Distansioni (Kontak)

Die Weltkarte zeigt uns, dass die Welt heute in drei Hauptteile unterteilt ist: Amerika, Asien und Europa. Amerika ist der größte Kontinent, Asien der zweitgrößte und Europa der drittgrößte. Die Weltkarte zeigt auch die Ozeane: der Atlantik, der Indische Ozean und der Pazifik. Die Weltkarte zeigt auch die Pole: der Nordpol und der Südpol. Die Weltkarte zeigt auch die Hauptstädte der Länder: Washington, Peking und Brüssel.

Die Weltkarte zeigt uns, dass die Welt heute in drei Hauptteile unterteilt ist: Amerika, Asien und Europa. Amerika ist der größte Kontinent, Asien der zweitgrößte und Europa der drittgrößte. Die Weltkarte zeigt auch die Ozeane: der Atlantik, der Indische Ozean und der Pazifik. Die Weltkarte zeigt auch die Pole: der Nordpol und der Südpol. Die Weltkarte zeigt auch die Hauptstädte der Länder: Washington, Peking und Brüssel.

USA	Asien	Europa
1	2	3
4	5	6
7	8	9
10	11	12
13	14	15
16	17	18
19	20	21
22	23	24
25	26	27
28	29	30
31	32	33
34	35	36
37	38	39
40	41	42
43	44	45
46	47	48
49	50	51
52	53	54
55	56	57
58	59	60
61	62	63
64	65	66
67	68	69
70	71	72
73	74	75
76	77	78
79	80	81
82	83	84
85	86	87
88	89	90
91	92	93
94	95	96
97	98	99
100	101	102



1. Die Weltkarte zeigt uns, dass die Welt heute in drei Hauptteile unterteilt ist: Amerika, Asien und Europa. Amerika ist der größte Kontinent, Asien der zweitgrößte und Europa der drittgrößte. Die Weltkarte zeigt auch die Ozeane: der Atlantik, der Indische Ozean und der Pazifik. Die Weltkarte zeigt auch die Pole: der Nordpol und der Südpol. Die Weltkarte zeigt auch die Hauptstädte der Länder: Washington, Peking und Brüssel.

2. Die Weltkarte zeigt uns, dass die Welt heute in drei Hauptteile unterteilt ist: Amerika, Asien und Europa. Amerika ist der größte Kontinent, Asien der zweitgrößte und Europa der drittgrößte. Die Weltkarte zeigt auch die Ozeane: der Atlantik, der Indische Ozean und der Pazifik. Die Weltkarte zeigt auch die Pole: der Nordpol und der Südpol. Die Weltkarte zeigt auch die Hauptstädte der Länder: Washington, Peking und Brüssel.

1. Die Weltkarte zeigt uns, dass die Welt heute in drei Hauptteile unterteilt ist: Amerika, Asien und Europa. Amerika ist der größte Kontinent, Asien der zweitgrößte und Europa der drittgrößte. Die Weltkarte zeigt auch die Ozeane: der Atlantik, der Indische Ozean und der Pazifik. Die Weltkarte zeigt auch die Pole: der Nordpol und der Südpol. Die Weltkarte zeigt auch die Hauptstädte der Länder: Washington, Peking und Brüssel.

2. Die Weltkarte zeigt uns, dass die Welt heute in drei Hauptteile unterteilt ist: Amerika, Asien und Europa. Amerika ist der größte Kontinent, Asien der zweitgrößte und Europa der drittgrößte. Die Weltkarte zeigt auch die Ozeane: der Atlantik, der Indische Ozean und der Pazifik. Die Weltkarte zeigt auch die Pole: der Nordpol und der Südpol. Die Weltkarte zeigt auch die Hauptstädte der Länder: Washington, Peking und Brüssel.

Munozara mavzui: Bo'sa olish

Ikkinchi jahon urushi paytida Angliyada joylashgan Amerika soldatlari o'zlarining ma'shuqalari bilan munosabatda bir qator muammolarga duch keldilar va aksincha: Angliyalik xonimlar amerikaliklarni hujumkor deb hisobladilar va amerikaliklar angliyalik ayollarni unchalik hayoli emas deb topdilar. Bu qarama-qarshiliklar ikki madaniyat uchun ham ma'qul bo'lgan hissiy munosabatlar tarzida quyidagi chizmada tasvirlangan.

Birdan o'ttizgacha bo'lgan raqamlar erkak va ayolning tanishuvidan boshlab ularning jinsiy yaqinligigacha bo'lgan munosabatni ifodalaydi.

AQSH	Buyuk Britaniya
1. Tanishuv	1. Tanishuv
2.	2.
3.	3.
4.	4.
5.Bo'sa olish	5.
.	.
.	.
.	.
.	.
.	25. Bo'sa olish
25	.
.	.
.	.
.	.
29	29
30.Yaqinlik	30.Yaqinlik

Chizmaga oid topshiriq:

1. Guruhda chizmani muhokama qiling va ziddiyatning yechimini toping. (Agar Siz masalaning yechimini topa olmasangiz, buning zarari yo'q. Masalaning to'g'ri yechimi muallimingizning kitobida mavjud).
2. Agar GFR dagi turli millat ayollari bilan gaplashilsa, ko'proq sozlash quyidagi fikrlarni eshitish mumkin: "Men nemis erkaklari uchun xizmat gaplashganimda, menga ayol sifatida qanday xizmat yaratadi."

bo'layaptilar degan hissiyat bo'lmaydi" (Fransuz ayoli). Bu Sizing hayot tajribangizga mos tushadimi? Qanday voqealar shunday tasavvurga olib kelishi mumkin?

3. Agar xohishingiz bo'lsa kichik guruhlarda Sizing mamlakatingizda shunday munosabat qanday rivojlanishi va har bir qadam (harakat) qanday ma'noga ega ekanligini muhokama qiling. Fikrlaringizni o'zga guruhlar uchun taqdim qiling.
4. Bu masala nemis tilida so'zlashadigan mamlakatlarda qanday yechiladi? Bu masalada o'z tajribangiz qanday? Agar tajribaga ega bo'lmasangiz, u holda boshqa ma'lumot manbalari ham mavjud. Masalan, o'quvchingiz yoki nemis tilida gaplashadigan mamlakat kishilari bilan suhbat, xat yozishish, adabiyot va h.k.
(Hog va boshqalar 1984, 105)

50-Topshiriq

Madaniyatlararo didaktika va metodika konsepsiyasini pragmatik - funksional didaktika va metodika konsepsiyasi bilan qiyoslang.

Ular o'rtasidagi umumiylik nimada?

Ular o'rtasida qanday farqlar mavjud?

Matni o'qib tushunish madaniyatlararo nemis tili darsining asosi sifatida

Yanglish tushuncha paydo bo'lmashligi uchun shuni ta'kidlash lozimki, madaniyatlararo konsepsiyaga asoslangan tili o'rgatilayotgan mamlakatdan uzoqdagi chet tili ta'limini o'qishni o'rgatuvchi nemis tili kurslari deb tushunmasdan, balki gap ta'lim mazmuni matn ustida ishlashdan boshlanadigan va u orqali fikrni til vositasida bayon qilishga olib boradigan vazifalar qo'yadigan ta'limiy konsepsiya ustida borayotganligini anglamoq kerak.

Bu o'rinda GTMning matn ustida ishlashga oid tajribalaridan ham foydalanish, shu bilan birga ALMF AVM ning fikrni og'zaki bayon qilishga oid malakalarni rivojlantirish usullaridan foydalanish hamda pragmatik-funksional yo'nalish ishlab chiqqan usullarni ham e'tiborga olish zarur.

Shunday qilib, o'quvchilar manfaatlariga asoslangan madaniyatlararo chet til didaktikasi va metodikasi avvalgi barcha metodlarning element, nazariya va prinsiplaridan "g'oyaviy vahimalarsiz" o'zi uchun foydali va ma'qul bo'lganlarini ta'lim jarayoniga tadbiiq qilishi mumkin.

Quyida matnlarning bir necha turlari darsda qo'llanishi imkoniyatiga qarab sinab ko'riladi.

Matn boshlang'ich manbaa sifatida

Quyidagilarni ta'kidlash lozim:

—Har qanday asliy matn o'zga dunyoni bir xil usulda aks ettira olmaydi;

—Har qanday matn ham chet til ta'limi uchun mos tushavermaydi;

—Har qanday matn ham ta'limiy maqsad uchun ma'qul kelavermaydi;

Matn asliy bo'lganligi sababli ham chet til ta'limi uchun "mos" yoki "ahamiyatli" emas. Darsliklar uchun tuzilgan matnlar til materiali progressiyasida maxsus ta'limiy maqsadlarni bajaradilar. Asliy matnlar esa o'z madaniy kontekstida maxsus funksiyaga egadirlar. Agar ular bu kontekstdan ajratib olinsa va chet til ta'limi jarayonida foydalanilsa, o'z funksiyasi va ta'sir kuchini butunlay o'zgartirib yuborishi mumkin.

Manbalar

Pragmatik-funksional kontseptsiyani muhokama qilishda "matn turlari" haqida ham gapirildi va matnning ikki turini alohida belgilab berildi:

a) kundalik turmush masalalariga oid matnlar

*b) axborot tarzidagi rasmiy matnlar
Ushbu matn turlariga oid – 127-128 sahifadagi ma'lumotlarni yana bir marta o'qib chiqing.*

Matnlarni dars jarayonida qo'llash:

a) Tili o'rganilayotgan mamlakat kundalik hayotida foydalaniladigan matnlar

Matnlar dars jarayonida birinchi navbatda nutqiy muomala manfaatlariga bo'ysindirilishi va o'quvchilarni tili o'rganilayotgan mamlakatga borishga tayyorlashi lozim. Matnlarda tili o'rganilayotgan mamlakat haqida asliy axborotlar saqlanadi va bunday ma'lumotlar (masalan, reklama va uni qog'ozga tushirish turli mamlakatlarda bir-biridan farq qiladi) o'quvchi mamlakatidagi ma'lumotlar bilan qiyoslash imkonini beradi.

Matnlar sinf xonasida "tabiiy til muhiti"ni yaratish uchun xizmat qiladi va tildan foydalanishning hayotga yaqin yo'llarini yaratadi.

Chet tilini amalda qo'llashning bunday hayolij modeli (Halliday 1973) ayniqsa kichik yoshdagi o'quvchilar uchun qiziqarli hisoblanadi, chunki bu ularning fantaziyalarini uyg'otadi.

Shu masalaga oid bir misol:

Bu erda Kyol'n shahridan Germaniyaning boshqa shaharlariga qatnovchi poyezdlar jadvali berilgan. Siz o'zingizni Kyol'ndagi bosh vokzalda turibman deb tasavvur qiling va chorshariba kuni Berlin shahriga bormoqchisiz.

Poyezdning qachon jo'nab ketishini va siz qayerlarda, qaysi poyezddan qaysinisiga almashishingiz zarurligini aniqlang.

O'quvchilar "o'zga reallikni ifodalovchi sahnalarni "o'ynashlari lozim edi. Buning uchun o'quvchi o'z tasavvuridagi holatni o'zga dunyo voqeligini ifodalash uchun xizmat qildirishi lozim. Agar Tailandlik o'quvchi Kyol'ndagi bosh vokzalni Bongkok vokzalidek tasavvur qilsa hayolij o'yinga zarar etmaydi. Chunki huddi shunday "asliylikni tatib ko'rish", chet tilda hayolij ro'l o'ynash, shunday matn turlarini dars jarayonida qo'llash, asliy matn ko'rinishlari orqali yaqqolroq ro'yobga chiqadi.

Bu matnlardagi til vositalari shaklini imkoniyat darajasida soddalashtirish ham mumkin.

b) Ma'lumot berishga mo'ljallangan voqeyiy matnlar (Sachtexte)

Agar bunday matnlar mazmuniga ko'ra o'quvchilarning hayotij tajribalarini bayon qilinayotgan axborot bilan bog'lash imkoniyatini yaratadigan holda tuzilsa, dars jarayonida muvaffaqiyat bilan qo'llanishi mumkin va "qisman tushunmaslikning ortishi" tufayli ishlashga bo'lgan qiziqishni kuchaytirishga xizmat qilishi mumkin. Mutoala jarayonida o'quvchi o'zga dunyo haqida nutq vaziyati kompleksliginagina emas, balki matndagi ilmiy ma'lumotlarni ham tushunib olishni xohlashini va ko'proq ma'lumot olishi kerakligini anglab oladi.

Bunday matn turlarining ta'limiy maqsadlar yo'lida til jihatdan soddalashtirilishi uning na shaklan, na mazmunan "buzilishiga" olib kelmasligi kerak.

Dars jarayonida bunday matnlar bilan ishlashning ikki turini ko'rsatish mumkin:

- **Shaxsiy model:** Matndagi ma'lumotning men uchun qanday ahamiyati bor?

- **Ijodiy (evristik) model:** O'zga dunyo mening dunyoim bilan qiyoslanganda qanday farq bor? Bu farqlar nima bilan bog'liq?

C) Darslik mualliflari tomonidan tuzilgan matnlar

"Pragmatik to'la qin "ta'siridagi chet til didaktikasi asosidagi badiiy matnlar bilan uzoq ishlab bo'lmaydi. Chunki ular ta'lim uchun qiyin va umuman olganda foydasi kam deb topildi.

Madaniyatlararo chet til ta'limida pedagogik maqsodlarni amalga oshirish uchun darslik mualliflari tomonidan tuzilgan matnlar butunlay boshqacha ahamiyat kasb etadilar. Bunday matnlar, bir tomondan , voqelikka " ochiq -oydin" olib kirsam , ya'ni hamma uchun tushunarli bo'lsa , ikkinchi tomondan , o'quvchini voqelikka "hayolan" olib borishi bilan ajralib turadi.(Werlich, 1986).

O'quvchi o'z dunyosi elementlari , birliklari va tuzilmalari orqali o'zga dunyoni anglab yetadi. Tuzma matnlar "voqelikni hayolan sahnalashtiradi". Bunday "sahnalashtirish " chog'ida o'z dunyo sahna bezaklari o'ga dunyodagi " hayoliy " voqelikka ko'chiriladi. Chet tilda yaratilgan tuzma matnlar mutoala paytida o'z va o'zga dunyo o'rtasidagi oraliq dunyoni yaratadi.

Chet tildagi badiiy matnlar dars jarayonida kishilar , vaziyatlar va g'oyalar bilan ruhlantirish, mas'uliyat, o'xshatish va boshqa munosabatlarni ta'minlaydi. Shuning uchun ham bunday matnlar voqeiy matnlarga qaraganda ta'limiy maqsadlardan uzoqlashib ketadi.

Chet tildagi badiiy matnlar voqeiy matnlarga qaraganda o'zgacha ta'limiy maqsadlar uchun xizmat qilishi sababli , ular ustida dars jarayonida boshqacha ishlash kerak. Birinchi navbatda , bunday matnlarni til jihatdan soddalashtirish bilan ularning ichki tuzilishini buzish yaramaydi, chunki bu shaxslar va ularning faoliyatlari shaxsga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Bu badiiy matnlarning soddalashtirilgan, qisqartirilgan va silliqalashtirilgan shakllaridan foydalanishni qoralovchi dalil bo'lib xizmat qiladi.

Darslik mualliflari tomonidan tuzilgan yoshlar badiiy adabiyotiga mansub til jihatdan sodda bir qator matnlar borki , ulardan chet til ta'limining boshlang'ich bosqichida samarali foydalansa bo'ladi. She'riyatdan ham ta'limning boshlang'ich bosqichi uchun mos keladigan sodda shaklda yozilgan asarlarni topsa bo'ladi, masalan " Konkret she'riyat" kitobidan olingan fantaziya va fikrni ifodalashga oid she'rlar (Kast, 1985; Mummert, 1989) va " Fremdsprache Deutsch " ommaviy-ushlubiy jurnalning " Fikrni yozma bayon qilish " mavzuiga bag'ishlangan maxsus soni (N 1 / 1989)

Manbalar

Yuqoridagi masalaga oid qo'llanmalar:

1. *Lesen als Verstehen. Zum Verstehen fremdsprachlicher Texte und zu ihrer Didaktik von Swantje Ehlers (1992).* O'qib tushunish. Chet tildagi matnni o'qib tushunish va uning didaktikasiga doir. (Ehlers, 1992)
2. *Landeskunde und Literaturdidaktik von Monika Bischoff Viola Kessling F Ruediger Krechel. O'lkashunoslik va adabiyot ta'limi. (Bischoff F Kessling F Krechel, 1997)*
3. *Bernt Kast va Swantje Ehlersning badiiy matnlari bilan ishlash.*

D) O'qishdan ko'zlangan maqsadlar

Matnni o'qib tushunish, asosan, o'qishdan ko'zlangan maqsadga bog'liq. Chet tildagi matnlar ta'limning yuqori bosqichida ularning mazmunini tola tushunib olish uchun o'qiladi. Ko'pincha, avval ham aytilganidek, matnlar umumiy mazmunini tushunib olish yoki biror ma'lumotni topish maqsadida izlanib o'qiladi. Agar chet tildagi matnlar dars davomida umumiy yoki izlanib o'qilsa, o'quvchilar matndagi barcha mazmuni tushunmaydilar.

Matnning ta'limiy yaroqliligida uning til jihatdan murakkablik darajasi hal qiluvchi rol o'ynamaydi, balki matn bilan ishlaganda qo'yilgan maqsad va vazifalar, ya'ni matn mazmunini umumiy, izlangan ma'lumotni yoki ikir — chikirigacha tushunish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tavsiya

«Matn mazmunini o'qib tushunishni o'rgatish usullari»ga oid malumot ilovada berilgan.

7.3.4 Mavzular taqsimoti

Ma'lumki, bir mavzuga ta'luqli barcha sohaga oid materiallarni birdaniga berib bo'lmaydi, balki ularni ta'lim jarayonida bosqichma—bosqich taqsimlash lozim. Ta'limiy elementlar, mavzular va ish tajribalarining o'quv dasturiga ko'ra rejalashtirish tsikli progressiya imkoniyatlaridan hisoblanadi.

Dars davomida asosiy mavzuga qayta — qayta murojaat qilinadi, bu o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, o'quv jarayonining o'sish, o'quvchilar hayot tajribasining ortib borishi bilan har bir mavzuning yangi qirralari «o'yinga tushiriladi». Natijada tsikli so'z boyligi progressiyasi —

so'zlar ustida muntazam ish olib borish mavzuga asoslangan dasturly konsepsiyaga aylanib boradi.

Mavzuiy progressiya tsiklii matn turlari progressiyasiga asos bo'ladi. Bu xolatni quyidagi misol orqali ko'rib cho'qish mumkin.

Misol:

Asosiy mavzu:

"Maktab va ta'lim"

Mavzu bo'limlari:

1- bosqich	2- bosqich	3- bosqich
<ul style="list-style-type: none">- O'quv predmetlari- Maktab kiyimi- O'qituvchilar va boshqalar	<ul style="list-style-type: none">- Maktab intizomi- O'qituvchi va sinfdoshlarga bo'lgan munosabat (do'stlik, kelishmovchilik)- Turli bosqichlardagi o'quv predmetlari	<ul style="list-style-type: none">- Maktab tarixi- Maktab kar'yerasi va kasbiy istiqbol- Maktabni tugatish va kasb tanlash- Nemis tiliga oid bilimlarni maktabni tamomlagandan so'ng qo'llash

Matn turlari:

<ul style="list-style-type: none">- Dars jadvali- Bayon- Guvohnoma	<ul style="list-style-type: none">- Maktab qoidalari- E'lon- Interv'yu- Hikoya- She'r	<ul style="list-style-type: none">- Dastur- Maktub- Statistik ma'lumot- Reklama- Tarjimai hol- Bo'sh o'rin haqida elon- Badiiy matnlar
--	---	--

O'quv materialining bunday progressiyasida doimiy ravishda yangi notanish dunyo ko'zga tashlanaveradi. Shu bilan birga lisoniy talablar ortib boradi va bu talablar matnни idrok qilish (matn turlarining lisoniy mukammalligining ortib borishi) va fikrni bayon qilish jarayonida (sevimli fanlarni qiyoslashdan tortib to murojaat xatini yozishgacha) o'z ifodasini topadi.

7.4. Xulosa: Muomalani o'rgatish (KD) - pragmatik - funksional va madaniyatlararo chet til ta'limi konsepsiyalari

70- yillarda rivojlana boshlagan muomalani o'rgatish (KD) metodikasining ikki yo'nalishi mavjudligini ko'rsatish lozim. Ular:

1. Pragmatik-funksional konsepsiya.
2. Pedagogik konsepsiya.

Pragmatik-funksional konsepsiya

Konsepsiyaning ilk rivojlanish bosqichi 80-yillarning birinchi yarmigacha Yevropa mamlakatlarida **«kommunikativ konsepsiya»** tarzida shakllandi va Yevropa Ittifoqi bo'yicha yagona bo'lib qolmadi. Agar Buyuk Britaniyada dastlab lisoniy-funksional yo'nalish ustun bolgan bo'lsa, Germaniya Federativ Respublikasida muomalani o'rgatish- kommunikativ didaktika hukmronlik qildi. Germaniyada butun talim tizimini isloh qilish borasidagi munozaralar doirasida asosan pedagogik masalalar (emansipatsion ta'lim) yuqori o'ringa qo'yildi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, Yevropada va boshqa sanoati rivojlangan davlatlarning barchasida, bu konsepsiya qayerda tadbiiq qilingan bo'lsa, o'sha yerda chet tillarni iloji boricha jadal va og'zaki o'rganish kasbiy yoki shaxsiy maqsadlarni elementar darajada qo'lga kiritish niyatida qo'llandi. Loyihadan asosan katta yoshdagilarga chet tillarni o'rgatish jarayonida foydalanildi.

Bu konsepsiya chet tilga oid bilimlarni bevosita kundalik hayotga tadbiiq qilish imkoni mavjud bo'lgan joyda, o'qitish joyi tili o'rganilayotgan mamlakatga yaqin yoki o'z mamlakatida chet elliklar bilan aloqa qilish imkoniyati bo'lgan va chet til aloqa funksiyasini bajaradigan joyda tadbiiq qilindi. Misol tariqasida: ingliz tilining jahon bo'ylab tarqalishini; nemis tilining yollanma ishchilarning yurtlaridagi (O'rta yer dengiz) turizm uchun qo'llanishini keltirish mumkin. Ushbu konsepsiyadan tilni qayerda amaliy qo'llash jarayonida "tushunarlilik" darajasi "lisoniy xatosizlik"ka qaraganda muhimroq bo'lsa, shu yerda foydalanildi.

Lingvistik asoslar

Konsepsiyaning lisoniy-funksional ahamiyati pragmalingvistika belgilab bergan nazariyaga, ya'ni til kishilar faoliyatining vositasi va shunga ko'ra nutq faoliyati pragmalingvistikaning tadqiqot predmeti hisoblanadi, degan fikrga

asoslanadi. Til endi tuzilish jihatdan tasvirlanmasdan, balki insonlar o'rtasidagi aloqa funksiyasiga ko'ra tasvirlandi.

Didaktik asoslar

Audiolingval metodni tanqid qilish, eng avvalo, bixivioristik konsepsiya tanqididan boshlandi. Bunga qarshi o'laroq chet tillarni o'rganish aqliy va nutqiy faoliyat jarayoni deb qaraldi. Bu masalaning xal qilinishida nutq faoliyati nazariyasi (Galperin, 1974; Leontev, 1974) va umumiy didaktikaning aqliy bilish nazariyasi (Ausubel, 1974) sezilarli ta'sir o'tkazdi.

Adabiyot va matn tilshunosligi

Lisoniy-funksional konsepsiya uchun, bir tomondan, chet tilda muloqot qila olish qobiliyatini rivojlantirish, audiolingval metodning og'zaki nutq ustunligi va situativlik prinsiplarining rivojlantirilishi xarakterli bo'lsa, ikkinchi tomondan dars jarayonida asliy voqea matnlarining ko'plab qo'llanishi muhim sanaladi. Bu o'qishni o'rgatishning Grammatika-tarjima va audiolingval metodlarining matn mazmunini to'la tushunishni o'rgatuvchi o'qish turiga qarama-qarshi o'laroq, matnning umumiy mazmunini tushunish va izlanib o'qishni o'rgatishning yangi didaktikasini yaratishga olib keldi.

Maktabda chet til o'rgatishning pedagogik istiqbollari mavzudagi munozalar orqali funktsional mantlarning ta'limiy sifati borasida "yangi topilmalarni", ya'ni "adabiy" atamasi nafaqat badiiy adabiyot, balki o'quvchilar hayotiga yaqin mavzularni qamrab oluvchi bolalar va yoshlar adabiyotiga oid matnlar tushunchasini anglatishi kashf qilindi.

O'lkashunoslik

O'lkashunoslikning ta'limiy mazmini kundalik aloqa uchun muhim bo'lgan mavzularga asoslanadi va ALM ga xos ta'limiy konsepsiyani davom ettiradi.

Chet til ta'limida pragmatik-funksional metodning Didaktik va metodik prinsiplari

Chet til ta'limida pragmatik-funksional metodning xususiyatlariga ko'ra grammatik material "osondan qiyinga" qarab emas, balki tildan muomala vositasi sifatida foydalanish zaruriyatiga qarab (nutqiy niyatni tilga chiqarish) taqsimlanadi.

Pragmatik taqsimlarning qo'yilishi natijasida o'zgacha mashq shakllari va ish usullari vujudga keldi. Mashqlar zanjiri muomala qoidalariga muvofiq tushunish jarayonidan (matn ustida ishlash) fikrni

erkin bayon qilish jarayoniga, ya'ni o'quvchining boshqariladigan nutqiy faoliyatdan erkin fikrlashga qarab boradi.

Aqliy ta'lim konsepsiyasi lisoniy idrok va fikrni bayon qilishga o'rgatishning ALM ga qaraganda o'zgacha shakllariga asoslanadi. Unga ko'ra o'quvchi lisoniy shakllar (grammatika) va tilni amalda qo'llash tushunchalarini ongli ravishda farqlashi lozim.

Dars jarayonidagi chet til va tili o'rganilayotgan madaniyat haqidagi muloqot chet tilni amalda sinab ko'rish va dars jarayonidagi nutqiy faoliyat (darsda kundalik muloqot sahnasini o'ynash) singari muhim hisoblanadi.

O'qituvchi roll

Bu o'rinda **o'qituvchi roli** ham o'zgaradi. O'qituvchi endi hamma narsani biladigan, grammatika va madaniyat haqida ma'lumot beruvchi shaxs emas, balki o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini egallashiga "yordamchi" vazifasini bajaradi.

Ijtimoiy shakl

Darsdagi **ijtimoiy shakl** ham o'zgaradi. O'qituvchi va darslikka tayangan frontal dars shakllari egallaydi. Matn ustida birgalikda ishlash, muomala vaziyatlarida birgalikda rol o'ynash, sahnalashtirish katta ahamiyat kasb etadi.

Madaniyatlararo chet til ta'limi konsepsiyasi

Ikkinchi bosqich

Chet til ta'limidagi madaniyatlararo konsepsiya pragmatik-funksional konsepsiyaga nisbatan o'quvchilar imkoniyatlarini aniq tahlil qilish borasida ilmiy-pedagogik xulosalarga jiddiy e'tibor bilan yondoshadi.

Madaniy - individual hayot tajribalari va ta'limiy hodisalar, dunyo qarashlar, ta'lim an'analari va odatlari, o'z va o'zga madaniyat o'rtasidagi munosabat (madaniy aloqa: ijtimoiy, madaniy va lisoniy imkoniyatlar qiyosi); individual intilish, ta'limiy harakatlar va tashkiliy shart-sharoitlar (tillarning o'rganilish o'rni; dars uchun ajratilgan vaqt hajmi, maktab ta'limidagi chet tilning o'rni; chet til predmetining boshqa fanlar qatoridagi mavqei; ta'limning yordamchi vositalarining mavjudligi (darslik va texnika vositalari); o'qituvchilar tayorlash va boshqalar) ham tadqiq qilinishi lozim.

Qiyosiy sotsiologiya (jamiyatshunoslik) va madaniy antropologiyaning (inson tanasi, ma'naviyati va kishilar jamiyati bilan shug'ullanadigan fan) inson xotirasi tadqiqotlari ta'sirida, (psixolingvistika sohasi sifatida) nemis tili ta'limini xududlashtirish g'oyasi bu konsepsiya tufayli inqirozga uchradi. (Goete, 1981; Gerighausen Seel, 1983).

Madaniyatlararo konsepsiya, birinchi navbatda; III o'rganilayotgan mamlakatlarga nisbatan geografik va madaniy masofa hamda o'zgacha ijtimoiy munosabatlar mavjud bo'lgan joylarda, masalan, nemis tilini chet til sifatida Yevropa davlatlaridan tashqarida ham, xususan, Osiyo mamlakatlarida chet til ta'limini tashkil qilishga ijobiy ta'sir o'tkazadi.

Chet til ta'limida o'zga dunyo bilan bevosita emas, balki ta'limning yordamchi vositalari orqali (o'qish, tinglash, o'qish-tinglash matnlari: televideniye va video) tanishilgani va chet tilni qo'llash imkoniyati juda kam hollarda kundalik muloqot jarayonida mavjudligi sababli ham ta'lim jarayonida idrok va tushunish chet til o'rganishning asosini tashkil qiladi.

Bundan xulosa shuki, chet til ta'limining mazmuni va mavzular tanlash juda ehtiyotlik bilan amalga oshirilishi, idrok uchun texnika vositalari asosidagi ta'lim rivojlantirilishi va idrok tadqiqotlari natijalari (masalan, chet el madaniyati haqidagi badiiy matnlarni tushunish va matn tilshunosligi katta ahamiyat beradigan matn tuzilishi va ta'siri kabi masalalar) jiddiy e'tiborga olinishi kerak.

Chet til o'qitishning madaniyatlararo didaktikasi va metodikasining 90-yillarda shakllangan ko'rinishi haqida shartli ravishda quyidagi fikrlarni bildirish mumkin.

Ma'lumki yangi metod haqida faqat

- ta'lim maqsadlari
- mavzu va ta'lim mazmuni
- ta'lim usullari va vositalari
- nazorat masalalari

hal qilingan va shakllantirilgan taqdirdagina so'z yuritish o'rinlidir.

Bugungi kunda ta'lim metodikasi bo'yicha quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

1. Lisoniy va vavlatshunoslikka oid materiallar bilan ishlashda qiyoslash usulidan foydalanish lozim. O'quvchining ona tili, yashab turgan jamiyati va mansub bo'lgan madaniyati chet tildagi bilimlarni egallashda asos hisoblanadi va ular yangi o'rganilayotganlari bilan qiyoslanadi.

E1 Andere Länder - andere Geesten



1. Der Pingipaul



2. Die lange Nase



3. Das Vogelkätzchen



4. Das Kreiselschwein



5. Der gestreckte Daumen



6. Die Hand vor der Stirn

W

Ich bitte mich vor, daß Geiste 1

bedeutet

Ich denke mir, daß Geiste 1 für

steht.

Ich habe mir überlegt, daß Geiste 1

als ... gilt.

Nein, das glaube ich nicht.

Geiste 1 bedeutet wohl eher ...

Nein, auch nicht. Das ist weder

ein Geiste für ... noch für ... das

ist eine Geiste für ...

Beispiel: Der Pingipaul bedeutet bei uns

„Das Mädchen gefällt mir.“

Allen in Ordnung!

Klugheit! Phantastisch! Angst! Kisch!

Alles in Ordnung! Keine! Sehr gut! Du bist dumm! Ich bin ein Dummkopf! Kisch! Alles ist gut gelassen!

Glück! Gute Nacht! Gute Nacht! Gute Nacht! Gute Nacht!

Glück! Gute Nacht! Gute Nacht! Gute Nacht!

Aufklärung für Deutschland:

1. Geisteswissenschaft
2. Geisteswissenschaft
3. Geisteswissenschaft
4. Geisteswissenschaft

E2 Geesten für Gliese

Meinung über Geisteswissenschaft ist nicht eindeutig. Geisteswissenschaft ist ein sehr breiter Begriff, der sich auf alle Wissenschaften bezieht, die sich mit dem menschlichen Geist befassen.

2. Dars jarayonini batafsil tavsiflash ta'limning asosiy tarkibini tashkil etadi, (masalan, tushunish usullarining tarkibi; chet tilda faoliyat ko'rsatishni mashq qilish; ta'lim texnologiyalarining rivojlanishi). Aqliy ta'lim usullari faqat ta'lim predmetlari tahlilidan va ta'lim natijalaridan iborat bo'lmasdan, balki til materialini idrok qilish va uni tushunish, qyta ishlash va dars paytida amalda qo'llash bosqichlarini ham o'z ichiga oladi.

Ushbu konsepsiyaning dastlabki tadbirlarini keyingi paytda yaratilgan bir qator darsliklarda uchratish mumkin:

- Hog Mueller Wesslinglarning (1984) "O'zgaruvchan qarashlar" - "Sichtwechsel" va Mebus va boshqalarning (1989) "Til ko'priklari" - "Sprachbruecke" kitoblari shular jumlasidandir.

Misol

№1 It it emas.

Nemischa *Hund*, inglizcha *dog*, koreyscha *kay* kabi konkretlikni ifodalovchi tushunchalarni bir so'z bilan tarjima qilish muammo emas. Ammo boshqa tillar va madaniyatlarda it tushunchasiga bo'lgan munosabat har doim ham nemis tilidagi bilan bir xil deb bo'lmaydi. Masalan nemis uchun it kishilarning sodiq yo'ldoshi, koreyslar uchun xonaga kiritish mumkin bo'lmagan hayvon.

Itga bo'lgan turli munosabatlarga qaramasdan "Hund" so'zini o'zga tilda ifodalash tarjimaning boshqa muammolari bilan qiyoslanganda qiyinchilik tug'dirmaydi.

Ko'pincha so'zma-so'z tarjima qilishning imkoni bo'lmaydi. Ayniqsa gap boshqa-boshqa til oilalari yoki madaniy jabhalar haqida borayotganda bu muammo yanada kuchayadi.

To'g'ridan-to'g'ri tarjima, ayniqsa gap murakkab tushunchalar tarjimasini, masalan diniy e'tiqod haqida ketganda, tushunmovchiliklarga olib borishi mumkin.

Diniy e'tiqod tushunchasi Afrika tillari guruhida "so'z olmoq va yeb tugatmoq" so'zlari bilan ifodalanadi.



Muhabbat tushunchasi ham tananing turli a'zolari orqali ifodalanadi. Janubiy Meksikaning Tzeltal tilida muhabbat "Xudoning yuragida", Gvatemaladagi konobs tilida "qorinda", Markaziy Afrikadagi Kabba-lakos tilida "jigarda" bo'lsa, Marshal-orollari aholisi "bo'yinning xissiy harakati" orqali o'z muhabbatlarini izhor etadilar. Nemislar esa, *Liebe geht durch den Magen* – Muhabbat oshqozon orqali o'tadi. *Liebe im Herzen macht schnelle Fuesse* – yurakdagi muhabbatning qadami ildam, deb hisoblaydilar.

H1 Hund ist nicht Hund

Deutsch *Hund*, englisch *dog*, koreanisch *kae*: Begriffe, die etwas Konkretes bezeichnen, sind scheinbar problemlos mit einem Wort zu übersetzen. Doch die Assoziationen zu Hund in anderen Sprachen und Kulturen müssen nicht immer die gleichen sein wie im Deutschen. So ist für Deutsche der Hund ein treuer Gefährte des Menschen, für Koreaner ein Tier, das nicht ins Haus darf. Trotz der unterschiedlichen Assoziationen ist die Übersetzung von „Hund“ jedoch nicht besonders schwierig, wenn man sie mit anderen Übersetzungsproblemen vergleicht. Sehr häufig ist das wörtliche Übersetzen unmöglich. Besonders dann, wenn es sich um Sprachen aus einer anderen Sprach-

familie oder aus einem anderen Kulturkreis handelt.

Eine direkte Übersetzung kann zu Missverständnissen führen, wenn es um komplizierte Begriffe wie zum Beispiel *glauben* geht. So muß man *glauben* in der Vorstellung einer afrikanischen Sprachgruppe mit *das Wort nehmen und es aufessen* wiedergeben. Auch wird die Liebe den verschiedensten Körperteilen zugeordnet. In der Tzeltal Sprache Süd Mexikos befindet sich die Liebe im *Goldes Herzen*, bei den Conobs in Guatemala sitzt die Liebe im Bauch, bei den Kabba-Lakos in Zentralafrika liebt man mit der Leber, und die Bewohner der Marshall-Inseln sprechen von einer *Gefühlsbewegung des Halses*.



H2 Aufgaben

1. Warum ist die Übersetzung von *Hund* relativ einfach?
2. Was assoziieren Sie mit *Hund* in Ihrer Muttersprache, in Ihrer Kultur?
3. Welches Problem wird im Text bei der Übersetzung von *glauben* beschrieben?
4. Wie heißt *glauben* in Ihrer Sprache und in den Sprachen, die Sie kennen?
5. In den verschiedenen Sprachen wird die Liebe unterschiedlichen Teilen des Körpers zugeordnet. Wie interpretieren Sie das?
6. Wo sitzt die Liebe in Ihrer Sprache?

H 2. Topshiriqlar

1. Nima uchun "hund" so'zini tarjima qilish nisbatan oson?
2. Siz ona tilingiz va madaniy odatlaringizga ko'ra "it" deganda nimalarni tasavvur qilasiz?
3. "Dinga e'tiqod qilmoq" tushunchasini tarjima qilganingizda qanday muammolar yuzaga keladi?
4. "E'tiqod qilmoq" sizning ona tilingizda va siz bilgan tillarda qanday ataladi?
5. Turli tillarda muhabbat tushunchasi tananing turli a'zolari orqali ifodalanadi. Buni qanday izohlaysiz?
6. Sizning ona tilingizda muhabbat qaysi a'zo orqali ifodalanadi?

Mebus va boshqalar (1988), 80

Madaniyatlararo konsepsiya hududiy darsliklar orqali muntazam takomillashib bormoqda. Ularda chet til ta'limining madaniy va xududiy muammolari nemis-zabon mamlakatlarda yaratilayotgan darsliklardagiga qaraganda butunlay o'zgacha tarzda hal qilinmoqda.


Myunxendagi Gyote-instituti ma'lumotlariga ko'ra 1991 yilda hududiy o'quv qo'llanmalarining 25 dan ortiq loyihalari ishlab chiqilgan.

Chet til ta'limining yangi metodlari davrdan-davrga «ko'chib o'tish prinsipi»ga ko'ra rivojlanmasdan, balki bir davrning o'zida bir necha metodning mavjudligi ham kuzatiladi.

Chet til ta'limi amaliyoti uchun bir-biridan farq qiluvchi ta'lim metodlarining yonma-yon qo'llanilishi (masalan, alohida olingan o'quv guruhlari uchun) va turli konsepsiyalarga oid metodik prinsiplarining qorishtirilishi xarakterlidir.

Shuni ta'kidlash kerakki, ma'lum davr uchun «yaxshi» dars tashkil qilishning asosiy metodlari mavjud bo'lgan. Quyidagi chizmada ta'lim metodlarining 20-asrdagi tarixiy rivojlanish bosqichlarini shartli ravishda tartib bilan joylashtirishga harakat qilindi.

1900 1925 1950 1975 2000



51-topshiriq

Nemis tili ta'limining mamlakatingiz-dagi istiqbollarini qanday tasavvur qilasiz ?


Bu o'rinda quyidagilarni ta'kidlash lozimki, qo'llanmada fikr yuritilgan 80-yillardagi chet til ta'limi metodikasining rivojlanishi haqidagi mulohazalarda alternativ metodlar bo'lmish - "Community Language Learning", "Humanistic Approach", "Silent Way", "Suggestopedia va Total Physical Response" haqida baxs yuritiladi.

Ushbu baxsni yuritish "Metodikaga kirish" qo'llanmasining vazifasiga kirmaydi.

Kim "alternativ metod"larga oid masalalar bilan qiziqsa Bleyhl (1982), Bolte Herrlitz (1983), Mueller (1989) va Schwerdtfeger (1983) asarlariga murojaat qilishi mumkin.

8. Yakunlovchi xulosalar

Chet til ta'limi metodlarining rivojlanishi umumiy hamda o'quv predmetiga oid maxsus shart-sharoitlar bilan uzviy bog'liq. Bu ta'lim maqsadlari, usullari (metod va vositalar) hamda bilim, ko'nikma va malakalar nazoratini rejalashtirish va tashkil qilishda hamohanglik bo'lishini taqazo qiladi.



Ta'lim maqsadlari va dars berish usullarining o'zaro uzviy bog'liqligi chet til ta'limining turli metodik konsepsiyalari tahlili misolida ko'rsatib o'tildi. Bunday bog'liqlik ta'lim nazorati va metodlari o'rtasida ham mavjudligi o'z-o'zidan tushunarli. Shuning uchun nima o'rgatilsa, o'sha sinab ko'rilishi, qanday o'rgatilsa, shunday tekshirilishi zarur.

Boshqacha soʻz bilan aytganda, har qanday metodga xos oʻqitish usullari, prinsiplari va mashq shakllari huddi shunday nazorat usullari, prinsiplari va shakllarida oʻz aksini topishi kerak.

Bunday dasturiy bogʻliqlik holatni har bir oʻquv guruhi uchun chet til taʼlimining maxsus konsepsiyasini loyihalashda eʼtibordan chetda qolmaslik lozim.

Shuning uchun ham ushbu qoʻllanmada barcha muallima va muallimlarning oʻz mashgʻuloti uchun, uning qanday oʻquv guruhida ishlashidan qatʼiy nazar, mavjud dars konsepsiyasining yaroqliligini baholay olish, oʻz darsini mustaqil rejalashtirish va tashkil etishni oʻrganib olishlari muhim ekanligi taʼkidlab borildi.

52 - Topshiriq

Yakuniy topshiriq:

Oʻquv guruhlaringizda nemis tili darsini oʻtish maqsadida konspekt tayyorlang.

Birinchi odim: Tashkiliy va subʼyektiv shart-sharoitlar haqida maʼlumot berish

- Sizing darsingizga qaysi tashkiliy shart-sharoitlar tegishli? Guruhingizga oid xolatlarni tavsiflab bering (dars rejasi; tashqi shart-sharoitlar; sinfdagi oʻquvchilar soni va bilim darajasi; ob-havo sharoitlari; taʼlim vositalarining mavjudligi va boshqalar).

Bu borada sizga Tailand maktablari nemis tili darligidagi shart-sharoitlar namuna modeli sifatida xizmat qilishi mumkin.

- Qanday madaniy xususiyatlar koʻzga tashlanadi? (taʼlimiy anʼanalar; ruxsat etilgan mavzular; siz oʻqituvchi sifatida amal qilishingiz kerak boʻlgan oʻqitish anʼanalari va boshqalar).

- Sizing guruhingizga oid konkret xususiyatlar nimalardan iborat? (oʻquvchilar yoshi; sinfdagi oʻquvchilar joylashishi; sinfdagi maxsus pedagogik muammolar va imkoniyatlar; oʻquvchilarning hayot tajribasi; nemischa gaplashadigan mamlakatlar haqidagi bilimlari; boshqa chet tillarni bilishi; oʻqishga intilishi; qiziqish sohalari; manfaatlari va boshqalar).

- Sizing nemis tili oʻqituvchisi sifatida kuchli va kuchsiz tomonlaringiz nimadan iborat?

Ikkinchi odim: Ta'lim maqsadlari: Sifingiz o'quvchilari nimani o'rganishlari kerak?

- Bu haqda o'quv rejasida ko'rsatma bormi?
- Sizing sifingiz uchun tilni amaliy o'rgatish maqsadi muhimmi yoki tarbiyaviy maqsad muhimmi?
- O'quvchilaringiz nemis tilidagi amaliy bilimlarini bevosita (bo'sh vaqtlarida va kasb-korlarida) qo'llay oladilarmi yoki yo'qmi?

Uchinchi odim: Ta'lim metodlari

Quyida keltirilgan metodlarga xos prinsiplar ro'yxatini tuzib chiqing. Bu ishda ushbu qo'llanmaning shu metodlarga bag'ishlangan boblaridagi ma'lumotlardan foydalaning.

- Grammatika-tarjima metodi
- Bevosita metodlar
- Audiolingval metod
- Audiovizual metod
- Kommunikativ didaktika
- Madaniyatlararo konsepsiya

Siz tuzgan ro'yxatdagi prinsiplarning qaysi birlari guruhingizdagi o'quv shart-sharoitlarini hisobga olgan holda qo'shish mumkin deb hisoblaysiz?

To'rtinchi odim: Sizing darslingiz

Fikringizcha, siz foydalanayotgan darslik uchinchi odimdagi "ideal ta'lim metodi"ga mos tushishi uchun nimalar o'zgartirilishi, kengaytirilishi, almashtirilishi kerak?

9 Reader- Mutoala uchun ilova

1. Bevosita metod

Bevosita metodning asosiy yo'nalishlari Xalqaro Fonetika Assotsiatsiyasi tomonidan 19-asrning 80-yillarida fransuz tilida olti bo'limda bayon qilingan.

Ular quyidagilar:

Birinchi bo'lim: Chet tilni o'rganishni tili eskirib qolgan adabiyot bilan emas, balki kundalik turmushga oid og'zaki nutqni o'rganishdan boshlash kerak.

Ikkinchi bo'lim: Muallimning birinchi maqsadi o'quvchilarini chet til tovushlari tizimi bilan to'la tanishtirishdan iborat bilishi lozim. Bunga erishish uchun u fonetik transkripsiyadan, ayniqsa ta'limning boshlang'ich bosqichida, unumli foydalanishi zarur, yozuv qoidalari vaqtincha e'tiborga olmasligi mumkin.

Uchinchi bo'lim: Muallimning ikkinchi maqsadi o'quvchilarga chet tilning ko'p qo'llaniladigan jumla va iboralarini taqdim qilishdan iborat bo'lishi kerak. Ushbu maqsadga erishish yo'lida o'quvchilar mazmun jihatdan bog'langan matnlar, ya'ni sodda, tabiiy va qiziqarli bo'lgan dialoglar ustida ishlashlari zarur.

To'rtinchi bo'lim: Chet til ta'limining boshlang'ich bosqichida grammatika induktiv usul bilan o'rnatilishi kerak, unda tilga xos bo'lgan xususiyatlar jamlanishi va umumlashtirilishi hamda matni mutoala qilish jarayonida iquvchi bu hodisalarni taniy oladigan bo'lishi lozim. Grammatikani bir tizimga solib o'rganish ta'limning keyingi bosqichlarida amalga oshirilishi zarur.

Beshinchi bo'lim: Chet tildagi tushunchalar muallim tomonidan imkoni boricha avvalgi o'rganilgan tushuncha va ma'lumotlarga bog'langan holda chet tilda (ona tilida emas) tushuntirilishi shart. O'qituvchi tarjimani, real ob'ektni yoki rasmlarni ko'rsatish yoki chet tilda izoh berish bilan almashtirish uchun har bir imkoniyatdan foydalanishi lozim.

Oltinchi bo'lim: Ta'limning keyingi bosqichlarida yozma ishlar bajarilganda, ularning bajarilish tartibi quyidagicha bo'lishi kerak:

1. Tanish matnning mazmunini so'zlab berish.
2. O'qituvchi og'zaki hikoya qilib bergan matnning mazmunini so'zlab berish.
3. Erkin insho.

Chet tildan va chet tilga yozma ravishda tarjima qilish ta'limning faqat eng yuqori bosqichidagina ahamiyatli amal hisoblanadi.

Yuqoridagi olti bilimdan iborat bo'lgan tezislar isloh qilingan chet til ta'limi, ya'ni bevosita metod haqidagi tasavvurlarni ifodalaydi. Ushbu tasavvurlar bevosita metodlar uchun bir qator amaliy tavsiyalarning vujudga kelishiga asos bo'lib xizmat qildi.

2. Bevosita metod uchun misollar

Quyida A. Schlimbach (1964) tomonidan yozilgan **«Bolalar nemis tilini o'rganadilar. Shillerlar oilasi»** darsligidan 183-187, 191, 192, 193 sahifalar misol tariqasida berildi.

Qo'llanmaning 12-topshirig'iga muvofiq quyidagi o'quv materiali asosida bevosita metodga xos bo'lgan xususiyatlarni tayanch so'zlar shaklida qog'ozga tushiring.



Auf dem Berghof

1. Dialog:

Die Kinder: Vater, Mutter, wir haben keine Schule. Wir haben Ferien.

Vater und Mutter: Wir fahren auf das Land zum Berghof. Unsere Sommerhütte ist in Tirol. Wir fahren zu den Bauern.

Die Kinder: Juhe, juhe, wir fahren auf das Land. Wir fahren zum Berghof. Wann fahren wir?

Vater: Wir fahren morgen früh mit dem Auto. Ich helfe den Bauern mit dem Heu. Es ist jetzt Heuernte.

Tog` hovlida

Birinchi dialog

Bolalar: Dada, oyi, bugun biz maktabga bormaymiz. Ta`til boshlandi.

Ota va ona: Biz qishloqqa, tog`dagi xovliga boramiz. Bizning yozgi uyimiz Tirol shahrida. Biz dehqonlar huzuriga boramiz.

Bolalar: Ura, ura, biz qishloqqa borar ekanmiz. Biz tog`dagi hovliga borar ekanmiz. Qachon boramiz?

Ota: Ertaga ertalab mashina bilan jo`naymiz. Men dehqonlarga hashak yig`ishda yordam beraman. Hozir em-hashak yig`imi payti.

Hans: Ich helfe auch den Bauern auf dem Feld. Ich bin jetzt gross.

Heidi: Ich suche morgen die Eier im Stall: die Hühnereier, die Enteneier und die Gänseeier.

Susi: Ich füttere die Hühner, die Gänse und die Enten.

Peter: Ich reite auf dem Pferd.

Mutter: Und ich? Ich koche wie immer fuer Vati und fuer euch, Kinder.

Die Kinder: Arme Mutti! Aber wir trinken morgen frische Milch. Wir essen auch frischen Honig, nicht wahr, Mutti? Juchhe, juchhel

Fragen und Antworten

1. Wo sind wir jetzt? Wir sind jetzt auf dem Land.
2. Was ist das? Das ist ein Bauernhof. Das ist ein schoener Bauernhof.

Hans: Men ham dalada dehqonlarga yordam beraman. Men endi katta bo`lib qoldim.

Haydi: Men ertaga tovuqxonadan tuxum izlayman: tovuq, o`rdak,

g'oz tuxumlarini.

Susi: Men tovuq, g'oz va o'rdaklarga don beraman.

Peter: Men ot minaman.

Ona: Men-chi? Men, har doimgidek, otalaring va sizlar uchun taom pishiraman.

Bolalar: Bechora onal! Biz ertaga yangi sog'ilgan sut ichamiz. Biz yangi tuxumlar eyemiz. Biz toza asal ham yeymiz, shunday emasmi, oyi? Ura, ura!

Savol va javoblar:

1. Biz hozir qaerdamiz? Biz hozir qishloqdamiz.
2. Bu nima? Bu dehqon hovlisi. Bu dehqonning chiroyli hovlisi.
Bu xovli tog'dagi hovli deyiladi. U tog'da joylashgan. Bu hovli Tirol shahrida. Tirolida tog'lar ko'p. Bu tog'lar Alp tog'lari deb ataladi.

Bauernhof. Er heißt der Berghof. Er ist auf einem Berg. Der Berghof ist in Tirol. In Tirol sind viele Berge. Die Berge heißen die Alpen.

3. Was ist das? Das ist ein Pferd. Einige Pferde sind im Stall.



Das ist eine Kuh. Das ist ein Ochs. Viele Kühe und Ochsen sind auf der Wiese.

Das ist ein Schwein. Viele Schweine sind im Schweinestall.

Das ist ein Huhn. Viele Hühner sind im Hühnerstall oder auf der Wiese.

Das ist eine Gans. Viele Gänse gehen spazieren.

Das ist eine Ente. Viele Enten schwimmen im Teich.

Das ist eine Taube. Viele Tauben sitzen auf dem Dach.

Das ist eine Biene. Viele Bienen sind im Bienenhaus.



4. Was tun die Tiere? Die zwei Pferde ziehen den Heuwender.

Die Kuh und der Ochs fressen Gras.

Das Schwein grunzt: ol, ol. Das Huhn gackert: gack gack ga.

Der Hahn kräht: Kikeriki. Die Tauben gurren: gurre gurre.

Die Bienen summen: mmm.

5. Wo ist die Familie Schiller? Frau Schiller ist in der Sommerhütte.

Die Sommerhütte ist aus Holz. Es ist eine Holzhütte.

Frau Schiller winkt. Die Zwillinge kommen den Berg herunter.

Herr Schiller arbeitet. Er sitzt auf dem Heuwender und wendet

das Heu. Heidi sitzt am Weg und schaut zu. Hans rennt mit

einem Bauernjungen.

6. Beschreibt den Bauernhof! Der Bauer und seine Familie

wohnen im Bauernhof. Sie wohnen vorne bei der Veranda.

Hinten sind die Stallungen für die Pferde, die Ochsen und

Kühe, die Schweine und das Geflügel. Unter dem Dach ist

das Heu und das Futter für die Tiere. Auf dem Dach ist eine

Glocke. Neben dem Bauernhaus ist eine kleine Kapelle.

7. Wo ist die Bauernfamilie? Der Vater und der kleine Junge

sitzen auf dem Traktor. Der Traktor zieht den schweren

Heuwagen. (Die Pferde ziehen die leichten Maschinen). Die Mutter hat einen Rechen. Sie harkt das Heu. Die Tante und das kleine Maedchen gehen in das Dorf. Die Tante hat eine Tiroler Tracht an. Sie spricht mit ihrer Nichte. Die Nichte heisst Maria. Wie heissen Toni und Sepp. Das kleine Maedchen heisst Agnes. Und wie heisst der Hund? Er heisst Wolf. Er ist ein Schaeferhand. Er bewacht die Familie Berghoefer. Der Lehrer diktiert die Fragen und Antworten. Die Schueler schreiben das Diktat ohne Fehler (n oder ml). Die Schueler lernen das Vokabular.

3. Bu nima? Bu ot. Bir necha otlar otxonada.

Bu sigir. Bu ho`kiz. Ko`pgina sigir va xo`kizlar yaylovda.

Bu cho`chqa. Ko`pgina cho`chqalar cho`chqaxonada.

Bu tovuq. Ko`pgina tovuqlar tovuqxonada yoki o`tloqda.

Bu g`oz. Ko`pgina g`ozlar aylanib yurishibdi.

Bu o`rdak. Ko`pgina o`rdaklar ko`lda suzayaptilar.

Bu kabutar. Ko`pgina kabutarlar tomga qo`nib o`tiribdilar.

Bu asalari. Ko`pgina asalarilar o`z uyalarida.

4. Hayvonlar nima qilmoqdalar?

Ikki ot aravani tortayapti.

Sigir va xo`kiz o`t yeyapti.

Cho`chqa ir, ir deb baqiradi.

Tovuq qa, qa, qa deydi.

Xo`roz qu, quququ deb qichqiradi.

Kabutarlar gurr, gurr deb qichqiradi.

Asal arilar vizillaydi: zzzzzzz.

5. Shillerlar oilasi qaerda?

Frau Shiller yozgi uyida. Yozgi uy yog`ochdan qurilgan. Bu yog`och uy. Frau Shiller ishora qilayapti. Egizaklar tog`dan pastga tushayaptilar. Herr Shiller ishlayapti. U hashak yig`adigan qravada itirib, xashak yig`ayapti. Haydi yil biyida itiribdi va tomosha qilayapti. Hans dehqon bolalari bilan iynayapti.

6. Dehqon hovlisini tasvirlang!

Dehqon va uning oilasi dehqon hovlisida turadilar. Ular ayvonda yashaydilar. Orqada otlar, xo`kizlar, sigirlar, cho`chqalar va parrandalar uchun xonalar bor. Tom ostida hayvonlar uchun hashak va yem turadi. Tom ustida qo`ng`iroq bor. Dehqon uyi yonida kichkinagina cherkov joylashgan.

7. Dehqon oilasi qaerda?

Ota va o`g`il traktor ustida o`tiribdilar. Traktor hashak yuklangan og`ir aravani tortmoqda. (Otlar yengil mashinalarni tortadilar). Onaning qo`lida beshlik bor. U hashak to`playapti. Hola va

qizcha qishtõqqa ketishayapti. Hala tirolcha kiyinib olgan. U jiyani bilan gaplashayapti. Jiyaning ismi Mariya.

Boshqa bolalarning ismi nima? Yigitchalarning ismi Toni va Sepp. Qizchanning ismi Agnes. Itning laqabi nima? Uning laqabi "Bo`ri". U qo`riqchi it. U Berghoferlar oilasini qo`riqlaydi.

O`qituvchi savol va javoblarni aytib turadi. O`quvchilar diktantni xatosiz yozadilar. O`quvchilar so`llzlarni yod oladilar.

Fonetika: au-aeu-eu

au-aeu: der Blumenstrauss- die Blumenstraeusse;
der Baum-die Baeume;
die Maus-die Maeuse;
das Haus-die Haeuser;

Misollar asosida qoidani keltirib chiqaring!

eu: die Scheune-(yozgi uyning chap tomonida), die Leute, das Spielzeug, heute, neu, neun.

ei-aeu-eu: Weisbrot, Maeuse, Meise, heimlich, heute, nein, neun, Leute, Leiter, Haeuser, heissen, scheinen, Scheunen, Straeusse, fleissig, einzig, Baeume, Beine.

Rechtschreiben (Orthographie):

Was fehlt hier? Schreibt alles richtig? (l,n,r,w)

Nima tushib qolgan? So`zlarni xatosiz yozing! (l, m, r, w)

Sch.ee, Sch.brot, Sch.eider, Sch.aben.land, K.eid, K.eisel. K.avier, K.abe, K.asse, k.ein, k.ank, k.ingt.

T.ommel, T.acht, T.eagt, t.ocknet ab, t.illern, t.ara, t.inkt, t.ennbar, t.app.

III. Grammatik

1. n- Kasus: Akkusativ, maskulina:

1. der Honig – Die fleissigen Bienen suchen d ___ suess ___
Honig. 2. der Hof – Der Schaeferhund bewacht d ___
gross ___ Bauernhof. 3. der Heuwender – Die starken Pferde
ziehen d ___ Heuwender. 4. der Berg – Die Zwillige kommen
d ___ steil ___ Berg herunter. 5. der Koffer – Die Familie
Schiller holt d ___ gross ___ Koffer.

2. Erklärt die dick gedruckten Endungen! (in 1.)

3. n-Kasus: Dativ Plural:

1. Die Schillerkinder spielen mit d__ gross__ und klein__ Landkindern. 2. Wir sind bei d__ fleissig__ Bauern. 3. Wo ist der Heuwender mit d__ beid__ Pferd__. 4. Der Berghofbauer und seine Frau gehen mit ihr__ Kind__ in das Dorf. 5. Wir sehen die Wiese mit viel__ Kuehen und Ochs__. 6. Hier ist das Bienenhaus mit d__ fleissig__ Biene__.

Eslab qoling!

"helfen-yordam bermaq" fe'li har doim Dativ bilan o'qillaniladi.
Masalan, Ich helfe dir. - Men senga yordam beraman.
Ich helfe dem Vater. - Men otaga yordam beraman.
Ich helfe dem Kind. - Men bolaga yordam beraman.
Ich helfe der Mutter. - Men onamga yordam beraman.

Ko`plik: Ich helfe den Kindern. - Men bolalarga yordam beraman.

4-mashq: To'ldiring va yozing!

1. Hans hilft d_ Bauern. 2. Der Bauer hilft d_ Mutter. 3. Die grossen Stadtkinder helfen d_ klein_ Bauernkinder_. 4. Der kleine Sepp hilft auch d_ Vater. 5. Wer hilft dir? Ich helfe d_ und du hilfst mir. 6. Die Tante hilft d_ Familie(!).

Eslab qoling!

Men bugun chiroyli ko`ylak kiydim.
Biz bugun o`rmonda sayr qilamiz.

Qofiya va qo`shiqlar

Bolalar va uy hayvonlari

Qani, siz hayvonlar bu yoqqa kelinglar va qilgan yaxshi ishlaringiz haqida aytib beringlar:

Kuchuk xuradi: Men sening uyingni qo`riqlayman.

Mushuk miyovlaydi: Men uyingdagi sichqonni ovlayman.

Ot kishnaydi: Men sening aravangni tortaman.

Sigir mo`raydi: Men senga sut va yog` beraman.

Cho`chqa xirillaydi: men senga go`sht va yog` beraman.

Qo`zichoq ma`raydi: Men senga jun beraman.

G'oz g'ag'illaydi: Men sening ko'rpangga par bo'laman.

Tovuq qaqillaydi: Men senga tuxum tug'aman.

Asalarilar vizillaydi: Men senga asal beraman.

Ey, bolajonlar, sizlar bizga xo'ja bo'lingiz!

Buning uchun biz sizlarga sodiq qolurmiz!

Bizning kabutarlar

Hamma bizning kabutarlar,

Juda uzoq sayr etarlar.

Joylarida tinch o'tirib,

Ne berar deb ko'z tutarlar.

Qaldirg'och uyasi

Qaldirg'och o'z inlarin qurar mustahkam,

Bu inchalor xonaqada turar muntazam.

Agar siz inchaga solsangiz nigoh

Besh qaldirg'och bolasi o'tirar ogoh.

Ona qaldirg'och uchar u yon va bu yon


Besh bola tashvishin qilar u har on.

Die Familie Schiller wandert

Siehst du den Kirchturm hinter dem Bauernhof in den Bergen? Die Familie Schiller wandert zur Bergkirche. Hans traegt einen Rucksack auf dem Ruecken. Die Mutter und Susi haben einen Stock. Die Bauernkinder zeigen den Weg. Susi hat einen Blumenstrauss. Sie ist bald muede. Aber alle singen ein Wanderlied.

Shillerlar oilasi sayrda

Dehqon hovlisi ortidagi tepalikka joylashgan cherkov minorasini ko'ryapsanmi? Shillerlar oilasi tepalikdagi cherkov tomon bormoqda. Xans orqasiga yelka qopini taqib olgan. Ona va Susining qo'llarida tayoq. Dehqon bolalari yo'l ko'rsatib bormoqdalar. Susining qo'lida guldasta bor. U tezda charchab qoldi. Ammo hamma "Sayyohlar qo'shig'i"ni kuylamoqda.



2. Vom Wasser haben wir's gelernt, vom Wasser haben wir's gelernt, vom Wasser; das hat nicht Ruh bei Tag und Nacht, ist stets auf Wanderschaft bedacht, ist stets auf Wanderschaft bedacht, das Wasser!
3. O Wandern, Wandern meine Lust, o Wandern, Wandern meine Lust, o Wandern! Herr Meister und Frau Meisterin, laßt mich in Frieden weiterziehn, laßt mich in Frieden weiterziehn und wandern!

Hans sieht einen Raben und erzählt eine **Geschichte vom Raben und vom Fuchs.**

Die Raben sind schwarze Vögel; sie stehlen oft; sie singen nicht, sondern rufen rab-rab.



Eine Bauersfrau stellt Käse an das Fenster. Der Rabe holt ein Stück Käse davon. Aber der Fuchs sieht es. Er möchte den Käse haben. „Ach“ sagt er, „lieber Rabe, du bist ein so schöner Vogel!“. Der Rabe hört es und setzt sich auf einen Baum. Der Fuchs sagt weiter: „Lieber Rabe, du kannst so schön singen. Sing mir ein kleines Liedchen vor!“ Der Rabe will nun singen. Er öffnet seinen Schnabel und das Stück Käse fällt herunter. Der Fuchs holt es und läuft schnell weg.

Erzählt die Geschichte noch einmal und gebrauchte die folgenden Verben im **Imperfekt!**

stellte – „Eine Bauersfrau stellte gestern . . .“ –
holte – (sieht) sah – sagte – hörte – setzte sich – sagte –
(will) wollte – öffnete – (fällt) fiel herunter – holte –
(läuft) lief.



Was heißt **Imperfekt?**

Das Wandern ist des Muellers Lust,
Das Wandern ist des Muellers Lust, das Wandern.
Sayr Myullerlar quvonchi,
Sayr Myullerlar quvonchi, bu sayr.

Das muss ein schlechter Mueller sein,
dem niemals fiel das Wandern ein,
dem niemals fiel das Wandern ein, das Wandern.
Sayrni unutgan Myuller .
Yaxshi Myuller emas,
Sayrni unutgan u, sayrni

2. Vom Wasser haben wir's gelernt,
Vom Wasser haben wir's, vom Wasser
Das hat nicht Ruhe bei Tag und Nacht,
Ist stets auf Wandschaft bedacht,
Ist stets auf Wandschaft bedacht, das Wasser!

Biz buni suvdan o'rgandik,
Biz buni suvdan o'rgandik, suvdan;

U tinmaydi kecha-yu kunduz,
Sayrni o'ylar hamisha
Sayrni o'ylar hamisha, bu suv.

3. O Wandern, Wandern meine Lust
O Wandern, Wandern meine Lust, O Wandern!
Herr Meister und Frau Meisterin.
Last mich in Frieden weiterziehen,
Last mich in Frieden weiterziehen und wandern!

Oh sayr, sayr mening quvonchim
Oh sayr, sayr mening quvonchim, oh sayr!
Janob Mayster va Mayster xonim,
Tinchgina sayrga bering ijozat
Tinchgina sayrga bering ijozat, tinchgina sayrgal

Hans qarg`ani ko`rib, unga qarg`a va tulki haqida hikoya aytib berdi.

Qarg`alar qora rangli qushlardir. Bu qushlar ko`p o`g`irlik qiladilar. Ular kuylamaydilar, balki qarrillaydilar.

Bir dehqon ayoli derazaga pishloq qiygan ekan. Qarg`a pishloqning bir bo`lagini olib qochibdi. Buni tulki ko`rib qolib, uning ham pishloq egisi kelibdi.

- «Ey, sevimli qarg`a, sen juda go`zal qushsan»,- debdi u qarg`aga. Buni eshitgan qarg`a bir daraxtga kelib qo`nibdi. Tulki so`zida davom etib, - «Qarg`ajon, sen juda yoqimli qo`shiq ayta olasan. Iltimos, menga qo`shiq kuylab ber!»,- debdi. Qarg`a bunga rozi b`olibdi. U qo`shiqni boshlaganda, og`zidan pishloq erga tushib ketibdi. Tulki esa pishloqni chaqqonlik bilan olib, qochib qolibdi.

Hikoyani yana bir marta aytib bering va qiyidagi fe'llarni imperfektda qo'llang!

stellte- qo'ydi. "Eine Bauersfrau stellte gestern ..." - «Bir dehqon ayoli kecha ...qiydi»; holte- olib keldi; sah- ko'rdi; sagte-dedi; hoerte-eshitdi; setzte sich- o'tirdi (qo'ndi); sagte-aytdi; wollte-xohladi; oeffnete-ochdi; fiel herunter- tushdi; holte-oldi; lief-chopdi.

Imperfekt haqida o'z tushunchangizni bildiring.

(Schlimbach, 1964, 183)

3. Audiolingval metod

Audiolingval metodning R.Ladoning (1964) «Language Teaching» kitobida keltirilgan asosiy prinsiplari

Yuqorida aytib u'tilganidek, Robert Lado audiolingval metodning yetuk vakillaridan biri hisoblanadi. U audiolingval metodning quyidagi prinsiplariga asos solgan (Lado, 1964, 76).

Birinchi prinsip: *Avval so'zlash, so'ng yozish*

Avval tinglash va so'zlash o'rgatiladi, so'ngra o'qish va yozish. Bu prinsip har qanday audiolingval taqdimot tarzining asosini tashkil qiladi.

Lado bu nazariyani ham lingvistik, ham psixologik nuqtai nazardan asoslagan: Til lingvistik nuqtai nazardan fikrni og'zaki bayon qilish jarayonida to'liq namoyon bo'ladi. Yozma matnlarda na ohang, na ritm, na urg'u, na bo'rttirish ifodalonadi.

Psixologik nuqtai nazardan auditiv ta'limdan vizual ta'limga o'tish aksincha o'rgatish yiliga ko'ra osonroq ekanligi isbotlangan.

Ikkinchi prinsip: *elementar jumlar strukturasi*

Hamma o'quvchilar kundalik turmushga xos bo'lgan sintaktik birliklarni juda aniq yod olishlari kerak. elementar sintaktik birlik deganda R.Lado, eng avvalo, chet tildagi dialoglarni nazarda tutgan. Uning fikricha, o'quvchilar bunday dialoglarni yod olishlari va ulardan har qanday holatda namuna shaklida va keyingi ta'limiy odimlar uchun asos sifatida foydalana olishlari kerak bo'lgan. Shuning uchun so'zlar gaplar va kontekstlar tarkibida berilgan.

Uchinchi prinsip: Nutqiy namunalardan odatlarga

Nutq namunalarini qo'llash «pattern praktika» (namunaga qarab til materialini tez aytish) orqali odatga aylinib borishiga erishiladi.

Lado fikricha, har bir til nutq namunalari iborat bo'lib, so'zlovchi ushbu namunalarni va grammatik qoidalarni bilmagan holda ham amalda qo'llashi mumkin. Bunga **pattern drill**, ya'ni nutq namunalarini mexanik tez aytish orqali erishiladi.

Pattern drill muqobil birliklarni va nutq namunalarini o'zgartirish, almashtirish mashqlari orqali **nutqiy odatlar** hosil qilishdan iboratdir.

Bunday mashqlar orqali berilgan nutq namunalari va so'z boyligi asosida o'rtacha nutqiy tezlikda muomala qila olish maqsadiga erishish mumkin.

To'rtinchi prinsip: Tovushlar tizimini qo'llash

Tovushlar tizimi taqdimoti struktural va amaliy qo'llanishiga ko'ra ko'rsatish va taqlid qilish, qiyoslash va mashq kabi ta'limiy usullar yordamida amalga oshiriladi.

Mashq qilish muhim, lekin til o'rganish uchun faqat taqlid qilish yetarli emas. Mashq shakllariga artikulyatsiyaga oid tavsiyalar va so'z juftliklarini qarama-qarshi qo'yish, masalan, Beet-Bett; Teig-Teich va boshqalar ham kiradi.

Beshinchi prinsip: So'zlarni o'zlashtirib olish

Tovushlar tizimini va grammatik tuzilma namunalarini mashq qilish jarayonida so'zlar hajmi eng kam miqdorga keltiriladi. Agar maqsad tildan amalda foydalanish bo'lsa, eng muhimi, asosiy tuzilmalar tizimini va tovushlarning asosiy tafovutlarini hamda tovushlar almashinish xolatlarini bilib olishdadir. Bu birliklar taqdimotiga butun dars tizimi qaratilishi lozim.

Oltinchi prinsip: Mahsus qiyinchiliklar taqdimoti

Qiyinchiliklarni ona tili va chet til nutqiy birliklar va namunalar o'rtasidagi tuzilish jihatdan farqlar keltirib chiqaradi. Maxsus qiyinchiliklar avvalo aniqlanishi va astoydil mashq qilinishi lozim.

Yettinchi prinsip: Fikrni yozma ravishda bayon qilish yozma nutq sifatida

O'qish va yozish o'quvchi avvaldan taniydigan nutqiy birlik va namunalarni idrok qilish va qog'ozga tushurish hisoblanadi. Bu dars jarayonida amalga oshiriladi.

O`qish va yozishni o`rgatish darsi og`zaki nutq darslaridan farq qiladi.

Sakkizinchi prinsip: Nutqiy namunalarning o`sb boruvchi taqdimoti

Yangi nutq namunalari avvaldan tanish bo`lganlari asosida bosqichma –bosqich taqdim qilib boriladi, ya`ni yangi nutq namunasi avvalgisi ustiga quriladi. Har bir bosqich ta`limiy qiyinchiliklarni e`tiborga olgan xolda kichik odimlarga bo`linadi.

Bu faoliyat o`quvchilarning til qurilishi haqidagi tasavvurlari hamda ularning tilni o`zlashtirib olishlaridagi ko`nikma va malakalarni asta-sekin o`zlashtirib olishlari bilan belgilanadi.

To`qqizinchi prinsip: Tildan foydalanish va tarjima

Tarjima tildan faol foydalanish degani emas. Lado tarjimini chet tilni o`rganish jarayonidagi maxsus qo`shimcha malaka deb hisoblaydi. Uning fikricha tarjima ta`lim maqsadi bo`lmasligi kerak.

O`ninchi prinsip: Asliy nutq namunalari

Har qanday til qanday **qo`llanishi kerak bo`lsa**, shundayligicha emas, balki amalda qanday **qo`llanilsa**, shundayligicha o`rgatilishi kerak.

Bu talab til qolipi bo`lib amalda foydalaniladigan nutqiy vositalar xizmat qilishi kerakligini ko`rsatadi. Bu kundalik muomala jarayonida ko`plab lisoniy shakl va tushunchalar bir mazmunni ifodalashi mumkinligini hisobga olish zarurligini ko`rsatadi. Biroq til o`rgatish jarayonida hududiy shevalar ta`limning mazmuniga aylanib qolishiga yo`l qo`ymaslik kerak.

O`n birinchi prinsip: Til mashqlari

Darsning ko`p qismi tildan amalda foydalanishni mashq qilishga sarflanishi kerak. Bu prinsipga ko`ra, eng avvalo, psixologik nuqtai nazardan o`quv materialining hajmi va unga sarflanadigan vaqt hamda ularga ajratilgan mashq vaqti bir-biriga teng bo`lishi kerak. Tilshunoslar yod olish va namunalarni amalda qo`llash mashqlarining muhimligini isbot qilganlar.

O`n ikkinchi prinsip: Javob tayyorlash

Agar o`quvchi bisotida javob bilmasa, u holda mashq qismlari va ta`limiy ko`mak orqali javob tayyorlashni tashkil qilish kerak.

O`n uchinchi prinsip: *Gapirish tezligi va til uslubi*

Bu qoidaga muvofiq mashqning maqsadi tilshunoslik va psixologik nuqtai nazardan ma`qul bo`lgan tildan foydalanish talablariga mos kelishi lozim.

O`n to`rtinchi prinsip: *Ta`lim olishni bevosita rag`batlantirish*

O`quvchi javob berganda, uning javobi to`g`ri yoki noto`g`ri ekanligi haqida unga ma`lumot berilishi lozim. Bu masalada Lado Torendayk va Skinnerlarning to`g`ri javobni rag`batlantirish ta`lim samaradorligining oshirilishiga olib kelishi mumkinligi haqidagi fikriga tayanadi.

O`n beshinchi prinsip: *Tili o`rganilayotgan mamlakat madaniyatiga munosabat*

O`quvchi tilini o`rganayotgan xalq bilan iloji boricha yaqin bo`lishi, hech bo`lmasa unga nisbatan ongli va ijobiy munosabat bildirishi, agar buning imkoni bo`lmasa, urush vaqtidagi singari, bunday holatga o`zini tayyorlashi lozim. Bu talabni ham Lado o`quvchining til o`rganishiga bo`lgan xohishini uyg`otuvchi, ta`lim samaradorligini oshiruvchi omil deb hisoblaydi.

M. Baldegger, M. Mueller, G. Schneider (1981) «**Nemis tilida chet til sifatida muomalaga kirishish**»

4. Tilni muomala vositasi sifatida o`rgatish- Kommunikativ didaktika

Nutq faoliyatiga bir nazar

1. Axborot almashish

1.1 Ma`lumot

- 1.1.1 . O`xshatish, atash
- 1.1.2 Belgilash, tasdiqlash
- 1.1.2.1 Berilganni to`g`ri tasvirlash (tasdiq)
- 1.1.2.2 Berilmaganni noto`g`ri tasvirlash (inkor)
- 1.1.2.3 O`z-o`zidan tushunarli tasvirlash

- 1.1.2.4 Ishonchli tasvirlash
- 1.1.2.5 Tahminiy tasvirlash
- 1.1.2.6 Ehtimolli tasvirlash
- 1.1.2.7 Imkoniyatli tasvirlash
- 1.1.2.8 Ishonchsiz tasvirlash
- 1.1.2.9 Beqiyos tasvirlash
- 1.1.2.10 Imkoniyatsiz tasvirlash
- 1.1.3 Umumlashtirish
- 1.1.4 Tasvirlash
- 1.1.5 Tushuntirish
- 1.1.6 Biror narsaga e'tibor qaratish
- 1.1.7 Biror narsani eslash
- 1.1.8 Axborot berish
- 1.1.9 Fikrni takrorlash
- 1.1.10 Aniqlash
- 1.1.11 Jumboqli gapirish
- 1.1.11.1 Ehtimolli gapirish
- 1.1.11.2 Amalga oshmaydigan narsalarni gapirish
- 1.1.12 Tasdiqlash

1.2 Savol

- 1.2.1 Axborot so'rash
- 1.2.2 Tasdiqlash

1.3 Javob

- 1.3.1 Tasdiqlash
- 1.3.2 Rad qilish
- 1.3.3 Javob axborotini berish
- 1.3.4 Bilmaslikni ifodalash
- 1.3.5 Javobni inkor qilish

1.4 Ilmiy tayyorgarlik ifodasi

- 1.4.1 Ilmiylikni ifodalash
- 1.4.2 Ishonchni ifodalash
- 1.4.3 Umidni ifodalash
- 1.4.4 Tahmini ifodalash
- 1.4.5 Shubhani ifodalash
- 1.4.6 Bilmaslikni ifodalash

1.5 Ilmiy tayyorgarlik haqida so'rash

- 1.5.1 Bilim haqida so'rash
- 1.5.2 Ishonch, umid, tahmin haqida so'rash

2 Tasdiqlash

- 2.1 Fikrni ifodalash
- 2.1.1 Fikr, qarashni ifodalash
- 2.1.2 Partiyaga mansublik

- 2.2** **Holatni, voqeani, faoliyatni baholash**
- 2.2.1 Maqtash, ijobiy baholash
- 2.2.2 Ma`qullash
- 2.2.3 Minnatdorlik bilan tan olish
- 2.2.4 Kechirish
- 2.2.5 Tanqid qilish, salbiy baholash
- 2.2.6 Ma`qullamaslik
- 2.2.7 Ayblash
- 2.2.8 Afsuslanish
- 2.3** **Oqlash**
- 2.3.1 Asoslash, oqlash
- 2.3.2 Yonini olish
- 2.3.3 Kechirish
- 2.4** **Munosabat bildirishni so`rash**
- 2.4.1 Fikrni so`rash
- 2.4.2 Baho berishni so`rash
- 2.4.3 Ma`qullashni so`rash
- 2.4.4 Oqlashni talab qilish
- 2.5** **Kelishish- kelishmaslik**
- 2.5.1 Ma`qullash
- 2.5.2 Rad qilish
- 2.5.3 To`g`rilash
- 2.5.4 Yon berish
- 2.5.5 Qarshilik bildirish
- 2.5.6 Fikrida turib olish
- 2.5.7 Inkor qilish
- 2.6** **Manfaatdorlikni ifodalash**
- 2.6.1 Qiziqish bildirish
- 2.6.2 Baho berish
- 2.6.3 Istakni ifodalash
- 2.6.4 Afzal ko`rishni ifodalash
- 2.6.5 Farqni ifodalash
- 2.6.6 Yoqmaslikni ifodalash
- 2.6.7 Manfaatsizlikni, qiziqmaslikni ifodalash
- 2.7** **Manfaatdorlik haqida so`rash**
- 2.7.1 Qiziqish haqida so`rash
- 2.7.2 Baho berish haqida so`rash
- 2.7.3 Istak haqida so`rash
- 2.7.4 Afzal ko`rish haqida so`rash
- 3** **Hissiyotni ifodalash**
- 3.1 Simpatiyani ifodalash
- 3.2 Hamdardlikni ifodalash

- 3.3 Yoqtirmaslikni ifodalash
- 3.4 Minnatdorlikni ifodalash
- 3.5 Qiziqishni ifodalash
- 3.6 Xursandchilikni ifodalash
- 3.7 Qoniqishni ifodalash
- 3.8 Hayratlanishni ifodalash
- 3.9 Yengillashganlikni ifodalash
- 3.10 Hafsalasi pir bo'lganlikni ifodalash
- 3.11 Qo'llashni ifodalash
- 3.12 Rozilikni ifodalash
- 3.13 Befarqlikni ifodalash
- 3.14 Norozilikni ifodalash
- 3.15 Maslahat bera olmaslikni ifodalash
- 3.16 Ishonchni ifodalash
- 3.17 Qo'rquvni ifodalash
- 3.18 Tashvishni ifodalash
- 3.19 G'amginlikni ifodalash
- 3.20 Norozilikni ifodalash
- 3.21 Zerikishni ifodalash
- 3.22 Sabrsizlikni ifodalash
- 3.23 O'zgarishni ifodalash
- 3.24 Jirkanishni ifodalash
- 3.25 Og'riqni ifodalash

4 Faoliyatni boshqarish

4.1 Talab qilish

- 4.1.1 Kimnidir talab qilish
- 4.1.2 Birgalikda faoliyatni talab qilish
- 4.1.3 Iltimos qilish
- 4.1.4 Yordam so'rash
- 4.1.5 Yordamga chaqirish
- 4.1.6 Istak bildirish
- 4.1.7 Sotib olish
- 4.1.8 Buyurish, buyurtma berish
- 4.1.9 Topshiriq berish
- 4.1.10 Iltimos qilish
- 4.1.11 Ko'rsatma berish
- 4.1.12 Reklama (tashviqot) qilish
- 4.1.13 Shoshiltirish
- 4.1.14 Ogohlantirish
- 4.1.15 Do'q qilish
- 4.1.16 Dalda berish
- 4.1.17 Taklif qilish

- 4.1.18 Maslahat berish
- 4.2 Ruxsatnoma**
- 4.2.1 Ruxsat etish
- 4.2.2 Ozod etish
- 4.2.3 Ruxsat bermaslik
- 4.2.4 Ruxsatni rad etish
- 4.3 Konsul'tatsiya, maslahat**
- 4.3.1 Ruxsat so'rash
- 4.3.2 Ozod etishni so'rash
- 4.3.3 Taklif so'rash
- 4.3.4 Maslahat so'rash
- 4.3.5 Ko'rsatma so'rash
- 4.4 Taklif**
- 4.4.1 Xohishni so'rash
- 4.4.2 Narsa taklif qilish
- 4.4.3 Biror ishni qilishni taklif qilish
- 4.4.4 Yordamni taklif qilish
- 4.4.5 Taklif qilish
- 4.4.6 Va'da berish
- 4.5 Ma'qullash- rad qilish**
- 4.5.1 Ma'qullash
- 4.5.2 Kelishish
- 4.5.3 Taklifni qabul qilish
- 4.5.4 Inkor etish
- 4.5.5 Taklifni rad etish
- 4.5.6 Jahlni ifodalash
- 4.6. Faoliyat bilan bog'liq bo'lgan tayyorlikni ifodalash**
- 4.6.1 Niyat, mo'ljal
- 4.6.1.1 Niyatni ifodalash
- 4.6.1.2 Qarorni ifodalash
- 4.6.1.3 Beqarorlikni ifodalash
- 4.6.1.4 Niyatsizlikni ifodalash
- 4.6.1.5 Rad qilishni ifodalash
- 4.6.2 Motivatsiya, turtki berish, undash, intiltirish
- 4.6.2.1 Faoliyat istagini ifodalash
- 4.6.2.2 Ustunlikni, afzallikni ifodalash
- 4.6.2.3 Faoliyat maqsadini ifodalash
- 4.6.3 Amalga oshirish imkoniyati
- 4.6.3.1 Layoqatni ifodalash
- 4.6.3.2 Holatni ifodalash
- 4.6.3.3 Tayyorlikni ifodalash
- 4.6.3.4 Qilish mumkinligini ifodalash

- 4.6.3.5 Qilish mumkin emasligini ifodalash
- 4.6.3.6 Rad qilishni ifodalash
- 4.6.3.7 Holatga mos emaslikni ifodalash
- 4.6.3.8 Layoqatsizlikni ifodalash
- 4.6.4 Majburiyat
- 4.6.4.1 Majburiyatni eslatish
- 4.6.4.2 Ta'qiqni eslatish
- 4.6.4.3 Ruxsatni eslatish
- 4.7 Faoliyatga tayyorlik haqida so`rash**
- 4.7.1 Niyat, mo`ljal
- 4.7.1.1 Niyat haqida so`rash
- 4.7.1.2 Qilingan qaror haqida so`rash
- 4.7.2 Motivatsiya, turtki berish, undash, intiltirish
- 4.7.2.1 Faoliyat istagi haqida so`rash
- 4.7.2.2 Ustunlik, afzallik haqida so`rash
- 4.7.2.3 Faoliyat maqsadi haqida so`rash
- 4.7.3 Amalga oshirish imkoniyati**
- 4.7.3.1 Imkoniyat haqida so`rash
- 4.7.3.2 Holat haqida so`rash
- 4.7.3.3 Tayyorlik haqida so`rash
- 4.7.3.4 Bajarish imkoniyati haqida so`rash
- 4.7.4 Majburiyat**
- 4.7.4.1 Majburiyat haqida so`rash
- 4.7.4.2 Ruxsat etilganligi haqida so`rash
- 5 Ijtimoiy munosabat**
- 5.1 Aloqa bog`lash**
- 5.1.1.1 Kingadir salom berish
- 5.1.1.2 Alik olish
- 5.1.2.1 Qaerga joylashganini so`rash
- 5.1.2.2 Qaerga joylashganini so`rashga javob berish
- 5.1.3.1 O`zini tanishtirish
- 5.1.3.2 Kimnidir tanishtirish
- 5.1.3.3 Kimdir tanishtirsa yoki tanishtirilsa javob berish
- 5.1.4.1 Kingadir murojaat qilish
- 5.1.4.2 Kingadir murojaat qilsa javob berish
- 5.1.5.1 Kirishga ruxsat so`rash
- 5.1.5.2 Kimnidir kirishga taklif qilish
- 5.1.6.1 Qo`ng`iroq qiluvchi sifatida o`zini tanishtirish
- 5.1.6.2 Telefonda javob beruvchi sifatida o`zini tanishtirish
- 5.1.7 Maktub orqali murojat qilish
- 5.2 Muloqotni yakunlash**

- 5.2.1.1 Xayrlashish
- 5.2.1.2 Javob bilan hayrlashish
- 5.2.2.1 Kimgadir salom aytish
- 5.2.2.2 Salomni aytib qo'yishga va'da berish
- 5.2.3.1 Telefonda hayrlashish
- 5.2.3.2 Telefondagi hayrlashuvga javob berish
- 5.2.4 Maktubni tugatish

5.3 Aloqani stabillash

- 5.3.1.1 Kechirim so'rash
- 5.3.1.2 Kechirim so'rashga javob berish
- 5.3.2.1 Tashakkur aytish
- 5.3.2.2 Tashakkurga javob berish
- 5.3.3.1 Kompliment ko'rsatish
- 5.3.3.2 Komplimentga javob berish
- 5.3.4.1 Tabriklash
- 5.3.4.2 Tabrikka javob berish
- 5.3.5.1 Hamdardlik bildirish
- 5.3.5.2 Hamdardlikka javob berish
- 5.3.6.1 Yaxshi istaklar bildirish
- 5.3.6.2 Yaxshi istaklarga javob bildirish
- 5.3.7.1 Kimningdir salomatligi uchun qadah ko'tarish
- 5.3.7.2 Salomatlik uchun qadah ko'tarishga javob berish

6 Muloqotni uyushtirish va tushunishni ta'minlash

- 6.1 Fikr almashish
- 6.1.1 So'z so'rash
- 6.1.2 Kimningdir so'zini kesish
- 6.1.3 So'zlashda davom etish istagini bildirish
- 6.1.4 Tinglovchining e'tiborini jalb qilish
- 6.1.5 So'z berish
- 6.1.6 Gapirishni talab qilish
- 6.1.7 E'tiborga olish
- 6.1.8 Jim turishni talab qilish

6.2. Tushunishni ta'minlash

- 6.2.1 Qayta so'rash
- 6.2.2 Takrorlashni so'rash
- 6.2.3 Hijjalab aytishni so'rash
- 6.2.4 Tushunmaganlikni ifodalash
- 6.2.5 Tushuntirib berishni so'rash
- 6.2.6 Izoh berishni so'rash
- 6.2.7 Hijjalab, harflab aytish
- 6.2.8 Tushunganlikni ifodalash

- 6.2.9 Eshitgan yoki eshitmaganlikni nazorat qilish
- 6.2.10 Maqsad yoki mazmuni tushunganlikni nazorat qilish
- 6.2.11 O'z fikrini izohlab berish
- 6.3 Muloqotni uyushtirish**
- 6.3.1 Fikrni ifodalash
- 6.3.2 So'z izlashni ifodalash
- 6.3.3 Fikrni ifodalashda yordam so'rash
- 6.3.4 O'zini o'zi tuzatish
- 6.3.5 Tasvirlab berish
- 6.3.6 Sanab o'tish
- 6.3.7 Misol keltirish
- 6.3.8 Mavzuni o'zgartirish
- 6.3.9 Xulosa qilish
- 6.3.10 Alohida takidlash
- 6.3.11 Fikrni yakunlash

(Baldegger va boshqalar 1980,57-62)

5. Tushunish usullari

Matn mazmunini tushunish usullarini rivojlantirish

a) So'z darajasida tushunish:

- > Matndagi hamma so'z va so'z o'zaklarini (internatsionalizm, chet tilning faol o'rganiladigan so'zlari va boshqalar) bo'rttirish yoki ostiga chizish.
- > So'z o'zagini belgilash (qo'shimchalarning ostiga chizmaslik).
- > Jumlaning ma'nosini ochish (qo'shma so'z ma'nosini oxirgi elementiga ko'ra belgilash; o'ngdan chapga qarab so'zlarning mag'zini chaqish).
- > ..

b) Jumla darajasida tushunish:

> Ma'no birliklari va jumlalardagi so'zlar:

Matndagi bo'rttirilgan va ko'zga tashlanadigan jumlalarga e'tibor qaratish:

- Katta harflar bilan yozish.
- Ajratib bosish (yo'g'on, yotqizib va boshqalar).
- Raqamlar va boshqa ko'zga tashlanadigan yozuv ishoralarini bo'rttirish.

- Inkori qilish.
- Turli belgilar qo'yish.
- Tinish belgilarining vazifalari.

> **Idrokka oid grammatikani faollashtirish:**

- Asosiy hisoblangan qo'shimcha va til shakllarini bir tartibda joylash.
- Nemis tilida markaziy o'rinni egallovchi fe'llarni gapda o'zgartirish (fe'lni topish, ega va to'ldiruvchilarga savol qo'yish).
- ergash gaplarni belgilash, funksiyasi va tuzilishini aniqlash (weil-asoslash uchun belgi; bu gapdagi so'z tartibini o'zgarishiga olib keladi; fe'l va to'ldiruvchilarning o'rni o'zgaradi).

> ..

c) Matn darajasida:

> Matn va ekstralingvistik hodisalar:

Matn turlariga qanday belgilar xos?

Matnni tushunish belgilari haqida nimalarni ko'rsatish mumkin? va boshqalar.

> Matn tuzilishi:

- Matnning bo'linishi, ko'rinishi, bosilishi:

Matnning yuqoridagi xususiyatlari matn turlari va ularni tushunish sohasida qanday imkoniyatlar beradi?

- Matndagi alohida belgilarni topish: Muhim bo'lmagan birliklarni belgilamaslik (sifat, ravish, zidlash, nisbatlovchi sonlar va boshqalar). Matnni tushunishni ta'minlovchi mashqlar guruhidagi o'quvchilar tomonidan bajarilishi mumkin.

- Matndagi ichki asoslovchi belgilarni (ammo, balki, qaramasdan va boshqa yordamchi so'zlar) topish va belgilash.

- Matndagi boshqa manbaga murojaatni aniqlash va belgilash (Uy.. Bu ..).

- Matndagi «erkinlashtiruvchi» lisoniy belgilarni aniqlash (masalan, og'zaki nutqqa hamda shevalarga xos shakllar va boshqalar).

> ..

d) Madaniy xususiyatlar va kontekst:

> Tarjimonning «soxta do'stlari»ga qarshi o'laroq topqirlikni tarbiyalash (so'z chet tildagi so'zning o'zi kabi yoziladi va talaffuz qilinadi, lekin o'zga ma'noni anglatadi).

> Ona tili va chet tildagi ma'nolarni ko'rsatish uchun matndagi tayanch tushunchalarga assotsiogrammalar tuzish.

> Chet til va ona tilidagi mavzu jihatdan o'hshash bo'lgan matnlarni qiyoslash.

> ..

A. 1. Tushunishga yordam berishni rivojlantirish

I. Soddalashtirish:

1. e`tiborni tayanch so`zlarga qaratish.
2. Axborot strukturasini tayanch so`zlar yordamida xulosalash.
3. Matn turini o`zgartirish orqali soddalashtirish va tushunishni aniqlashtirish.

II. Qisqartirish:

Lisoniy soddalashtirilgan qo`shimcha matn tuzish.

III. Reja tuzish:

1. Axborotni tabelyar rejalash.
2. Matnni ma`no bo`laklariga bo`lish- optik rejalash.
3. Axborot tartibiga ko`ra diagrammani to`ldirish.

IV. Vizual yaqqollashtirish:

1. Matnni vizual yaqqollashtirish orqali tushunish samaradorligini orttirish.
2. Axborot yo`nalishini vizual yaqqollashtirish.

V. Bilimlarni faollashtirish:

1. Mazzuga oid tizimli ish olib borish.
2. Tayanch tushuncha yuzasidan atroflicha ish olib borish.

VI. Ona tilini qo`llash:

1. Ona tilida xulosalovchi parallel matn.
2. Annotatsiya: muhim tushunchalarni ona tilida tushuntirish.

A. 2. Tushunganlikni nazorat qiluvchi topshiriqlar:

1. To`g`ri javobni tanlash topshirig`i.
2. To`g`ri-noto`g`rini aniqlash topshirig`i.
3. Tartibga solish topshirig`i.

B. Lisoniy shaklga qaratilgan reproduktiv xususiyatga ega bo`lgan fikrni bayon qilishga oid ko`nikmalarni shakllantiruvchi mashqlar:

1. Jummalarni tez aytish mashqi.
2. O`rnini tez almashtirish mashqi.
3. Rasmlar bilan boshqariladigan dialoglarni tez aytish mashqi.

4. O'rniga qo'yish va bo'sh o'rinlarni to'ldirish mashqi.
5. Savol-javob tuzish mashqi.
6. Nutq vaziyati va vositalarini joylashtirish mashqi.
7. Asliy material bilan dialog variantlarini tuzish mashqi.
8. Bo'sh o'rinlarni to'ldirish mashqlari.

C. Vaziyat, rol, niyatga oid fikrni boshqariluvchi yoki erkir bayon qilishga oid malakalarni rivojlantiruvchi mashqlar:

1. Nutq vaziyati yoki matnda berilgan muammoni echish mashqi.
2. Masalaning echimini o'z so'zlari bilan ifodalash mashqi.
3. Berilgan nutq vaziyatiga oid dialog tuzish mashqi.
4. Ochiq dialog- dialogdagi rolni to'ldirish mashqi.
5. Tayanch so'zlar asosida matn tuzish mashqi.
6. Rasmlarga qarab hikoya tuzish mashqi.
7. Diagrammani to'ldirish mashqi.
8. Ochiq hikoya (boshi, oxirini topish) mashqi.
9. Davomli dialog tuzish mashqi.
10. Matn turlarini o'zgartirish (habar - suhbat, dialog - tasviriy matn) mashqi.
11. Alternativ hikoyalar tuzish - turli ko'p ma'noli vaziyatga oid matn yoki dialog tuzish mashqi.
12. Matn va rasm haqidagi axborot o'rtasidagi nomutanosiblikni izohlash mashqi.
13. Maktubga javob yozish (maktub, telefon yoki dialog orqali) mashqi.
14. Matn mazmunini umumlashtiruvchi boshqariluvchi axborot (tayanch so'zlar va yozuvlarni qayta ishlash) berish mashqi.
15. Grafik va statistik ma'lumotlarni qayta ishlash mashqi.
- 16 Ma'lum masalaga oid gazetxon maktubini yozish mashqi.

D. Chet tilda erkin axborot berish.

1. Qiyoslash: foyda va zarar; rozilik va qarshilik mashqi.
2. Izoh berish mashqi.
3. O'z fikrini bayon qilish mashqi.
4. Rollarni ijro etish va simulatsiya (ataylab qarshi chiqish) mashqi.

(Neuner, Krueger, Grewer, 1981)

7. Elementar tajribalar sohasi

Quyidagi ro'yxat Germaniya Federativ Respublikasida elementar tajribalar sohasida yollanma ishchilar farzandlariga til va hunar o'rgatish mashg'ulotlarida beriladigan bilimlar ko'lamini aks ettiradi.

Majburiy ta'lim fanlarini qamrab oluvchi reja	
Tajriba sohasi	Dars uchun mavzular va ish sohalari
Maktab	Dars jadvali Maktabda yo'l topib yurish Maktab yo'li Maktab tanlash (4- sinf uchun) Maktabda yoki hovlidagi kelishmovchiliklar
Yo'l harakati	Maktab yo'li (piyoda, velosipedda, avtobusda, poezdda) Shahar plani Velosiped Baxtsiz hodisa Sayr (qatnov jadvali, sayr tashvishlari, sarf-xarajatlar, masofa, pul) Yo'l belgilari va qoidalari
Savdo-sotiq	Harid qilish (bozor, tijorat, univermag, harid ro'yhati, baholar, narh-navoni qiyoslash, pul) Reklama Oziq-ovqat, ichimliklar Kiyim-kechak
Ish, bo'sh vaqt, hordiq	Ota-onalar ishda Kasb-kor, kasb tanlash Ish asboblari O'yin, sport maydoni Televideniye Bayram, tug'ilgan kun Hadya, sovg'a O'yinchoqlar O'yinlar, o'yin qoidalari, ranglar Yil fasllari, ob-havo Dam olish kunlari Xobbi, sevimli mashg'ulot

<p>Sihat-salomatlik Kasal bo'lish</p>	<p>Tana a'zolari Kasalliklar Ovqatlanish Dori-darmon Baxtsiz hodisa va shifoxona Vrach huzurida</p>
<p>Oila, xonadon, atrof-muhit</p>	<p>Qarindosh-urug'chilik munosabatlari Xonadon, mebel, xonadon izlash Mahalla, shahar, o'yin maydoni Ichkari va tashqari Atrof-muhitning ifloslanishi</p>
<p>Mening o'lkam- sening o'lkang</p>	<p>Umumiylik va farqlar Nemislar va chet elliklar haqida fikrlar Bolalarning ota yurtlariga sayr Ota yurtiga xos narsalar Mamlakat ramziy belgilari Kim qaerda o'zini huddi «uydagidek» his qiladi?</p>

Assotsiatsiya

Assotsiatsiya deganda kishilar tajribasidagi **ikki elementning** bir biri bilan **bog`lanishi** tushuniladi. Birining idroki chog`ida ikkinchisi eslanadi. Assotsiatsiya psixologiyasi (filosoflar Hobbes, Hume va Mill tomonidan asoslangan) qanday imkoniyatlar mavjud bo`lsa, Shunday bog`lanishlarning bo`lishini tadqiq qiladi: o`hshashliklar, farqlar, zamon va makon cheksizligi va (Humega ko`ra) sabab va oqibat.

Thomas Brownga ko`ra (1778-1820) assotsiatsiyalar uchun boshqa bir qator shart-sharoitlar mavjud, xususan, jonlilik (vivacity), yangilik (recentness) va tez-tez takrorlash. Assotsiatsiya qonuniyatlari ta`lim psixologiyasi tadqiqotlarida muhim rol o`ynaydi. So`z ma`nosini ma`lum til o`rganish nazariyalarini va til xodisalariga oid qoidalarni tushuntirish sohasida assotsiatsiya konsepsiyalari tadbiiq qilinadi.

Assotsiatsiya barcha ruhiy jarayonlarni tushuntirishning asosiy prinsipi degan nuqtai nazar bugungi kunda dolzarb emas. Hissiy va struktural bog`lanishlar endigi kunda eng ahamiyatli sanaladi. Shunga qaramasdan bir qator ruhiy xolatlar borki, ular assosiativ bog`lanishlar tarzida tan olinadi (masalan, chet tillarni o`rganishda juft assotsiatsiyalar yoki tushunchani boshqa tushuncha nomi bilan bog`lash).

CLARK, Herbert H. (1970): "Word associations and linguistic theory". In: LYONS, John (ed): New Horizons in Linguistics. Harmondsworth.
EBBINGHAUS, Hermann (1908): Abriss der Psychologie. Leipzig.
HOERMANN, Hans (1967): Psychologie der Sprache. Berlin.
HULL, Clark L. (1943) Principles of Behavior. New York.

Bixevioristik ta`lim nazariyasi

Bixevioristik psixologiya maktabi (J.B.Watson, 1878-1958 tomonidan asoslangan) 1920 yillardan so`ng Amerika Qo`shma Shtatlarida rivojlandi. Ruhiiy jarayonni tushuntirish uchun bu ta`limot tarafdorlari faqat ob`yektiv kuzatish mumkin bo`lgan hulqqa tayanadilar. Xulq bu harakatga undovchi (stimul) bilan unga beriladigan javob (reaktsiya) o`rtasidagi munosabat hisoblanadi. Ta`lim asosan xulqning o`zgarishi deb qaraladi.

Bixevioristik ta`lim nazariyasi V.F. Skinner tomonidan yaratildi. U o`zining «Verbal Behavior» (1975) nomli kitobida tilni ham inson hulqining bir turi deb hisoblaydi. U atrof-muhit ta`sirida taqlid va tuzatish (reinforcement) orqali yuzaga keladi. U hulqqa oid odatlarning avtomatlashuvi (speesh habit) tomon boradi. Skinner chet til ta`limini

qat'iy shartlilik (Konditionierung) qonuniyatlari asosiga quriladi, deb ta'kidlaydi.

BROOKS, Nelson (1969): Language and Language Learning. New York.

LADO, Robert (1964): Language Teaching. New York.

SKINNER, Burrhus F. (1938): A. Behavior System. New York

SKINNER, Burrhus F. (1957): Verbal Behavior. New York

WATSON, James B. (1924): Behaviorismus. Chicago

Berlits metodi

Janubiy Germaniyalik sayyoh Maksimilian D. Berlitz (1852-1921) o'zining birinchi til o'rgatish maktabini 1878 yilda AQSHning Providence, Rhode Island shahrida tashkil qildi. 1914 yilgacha u AQSH va Yevropadagi qariyb 200 ta maktabda bevosita ushbu metodni joriy qildi. O'zi bu metodni Berlits metodi deb nomladi.

1882 yildan boshlab uning darsliklari chop etila boshladi. Ularda o'qituvchilar uchun quyidagi tavsiyalar berildi: faqat bir tillilik, og'zaki ish va turli savol-javob texnikasi. Grammatikani tushuntirish kursning faqat yuqori bosqichlarida yo'lga qo'yildi.

Boshlang'ich kurs quyidagi tartibda o'tadi: Birinchi darsda sinf xonasidagi predmetlar bilan tanishiladi, "bo'lmoq" (sein) fe'li va ko'p qo'llaniladigan sifatlar (katta, kichik, oriq, semiz va boshqalar) qo'llaniladi. So'ngra ma'nosini osonlik bilan ko'rsatish mumkin bo'lgan so'zlar (tana a'zolari, kiyimlar va boshqalar) va muhim predloglar o'rganiladi. Fe'llar beshinchi darsdan boshlab, alifbo esa sakkizinchi darsda kiritiladi. Oddiy matnlar va kundalik mavzuga oid dialoglar o'rganiladi.

Berlits barcha o'qituvchilarning til sohiblari bo'lishlari muhimligini ta'kidlaydi. Til o'rgatish kurslari, birinchi navbatda, chet tilni kundalik turmushda qo'llash uchun jadal o'rganmoqchi bo'lgan katta yoshdagi kishilarga mo'ljallandi.

BERLITZ, Maximilian D. (1907): The Berlitz Method for teaching modern languages. New York

PAKSCHER, A.: "Die Berlitz-Methode". In: Englische Studien, XXI, 310-320.

Erkin (emansipatsion) ta'lim

Emansipatsion ta'lim tushunchasi «Hamburg modeli» deb nomlanuvchi o'qitish nazariyasi bilan bog'liq. Bu nazariyani Wolfgang Schulz (1980) o'zining «Darsni rejalashtirish» nomli kitobida tasvirlab bergan.

Schulzning fikricha, erkin fikrlash va harakat qilish ta'limning **barcha bosqichlari** uchun asosiy bo'lgan maqsad hisoblanadi. Bu o'ringa ta'lim **shart-sharoitlari** ham (maktabning jamiyatdagi roli) e'tiborga olinishi lozim.

Darsni rejalashtirish uchun sohani hisobga olgan holda **amalga oshiriladi**:

1. ijtimoiy munosabatlar;
2. maktab ma'muriyati xujjatlari (masalan, o'quv rejasi);
3. konkret dars shart-sharoitlari;

SCHULZ, Wolfgang (1980): Unterrichtsplanung. Muenchen- Wien-Baltimore.

Ongli ta'lim nazariyasi

Bixevioristik ta'lim nazariyalarining ta'siri juda kuchli edi. Ammo bu qarashlar bir tomonlama bo'lganligi uchun tez fursatda qattiq tanqidga uchradi. Shunday qilib ongli ta'lim nazariyalari vujudga keldi. Bu nazariya tarafdorlari kishilarni tashqi ta'sir asosida harakatga keltirilishi mumkin bo'lgan «qora quti» deb hisoblanishiga mutloqo qarshi bo'ldilar.

Ular til o'rganuvchilarni ta'lim jarayonining faol ishtirokchilari deb hisobladilar. Kishilar ma'lumotlarni maqsadga ko'ra tanlashlari va qayta ishlashlari mumkin. Bu ularning ongli va aql-idrok bilan ta'lim olishlari mumkinligini ifodalaydi.

Tolman (1932) o'qish-o'rganishni axborotlarni qayta ishlash deb hisoblaydi.

Til ta'limi uchun, ayniqsa, psixolingvistika vakili Noam Chomskiyning (1959) Skinnerni qilgan tanqidi katta ahamiyatga ega. Chomskiy uchun til tizimli majmua (ein komplexes System) hisoblanadi. Inson o'z nasliy qobiliyatiga ko'ra til sistemasini amaliy o'rganishi va bu sistemani turli ko'rinishlarda reallashtirishi mumkin.

CHOMSKY, Noam (1959): "Review of verbal behavior" In: Language 35, 26-38

NEISSER, Ulric (1967): Cognitive psychology. New York

TOLMAN, Edward C. (1932): Purposive behavior in animal and men. New York.

«Nemis tilida chet til sifatida muomalaga kirishish»

«Muomalaga kirishish» tushunchasi Shveytsariyada shakllandi. U katta yoshdagilarga nemis tilini o'qitish (Evropa Ittifoqi doirasida)

sohasidagi Threshold-Level sistemasiga qarashli hisoblanadi. Bu sistema turli mamlakatlardagi nemis tili o'qituvchilariga o'quv materiallarini tuzish va bevosita muomalaga qaratilgan til ta'limini rejalashtirishga yordam beradi. Unda turli nutqiy topshiriqlar, umumiy tayanch tushunchalar va millatlarga xos bo'lgan til vositalarining ro'yxatlari mavjud. Bu ro'yxatning asosini o'quvchi boshqa mamlakatda bo'lganda foydalanishi zarur deb hisoblangan nutq faoliyati vositalari tashkil qiladi. «Nemis tilida muomalaga kirishish» tarkibi quyidagilardan iborat:

- muomala qatnashchilari, ularning rollari va munosabatlari;
- tashqi nutqiy shart-sharoitlar;
- muomala shakli (vositalari);
- nutqiy niyat va nutqiy faoliyat;
- mavzular.

Baldegger, Markus; Mueller, Martin; Schneider, Guenther (1981), "Kontaktschwelle Deutsch als Fremdsprache" (Nemis tilida chet til sifatida muomalaga kirishish). Muenchen.

Normativ grammatika

Bu tushuncha lotin tilidagi norma, qoida, tartib so'zidan kelib chiqqan. Normativ grammatika tilning grammatik vositalarini «to'g'ri» qoidaga muvofiq qo'llashni belgilab beradi. Bugungi tilshunoslik fani normativ grammatikani inkor etadi.

Tez aytish va tez aytish mashqi

Bu tushuncha Robert Lado(1974)ning: «Zamonaviy til ta'limi» nomli darsligida berilgan (295-sahifa). **«Tez aytish:»** har bir takrorlanuvchi namuna: tovush, morfema, so'z, tushuncha yoki jumlar yig'indisi yuqori tezlikda takrorlanadi. Fransuz, ispan, nemis va boshqa tillardagi jumla namunalari ingliz tilidagisidan nafaqat so'z tarkibi bilan, balki qurilish usuli bilan ham farq qiladi...

Tez aytish mashqi: Har bir mashqda o'zgartiriladigan til materiali nutq namunasida takrorlanadi... Bunday mashqlar tilni egallash uchun zarur bo'lgan mexanik faoliyatni qat'iy odatga aylantirib boradi va o'quvchilarga o'z e'tiborlarini nutqning mazmuniga to'la qaratish imkoniyatini beradi.»

BUEHLER, Karl (1934): Sprachtheorie. Die Darstellungsfunktion der Sprache. Jena.

MORRIS, Charles W. (1938): Foundations of the Theory of Signs. Chicago.

WUNDERLICH, Dieter (Hrsg.) (1972): Linguistische Pragmatik. Frankfurt.

Pragmalingvistika

Pragmalingvistika tilni tizimli lingvistikaga nisbatan o'zgacha talqin qiladi. Til kishilar faoliyatining maxsus shakli hisoblanadi. Nutq faoliyati o'zining ijtimoiy, tildan tashqaridagi shart-sharoitlari bilan birgalikda tadqiq qilinishi va tushunilishi kerak.

Pragmalingvistikaga ko'plab ilmiy sohalar (psixologiya, sotsiologiya, falsofiya, lingvistika) jiddiy ta'sir qiladi, ayniqsa nutq faoliyati nazariyasining ta'siri kuchli.

Tilning bunday tushunilishi til haqidagi bilimlarga qaraganda ma'lum vaziyatlarda fikr bildira olish ko'nikmalarini egallashning muhimligini ta'minlovchi til ta'limi uchun butunlay yangi mashqlar tizimi va ta'lim birliklarini o'quv jarayonida qo'llashni taqozo etadi.

BUEHLER, Karl (1934): Sprachtheorie. Die Darstellungsfunktion der Sprache. Jena.

MORRIS, Charles W. (1938): Foundations of the Theory of Signs. Chicago.

WUNDERLICH, Dieter (Hrsg.) (1972): Linguistische Pragmatik. Frankfurt.

Ijtimoiy falsafa

70-yillarda ta'lim haqidagi munozara ijtimoiy falsafa sohasidagi tadqiqotlar orqali yanada kuchayib ketdi. Ijtimoiy falsafa vakillari Habermas va Luhmann (1971) **muomala layoqati** (kommunikativ kompetensiya) tushunchasi haqida bahs yuritdilar.

Kishilar muloqot chog'ida o'zlari haqida, tinglovchilar yoki voqea – hodisalar haqida fikr bildirish maqsadida o'z muomala layoqatlarini ishga soladilar. (Baacke, 1971, 58)

Habermas kundalik muloqotning ikki shakli mavjudligini ta'kidlaydi: **a) kommunikativ harakat**: Bu suhbatdoshlarning bir birini oson tushunishi, masalan, mavzu va vaziyat doirasidagi o'zaro ijtimoiy muloqot; **b) diskurs (bahs)**: ozaro tushunish jarayonida muammolar tug'ilganda harakatga keladi. Diskurs uchun eng yaxshi misol, so'zlovchilar bahsda zo'rlik ko'rsatmay samimiy bo'lgan holat hisoblanadi.

«Diskurs» ideal ta'lim vaziyatini ifodalovchi atamadir. U ham majburiy harakatdan yiroq bo'lishni talab qiladi. Shu bilan birga o'quv guruhi tarkibidagilarning bir-biri bilan teng huquqliligi, asoslangan va kelishilgan haqiqatni topishga intilish ta'lim vaziyatida hukmronlik qiladi. (Baacke, 1971,63).

Habermas nazariyasi H.E.Piepho tomonidan asoslangan va kommunikativ kompetensiyaga oid didaktik tadqiqotlarning asosini tashkil etadi.

BAACKE, Dieter (1971): Kommunikation als System und Kompetenz. In: Neue Sammlung. 1, 57-69.

HABERMAS, Juergen; LUHMANN, Niklas (1971): Theorie der Gesellschaft oder Sozialtechnologie, Frankfurt, Main.

PIEPHO, Hans-Eberhard (1974): Kommunikative Kompetenz als uebergeordnetes Lernziel im Englischunterricht. Dornburg-Frickhofen.

Ijtimoiy ruxshunoslik (sotsial psixologiya)

Ijtimoiy ruxshunoslik shaxsning jamiyatdagi rolini o'rganadi.

Lothar Krappmann muomalaga oid harakatlarga qanday asosiy xususiyatlar xosligini tasvirlaydi: ular his-hayajon (empatiya) va rollar irtasidagi farqlardir. Bu ko'nikmalarni shakllantirishni ham muallif maktabning vazifasi deb hisoblaydi.

Krappmann uchun muomalada ishtirok etish va hamkorlikda harakat qilishda asos bo'ladigan imkoniyat bu mos kelish hisoblanadi. Bu orqali shaxs o'zining kim ekanligini va qanday xususiyatlarga egaligini namoyon etadi. Til ham bu borada muhim rol o'ynaydi; til orqali kishilar muomala jarayonida o'zilarining kim ekanliklarini yaqqolroq namoyon etadilar.

Krappmann, Lothar (1971): Soziologische Dimensionen den Intensitaet. Strukturelle Bedingungen fuer die Teilnahme an Interaktionsprozessen. Stuttgart.

Nutq faoliyati nazariyasi

Nutq faoliyati nazariyasining asosini gapirish tashkil qiladi. Bu jarayonda buyruq berish, savol so'rash yoki istak bildirish va boshqa nutqiy harakatlarning hammasi ma'lum qoidalar asosida ijro etiladi. Shuning uchun «Gapirish bu kishi xulqining ma'lum qoidaga solingan shaklidir» (Searle, 1971, 29). Nutq faoliyati nazariyasining taniqli vakillari J. L. Austin va J. Searlelardir.

AUSTIN, John L. (1962): How to do Things With Words. Cambridge, Mass.

SEARLE, John R. (1969): Speech Acts. An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge, (Deutsche Ausgabe: Sprechakte. Ein sprachphilosophischer Essay, Frankfurt, Main 1971.)

DERS. (1971): What is a Speech Act? In: DERS. (ed.): The Philosophy of Language. Oxford, 39-53

Struktural tilshunoslik (strukturalizm)

Tilshunoslikning bu sohasi 20-asrning birinchi yarmida Yevropa va Amerika Qo'shma Shtatlarida ko'plab lingvistik nazariyalarning paydo bo'lishiga asos bo'ldi. Strukturalizm tilni belgilarning yopiq tizimi, ya'ni qismlari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan butunlik deb hisoblaydi.

Chet til ta'limi uchun strukturalizmning Amerika yo'nalishi ayniqsa muhim hisoblanadi.

Leonard Bloomfield ta'limni, xuddi bixeviorizmga o'xshab, xulq o'zgarishining mexanik jarayoni deb hisoblaydi. Chet tillarni egallash bu takrorlash, taqlid qilish va berilgan jumla namunalarini mashq qilish (tez takrorlash mashqi) natijasi hisoblanadi.

Robert Lado tadqiqotlari ham muhim ahamiyat kasb etdi. U chet til ta'limining ilmiy asoslangan birinchi modelini ishlab chiqdi. U har bir til o'z qonuniyatlariga ega ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha turli til vakillari uchun chet til o'rganishni osonlashtiruvchi yoki qiyinlashtiruvchi umumiylik yoki farqlarni aniqlash maqsadida qiyosiy tahlil o'tkazish lozim.

Zamonaviy chet til ta'limi uchun struktural tilshunoslikning og'zaki nutqa oid tadqiqotlari ham muhim ahamiyat kasb etdi.

Lado tilni og'zaki muloqot vositasi sifatida o'rganishni chet til ta'limining maqsadi deb hisobladi. Bu metodik jihatdan lisoniy malakalarni belgilangan tartibda egallashdan iborat: tinglab tushunishdan o'qib tushunish orqali gapirish va yozishga tomon borish. Chet tilni muomala vositasi sifatida o'rganishdan maqsad Ladodan boshlab chet til ta'limini eng asosiy maqsadi bo'lib qoldi

BLOOMFIELD, Leonhard (1933): Language. New York

BLOOMFIELD, Leonhard (1942): Outline Guide for the Practical Study of Foreign Languages. Baltimore.

LADO, Robert (1964): Language Teaching. New York.

Tizimli lingvistika

Tilshunoslikning tizimli lingvistika sohasi tilni muomala ishoralari tizimi deb hisoblaydi. Tizimli lisoniy tahlil tilning shakliy tomonlarini tavsiflaydi. U tildan amalda foydalanish masalasi bilan shug'ullanmaydi.

11 Topshiriqlar javobi

7-topshiriq

Grammatika-tarjima metodining xususiyatlari:

Grammatika:

- soʻz turkumlariga boʻlinadi;
- grammatik material beriladi va ona tilidagi qoidalar bilan izohlanadi;
- har bir qoidaga doir misollar tarjimasini bilan beriladi.

Mashq turi:

- grammatik qoidalar asosida gap tuzish;
- tarjima: ona tilidan chet tilga, chet tildan ona tiliga;
- tarjima uchun oʻquv matnlari;
- yozma mashqlar: insho, hikoya qilish, diktant.

Dars bosqichlari, tuzilishi:

- darslikda paragraflar emas, balki grammatika, mashqlar, matnlar bloklari mavjud;
- oʻqituvchi darsning kirish, mashq, amalda qoʻllash bosqichlarini oʻzi tashkillashi lozim;

Oʻquv materiali taqsimoti:

- grammatik materialni «osondan qiyinga» qarab emas, balki soʻz turkumlari tartibiga qarab taqsimlanadi;
- darsning asosini grammatika belgilaydi;
- qiyinchiliklar darajasini mashqlardan bilib olsa boʻladi (boshlangʻich va yuqori bosqich).

Ijobiy va salbiy tomonlari:

Hech bir metodga tugal baho berish mumkin emas. Metodning tavsifi koʻplab dalillarga bogʻliq, masalan;

- oʻquv guruhining xususiyatlariga: yoshi, bilim darajasi, taʼlim anʼanalari, madaniyatga xos dalillar va boshqalar;
- tashkiliy shart-sharoitlarga: til oʻrganishga ajratilgan vaqtga, texnik vositalarning mavjudligiga, oʻqituvchi mahorati, bilimdonligi va boshqalarga.

Formal, sistemali, ongli taʼlim katta yoshdagi til oʻrganuvchilar uchun foydali boʻlishi mumkin. GTM oʻqib tushunish, tarjima va yozishni oʻrgatishni taqozo qiladi.

Metodning salbiy tomoniga tildan kundalik turmushda amaliy foydalanishni oʻrgatishga eʼtibor bermaslik, chet til haqida koʻp gapirilsada, uni amalda qoʻllashga kam eʼtibor berish, oʻquvchilardan koʻp materialni eslab qolishni talab qilish va boshqalar kiradi.

8-topshiriq

Dars tuzilishi: "Genitiv kelishigini talab qiluvchi predloglar"

Misol jumalar, darsga oid matn va mashqlar (59-mashq) Griesbach va Schulz (1955)larning «Nemis tili chet elliklar uchun» Boshlang'ich bosqich darsligidan olingan (68, 69 va 74- sahifalar).

1. Praepositionen mit dem Genetiv

Mein Vater hat mir statt des Geldes nur einen Brief geschickt. Er arbeitet trotz des Feiertages. Der Schueler lernt waehrend des Unterrichts sehr viel. Er geht heute wegen seiner Pruefung nicht ins Theater.

**(an)statt, trotz, waehrend, wegen
IMMER MIT GENETIV**

2. Verben mit Praepositionen

Der Lehrer beginnt mit dem Unterricht. Fritz schreibt an seinen Vater. Sprechen Sie mit Ihrem Freund. Ich danke Ihnen fuer Ihre Hilfe. Er freut sich ueber den Brief. Wir warten auf den Zug.

**Viele Verben haben Objekte mit
Praepositionen
Lernen Sie diese Verben mit ihren
Praepositionen**

1. Genitiv kelishigini talab qiluvchi predloglar

Mening otam pulning o'rniga faqat maktub yuboribdi. U bayram bo'lishiga qaramasdan ishlaydi. O'quvchi dars chog'ida juda ko'p ishlaydi. U bugun imtihoni borligi sababli teatrqa bormaydi. O'rniga, qaramasdan, chog'ida, sababli predloglari har doim genitiv kelishigini talab qiladi.

2. Predlogli fe'llar

O'qituvchi dars boshlaydi. Frits otasiga maktub yozadi. Do'stingiz bilan gaplashing. Men sizga yordamingiz uchun rahmat aytaman. U maktubdan xursand bo'ldi. Biz poezdni kutamiz.

Ko'pchilik fe'llar predlogli to'ldiruvchi bilan qo'llaniladi.

Bu fe'llarni predlogi bilan o'zlashtirib oling.

Izoh: O'zbek tilida predlog kategoriyasi bo'lmaganligi tufayli ma'no kelishik qo'shimchalari yoki muqobil so'zlar orqali beriladi (tarjimon).

Ein Brief

Liebe Eltern!

Heute habe ich Euer Paket bekommen. Ich danke Euch herzlich dafuer. Die Sachen in dem Paket kann ich gut brauchen. Besonders freue ich mich ueber den Kugelschreiber. Ich kann damit gut schreiben. Leider habt Ihr mir statt meiner Handschuhe die Handschuhe von Klaus geschickt. Meine Handschuhe habe ich in die Schublade meines Nachttisches gelegt. Dort haben sie immer gelegen. Ihr koennt sie sicher leicht finden. Ausserdem moechte ich gern noch mein Woerterbuch haben. Koennt Ihr es mir bald schicken? Es hat immer im Regal gestanden; vor meiner Abreise habe ich es aber in den Buecherschrank gestellt, glaube ich.

Seit vier Monaten bin ich nun hier und es gefaellt mir hier sehr gut. Morgen beginnen die Ferien, und ich freue mich schon darauf. Die Eltern meines Freundes haben ein Auto und wollen damit an die See fahren. Sie haben mich eingeladen und ich fahre mit ihnen. In vierzehn Tagen sind wir wieder zueueck.

Nach meiner Rueckkehr von der Reise will ich wegen meiner Arbeit mit meinem Professor sprechen, denn ich habe noch einige Fragen. Professor Neumann will mir trotz der Ferien helfen. Das ist sehr freundlich von ihm, nicht wahr?

Gestern habe ich mit zwei Kollegen das Ende des Semesters gefeiert. Zuerst waren wir im Theater und danach haben wir uns in ein Cafe gesetzt. Wir haben dort bis 12 Uhr gegessen und haben viel Spass gehabt.

Hoffentlich geht es Euch gut. Macht Ihr waehrend Eures Urlaubs auch eine Reise? Fuer heute schliesse ich meinen Brief und gruesse Euch sehr herzlich.

Euer

Robert.

Maktub

Sevimli Oyijon va Dadajon!

Bugun men Sizlar yuborgan sovg'ani oldim. Buning uchun men Sizlarga rahmat aytaman. Qutidagi narsalardan yaxshi foydalanishim mumkin. Ayniqsa sharikli ruchkadan xursand bo'ldim. Men u bilan chiroyli yozishim mumkin. Afsuski Sizlar mening qo'lqopim o'rniga Klausnikini yuboribsizlar. Men qo'lqopimni tungi stolimning tortmasiga

qo'yg'an edim. U doimo o'sha yerda turadi. Sizlar uni osongina topishingiz mumkin. Bundan tashqari lug'atimni ham yuborishingizni istardim. Uni Sizlar menga tezroq yubora olasizlarmi? U har doim tokchada turar edi; Men jo'nab ketishdan avval uni kitob jvoniga qo'yg'anman, deb o'ylayman.

Men to'rt oydan beri shu yerdaman va bu yer menga juda yoqadi. Ertaga ta'til boshlanadi va men bundan xursandman. Do'stimning ota-onalarida mashina bor. Ular mashinada ko'l bo'yiga borishmoqchi. Meni ham taklif qilishdi. Men ular bilan birga boraman. Biz 14 kundan so'ng qaytib kelamiz.

Qaytib kelganimdan so'ng ishim yuzasidan professorim bilan gaplashmoqchiman, chunki unga yana bir necha savollarim bor. Ta'til bo'lishiga qaramasdan professor Neumann menga yordam bermoqchi. U juda hushmuomala odam.

Kecha men ikki o'rtog'im bilan semestr yakunini nishonladim. Biz avval teatrda bo'ldik, so'ngra kafega bordik. U yerda biz soat 12 gacha ovqatlandik va bu bizga huzur bag'ishladi.

Sizlar sihat-salomsizlar, deb ishonaman. Ta'til paytida Sizlar ham sayohat qilaszlarmi?

Endi maktubimni tugatsam!

Chin yurakdan salom bilan Sizlarning Robertingiz.

Uebung 59. Praepositionen mit dem Genetiv

Er ist trotz sein- Geburtstag- zum Unterricht gekommen. 2. Ich habe Frau Mueller statt d- Blumen- Schokolade mitgebracht. 3. Waehrend d- Essen- rauchen wir nicht. 4. Der Vater will wegen sein- Sohn- mit dem Lehrer sprechen. 5. Waehrend sein- Aufenthalt- in Deutschland hat er seinen Freund Dr. Schmidt besucht. 6. Sein Vater hat ihm statt d- Brief- ein Paket geschickt. 7. Wegen sein- Koffer- hat er ein Taxi genommen und ist nicht zu Fuss gegangen. 8. Ich kam wegen d- Aufenthalt- in Ulm zu spaet nach Stuttgart. 9. Waehrend d- Arbeit- sitzt mein Vater in seinem Buero. 10. Er hat trotz unsere- Hilfe- viele Fehler gemacht. Er hat statt d- Dativ- den Akkusativ gebraucht. 13. Waehrend d- Semesterferien- arbeite ich mit Herrn Mueller in der Bibliothek. 14. Nehmen Sie statt d- Kugelschreiber- den Fueller. 15. Trotz d- Zentralheizung- war das Zimmer kalt. 16. Der Student hat trotz d- Ferien- viel gearbeitet.

59-mashq.

Genetiv kelishigini talab qiluvchi predloglar

1. U tug'ilgan kuni bo'lishiga qaramasdan darsga keldi.
2. Men Frau Myullerga gul o'rniga shokolad olib keldim.
3. Ovqat paytida biz chekmaymiz.
4. Ota o'qituvchi bilan o'g'li haqida gaplashmoqchi.
5. U Germaniyada bo'lgan paytida do'sti doktor Shmidtnikiga bordi.
6. Uning otasi unga maktub o'rniga bir quti yubordi.
7. U jomadoni borligi tufayli piyoda ketmasdan taksida ketdi.
8. Men Ulm shahrida to'htaganim uchun Shtuttgartga kech etib keldim.
9. Ish paytida otam o'z idorasida o'tiradi.
10. Bizning yordamimizga qaramasdan u ko'pgina xato qildi.
11. O'rtog'imni deb men ma'ruzaga kech qoldim.
12. O'quvchi xato qildi. U dativ kelishigi o'rniga akkuzativ kelishigini qo'llagan.
13. Semestr ta'tili chog'ida men Herr Myuller bilan kutubxonada ishladim.
14. Sharikli ruchka o'rniga siyohli ruchkani oling.
15. Markaziy isitish qurilmasi bo'lishiga qaramasdan xona sovuq edi.
16. Talaba ta'til bo'lishiga qaramasdan ko'p ishladi.

(Griesbach va Schulz 1955, 68, 74)

Savol-javob mashqi:

1. Sen akangning o'rniga tadbirga kelasanmi?
Ha, men akamning o'rniga kelaman.
- 2.
- 3.
- 4.
- 5.
- 6.
- 7.
- 8.
9. Yozgi ta'til chog'ida nima qilasis?
Yozgi ta'til chog'ida men uyda bo'laman.

10-topshiriq

1. Bevosita metodning xususiyatlari:

- Mashg'ulotning bir tilliligi;
- Tilni «tabiiy» sharoitda o'rganish (ona tilini o'rganish sharoitiga yaqinlashish);
- Asosiy e'tiborni og'zaki nutqqa qaratish;
- Grammatik shakl ustida ham ishlash, uning o'rniga model jumlar va dialoglarga taqlid qilish yo'li bilan «tilni his qilish» qobiliyatini tarbiyalash;
- Tilni assotsiatsiya yo'li bilan o'rganish ;
- Keng tarqalgan mashq shakllari; savol-javob; suhbat; dialoglarni ijro etish.

2. Isloh metodlarining rivojlanish sabablari:

Grammatika-tarjima metodi natijalari talabga javob bermaganligi tufayli quyidagicha **tanqid qilindi:**

- Jonli tillar «kitobiy til»larga (lotin, grek) o'xshatib o'rgatildi.
- Jonli tillar «kitobiy til bo'lmish lotin tili» qoidalari asosida tasvirlandi.
- So'zlashni o'rgatish kerak bo'lsada, butun e'tibor yozma nutqqa qaratildi.
- Til bo'laklarga (qoidalarga) bo'lib yuborildi.
- Qoidalar o'zgarmas (namuna jumlar) va ularni Shundayligicha yod olish kerak deb hisoblandi.
- Til elementlarini (qoida, so'zlar) yod olish qiziqarli emas edi.
- Tili o'rganilayotgan mamlakat hayoti bilan bog'lanish yo'q edi.

3. Isloh sabablari:

- Zamonaviy tillarni o'rganishga bo'lgan ehtiyojning (siyosiy, iqtisodiy va madaniy) ortib borishi;
- Tilshunoslik sohasidagi (fonetika, qiyosiy tilshunoslik) yangi o'zgarishlar;
- Grammatika-tarjima metodining zamonaviy tillarni o'rgatishdagi yaroqsizligi.

12-topshiriq

«**Bolalar nemis tilini o'rganadilar**» kitobi misolida «**Bevosita metod**»ga xos bo'lgan xususiyatlarni tayanch so'zlar orqali ifodalash:

- 41-sahifa uchun: **-malakalar tartibi:** tinglash- gapirish- o'qish- yozish;
- So'zlarni o'rganish chog'ida ko'rish tayanchining mavjudligi;

- Ma'noni rasmlar orqali ochish;
- Mavjud rasm haqida savol va munozara;
- Avval so'zlarni o'zlashtirib olish, so'ngra o'qish va yozishni o'rganish;
- Asosan bir tillilik;
- Bir tillilikdan mustasno holat;
- Dars chog'ida «hayotiy» vaziyatni yaratish;
- Talaffuzni muntazam o'rgatish;
- Katta yoshdagi bolalar uchun fonetik va grammatik mashqlar;
- Grammatikani tushuntirishdan avval taqlid mashqini bajarish;
- O'qituvchi zarur deb hisoblagan grammatik materialni tushuntirish;
- «Tilni his qilish» qobiliyatini rivojlantirish.

131-sahifa: O'quvchilarga identifikatsiyalash imkoniyatlarini yaratadigan «Shiller» nomli darsliklar seriyasi mavjud.

132/5-sahifa: Kirish bosqichi: Vaziyatni ifodalovchi rasm-kundalik vaziyat/vizualizatsiya/dialog.

133- sahifa: Mashq shakllari: Savol- javoblar.

134- sahifa: Diktant.

135- sahifa: Talaffuz mashqi.
Xusnixat- imlo.

135- sahifa: Grammatika tasviri.
Grammatika mashqi-matndagi bo'sh o'rinlarni to'ldirish.
Qofiyalar.

136- sahifa: Qo'shiq va hikoyalar.

13-topshiriq

Qiyos: (1) «Simpler German Course»
(2) «Kinder lernen Deutsch»

	1	2
O'quv materiali taqdimoti	Grammatik qoidalar ona tilida va misollarda	Markaziy matn (dialog)
Grammatika:	Batafsil grammatik qoidalar misol jumlar bilan	Grammatikaga tushuntirish berilgan, material bo'rttirib ko'rsatiladi, «Tilni his qilish» qoidani o'rganishga qaraganda muhimroq hisoblanadi; Grammatika tablitsa shaklida misol jumlar bilan beriladi

Mashqlar:	Tarjima mashqlari O'qish va yozishga oid mashqlar	Savol va javob mashqlari. Dialoglarni yod olish mashqlari
So'zlarni berish:	Ikki tilda; alifbo tartibida joylashtirilgan	So'zlar alohida ko'rsatilmagan; so'zlar mashqlar tarkibida berilgan va imkoni boricha rasmlar orqali tushuntirilgan
Ona tilini qo'llash:	Grammatikani ona tilida izohlash; Ona tiliga tarjima	Material bir tilda berilgan; darsda ona tili imkoni boricha kam qo'llanilgan
Rasmlardan foydalanish:	Vizualizatsiya yo'q	Dars mavzui vaziyatiga olib kiruvchi rasm; Ma'no ochuvchi Vignetlar (yakka ob'ektlar tasvirlangan kichik rasmlar); Matnga oid misollar
Tizimli talaffuz mashqlari	Yo'q	Bor

14-topshiriq

Bevosita metod asosidagi dars loyihasi

Dativ kelishigini talab qiluvchi fe'llar: begegnen- uchratmoq; danken-rahmat aytmq; dienen-xizmat qilmoq; gefallen-yoqmoq; gehoren-qarashli bo'lmoq; glauben-o'ylamoq, ishonmoq; gratulieren-tabriklamq; helfen-yordam bermq; passen-to'g'ri kelmoq; schmecken-mazali bo'lmoq; zuhoren-tinglamoq.

Dativ kelishigini talab qiladigan fe'llar ishtirokidagi dialogga misol. H.Eckesning (1975) **"Nemis tili sen uchun"** darsligining birinchi bandidan olingan lavhalar:

14 Ein Geschenk -14 Sovg`a



14 Ein Geschenk

- Rudi:** Mutti, wem gehören denn die Fußballschuhe da?
Sind die für mich?
- Mutter:** Ja, sie gehören dir. Das freut dich sicher.
Tante Erika und Onkel Karl schicken sie dir,
weil du so gern Fußball spielst.
- Rudi:** Oh, das ist aber nett von ihnen. Vielen Dank.
Die Schuhe gefallen mir gut.
Ich nehme sie heute nachmittag mit zum Sportplatz.
- Mutter:** Willst du sie deinem Freund zeigen?
- Rudi:** Natürlich zeige ich sie ihm.
- Mutter:** Zuerst mußt du aber Tante Erika und Onkel Karl
einen Brief schreiben und ihnen danken.
- Rudi:** Ja, sicher, ich schreibe ihnen den Brief sofort
und bringe ihn gleich zur Post.

Eckes (1975), 83

14 Sovg`a

- Rudi:** Oyi, mana bu futbol tuflisi kimniki? Ular mengami?
- Ona:** Ha, u senga. Sen bundan xursandsan, Shundaymi? Sen futbol o`ynashni yaxshi ko`rganing uchun Erika xolang va Karl tog`ang uni senga yuborishibdi.
- Rudi:** O, ular zo`r ish qilishibdi-ku. Katta rahmat. Tufli menga juda yoqdi. Men uni bugun tushdan so`ng sport maydoniga olib ketaman.
- Ona:** Uni do`stinga ko`rsatmoqchimisan?
- Rudi:** Albatta ko`rsataman.
- Ona:** Sen avval Erika xolang va Karl tog`angga maktub yozib rahmat aytishing kerak.
- Rudi:** Ha, albatta, maktubni darhol yozaman va uni hoziroq pochtaga olib boraman.

Eckes (1975), 83

Uebungen

A.

1. Gefaellt dir der Fussball? Ja, wem gehoert er denn?
..... Tasche?
..... Buch?
..... Fueller?
..... Geschenk?
2. Wem gehoert das Buch? Ja, es gehoert ihm.
Gehoert es dem Vater?
..... dem Bruder?
..... dem Mann?
..... dem Kind?
..... der Mutter? Ja, es gehoert ihr.
..... der Schwester?
..... der Frau?
..... der Tante?
..... den Eltern? Nein, es gehoert ihnen nicht.
..... den Kindern?
..... den Jungen?
..... den Maedchen?
3. Rudi braucht Hilfe. Kannst du ihm helfen?
Das Kind
Die Frau
Die Kinder
Sascha
Der Junge
Ich

Mashqlar

A

1. Futbol senga yoqadimi? Ha, u kimga qarashli?

Sumka
Kitob
Ruchka
Sovg'a

2. Kitob kimga qarashli?

U otaga qarashlimi? Ha, u unga (mujskoy rod) qarashli.

... akaga
... erkak kishiga
... bolaga

... onaga Ha, unga (jenskiy rod) qarashli.

... singilga ...

... ayolga ...

... holaga ...

... ota-onaga Yuq, ularga (kiplik) qarashli emas.

... bolalarga ...

... yigitlarga ...

... qizlarga ...

3. Rudi yordamga muxtoj. Sen unga yordam berasanmi?

Bola ...

Ayol ...

Bolalar ...

Sasha ...

Yigit ...

Men ...

B. Biz tinglaymiz va gapiramiz:

Men tuflini bugun tushlikdan so'ng sport maydoniga olib ketaman.

Ich

nehme die

Schuh

e.

me die

neh

Ich

Schuh

e.

Schuh

Ich nehme

die

e mit.

neh

Ich

me die Schuh

e.

Schuh

Ich nehme

die

e.

nehme die Schuh

Ich

e

mit.

Nach

Ich nehme die Schuhe

mit

heute

tag

mit.

neh**Schuh****Nach**

me

e

mittag

Ich

die

heute

mit zum **Sport**

platz.

C. 1. Mutti, ... gehoeren denn die Fussballschuhe?- Oyi, futbol tuflisi ... qarashli?

Sie gehoeren dir. - Ular senga tegishli.

Das freut ... sicher. -

Tante Erika und Onkel Karl schiken sie ..., weil du so gern Fussball spielst.-

-Oh, das ist aber nett von -

Die Schuhe gefallen ... gut. -

Ich nehme ... heute nach Mittag mit zum Sportplatz.-

- Willst du sie ... Freund zeigen?-

- Natuerlich zeige ich-

- Zuerst musst du aber Tante Erika und Onkel Karl einen Brief schreiben und ... danken.-

- Ja, sicher, ich schreibe ... den Brief sofort und bringe ... gleich zur Post.

2. Mutti, wem ... denn die Fussballschuhe?-

Sie ... dir. -

Die Schuhe ... mir gut. Sie sind sehr schoen. Ich ... sie heute nach Mittag mit zum Sportplatz. -

- Willst du sie deinem Freund ...? Natuerlich zeige ich sie ihm.-

- Du musst jetzt einen Brief ... und Tante Erika und Onkel Karl-

- Ja, ich schreibe ... sofort. -

D.

1. A: Gibst du mir bitte deine Farbstifte?

- Menga sen buyoq qalamlaringni berib turasanmi?

B: - Natuerlich gebe ich Aber du musst zurueckgeben.

- Albatta men

Ammo sen menga qaytarib berishing kerak.

A: Ja, wenn ich fertig bin,

- Ha, men ishimni qilib bo'lsam

B: Hier, bitte, nimm (Farbstifte, Buch, Fueller, Fussballschuhe, Sachen)

- Mana, marhamat olaqol.

(biyoq qalam, kitob, siyohli avtoruchka, futbol tuflisi, narsalar)

- 2. A:** Du, Mario sucht sein Buch. – Hoy, Mario kitobini izlayapti.
B: Hier ist ein Buch. Gehoert es vielleicht ihm?- Kitob mana. ehtimol bu unga qarashlidir?
A: Gib mal her, ich zeige es ihm. -Menga berchi, men unga ko'rsataman.
B: Aber, wenn es ihm nicht gehoert, dann bringst du es bitte zurueck. - Agar kitob unga qarashli bilmasa, unda menga qaytarib berasan.
A: Hallo, Mario, hier ist ein Buch. Gehoert es dir? -Hoy Mario, mana bu kitobni ko'r-chi. Bu senikimi?
C: Nein, es gehoert nicht mir! Ich habe mein Buch schon. – Yo'q, bu meniki emas. Men kitobimni topib oldim.
A: Ja, wem gehoert denn dieses Buch? (Mario, Sascha, die Kinder) (Buch, Heft, Tasche, Ball, Geld) unda bu kitob kimniki?
 (Mario, Sasha, bolalar)
 (Kitob, daftar, sumka, to'p, pul)

Eskes (1975), 88

15-topshiriq

Tinglash-gapirish metodining xususiyatlari:

- e'tiborni og'zaki nutqqa qaratish, yozma nutqdan avval og'zaki nutqni o'rganish ;
- Ona tilini inkor qilish;
- Ta'lim prinsipi-taqlid qilish, tilni qoidalar emas, balki misollar asosida o'rganish;
- Muntazam talaffuz ustida ishlash;
- Tinglab tushunishni mashq qilish;
- E'tiborni kundalik hayot vaziyatiga qaratish.

16-topshiriq

Matnning qog'ozga tushirilishi, tuzilishi va uning funktsiyasi

Bunga qarashli ma'lumotlarni keyingi abzatsning 16- va 17- topshiriqlaridan topish mumkin.

16- va 17-topshiriq

Darslikdagi dialog qay darajada hayotiy?

Hayotiy suhbat vaziyatida dialogning bu ko'rinishi juda kam uchraydi. Dialogdagi shaxslarning muomalasi o'ta rasmiy va bu bolalarning tug'ilgan kuni vaziyatidan juda uzoq. Ularning nutqiy harakati grammatik material orqali (dativ kelishigini talab qiluvchi fe'llar) belgilangan. Shaxslar grammatikaning «qo'g'irchog'i» sifatida bu material mavjud bo'lgan jumalarni aytishlari kerak!

18- va 19-topshiriq

Matndagi grammatik material.
Dativ kelishigini talab qiluvchi fe'llar haqida gapiriladi.

20-topshiriq

Grammatika-tarjima va audiolingval metodlar qiyosi:

Xususiyatlar	GTM	ALM
Grammatika sarlavhada	X	X (qisman)
Misol sarlavhada	-	X (qisman)
Qoida	X	-
Tasviriy ishoralar	-	X
Misol jumlar	-	X
Ona tili	X	-
Birtillilik	-	X
Grammatikaga oid alohida materiallar	X	-
Grammatikasi mo'l bo'lgan materiallar	X	-
Grammatik materiallar uzviyligi	X	-
Istisnolar	X	-

21-topshiriq

Mashqlarning xususiyatlari	To'g'ri	Noto'g'ri
Tartibga solingan yakka jumlar	X (qisman)	-
Har bir jumlada ma'lum grammatik material	X	-
Vaziyatga oid rollarni tayyorlash	X	-
Mashqni erkin tuzish	-	X
Namuna jumlar model sifatida	X (qisman)	-
O'qib tushunishga oid mashqlar	-	X
Darsda mashqlarga tavsiya berish	X	-

22-topshiriq**Til laboratoriyasi**

Yutug'i	Kamchiligi
- Har bir o'quvchiga so'zlash uchun ko'p vaqt imkoniyati mavjudligi;	- Dasturning faqat namuna jumlarini ko'p takrorlash mashqlaridan iborat ekanligi;
- Maxsus tinglash dasturini rivojlantirish imkoniyatlari;	- Erkin gapirishga o'rgatmaslik;
	- Til laboratoriyasidagi

- O'qituvchi yoki magnit tasmasidagi namuna yordamida har bir o'quvchi xatosini alohida to'g'rilash imkoniyati;	mashqlarning ko'pchilik o'quvchilar uchun qiziqarli emasligi; - O'quvchilarning bir-biridan ajralgan holda, o'zlaricha mashq qilishlari.
---	---

23-topshiriq

Grammatika tarjima metodi va audiolingval metodlarni lisoniy asosda qiyoslash:

	GTM	ALM
Tadqiqot ob'ekti:	Yozma nutq	Og'zaki nutq
Chet tilni tasvirlash vositasi:	Lotin tili til tizimi yordamida	Chet til shu tilga xos bo'lgan til xodisalari- ning xususiyatlari asosida tasvirlanadi.
Chet til ta'limi uchun xulosalar:	- Yozma nutqqa kuchli e'tibor berish; - Darsda grammatika- ning yetakchilik roli; - Grammatikaning ona tili vositasida tushuntirilishi.	- Og'zaki nutqqa asosiy e'tibor berish; - O'zlashtirish qiyinchiliklarini aniqlash va grammatik material taqsimotini belgilash maqsadida ona tili va chet tilni qiyoslash.

24-topshiriq

Grammatika-tarjima metodi va audiolingval metodlarni psixologiyasi asosida qiyoslash:

	GTM	ALM
Til o'rganishni tasvirlash:	Aqliy o'zlashtirish jarayoni (til qonuniyatlari va qoidalarini bilib olish; qiyoslash).	Mashqlar yordamida tilga oid odatlarni hosil qilish.
Chet til ta'limi uchun xulosalar:	Grammatika batafsil tasvirlanadi; ona tili va chet til qiyoslanadi.	Grammatika keyingi o'ringa qo'yiladi; tez aytish mashqlariga asosiy e'tibor beriladi.

25-topshiriq**«Dativ kelishigini talab qiluvchi predloglar» mavzuiga oid dars loyihasi:**

Quyidagi predloglar dativ kelishigini talab qiladi: **aus-...** dan; **ausser-...** dan tashqari; **bei-** huzurida; **gegenueber-** qarshisida; **gemeins-** ...ga ko'ra; **mit-** bilan; **nach-** keyin; **seit-** ...dan beri; **von-** haqida; **zu-** ...ga

Kirish matnida yuqoridagi predloglarning imkoni boricha ko'pchiligi qo'llaniladi. Matn dialog shaklida tuziladi.

Tavsiya (taklif):

Klaus va Mira do'st. Soat 8. Mashg'ulot boshlanadi. Ular tushdan so'ng uchrashishga kelishib oladilar.

Klaus: Qachon uchrashamiz?

Mira: Darsdan so'ng , soat 16 da.

Klaus: Qaerda?

Mira: Tramvay to'xtaydigan joyda, Ratxaus qarshisida.

Klaus: Yana kim keladi?

Mira: Men ingliz dugonam bilan kelaman. Uning ismi Carol. Undan tashqari uning dugonasi Susan ham keladi. Nima qilamiz?

Klaus: Mening yangi do'stimnikiga boramiz. Uning ismi Alexander. Viulshtrasedagi suzish xovuzi yonida yashaydi.

Mira: Alexander Mueller? Men uni bir necha yildan beri taniyman.

Grammatikani tasvirlash: Qoidasiz misol jumlarlar

Gegenueber: - qarshisida

U kinoteatr qarshisidagi uyda yashaydi.

U cherkov qarshisidagi uyda yashaydi.

Bei: - yonida

Uning uyi avtobus to'xtash joyi yonida joylashgan.

U novvoyxonada ishlaydi.

26-topshiriq**«iltimos, nemis tilida» darsligi rasmlariga oid matnlar, 33-35 sahifalar****2-qator**

- Tomosha qachon boshlandi? - Soat beshda.	- Unda, u tezda keladi!	-Ha, bunga ishonaman. Tezda chiroq o'chadi!
- Ingeni ham birga olib kelganmisiz?	U soat 6 30 da qo'ng'iroq qildi.	U Berbel kafesida ovqatlanagan.

- Yo'q, u fil'mni kecha tomosha qilgan		
U soat 9 da uyga keldi.	- U uy vazifalarini bajarganmi?	- Ha, bajarildi.
Soat birda u xonasiga kirib ketdi.	U bir soatdan ortiq g'ayrat bilan ishladi.	U insho yozdi.
Yana ko'pgina topshiriqlar berilgan. - Juda yaxshi!	- U hozir keladi! - Assalomu alaykum! - Va alaykum assalom!	- Oyi, bugun nima ovqat bor?
- Qorning ochmi? - Ha, itdek ochman!	- Men tushlikdan beri hech narsa yeganim yo'q!	- Sizlar shokolad yemadilaringmi?
- Yo'q, afsuski bizda yetarli pul yo'q edi!	Biz bir shisha Cola ichdik.	- Haynts, o'tir! Biz ham ochmiz.

27-topshiriq

Audiovizual metod

Afzalliklari:	Kamchiliklari:
<ul style="list-style-type: none"> - Sayyohlar, ishbilarmonlar va shu kabi guruhlar uchun muhim bo'lgan og'zaki nutqqa e'tiborning kuchliligi; - Nutq namunalari kundalik muloqot vaziyatida taqdim etilishi; - Dialoglarni mashq qilish; - Asliy ov'oz manbaalarini almashtirish orqali tinglab tushunishni mashq qilish; - ma'noning rasmlar orqali ochilishi; - birtillilikka amal qilish; 	<ul style="list-style-type: none"> - O'qish va yozishga e'tiborning kamligi; - Og'zaki nutqning rivojlantirilishi; o'quv dasturida grammatikaning boshqa materiallarga qaraganda ustun qo'yilishi munosabati bilan asliy og'zaki nutq emas, balki «programmalashtirilgan» nemis tilining tavsiya etilishi; - Mashqlarning bir tilda bajarilishi; - Ta'limning vizual elementlariga kuchli e'tibor qaratilishi.

28-topshiriq

Kim? Qanday? Nima? So'roqlariga oid tayanch so'zlar:

67-sahifa:

Kirish dialog tarzida:

Suhbat vaziyatini vizuallashtirish (telefon);

68-sahifa:

Rasmlar bilan boshqariladigan dialog mashq;
Chizmalar yordamida ma'noni ochish (vignettlar);

69-sahifa:

Grammatikani tasvirlashdagi vizual belgilar;
Grammatikani suhbat kontekstida taqdim etish;
Grammatik mashqni dialog o'yin sifatida bajarish.

29-topshiriq

Matn «hayotiyimi»?

Bunday matn turini na gazetada, na hikoyalar to'plamida uchratish mumkin. Ularni faqat nemis tili darsligidan topish mumkin. U faqat ma'lum grammatik materialni, ya'ni **dativ kelishigini talab qiladigan predloglarni taqdim qilish uchun** yozilgan.

30-topshiriq

Grammatikani induktiv usul bilan tasvirlash uchun quyidagilar asos bo'lishi mumkin:

1. Grammatik qoidani tushuntirish uchun guruhda bir xil ona tili mavjud bo'lmagan taqdirda;
2. Ta'limning boshlang'ich bosqichida grammatik qoidani nemis tilida tushuntirish uchun o'quvchilarning bilim darajalari yetarli bo'lmasa;
3. Ko'pchilik o'quvchilarning o'qib o'rganish lari «misoldan qoidaga» asosan oson kechishi va ularning misollar yordamida qoidalarni mustahkam o'zlashtirishi;
4. Misollar darsdagi matnlardan olinadi. Ular kontekst bilan uzviy bog'liq. O'quvchilar jumlaning yoki grammatik hodisaning qo'llanishi bilan bog'liq bilgan maqsadni oson aniqlab olishlari mumkin.

31-topshiriq

Mashqlarga oid xususiyatlar:

Mashqlarning bajarilishi:	X	Raqamlar bilan tartibga solingan alohida jumlarlar.
		Birgalikda matn hosil qiladigan mazmunan bog'langan jumlarlar.
Mashq ko'rsatmalari:	(X)	Mashqqa oid ko'rsatmalar faoliyatni tasvirlaydi (biror narsani qo'shish, iynash, bajarish va boshqalar).
	X	Mashqqa oid ko'rsatmalar grammatik o'quv materialini haqida ma'lumot beradi.
Qurilishi:		Mashqlar nutqiy harakatni juda aniq

boshqaradi (o'rinlari bo'sh qoldirilgan matnlar, o'rniga qo'yish va o'zgarish mashqlari).

32- topshiriq

**Griesbach va Schulz (1955) «Nemis tili chet elliklar uchun» darsligida GTM va ALMlarning qaysi elementlari va prinsiplari mavjud?
Qaysilari ikkala metodga xos?
Qaysilari yangi?**

Xususiyatlar	GTM	ALM	ikkala metodga xos	Butunlay yangi
Dars imkoni boricha chet tilda olib boriladi (birtillilik)		X		
Grammatikaga kuchli e'tibor			X	
Kundalik hayot mavzulari va kundalik dialoglarni qo'llash		X		
Grammatikani induktiv yo'l bilan (misoldan qoidaga) tasvirlash				X
Grammatik qoidalarni chet tilda tasvirlash				X
O'quv materialini shakliy belgilariga qarab taqsimlash			X	
O'quvchilarning nutqiy harakatlari bilan bog'liq bo'lgan mashq shakllari			X	
O'quv guruhining xususiyatlari va o'quv vaziyatlarini hisobga olish				X

33-topshiriq**Audiovizual metod elementlari "Deutsch aktiv", Tom 1, 66-sahifa misolida**

- O'quv materialini dialog shaklda tasvirlash (og'zaki nutq ustunligi);
- Kundalik nutq vaziyati;
- Ko'rgazmalilik (nutq vaziyati kontekstini vizuallashtirish);
- Asliy nutqiy namunalarga yaqinlashish;
- Dialoglarni kassetalarga yozib olish.

34-topshiriq**«Istakni ifodalash» mavzuiga oid nutqiy niyat namunalarini bosqichma-bosqich ifodalash****Sodda****Komplex
Murakkab**

1. Men... xohlayman. Darak gap; Akkuzativ kelishigi.
2. Siz... mi? So'roq gap; Akkuzativ kelishigi.
3. Men... qaerdan topaman? So'roq so'zli so'roq gap; Akkuzativ kelishigi.
4. Anavini! Buyruq gap. To'liqsiz gap; Artikl akkuzativda.
5. Marhamat, kostyum! Buyruq (to'liqsiz) Akkuzativ.
6. Marhamat, menga ko'rsating! Buyruq; Akkuzativ; fe'l dativ kelishigida.
7. Kiyib ko'rsam bo'ladimi? So'roq gap; Akkuzativ; modal fe'l.
8. Men jon deb Darak gap; Shart mayli; Modal fe'l.
9. Menga... ko'rsata olasizmi? So'roq gap; Shart mayli; modal fe'l; So'roq gap orqali talabni hushmuomalalik bilan ifodalash.
10. Menga ko'rsata olasizmi? So'roq gap. Shart mayli; Akkuzativ (talabni so'roq gap orqali hushmuomalalik bilan ifodalash); fe'l dativ kelishigi bilan.
11. Salomat bo'lgur, menga... ko'rsata olasizmi? So'roq gap; Shart mayli; fe'l dativ kelishigida; Akkuzativ (Bu shakl o'zining haddan tashqari hushmuomalaligi bilan xujumkor yoki piching tarzida ta'sir qilishi mumkin).

1-7- bosqichlardagi namuna ta'limning boshlang'ich bosqichi va grammatik materialning elementar sohasi uchun.

8-10- bosqich namunalari ta'limning qo'shimcha bosqichi uchun;

11- namuna ta'limning yuqori bosqichi uchun;

9-11- jumla namunalari nutq vaziyati va so'zlovchi roli bilan bog'liq bo'lgan shakliy-lisoniy qiyinchiliklarni vujudga keltiradi.

35-topshiriq

Kundalik turmushga oid mavzular

Misollar:

- Savdo-sotiq (ta'minot);
- O'zni his qilish (Salomatlik/kasallik);
- Tanish kishi haqida suhbat;
- Bo'sh vaqtni tashkil etish;
- Ish haqida suhbat.

...

36-topshiriq

Oila mavzuiga oid so'zlar:

1.12	Familie	
	Familie	- Familie
	Eltern	- Eltern
		- Vater
		- Mutter
	Kinder	- Kind
		Haben Sie Kinder?
		- Baby
		- Sohn
		- Junge
		- Tochter
		- Maedchen
	Geschwister	- Bruder
		- Schwester
		Geschwister(Plur.)
	Grosseltern	- Grosseltern
		- Grossmutter
		- Grossvater
	Verwandte	- Verwandte(r)
		Onkel
		Tante
		Schwieger-
		z.B.: Schwigermutter, Schwigertochter
	Verwandschaft	- verwandt sein (mit)
		- von
		z.B.: der Bruder von meinem Vater
		vgl. Auch SB 1.7 Familienstand

1.12 Oila	
Oila	- oila
Ota-ona	- ota-ona - ota - ona
Bolalar	- bola Farzandlaringiz bormi? - chaqaloq - o'g'il - yigit - qiz
Ini-singil	- aka - singil - aka-singillar
Buvi-bobo	- katta ota-onalar - buvi, bobo - buvi - bobo
Qarindoshlar	- Qarindoshlar - tog'a - xola - qaynota-qaynona
Qarindoshlik	- ...bilan qarindosh bilmoq ... ning ... i; masalan, otamning akasi

Wer? Rol	Wo? Nutq vaziyati	Nima haqda? Mavzu
Misollar: → Xaridor Mehmon O'zga shaxs Mijoz Yo'lovchi Harakat ishtirokchisi Haydovchi Tomoshabin Ma'lumot oluvchi Tomoshabin Suhbatdosh	Misol: → Do'konda Do'stlar uyida Bajxonada Vrach huzurida Samolyotda Avtostradada Tiqilinch Teatrda Ko'chada Stadionda Mehmonda	Misol: Kiyim sotib olish Ota yurt (ona yurt emas) Sovg'alar Gripp Sayohat Baxtsiz hodisa Harakat muammolari Sahnalashtirish Yo'l topib yurish Futbol iyinchisi Oila

37-topshiriq**Dialog misol:****Rollar:** mijoz;**Vaziyat:** vrach huzurida;**Mavzu:** salomatlik**Mijoz:** Assalomu alaykum.**Vrach:** Va alaykum assalom. Qayeringiz og'riyapti?**Mijoz:** Mening tomog'im va boshim qattiq og'riyapti.**Vrach:** Og'zingizni oching-chi!**Mijoz:** Aaa,**Vrach:** Tamog'ingiz shamollabdi. Qachondan beri og'riyapti?**Mijoz:** Kechadan beri.**Vrach:** Qorqinchli joyi yo'q. Men sizga ikkita dori yozib beraman, siz uni dorixonadan olasiz. Har kuni ikki mahal tamog'ingizni chayqaysiz va ikki tabletkadan istemol qilasiz.**Mijoz:** Katta rahmat, hayr.**Vrach:** Hayr.**38-topshiriq****Grammatika, nutqiy niyat, rol, mavzu muvofiqligi:**

Grammatika	Nutqiy niyat	Rol	Mavzu
Modal fe'llar	Ruxsat yoki ta'qiq	Yo'l harakati ishtirokchisi	To'xtash mumkin emasligi
Majxul nisbat	Harakatlarni tasvirlash	Ishchi	Mahsulot ishlab chiqarishni tushuntirish
Perfekt	Ko'rganlari haqida hikoya qilib berish	Tanishuvlar	Ta'til ta'surotlari
Futur I	Do'q-po'pisa qilish	O'qituvchi	Ta'qiq etilgan harakatni takrorlashga beriladigan jazo

39-topshiriq

Vaziyat	Matn turlari: misol
Mehmonxonada	Ariza varaqasi; baholar; yukka elimlanadigan qog'oz.
Restoranda Sayohat idorasida	Taomnoma; hisob-kitob; kunlik menyu. Sayohat rejaları; reklama; plakat; geografik xarita; yo'l chiptasi.
Pochtada	Qo'ng'iroq qilish tartibi; telegramma varaqasi; to'lanadigan pul.
Bojxonada	Olib o'tishga ruxsat etilgan mahsulotlar; ko'rsatmalar.
Supermarketda	Bo'limlar nomi; maxsus taklif; maxsus takliflar haqida karnay orqali e'lonlar.
Muzeyda	Ko'rsatuvchi belgilar; muzey haqida kitobcha; kirish chiptasi.
Kinoda	Plakatlar; e'lonlar; eshitish va ko'rish uchun reklamalar.
Vokzalda	Qatnov jadvali; temir yo'l bog'lanishlari; ko'rsatuvchi belgilar.

Yuqoridagi mavzularga oid asliy matnlarni qo'llash borasidagi tavsiyalarni C. Edelhaftning (1985) „Chet til darsi uchun asliy matnlar“ kitobidan olish mumkin

40-topshiriq

- Bu taom retsepti.
- Bu gazeta habari.

41-topshiriq

Mant turi va nutqiy mo'ljal.

Misol

Restoranda	Taomnomani o'qish – ovqatni tavsiya qilish- tanlash-ovqat buyurish
Vokzalda	Chipta sotib olish; sayohatlar va narxlar haqida ma'lumotlar olish; sayohat haqida og'zaki yoki yozma ma'lumot berish

Kinoda	Gazetadan kinofilmlar haqidagi ma'lumotlarni ko'rib chiqish; film tanlash; kelishish; film haqida so'zlab berish (filmni mazmunini yoki suratga olinishi haqida fikr bildirish)
--------	---

42-topshiriq

Audiolingval va audiovizual metodlar va kommunikativ didaktika qiyosi.

Kommunikativ didaktika	Audiolingval va audiovizual metodlar
Ochiq va moslashuvchan dars konsepsiyasi	Alohida bosqichlar va ta'limiy odimlar belgilab qo'yilgan (programmashtirilgan) ta'lim
Mavzu va mazmun muhim	Mavzu va mazmun grammatika taqdimotiga asoslanadi
Darsdagi asosiy ish shakli suhbatlashish va guruh bo'lib ishlash	O'quvchi va texnik vositalar tomonidan boshqariladigan dars
O'quvchilarni faollashtirish va tildan ijodiy va erkin foydalanishga e'tibor katta	Tildan erkin foydalanishga e'tibor kam
"Tushunishdan fikrni izhor qilishga" prinsipi asosida mashqqa kuchli e'tibor berish	Mashqlar qat'iy boshqariladi (maqsad: namuna jummalarni takrorlash, asosan tez aytish mashqlari)
Ma'noni ochishda, harakat ko'lamini belgilashda va mashqni tashkil qilishda vizualizatsiya (ko'rish tayanchi) muhim rol o'ynaydi.	Kommunikativ konsepsiyaga yaqin.
Kundalik nitqiy muloqotni hayotiy vaziyatda o'rganish (dialogni mashq qilish)	Kommunikativ konsepsiyaga yaqin, biroq dialog tizishda grammatik material ustun turadi.
Tildan og'zaki foydalanish va shu bilan birga asliy matnlarni tushunish muhim hisoblanadi.	Yozma nutqqa qaraganga og'zaki nutqqa kuchliroq e'tibor beriladi.

43-topshiriq**Tailandda nemis tilini qo'llash imkoniyatlari.**

Rollar	Mamlakatdagi xizmat ko'rsatish sohasi (turizm); mehmonlarga ma'lumot berish; savdo-sotiq; iqtisodiyot; madaniyat (Nemis-Tailand jamiyati) sohasida va nemis tili mashg'uloti
Nutq vaziyatlari	Turizm sohasiga oid vaziyat va cheklangan tarzda kasbiy sohadagi vaziyat
Matn turlari	Shaxsiy va ish yuzasidan yozilgan maktublar; gazeta va jurnallar; badiiy matnlar.

44-topshiriq*Mamlakatingizdagi nemis tili ta'limiga oid vaziyat:*

Bu topshiriqni o'rtog'qlaringiz bilan birgalikda bajaring.

45-topshiriq

O'quvchlar uchun Evropa va nemis tilida gaplashadigan mamlakatlar haqida ma'lumot manbalari:

- Televidenie;
- dars (til, geografiya, tarix va boshqalar);
- ota-onalar, tanishlar orqali ma'lumot olish;
- ...

46-topshiriq

O'quvchilarni qiziqtiradigan mavzular:

- nemis o'quvchilarining bo'sh vaqt mashg'ulotlari (sport, musiqa, hobbi, sayohat va boshqalar);
- maktab va dars mashg'ulotlari,
- ...

47-topshiriq

Barcha insonlarga xos bo'lgan hayotiy tajribalar.

Misol

- Har bir kishi yeyishi va ichishi kerak.
- Har bir kishi uchuin turar joy kerak.
- Har bir kishi oilada yashaydi.
- Har bir kishini do'sti bor.
- Har bir kishi uchun o'lim haq.
- Har bir kishi bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi mumkin.
- ...

48-topshiriq

Nemis o'quvchilarining bo'sh vaqtdagi faoliyatlari, darslikdagi misolga munosabat:

Musiqa tinglash, ot minish, gitara chalish, futbol o'ynash, o'qish, pochta markalarini to'plash, radio tinglash, rasm solish, suratga olish.

Mamlakatingiz o'quvchilarining bo'sh vaqt mashg'ulotlari haqida o'rtoqlaringiz bilan munozara qiling.

49-topshiriq

Maktab mavzui:

Qiziqarli bo'lishi mumkin.

Masalan:

- Fanlarni afzal ko'rish;
- Fanlarning tutgan o'rni;
- Dars va kunlik mashg'ulot hajmi;
- Maktab formasi;
- Ta'til;
- Maktab darsdan tashqari yana nima beradi;
- ...

50-topshiriq

Progmatik-funksional va madaniyatlararo ta'lim konsepsiyasi

Misol:

Progmatik-funksional	Madaniyatlararo ta'lim
Tildan amalda foydalanishga kuchli e'tibor beriladi, chet tildagi bilimlarning qimmati shaxsiy va kasbiy faoliyatda ifodalanadi.	Chet tilni o'rganish o'zga dunyo bilan tanishish (pedagogik ustuvorlik) deb hisoblanadi.
Nutqiy malakalarni rivojlantirishga kuchli e'tibor qaratiladi (muomila ko'nikmalariga, ayniqsa, so'zlashga katta e'tibor beriladi); malakalarning barcha turlari, mavzu, matnlar amaldagi ehtiyojga qarab e'tiborga olinadi.	Mazmun va mavzular muhim hisoblanadi.
	Ta'limning asosini "idrok va tushunish" tashkil qiladi (O'zga dunyo bilan muloqot deganda matnlarni tushunish va ularning mazmuni haqida suhbatlasha olish tushuniladi).
	Asosiy prinsip qiyoslash hisoblanadi (Til tizimini va qo'llanilishini qiyoslash; madaniy an'analarni qiyoslash; qadriyatlarni, hulaq, yurish-turish, hususiyatlarni qiyoslash).

51 va 52-topshiriq**Mamlakatingizdagi nemis tili ta'limini rivojlantirish.**

Nemis tili konsepsiyasi uchun loyiha:

Ushbu topshiriqni o'rtog'rlaringiz bilan birgalikda bajaring.

12 Adabiyotlar

- ACHTENHAGEN, Frank (1969, 1973): *Didaktik des fremdsprachlichen Unterrichts*. Weinheim, Basel: Beltz .
- ALLGEMEINER DEUTSCHER NEUPHILOLOGENVERBAND (1951): *Mitteilungsblatt*. Berlin, Bielefeld, Hannover, 1 - 3.
- AUSTIN, John L. (1962): *How to do things with words*. Oxford: Clarendon Press / Deutsche Übersetzung: *Zur Theorie der Sprechakte*. Stuttgart: Reclam. 1972.
- AUSUBEL, David P. (1974): *Psychologie des Unterrichts*. 2 Bände, Weinheim, Basel: Beltz.
- BAUSCH, Karl-Richard; CHRIST, Herbert; HÜLLEN, Werner; KRUMM, Hans-J. (Hrsg.) (1989): *Handbuch Fremdsprachenunterricht*. Tübingen: Francke.
- BENDER, Jutta (1979): *Zum gegenwärtigen Stand der Diskussion um Sprachwissenschaft und Sprachunterricht*. Frankfurt/Main: Diesterweg.
- BERLITZ, Maximilian D. (1887): *Methode Berlitz*. New York: Berlitz school.
- BERNSTEIN, Wolf Z. (1986): "Disambiguierung, Differenzierung und Verstehens - grammatik im Leseunterricht DaF". In: *Fragezeichen*, H. 2, 3 - 11.
- BLEYHL, Werner (1982): "Variationen über das Thema: Fremdsprachenmethoden". In: *Praxis des neusprachlichen Unterrichts*, H. 1, 3 - 14.
- BLOOMFIELD, Leonard (1914): *Introduction to the Study of Language*. New York: Holt & Co.
- BLOOMFIELD, Leonard (1933): *Language*. New York: Holt & Co.
- BOHLEN, Adolf (1952): *Methodik des Neusprachlichen Unterrichts*. Heidelberg: Quelle & Meyer.
- BOLTE, Henning; HERRLITZ, Wolfgang (Hrsg.,) (1983): *Lernen im Fremdsprachenunterricht. Berichte aus alternativen Lernkonzeptionen*. Utrecht: Universitätsverlag.
- DESSELMANN, Günther; HELLMICH, Harald (1986): *Didaktik des Fremdsprachenunterrichts. (Deutsch als Fremdsprache)*. Leipzig: Enzyklopädie.
- DIETRICH, Ingrid (1989): "Alternative Methoden". In: BAUSCH u. a. (Hrsg.): *Handbuch Fremdsprachenunterricht*. Tübingen: Francke, 159 - 165.
- EDELHOFF, Christoph (Hrsg.) (1985): *Authentische Texte im Deutschunterricht*. München: Hueber.
- EHLERS, Swantje (1992): *Lesen als Verstehen. Zum Verstehen*

fremdsprachlicher literarischer Texte und zu ihrer Didaktik.
München: Langenscheidt.

- EPPERT, Franz (1973): *Lexikon des Fremdsprachenunterrichts.* Bochum: Kamp.
- FABRICIUS-HANSEN, Catherine; HERINGER, Hans Jürgen (1988): "Die Idee einer rezeptiven Grammatik und ihre Realisierung". In: *Info-DaF*, H. 2, 164-175.
- FIRGES, Jean (1975): "Die CREDIF-Methodik-Versuch einer kritischen Bestandsaufnahme". In: *Die Neueren Sprachen*, H. 3, 224 - 237.
- FREUDENSTEIN, Reinhold (1970): "Aufgaben und Möglichkeiten der Unterrichtsmethodik, dargestellt am Beispiel des Fremdsprachenunterrichts". In: *Funkkolleg Erziehungswissenschaften*. Bd. 2, Weinheim: Beltz, 167 - 187.
- GALPERIN, P. J. (1974): "Die geistige Handlung als Grundlage für die Bildung von Gedanken und Vorstellungen". In: P. J. GALPERIN; A. A. LEONT'EV (Hrsg.): *Probleme der Lerntheorie*. Berlin: Volk und Wissen, 33 - 49.
- GERIGHAUSEN, Josef; SEEL, P. C. (Hrsg.) (1983): *Interkulturelle Kommunikation und Fremdverstehen*. München: Goethe-Institut.
- GLAUNING, Friedrich (1910): "Didaktik und Methodik des englischen Unterrichts". In: Werner Hüllen (Hrsg.) (1979): *Didaktik des Englischunterrichts*. Darmstadt: Wissenschaftliche Buchgesellschaft, 61 - 72.
- GNUTZMANN, Claus; STARK, Detlef (Hrsg.) (1982): *Grammatikunterricht*. Tübingen: Narr.
- GOTZE, Lutz (1981): *Pilotstudie zum Projekt "Regionale Erforschung von Lehr und Lernschwierigkeiten"*. München: Goethe-Institut, unveröff. Manuskript.
- HABERMAS, Jürgen (1971): "Vorbereitende Bemerkungen zu einer Theorie der kommunikativen Kompetenz". In: J. HABERMAS; Niklas LUHMANN: *Theorie der Gesellschaft oder Sozialtechnologie*. Frankfurt/Main: Suhrkamp, 101-141.
- HALLIDAY, Michael A. (1973): "Relevant models of language". In: ders.: *Explorations in the Function of Language*. London: Arnold, 11-17.
- HERINGER, Hans Jürgen (1987): *Wege zum verstehenden Lesen*. München: Hueber.
- HEUER, Helmut (1979): *Grundwissen der englischen Fachdidaktik*. Heidelberg: Quelle & Meyer.
- HÜLLEN, Werner (Hrsg.) (1979): *Didaktik des Englischunterrichts*. Darmstadt: Wissenschaftliche Buchgesellschaft.

- KAHL, Peter (1962): *Muttersprache und Fremdsprache im Englischunterricht der Volks- und Mittelschulen*. Weinheim: Beltz.
- KARCHER, Günther L. (1985): "Aspekte der Fremdsprachenlegetik". In: *Jahrbuch Deutsch als Fremdsprache*, Bd. 11, 14 - 35.
- KAST, Bernd (1985): *Jugendliteratur im kommunikativen Deutschunterricht*. München: Langenscheidt.
- KELLY, Louis G. (1976): *25 Centuries of Language Teaching*. Rowley, Mass.
- KOHLBERG, Lawrence (1963): "The development of children's orientation towards a moral order. I. Sequences in the development of moral thought". In: *Vita Humana* 6, 11 - 33.
- KRAMPIKOWSKI, Frank (1989): "Das Konzept, Regionale Lehrwerke' am Beispiel Deutsch als Fremdsprache in Thailand". In: *Lernen in Deutschland*, H.1, 17-36.
- KRAPPMANN, Lothar (1971): *Soziologische Dimensionen der Identität*. Stuttgart: Klett.
- KRUMM, Hans-Jürgen (1981): "Methodenlehre: Handlungsanweisungen für den Fremdsprachenlehrer". In: Franz-Josef ZAPP; Albert RAASCH; Werner HÜLLEN (Hrsg.): *Kommunikation in Europa*. Frankfurt/Main: Diesterweg, 217 -224.
- KRUSCHE, Dietrich (1983): "Anerkennung der Fremde - Thesen zur Konzeption regionaler Unterrichtswerke". In: *Jahrbuch Deutsch als Fremdsprache*, Band 9, 248 - 258.
- LADO, Robert (1964): *Language Teaching*. New York: Mc Graw-Hill.
- LADO, Robert (1973): *Moderner Fremdsprachenunterricht*. München: Hueber.
- LEONT'EV, Aleksej. A. (1974): *Psycholinguistik und Sprachunterricht*. Stuttgart: Kohlhammer.
- LITTLEWOOD, William T. (1975): "Role Performance and Language Teaching". In: *International Review of Applied Linguistics*. H. 3, 199 - 208.
- MACKEY, William F. (1965): *Language Teaching Analysis*. London: Longman.
- MORRIS, John F. (1966): *The Art of Teaching English as a Living Language*. London.
- MUMMERT, Ingrid (1989): *Nachwuchspoeten*. München: Klett.
- MURDOCK, George P. (1945): "The Common Denominator of Cultures". In: Ralph LINTON (ed.): *The Science of Man in the World Crisis*. New York: Columbia University Press.
- MÜLLER, Bernd-D. (Hrsg.) (1989): *Anders lernen im Fremdsprache-nunterricht*. München: Langenscheidt.
- NEUNER, Gerhard (1981): *„Übungen und Übungssequenzen im*

- Kommunikativen Deutschunterricht*". In: *Zielsprache Deutsch*, H. 71, 2 - 22.
- NEUNER, Gerhard (1984): „Überlegungen zur Didaktik und Methodik des Textverständnisses im Unterricht Deutsch als Fremdsprache." In: *Zielsprache Deutsch*, H. 1, 6 - 27.
- NEUNER, Gerhard (1987): "Fünfzehn Jahre Diskussion um die kommunikative Fremdsprachendidaktik - Rückblick und Ausblick". In: *Neusprachliche Mitteilungen*, H. 2, 72 - 80.
- NEUNER, Gerhard (1989): "Methodik und Methoden: Überblick". In: BAUSCH u.a. (Hrsg.): *Handbuch Fremdsprachenunterricht*. Tübingen: Francke, 145-153.
- NEUNER, Gerhard; KRÜGER, Michael; GREWER, Ulrich (1981): *Übungstypologie zum kommunikativen Deutschunterricht*. München: Langenscheidt.
- RAITH, Joachim (1967): *Der Englischunterricht, Teil 1: Grundfragen*. München: Manz.
- REAL, Willi (1984): *Methodische Konzeptionen von Englischunterricht*. Paderborn: Schöningh.
- REAL, Willi (1985): "Methodenpluralismus in der englischen Fachdidaktik. Offene Fragen trotz vieler Antworten." In: *Neusprachliche Mitteilungen*, H. 2, 79-87.
- RUDOLPH, Wolfgang; TSCHOHL, Peter (Hrsg.) (1977): *Systematische Anthropologie*. München: Fink.
- SAENG-ARAMRUANG, Wanna (1987): "Entwicklung eines Lehrwerks für das germanistische Grundstudium an thailändischen Hochschulen". In: Swantje EHLERS; Günther KARCHER (Hrsg.): *Regionale Aspekte des Grundstudiums Germanistik*. München: Iudicium.
- SCHUBEL, Friedrich (1958): *Methodik des Englischunterrichts für Höhere Schulen*. Frankfurt/Main: Diesterweg.
- SCHWERDTFEGER, Inge Ch. (1983): "Alternative Methoden der Fremdsprachenvermittlung für Erwachsene - Eine Herausforderung für die Schule?". In: *Neusprachliche Mitteilungen*, H. 1, 3 - 14.
- SEARLE, John R. (1969): *Speech Acts*. Cambridge: University Press.
- SKINNER, Burrhus F. (1957): *Verbal Behaviour*. New York: Appleton-Century-Croft.
- STERN, Hans H. (1984): *Fundamental Concepts of Language Teaching*. Oxford: University Press.
- STRACK, Wolfgang (1973): *Fremdsprachen - audio-visuell*. Bochum: Kamp.
- TANGER, Gustav (1888): "Muß der Sprachunterricht umkehren? Ein Beitrag zur neusprachlichen Reformbewegung im

- Zusammenhang mit der Überbürdungsfrage*". In: Werner HÜLLEN (Hrsg.) (1979): *Didaktik des Englischunterrichts*. Darmstadt: Wissenschaftliche Buchgesellschaft, 32 -60.
- VIELAU, Axel (1976): "Audiolinguales oder bewußtes Lernen?". In: J.KRAMER (Hrsg.) (1979): *Bestandsaufnahme Fremdsprachenunterricht*. Stuttgart: Metzler, 180 - 201.
- VIETOR, Wilhelm (1882/1886): "Der Sprachunterricht muß umkehren! Ein Beitrag zur Überbürdungsfrage." In: Werner HÜLLEN (Hrsg.) (1979): *Didaktik des Englischunterrichts*. Darmstadt: Wissenschaftliche Buchgesellschaft, 9 - 31.
- WALTER, Gertrud (1983): *Kompendium Didaktik Englisch*. München: Ehrenwirth.
- WERLICH, Egon (1986): *Praktische Methodik des Fremdsprachenunterrichts mit authentischen Texten*. Berlin: Cornelsen.
- WESTHOFF, Gerard (1987): *Didaktik des Leseverstehens: Strategien des voraussagenden Lesens mit Übungsprogrammen*. München: Hueber.
- WIDDOWSON, Henry (1972): "The teaching of English as Communication". In: *English Language Teaching*, H. 1, 15 - 19.
- WILKINS, David A. (1972): *Linguistics in Language Teaching*. London: Arnold.
- ZIMMER, Hubert. O. (1988): "Gedächtnispsychologische Aspekte des Lernens und Verarbeitens von Fremdsprache." In: *Info-DaF*, H. 2, 149 - 163.

13. Mualliflar haqida ma'lumot



Gerhard Neuner – Kassel umumoliy o'quv yurtlari universiteti professori. Nemis tilini chet til sifatida o'rganish va o'rgatish sohasida faoliyat ko'rsatadi. Uning ilmiy izlanishlari sohasi: O'quv materiallarini ishlash va tahlil qilish; O'quv rejalarini tayyorlash va rivojlantirish; Kommunikativ metod asoslarini nazariy asoslash; Ko'nikmalarni shakllantirish va malakalarni rivojlantirish Didaktikasi va Metodikasi masalalari.

Chop etilgan kitoblari: Germaniyada nemis tili-yangi (1975) hammuallif; Deutsch aktiv (1979); Deutsch konkret (1983); Deutsch aktiv .neu (1987); Neuer Start (1991-1992);

Nemis tilini aloqa vositasi sifatida o'rgatish mashqlari tipologiyasi (1981); Chet til ta'limiga oid darsliklar tahliliga doir (1980); Ingliz tili darsining pragmatik didaktikasi (1977); Ilmiy kitoblar seriyasi noshiri, Nemis tili chet til sifatida jurnali noshiri.

Hans Hunfeld – Ayxhtet universiteti ingliz tili va adabiyoti ta'limi bo'yicha professor. U barcha maktab turlari uchun ingliz tili o'qituvchilari tayorlash sohasida faoliyat ko'rsatadi.

Uning ilmiy sohasi: Chet tillarni o'rgatish jarayonida adabiyot ta'limi.

E'lon qilgan asarlari : Chet til ta'limining yangi istiqbollari (1977); 5-10 sinflarda ingliz tili ta'limi: Adabiyot (1982); Amerika nemis tilisi haqida hikoyalar (1984); To'g'ri so'zlar (1989); Adabiyot til nazariyasi sifatida (1990).

Tarjimon: Saidumar Saidaliyev. Namangan Davlat universiteti dotsenti.

Chet til o'qitish metodikasi va tilshunoslik masalalariga oid 100 dan ortiq nomdagi maqola, risola va qo'llanmalar e'lon qilgan. Masalan, "Nemischa-ruscha-o'zbekcha metodik atamalar lug'ati" (1986) hammuallif; Chet til o'qitish metodikasidan ma'ruzalar (1991); O'rta maktablarda nemis tili o'qitish metodikasidan ma'ruzalar (1995); Tilshunoslikka kirish (1998); Nemischa o'qish kitobi (1999); "Psixolingvistika" hammuallif (2001); Sodda fonetika (2002); Chet til darsi haqida saboqlar (2003); Chet til o'qitish metodikasidan ocherklar (2004) va boshqalar.

DIFF-GhK-GI

14 Sirtqi ta'lim uchun qo'llanmalar loyihasi

Ushbu qo'llanmani o'rganib chiqqandan so'ng ehtimol, sizda o'z bilimlaringizni boshqa sohalarda ham chuqurlashtirish, ko'proq bilish, muayyan darsni rejalashtirish, mutoala qilish malakalarini rivojlantirish, adabiyot va manbalar haqida ko'proq bilish istagi tug'ilib qolishi mumkin. Sizga ushbu kitobda boshqa qo'llanmalarni ham o'rganish bo'yicha tavsiyalar berildi, shuning uchun ularga ham qiziqish paydo bo'lishi mumkin.

Sizda yana qanday qo'llanmalarining mavjudligi, ularni qaerdan olish va ulardan qanday foydalanish imkoniyatlari haqida bilish istagi tug'ilgan bo'lsa ajab emas.

Bu masalalar bo'yicha bir qator ma'lumot berishga qaror qilindi: Ushbu qo'llanma Tyubingen universiteti qoshidagi nemis sirtqi ta'lim instituti (DIFF), Kassel umumoliy o'quv yurti (GhK) va Myunxen Gyote-institutining (GI) nemis tili chet til sifatida va germanistika sohasidagi sirtqi ta'lim loyihalari asosida tayyorlandi. Bu loyihada malaka oshirishga doir ilmiy-pedagogik materiallar qiyidagi mavzular biyicha ishlab chiqiladi:

Loyiha

Nemis tili chet til sifatida



Nemis tilini chet til sifatida nazariy va amaliy o'rgatish sirtqi malaka oshirish kursi (Germaniyada: oliy o'quv yurti sertifikatini bilan):

Ta'lim «Germanistika va nemis tili chet til sifatida» sohalariga oid 8 ta qo'llanmani ishlab chiqishdan iborat.

Kassel umumoliy o'quv yurti, Myunxen Gyote-instituti va Tyubingen universiteti qoshidagi nemis sirtqi ta'lim instituti tomonidan tayyorlangan quyidagi 4 ta qo'llanma ta'limning majburiy tarkibiy qismi hisoblanadi:

I Majburiy sohalar:

1. Ona tili va chet til o'rganish asoslari.
2. Nemis tilini chet til sifatida o'rgatish metodlariga kirish.
3. Nemis tilini chet til sifatida o'rganish ga oid amaliy tilshunoslik.
4. Bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish.

Tinglovchi mustaqil ishlab chiqish uchun quyidagi sohalaridan to'rttasini tanlab oladi. Tanlagan sohalaridagi qo'llanmalardan bittadani tanlanadi.

II Tanlov sohalarini:

1. Til sistemalarini:

- Grammatikani o'rgatish va o'rganish .
- So'z ustida ishlash va ma'noni ochish.
- So'z ustida ishlash muommolari.
- Fonetikani o'rgatish va o'rganish .

2. Nutqiy malakalarini:

- Tinglash malakalarini.
- Gapirish malakalarini.
- O'qish malakalarini.
- Yozish malakalarini.

3. Darsni rejalashtirish va o'tkazishini:

- Dars kuzatish va o'qituvchi hulqi.
- Darsni rejalashtirish. Darsliklar bilan ishlash.
- Ta'limning boshlang'ich bosqichida sinov va imtihon o'tkazish.
- Darslik tahlili.
- Xato va xato tuzatish.

4. Nemis tili darsida ta'lim vositalari:

- Nemis tili darslarida vizual vositalar.
- Nemis tili darsida video.
- Nemis tili darsida komp'yuter.

5. Mamlakatshunoslik va uni o'rgatish:

- Mamlakatshunoslik didaktikasi.
- Kundalik muomala qonuniyatlari.
- Aloqa bog'lash.
- Mamlakatshunoslik va adabiyot o'qitish.
- Mamlakatshunoslikda rasmlar.

6. Darsdagi muloqot va sotsial shakl:

- Guruh bo'lib ishlash va ichki differentsiatsiya.
- Ta'limning butunligini ta'minlovchi va o'quvchilar faolligini oshiruvchi usullar.
- Mustaqil ta'lim va ta'lim strategiyalari.

7. Matn ustida ishlashga qaratilgan ta'lim amaliyoti:

- O'qib tushunish.
- Rasmiy va gazeta matnlari bilan ishlash.
- Badiiy matnlar bilan ishlash.
- Kasbga yo'naltirilgan nemis tili darsi.

8. Darsning ayrim masalalari:

- Nemis tili darslarida o'yinlar.
- Nemis tili darslarida qo'shiq va musiqa.
- Ta'lim psixologiyasi: yoshlarni o'qitish- katta yoshdagi kishilarni o'qitish.
- Nemis tili ta'limining boshlang'ich bosqichi.
- Nemis tili ta'limining o'rta bosqichi.

**Konsepsiya
maqsadi**

**Qo'llanmalar nima maqsadda tadbiq
qilinadi?**

Ushbu qo'llanmadan nemis tili o'qituvchisi, oliy o'quv yurti dotsenti, malaka oshirish kursi tinglovchisi, talaba o'z manfaatlaridan kelib chiqib:

- shaxsiy bilimlarini oshirish;

- darsni rejalashtirish va o'tkazish;
- Germaniyada o'qish uchun tayyorgarlik ko'rish;
- nemis tilini chet til sifatida o'rganib malaka oshirish, masalan, oliy o'quv yurti sertifikatini olish niyatida foydalanishi mumkin.

Kassel umumoliy o'quv yurti va Gyote-instituti Germaniyada **«Nemis tilini chet til sifatida nazariy va amaliy o'rgatish»** kurslariga taklif qiladilar. Bu kursda 8 ta qo'llanma ishlab chiqiladi va Kassel umumoliy o'quv yurti sertifikati topshiriladi.

Kassel umumoliy o'quv yurti va Gyote-instituti chet eldagi hamkor institut bilan birgalikda sirtqi ta'limga taklif qiladi. Bu kurs uch hamkor o'quv yurtlarini sertifikati bilan yakunlanadi.

Ish shakli

Qo'llanmalar qanday tadbliq qilinishi mumkin?

Mustaqil ta'lim jarayonida qo'llanmani ishlab chiqishingiz, topshiriqlarni bajarishingiz va javoblar bilan qiyoslashingiz mumkin. Ko'pchilik mamlakatlarda malaka oshirish kurslari tashkil qilinadi va ularda bu qo'llanmalar to'la yoki qisman ishlab chiqiladi.

Bu haqda mamlakatingizdagi Gyote-institutidan ma'lumot olishingiz va qo'llanmani olish uchun buyurtma berishingiz mumkin. Qo'llanmalarda berilgan materiallardan o'z tadbiringizda foydalanishga tavsiya beriladi.

Qo'shimcha ma'lumotlarni quyidagi adreslardan olishingiz mumkin:

**Deutsches
Institut fuer
Fernstudien an
der Universitaet
Tuebingen
Postfach 1569
72005
Tuebingen**

**Universitaet
Gesamthochschu
le Kassel FB 9
(Pr.Dr.Gerhard
Neuntr) Georg-
Forster-Str. 3
34109 Kassel**

**Goethe Institut
Muenchen
Referat 42
Helene-
Weber-Allee 1
80637
Muenchen**

Yakuniy soʻz

- «Chet til oʻqitish metodlari» haqida nazariy va amaliy maʼlumot beruvchi kitobni bunyodga keltirgan professorlar **Gerhard Neuner** va **Hans Xunfeld**larga tashakkurlar boʻlsin. Ushbu kitobni oʻzbek tiliga tarjima qilishga rozilik berganlari uchun ularga minnatdorchilik bildiraman.
- Kitob tarjimasining oʻzbek tilida chop etilishiga homiylik qilgan **Monika Asche** xonimga chin dildan rahmat aytaman.
- Tarjima matnini sinchiklab oʻqib chiqqan NamDU dotsentlari **Oʻktamali Nurmatov**, **Farid Gʻabdulxakov**, **Narzulla Ulugʻxoʻjayev**larga samimiy minnatdorchiligimni bildiraman.
- Oʻzbekcha matnga ijobiy taqriz yozib, iliq soʻzlarni aytgan professor **Muxtorxoʻja Umarxoʻjayev**ga, dotsentlar **Qambarali Nazarov**ga va **Turobiddin Nurmatov**ga oʻz tashakkurimni aytaman.
- Matn tahririda faol ishtirok etgan yosh tadqiqotchi **Habibullo Meliev**ga minnatdorchilik bildiraman.
- Matnni qogʻozga tushirishda katta xizmat qilgan **Gulbahor Qayumova** va **Muazzam Hotamova**larga rahmat aytaman.
- Kitobning dunyo yuzini koʻrishida mashaqqatli mehnatlarini ayamagan **Shukurhon xoji Toshxojayev** boshchiligidagi «Chust bosmaxonasi» MCHJ xodimlariga samimiy dil soʻzlarimni aytaman.

Ushbu kitobni mutoala qilib, oʻz tanqidiy fikr-mulohazalarini bildirgan kitobxonlarga samimiy tilaklar bilan

Tarjimon: Saidumar Saidaliyev

Gerhard Neuner, Hans Hunfeld

CHET TIL O'QITISH METODLARI

Boshlang'ich kurs

(O'quv qo'llanma)

Tarjimon:

Saidumar SAIDALIYEV

Mas'ul muharrirlar:

Farid GABDULXAKOV,
O'ktamali NURMATOV.

Texnik muharrir:

G'. MULLABOYEV.

Musahih:

S. XOJAYEV.

Komputerda sahifalovchi:

D. DAVLATQULOV.

Terishga 25.10.2005 yil berildi. Bosishga 5.12.2005 yil ruxsat etildi. Ofset qog'oziga, ofset usulida bosildi. Bichimi 60x84. 1/16. Hajmi 15 bosma taboq. Adadi 300 nusxa. Buyurtma № 805. Bahosi kelishilgan narxda.

"Namangan" nashriyoti. 716002, Namangan shahri, Navoiy ko'chasi, Matbuot uyi, 3-qavat.
"Chust bosmaxonasi" MCHJda chop etildi. 717200, Chust shaxri, So'fizoda 8-uy.

